

B.MENGLIYEV, G.TOJIYEVA

TILSHUNOSLIKKA KIRISH

5A220100 – O`zbek filologiyasi bakalavri yo`nalishi uchun
ma`ruza matni



Qarshi-2007

Tarix va o'zbek filologiyasi fakulteti Ilmiy kengashi tomonidan ma'qullangan

Fakultet dekani **dots. B.Saidov**

 08.07. № bayonnoma

O'zbek tilshunosligi kafedrası yig'ilishida muhokama qilinib, qo'llashga tavsiya etilgan

Kafedra mudiri **prof.B.Mengliev**

 08.07. № bayonnoma

Taqrizchi

filologiya fanlari nomzodi, professor

T.Nafasov

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI
QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**

B.MENGLIYEV, G.TOJIYEVA

TILSHUNOSLIKKA KIRISH

5A220100 – o`zbek filologiyasi bakalavri uchun
ma'ruza matni

Qarshi-2006

Milliy istiqlol o'zbek xalqiga nafaqat siyosiy va iqtisodiy mustaqillik bag'ishladi, balki milliy o'zligini anglash va, eng muhimi, uni jahonga yoyib, 1X-XIY asrlardagi shuhrati-yu an'anasini sharaf bilan davom ettirish imkoniyatini ham berdi. "Bozor iqtisodiyotiga o'tishning o'zbek modeli", "Kadrlar tayyorlashning o'zbek modeli" kabi jahonda shuhrat qozonayotgan ijtimoiy-ma'naviy yutuqlar bilan bir qatorda o'zbek olimlarining mustaqil ilmiy yutuqlari ham ilg'or davlatlar ziyolilarining diqqatini jalb etmoqda.

SSSR tarkibida bo'lgan turli millat vakillarini ma'naviy-mafkuraviy ruslashtirish va manqurtlashtirishning muhim omillaridan biri bo'lib kelgan "Ta'lim baynalmilaldir", "Grammatika baynalmilaldir" shiorlarining ta'lim tizimida hukmronligiga O'zbekiston Respublikasi mustaqillikning ilk qadamlaridayoq - 1992-yilda qabul qilingan ta'lim to'g'risidagi Qonuni bilan chek qo'yilgan bo'lsa-da, milliy ta'lim mazmunining amaliy tatbiqi ularni ijtimoiy bekor qilinishdan ko'ra ancha qiyin va murakkab kechmoqda, chunki mazkur mash'um shiorlar asosidagi ta'lim yarim asrdan ko'proq davr ichida xalqimiz ongini zaharlab, tilining grammatik qurilishi xususiyatlarining haqqoniy-milliy talqini bilan xalq ongiga sepiladigan milliylik urug'larini cheklab keldi, milliy mafkurasini so'ndirmoqchi bo'ldi. Bu aksmilliy harakatning tafakkur va ongimizdagi salbiy ta'sirini yo'qotish uzoq yillik maqsadli va mashaqqatli mehnatni talab qiladi. Tilshunoslik fanlari bu jarayonda alohida ahamiyat va mavqega egadir. Buning sababi shundaki, uzoq yillar davomida milliy til grammatik qurilishining mutlaq milliyligi SSSR xalqlaridan (sobiq ittifoqning siyosiy tuzumiga tamoman zid ta'limot sifatida) sir tutib kelindi. Aksincha, mantiq, aniq fanlar singari grammatika ham nomilliy fan sifatida baynalmilal shaklda tahlil etildi va o'qitildi. Vaholanki, turli tillarning grammatik qurilishidagi o'xshashlik aldamchi, zo'riy, yuzaki hodisa, sarobdir va grammatika mohiyatini chuqur anglamagan kishi tasavvuri uchun xos. Buni (o'z ustozlari so'zlarini uqa olmagan yoki uqishni istamagan) sovet mafkurachilarining metodologik pirlari Fridrix Georg Hegel qariyb ikki yuz yil oldin - 1831-yilda "Mantiq fani" kitobi muqaddimasida shunday so'zlar bilan ifodalagan edi: "Mantiq ham, grammatika ham mohiyatan ikki turli va ikki xil ahamiyatga egadir. Boshlovchilar, fan bilan yuzaki tanishayotganlar uchun u bir narsa bo'lsa, fanlarni o'zlashtirib, fan mohiyatini uqub unga qaytadiganlar uchun mantiq va grammatika tamoman boshqa olam....O'z ona tili bilan bir qatorda boshqa tillarni ham biladigan, ularning grammatik xususiyatlarini o'zaro qiyoslay oladigan kimsagina milliy tilning grammatik qurilishida xalqning ruhiyati va madaniyati aks etayotganligini ocha oladi. Endi unga oldin ham tanish bo'lgan quruq shakl va qoidalar tamoman boshqa qiymat va qadriyat, mukammal mazmun va tugal mohiyat kasb etadi. Bunday kimsagina grammatika orqali ruhiyat - qat'iy mantiqiylik voqelanayotganligini tuya oladi".

Grammatik qurilishning chuqur milliy tabiati va mohiyatini buyuk daholardan birortasi ham shu darajada qat'iylik va keskinlikda ta'kidlashmagan. Afsuski, bu fikrni targ'ib etish rasm emas, zeroki bu talqin kattami kichikmi, hokimmi tobemi - har bir til grammatikasiga xalqidek betakrorlik, teng huquqlik va mustaqillik, milliy iftixor ruhini beradi. Bu esa hammaga ham yoqavermaydi, zo'ravonlik bilan tuzilgan ko'p millatli imperiyalar uchun esa u o'ta xavflidir. Lekin mustaqil taraqqiyot yo'liga o'tgan millatlar uchun bu g'oya milliy ravnaq yo'ldi yulduzlaridan biriga aylanmog'i zarur. Zeroki, ona tili grammatik qurilishini to'g'ri talqin qilish bilan kimsa ongidagi milliy tafakkur tarzi va milliy mafkura urug'larining parvarishiga, ularning gullab yashnashiga erishish mumkin. Buning uchun ona tili grammatik qurilishi talqini sof milliy mohiyatli bo'lmog'i lozim. Bugun milliy istiqlol sharofati bilan Vatanimizda ona tilimizning shunday talqinini yaratishga mustahkam poydevor yaratildi - ona tilimizning milliy tabiatini ochib berishga qaratilgan ilk tizimlar ishlab chiqildi, jiddiy qiyinchiliklar bilan bo'lsa-da, ta'lim tizimiga joriy etilmoqda va ommalashmoqda. Qiyinchiliklarning eng kattasi shu yo'nalishdagi o'quv-metodik adabiyotning yo'qligidir. Zeroki, otaxon tilshunos O.Azizov, A.Abdurazizov, A.Irisqulov, A.Sodiqov, S.Usmonovlarning tilshunoslik nazariyasi o'quv fanidan darslik va ma'ruza matnilarini sovet darsliklari namunalarida - o'zbek tili qurilishining "Grammatika baynalmilaldir" shiori ostidagi talqiniga tayanib yozilgan. Shuning uchun ular hozirgi davr talablariga mutlaqo javob bermaydi - grammatik talqinlar yuqorida sanab o'tilgan va ta'lim tizimida amaliyotda bo'lgan dasturlar bilan uyg'un emas, yangilari hali ommalashmagan.

Qo'lingizdagi bu matn mavjud darslik va ma'ruza matnilaridan yangi - milliy grammatik talqinlarga uyg'unligi bilan ajralib turadi. Ushbu ma'ruza matni nafaqat o'rta va oliy ta'lim tizimida amalda bo'lgan dasturlar bilan uyg'un, balki "Tilshunoslikka kirish" o'quv fani oldida turgan muhim vazifani - kitobxon toliblarni yangicha grammatik talqinlarning asosiy atamaları, tushunchai, tahlil usullari bilan tanishtirishni - ularni yangi tilshunoslik dunyosiga olib kirishni bajarishga, milliy grammatik talqinlar orqali ziyolilar ongidagi milliy tafakkur tarzi va mafkura ko'chatlarini sug'orishga ham xizmat qiladi. Bu kitob shu yo'nalishdagi ilk o'quv ma'ruza matnisi bo'lganligi sababli kamchiliklardan, takomillashtirishni talab etadigan munozarali tomonlardan xoli emas.

Ma'ruza matnini qo'llashga tavsiva etaman.

T.Nafasov

filologiya fanlari nomzodi, professor

Mavzu: “Tilshunoslikka kirish” kursining maqsad va vazifalari

Reja:

1. “Tilshunoslikka kirish” kursining mundarijasi va vazifalari.
2. Til – ijtimoiy hodisa.
3. Til – fikr ifodalashning muhim vositasi.
4. Tilning ijtimoiy vazifalari.
5. Tilning falsafiy masalalari.

Mavzu bo'yicha tayanch tushuncha:

Lingvistika, ijtimoiy hodisa, tilning ijtimoiy tabiati, naturalizm, psixologizm, strukturalizm, tilshunoslik va falsafa, tilning kommunikativ vazifasi, tilning gnoseologik vazifasi, tilning ekspressiv funksiyasi, til qonuniyatlariga dialektik qonuniyatlarning tadbiriq etilishi.

Tilshunoslik til haqidagi qadimiy tarixga ega bo'lgan mustaqil fandir. Manbalarda aytilishicha, jahon tilshunosligining rivojlanishiga qadimgi hind tilshunosligi, yunon tilshunosligi va o'rta asrlarda shakllangan arab lingvistikasi turtki bo'lgan. Qadimgi hind tilshunosligi miloddan avvalgi VI asrdan oldin yaratilgan **veda** deb ataluvchi kitoblarni til nuqtayi nazaridan sharhlash natijasida vujudga keldi. Qadimgi Yunonistonda esa dastlab tilning falsafiy tomoniga, chunonchi, predmetning nomi uning tabiatiga mos kelish kelmasligiga e'tibor qaratish oqibatida yuzaga keldi. Til va uni o'rganishga bo'lgan qiziqish natijasida miloddan avvalgi III-II asrlarda Iskandariya grammatika vakillari tomonidan yunon tilining grammatikasi yozildi. Yunon tilshunosligi asosida lotin tilshunosligi yaratilgan degan fikrlar ham mavjud. Arab tilshunosligining o'rta asrlardagi rivoji Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Mahmud Zamaxshariy, Javhariy kabi qomusiy olimlarning nomi bilan bog'liq. O'zbek tilshunosligining ibtidosini esa o'rta osiyolik qomusiy olim Mahmud Qoshg'ariy nomi bilan bog'lash mumkin.

Til – insonlar o'rtasidagi aloqa vositasi, kishilik jamiyatining mahsulidir. Jamiyat taraqqiyotini tilsiz va til ravnaqini jamiyatsiz tasavvur etish mumkin emas. Bugungi tillar uzoq asrlar mobaynida murakkab tarixiy jarayonlarni kechirish natijasida vujudga kelgan. Shunga ko'ra jamiyat uchun havodek zarur bo'lgan til, ya'ni kishilik jamiyatidagi sof ijtimoiy, murakkab hodisa turli davrlarda tilshunoslar tomonidan turlicha talqin etilgan va bu tilshunoslik taraqqiyoti tarixida naturalizm, logitsizm, psixologizm, sotsiologizm, strukturalizm kabi o'nlab tilshunoslik maktablari hamda oqimlarning vujudga kelishiga sabab bo'lgan. Tilshunoslik fani falsafa, psixologiya, tarix kabi o'nlab ijtimoiy fanlar bilan bir qatorda turadi. Til nihoyat darajada murakkab va ko'p aspektli hodisa bo'lganligi uchun ham uni faqat tilshunoslik fani emas, ya'ni bir qator fanlar ham o'rganadi.

Tilshunoslik fani muayyan va umumiy tilshunoslik sohalaridan iborat. Muayyan tilshunoslik ma'lum bir tilning grammatikasini, ya'ni tilning turli sathlarini, jumladan, fonetikasini, fonologiyasini, lug'at tarkibini, grammatik qurilishini va hokazolarni sinchiklab o'rganadi.

Umumiy tilshunoslik esa umuman tillarning kelib chiqishi, ijtimoiy mohiyati, jamiyatdagi o'rni va vazifalari, taraqqiyot yo'llari, til va tafakkurning o'zaro bog'liqligi, tillararo munosabatlarni umumlashtiruvchi, ilmiy xulosalar chiqaruvchi hamda shu asosda til qonuniyatlarini aniqlab beruvchi fandir.

Mazkur kurs, ya'ni “Tilshunoslikka kirish” kursi talabalarni tilning eng zarur, boshlang'ich tushunchai bilan tanishtiradi. Tilning boshqa hodisalar ichida tutgan o'rni, turli til hodisalari, til va nutq oppozitsiyasi, tilshunoslikning turli sathlari xususida umumiy ma'lumotlar beradi. Dunyo tillarining turli tasniflari borasidagi alohida qarashlarni qiyoslab o'rganadi, shuningdek, murakkab til hodisalarini to'g'ri tushinish uchun zaruriy lingvistik atamalar bilan tanishtiradi.

Ushbu ma'ruza matnida “Tilshunoslikka kirish” va “Umumiy tilshunoslik” kurslarining bir-biri bilan chambarchas bog'liqligini hisobga olib, til hodisalarini jahon standartlari asosida izohlashga baholi qudrat harakat qildik. O'zbek tilshunosligiga bog'liq o'rinlarda esa shakl-vazifaviy yo'nalish asosida yondashilgan ilmiy xulosalarga tayanildi.

“Tilshunoslikka kirish” kursining vazifasi bakalavriat tizimidagi filolog talabalarni til haqidagi fanning asoslari bilan tanishtirish, ularning lisoniy bilimlarini kengaytirish va mustahkamlash, ularga zaruriy lingvistik atamalar haqida ma'lumot berish, ba'zi tillar orasida uchrovchi ayrim til hodisalaridagi umumiylik va xususiyliklarni qiyoslab berishdan iboratdir.

Ushbu kurs to'rt asosiy qismdan iborat bo'lib, kirish qismida til – ijtimoiy hodisa sifatida, ikkinchi va uchinchi bo'limlarda lison va nutq farqlanishi hamda shu asosda lisonshunoslik bo'limlari, nihoyat dunyo tillari tasnifi o'rganiladi.

Til ijtimoiy mohiyatga ega bo'lgan hodisadir. Avvalo, “til”, “ijtimoiy” tushunchai to'g'risida batafsilroq to'xtalib o'taylik. Til bevosita kuzatishda berilmagan. U jamiyat a'zolarining ongida mavjud bo'lib, ularning barchasi uchun tayyor, umumiy, majburiy bo'lgan, fikrni shakllantirish va uni ifodalashga xizmat qiladigan birliklar va ularning o'zaro munosabatlari haqidagi tasavvurlar yig'indisidir. Til mohiyat, umumiylik, zaruriyat va yashirin imkoniyatdir. “Ijtimoiy” so'zi arab tilidan olingan bo'lib, kishilik jamiyatiga, uning hayoti va qonuniyatlariga oid degan ma'noni ifodalaydi. Kishilik jamiyati til bilan chambarchas bog'liq bo'lib, til yordamida kishilar o'zaro fikr almashish imkoniyatiga ega bo'ladi. Demak, til kishilik jamiyatining eng muhim aloqa vositasi bo'lib, jamiyatga xizmat qiladi. Til ko'p qirrali va murakkab hodisa bo'lganligi uchun ham kishilik jamiyatining tarixiy taraqqiyoti davomida til hamda uning muhim xususiyatlari haqidagi turli tushuncha, fikr-mulohazalar-u nazariyalar vujudga kelgan. Jumladan, XIX asrning o'rtalariga kelib tabiiy fanlar sezilarli darajada rivojlandi; Charlz Darvinning jonivor va o'simliklarning turlari haqidagi ta'limotining yuzaga kelishi natijasida ba'zi tilshunos olimlar tilni tirik organizm deb tushuna boshladilar. Mashhur nemis olimi Avgust Shleyxer (1821-1868) nomi bilan bog'liq bo'lgan “naturalistik oqim” vakillari tilni tirik organizm ekanligini isbotlashga uringanlar. A.Shleyxer o'zining “Darvin nazariyasi va tilshunoslik”(1863 y.) asarida Darvinning ta'limotini tilga ham tatbiq etish kerak, deb da'vo qiladi. A. Shleyxer va uning tarafdori bo'lgan M.Myullerlarning yozishlaricha, tilning paydo bo'lishi, rivojlanishi va o'lishi tabiat qonunlariga bo'ysungan holda ro'y beradi, ya'ni kishi tug'ilganda til ham tug'iladi, kishi o'lganda til ham o'ladi. A.Shleyxer, M.Myuller kabi olimlar shunday fikr tarafdorlari bo'lganliklari uchun ham ular “naturalistik oqim”

vakillari sirasiga kiritildi. "Naturalizm" yunoncha soʻz boʻlib, tabiiy degan maʼnoni ifodalaydi. Naturalizm XIX asrning ikkinchi yarmida nafaqat tilshunoslikda, balki adabiyot va sanʼatda ham vujudga kelgan edi. Naturalizm yuqorida taʼkidlab oʻtilganidek, tabiiy fanlar sohasida erishilgan katta yutuqlar taʼsirida maydonga keldi. Naturalizm namoyandalari, birinchi navbatda, fiziologiyaga tayandilar. Tilshunoslikda paydo boʻlgan "naturalistik oqim"ni tilning tabiati va mohiyatini faqat tabiat asosida, gʻayri tabiiylikdan xoli holda tushuntiruvchi universal prinsip deb tushunish mumkin. Tilshunoslikda bunday oqimning paydo boʻlishiga hodisa mohiyatining serqirraligiga yetarlicha eʼtibor qaratmaslik oqibati ham sabab boʻlgan. Tilshunoslikning keyingi taraqqiyoti A.Shleyxer nazariyasining notoʻgʻriligini isbotladi.

Nafas olish, koʻrish, ovqat yeyish, uxlash, yigʻlash, kulish, ogʻriq sezish va hokazolar insonga xos boʻlgan tabiiy-biologik xususiyatlar boʻlib, ular tabiat qonunlariga muvofiq ravishda davom etaveradi. Tabiiy-biologik xususiyatlarning yuzaga kelishi yoki yoʻqolib ketishi uchun kishilik jamiyatining boʻlishi shart emas, faqat qulay sharoit zarur, xolos. Soʻzlashish, fikrlashish uchun esa qulay sharoitning oʻzi kifoya emas. Bu haqda ulugʻ Kaykovus bobomiz oʻzining "Qobusnoma" kitobida shunday yozadi: "Ey farzand, toki qila olsang, soʻz eshitmakdan qochmagʻ ilkim, kishi soʻz eshitmak bila suxangoʻylik hosil qilur. Avvalo buni shundoq dalillash mumkin: agar bir oʻgʻlon onadan tugʻilsa, unga yerning ostidan bir joy qilib sut berib, ul joyda parvarish qilsalar, onasi va doyasi unga gapirmasalar, u oʻgʻlon hech kishining soʻzin eshitmasa, ulugʻ boʻlgʻonda lol (soqov) boʻlur.

Koʻrmasmusankim, barcha lollar kar boʻlurlar....."

Til nasldan naslga, avloddan avlodga oʻtadigan irsiy hodisa emas, balki jamiyat taraqqiyotining mahsulidir. Bolaning qaysi tilda soʻzlay boshlashi uni oʻrab turgan til muhitiga bogʻliq. Chunonchi, "Oila va jamiyat" haftanomasining 1992-yil may oyida chiqqan 21-sonining birinchi sahifasida "Larisaning mulla oʻgʻli" sarlavhali suratli maqola eʼlon qilindi. Unda moskvalik Larisa ismli rus qizi Abdugʻabbor degan qashqadaryolik yigitga turmushga chiqishidan oldin butun qonuniyatlari bilan islom dinini qabul qilganligi, namoz oʻqib, roʻza tutganligi, asosiysi, oila qurgach, toʻngʻich farzandi Temurxonga alla emas, Qurʼoni karim suralarini oʻqib uxlatganligi haqida batafsil maʼlumot berilgan. Temurxonning birinchi aytgan soʻzi "Ollloh" boʻlgan va bola sakkiz oyligida "Lo iloha ilolloh" degan. Erta tili chiqqan bu bola bir yoshga toʻlganda "Kalimayi tayiba" hamda "Kalimayi shahodat"ni toʻliq aytgan. Ikki yarim yoshida oʻn uchta kichik surani yod bilgan va toʻqqiz yoshida Qashqadaryo viloyati boʻyicha oʻtkazilgan yosh qorilar musobaqasida birinchi oʻrinni egallab, koʻplarni hayratga solgan.

Yana bir misol: shoʻro hukumati davrida juda koʻp oʻzbek ziyolilari oilasida tugʻilgan farzandlar taʼlim-tarbiya rus tilida olib boriladigan bogʻcha, maktab, oliy oʻquv yurtlarida oʻqitilar edilar. Oqibatda oʻz ona tilida biror jumalani aytishni eplolmaydigan "oʻzbek"lar paydo boʻldi, bu holatni bizning davrimizda ham ahyon-ahyonda boʻlsa-da, uchratish mumkin. Taniqli shoir E.Vohidovning ushbu toʻrtligi ham fikrimizni dalillaydi:

Parvoz chogʻi tayyoraning dilbar kelini

Koʻk toqini bizga taxti Sulaymon qildi.

Lekin eʼlon oʻqiganda oʻzbek tilini

Davlat tili boʻlganiga pushaymon qildi.

Mashhur Robinzon Kruzozi eslang. U kimsasiz orolga tushub qolganda uzoq yillar davomida unga tildan foydalanishga deyarli ehtiyoj sezilmaydi. Tilning kishilik jamiyatida bajaradigan vazifasiga koʻra sof ijtimoiy hodisa ekanligini isbotlovchi bunday misollarni koʻplab keltirish mumkin. Ammo til ijtimoiy hodisa sifatida jamiyatdagi boshqa ijtimoiy hodisalardan farq qiladi.

Faqat jamiyatning mavjudligi bilan bogʻliq boʻlib, jamiyat uchun xizmat qiladigan ijtimoiy hodisalarning turlari nihoyatda koʻp. Ideologiya, bazis, ustqurma, demokratiya, pul muomalasi kabilar ham ijtimoiy hodisalar boʻlib, ularning jamiyatda bajaradigan vazifalarining oʻz xususiyatlari va maʼlum doirada qoʻllanilish chegaralari bor. Chunonchi, ideologiya-muayyan jamiyatdagi siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, badiiy, falsafiy qarashlar va gʻoyalar sistemasi; bazis jamiyatning iqtisodiy tuzilishini, ustqurma esa jamiyatning siyosiy, huquqiy, ideologik meʼyorlarini belgilab beruvchi hodisalardir. Jamiyat boʻlmagan joyda demokratiya, yaʼni xalq ommasining boshqaruv ishlarida qatnashuvi yoki fuqarolarning siyosiy huquqlardan foydalanish imkoniyatlari haqida gapirish mumkin emas. Pul muomalasi haqida ham shunday fikrni aytish oʻrinlidir. Kishilik jamiyatida ijtimoiy-iqtisodiy tuzumlar oʻzgarib turadi. Bu oʻzgarish har bir tuzumga tegishli boʻlgan bazis, ustqurma, ideologiya kabilarni ham yangilaydi. Til esa na bazis, na ustqurma, na ideologiyadir. Tilning yuqorida sanab oʻtilgan ijtimoiy hodisalardan eng katta va asosiy farqi shundaki, til jamiyat faoliyatining barcha-barcha sohalariga xizmat qiladi. Til tuzumlar oʻzgarishi bilan butkul yangilanmaydi, oʻz xususiyatini, vazifasini oʻzgartirmaydi. U kishilik jamiyatining tarixiy taraqqiyoti jarayonida yaratilgan, sayqal topib borayotgan aniq-tarixiy meʼyor sifatida jamiyat aʼzolarining hammasiga teng xizmat qiladigan asosiy fikr ifodalash vositasidir.

Til kishilik jamiyatidagi asosiy ijtimoiy hodisa sifatida kommunikativ, ekspressiv va akkumulyativ vazifalarni bajaradi.

"Kommunikativ" soʻzi rus tilidan olingan lingvistik atama boʻlib, "fikr almashuvga oid" degan maʼnoni ifodalaydi. Kishilarning oʻzaro aloqa-aralashuvda oʻz fikr-mulohazalarini, istak-xohishlarini, ichki kechinmalarini ifoda etib, bir-birlariga axborot yetkazishlari, yaʼni tilning jamiyatda aloqa vositasi funksiyasini bajarishi uning **kommunikativ vazifasi** hisoblanadi.

"Ekspressiv" soʻzi latincha soʻz boʻlib, asl maʼnosiga koʻra "kuchaytirilgan" demakdir. Bu atama tilshunoslikka koʻchma maʼnosi bilan kirgan boʻlib, "kuchli hissiy obrazlilik xususiyati" degan maʼnoni ifodalaydi.

Tilning asosiy vazifasi kommunikativ funksiya boʻlsa-da, biroq kishilar aloqa-aralashuv jarayonida bildirilayotgan fikrga yoki tinglovchiga yetkazilayotgan axborotga oʻzlarining turli tipdagi hissiy-taʼsiri, yaʼni emotsional munosabatlarni ham qoʻshib ifodalaydilar. Bu hodisa, yaʼni tilning suhbatdoshga taʼsir koʻrsatish xususiyati uning **ekspressiv vazifasi** deyiladi. Emotsional munosabatlar suyish, erkalash, nafrat kabi insonga xos boʻlgan qator jihatlarni qamrab oladi.

Til faqat kishilar oʻrtasidagi aloqa vositasi boʻlmay, millatlararo, davlatlararo aloqa quroli hamdir. Bundan tashqari til kishilik jamiyatida asrlar davomida toʻplangan tajriba va bilimlarni kelajak avlodga yetkazish uchun ham xizmat qiladi. Tilning bu xususiyati uning **akkumulyativ** (latincha "toʻplash" demakdir) **vazifasi**dir. Tilga xos boʻlgan akkumulyativ vazifa baʼzi lingvistik adabiyotda tilning gnoseologik funksiyasi deb ham yuritiladi.

Til – serqirra hodisa. Shunga koʻra til tilshunoslik bilan birga qator ijtimoiy fanlar tomonidan ham oʻrganilishini yuqorida taʼkidlab oʻtgan edik. Tilni oʻrganishda ishtirok etadigan har bir fanning tilga nisbatan oʻz munosabati bor. Bu munosabat har bir ijtimoiy

fanning tilning qaysi aspektini o'rganishi bilan xarakterlanadi. Tilshunoslik falsafa bilan chambarchas bog'liq. Falsafa tilshunoslikning metodologiyasini belgilab beradi. Ushbu ma'ruza matnida tilning nazariy-falsafiy masalalari quyidagi besh yo'nalish asosida talqin etiladi:

1. Tilning kelib chiqishi va rivojlanishi; til va nutq falsafiy masala sifatida.
2. Til va tafakkur, mantiq va tilshunoslik munosabatlari.
3. Til - ramziy tizim sifatida.
4. Tillarning rivojlanishi va o'zaro ta'siri masalalari.
5. Grammatik talqinlarning falsafiy masalalari.

Hozirgi zamon tilshunosligi til (lison) mohiyatini ochishda dialektik falsafa, lisoniy birliklar haqida ilmiy-nazariy hukm chiqarish jarayoni dialektik gnoseologiya, jumladan, dialektik-logik kategoriyalardan ongillik va izchillik bilan foydalanishni taqozo etadi. Tilga falsafiy yondoshish deganda dealektikaning umumiylik-xususiylik, mohiyat-hodisa, imkoniyat-voqelik, sabab va oqibat kategoriyalarining til tizimi birliklariga bevosita amaliy tatbiqini tushunish zarur.

Dialektikada xususiylik umumiylikning, voqelik imkoniyatning, hodisa mohiyatning, oqibat sababning, tasodifiylik zaruratning yuzaga chiqish, voqelanish shakli ekanligi sizga o'rta maktabning "Jamiyatshunoslik" fanidan yaxshi tanish. (Shuning uchun dealektik kategoriyalar xususida alohida to'xtalib o'tirmadik.)

Til bizning ongimizda imkoniyat, umumiylik, munosabatlar, belgilar sistemasi sifatida mavjud. U nutq orqali yuzaga chiqadi, nutqda muayyan moddiy shaklga, ko'rinishga ega bo'ladi. Til qonuniyatlari dialektik qonuniyatlar asosida tadqiq etiladi. Biroq bu qonuniyatlarning har biri o'z alohida tizimiga ega bo'lib, ular aynan bir xil hodisa emas. Keyingi mavzularda bu xususda batafsil mulohaza yuritamiz.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriq:

1. Jahon tilshunosligining rivojlanishiga turtki bo'lgan omillarni sanang.
2. Tilshunoslik taraqqiyoti tarixida qanday oqimlar paydo bo'lgan edi?
3. Tilshunoslik fanining tarkibiy qismlarini sanang. Ularning o'xshash va farqli tomonlari nimada?
4. "Tilshunoslikka kirish" kursining vazifasi nimalardan iborat?
5. Nima uchun til ijtimoiy hodisa hisoblanadi?
6. "Naturalistik oqim" haqida batafsil ma'lumot bering.
7. Tilning boshqa ijtimoiy hodisalardan asosiy farqi nimada? Misollar asosida tushuntiring.
8. Til bajaradigan asosiy funksiyalar haqida ma'lumot bering.
9. Tilning falsafiy masalalari nimalardan iborat?
10. Dialektik kategoriyalarning har biriga alohida tafsif yozing va ularni til birliklariga tatbiq etishga harakat qiling.

Asosiy adabiyot:

1. Азизов О. Тилшуносликка кириш. Т., "Ўқитувчи", 1996.
2. Баскаков Н., Содиков А., Абдуазизов А. Умумий тилшунослик. Т. "Ўқитувчи", 1979.
3. Содиков А., Абдуазизов А., Ирискулов М. Тилшуносликка кириш. Т., "Ўқитувчи", 1981.

Yordamchi adabiyot:

1. Мўминов С. Сўзлашиш санъати., " Фарғона", 1997.
2. Нейматов Х., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари.Т., "Ўқитувчи", 1995.
3. Реформатский А. Введение в языкознание. 4-е. М., Просвещение. 1967.
4. ЎЗСЭ. 11-сон, Т., 1978, 101-104 –б.

Mavzu: Tilning paydo bo'lishi

Reja:

1. Til qanday paydo bo'lgan?
2. Tilning paydo bo'lishida biologik va ijtimoiy aspekt.
3. Tilning paydo bo'lishi haqidagi turli nazariyalar, ularning talqini va ilmiy asosi.

Mavzu bo'yicha tayanch tushuncha:

Tilning kelib chiqish muammosi, "til-ong-jamiyat" mushtarakligi, avstralopiteklar davri, paleantropolar davri, hozirgi zamon kishilari bosqichi, biologik aspekt, ijtimoiy aspekt, ovozga taqlid nazariyasi, undov nazariyasi, mehnat qiyqiriqlari nazariyasi, imo-ishoralar nazariyasi, ijtimoiy kelishuv nazariyasi, dialektik materializm qarashlari, ilmiy farazlar.

Til qanday paydo bo'lgan, degan savolning javobi qadim zamonlardan beri insoniyatni qiziqtirib keladi. Bu jumboqning yechimi juda murakkab bo'lib, uni inson nutqining paydo bo'lishi masalasi bilan tenglashtirib bo'lmaydi. Yuqoridagi savol faqat tilshunoslik fanigagina tegishli bo'lib qolmay, bu muammo antropologiya, psixologiya, etnografiya kabi o'nlab fanlarning ham o'rganish obyekti. Hozirgacha yer yuzida umuman bashariyatga xos bo'lgan tilning qachon, qanday paydo bo'lganligi, dastlabki tillardagi so'zlar, uning leksik, sintaktik, morfologik, semasiologik xususiyatlari nimalardan iborat ekanligi hal qilingan emas va hal etilishi mumkin ham emas. Tilning paydo bo'lishi bilan ayrim aniq tillarning yoki til oilalarining paydo bo'lishi masalalarini aralashtirmaslik lozim. Hozir yer yuzida

mavjud bo'lgan millat, elatlarga tegishli jonli tillarning, ba'zi bir o'lik tillarning ham kelib chiqish tarixi o'rganilgan, o'rganilmoqda. Bu u qadar qiyin masala emas. Chunki ba'zi bir muayyan tillar va shi tillarga qardosh bo'lgan tillar turli davrlarda, har xil shart – sharoitlarda, bilvosita va bevosita sabablarga ko'ra paydo bo'lgan.

“Til–nutq–nutq sharoiti” aspektida olib borilgan uzoq yillik tadqiqotlar samarasiga tayangan holda komil ishonch bilan ayta olamizki, tilning paydo bo'lishi ong va jamiyatning paydo bo'lishi bilan, qolaversa, yer yuzida inson zotining paydo bo'lishi bilan uzviy bog'liqdir. Ilmiy gepoteza(taxmin)lar odamning paydo bo'lish evolyutsiyasi va jamiyatning shakllanishini uch bosqichga bo'lib ko'rsatadi:

1.Yuqori darajada taraqqiy etgan avstralopiteklar davri. Bu bosqichda ilk ibtidoiy odamlar ikki oyoqlab yurishga o'tib, tayoq, tosh,suyak parchalaridan qurol sifatida foydalanganlar. Bu bizdan ikki – uch million yil oldingi davrga to'g'ri keladi.

2.Paleantropalar bosqichi. Bu davrda paleantropalar, ya'ni eng qadimgi odamlar sun'iy qurollar, turar joy tayyorlaganlar, yirik hayvonlarni jamoa bo'lib ov qilish bilan shugullanganlar. Bu bizdan taxminan bir million yillar oldingi davrga to'g'ri keladi.

3.Hozirgi zamon kishilari bosqichi. Ilmiy taxminlar bu davr 40-50 ming yillar oldin paydo bo'la boshlaganligini ko'rsatadi. Chamasi, bir million yillar avvalgi eng qadimgi odamlar uzoq va murakkab jarayon davomida insonga xos biologik hamda sotsial xususiyatlarga ega bo'la boshlaydilar. Aniq nutq ularga hayvonot dunyosidan ajralish, jamiyat bo'lib uyushish, uyushgan holatda mehnat qilish hamda tafakkurning rivojlanishiga turtki bo'ladi.

Tilning paydo bo'lishi uchun faqat biologik zaminlarga emas, jamiyatning paydo bo'lishi ham nihoyatda zarur edi. Antropologiya (odam hamda irqning kelib chiqishini o'rganuvchi fan), arxeologiya (tarixiy dalillar va madaniy yodgorliklar asosida odamning o'tmish tarixini o'rganuvchi fan) fanlarning uzoq davrlardan beri olib borayotgan tekshirishlari, ilmiy izlanishlari natijasida kishilik tarixi ikki davrdan iborat degan fikrga kelingan. Bular – tarixgacha bo'lgan davr va tarixiy davr. Tarixgacha kishilarning ibtidoiy jamoa bo'lib yashashi ya'ni kishilik jamiyatining shakllanish, tiklanish, uyushish davridir.

Ibtidoiy kishilar jamoasi sotsial - biologik organizm bo'lgan. Ularda instinktiv mehnat qobiliyati rivojlangan bo'lib, asosan, tabiatdagi tayyor narsalardan foydalanganlar. Instinktiv mehnat ong va tilning paydo bo'lishi uchun shart – sharoit yaratgan. Olimlarning faraz qilishicha, mehnat, ibtidoiy mehnat qurollarini yasash inson tana a'zolarini asta – sekin, juda uzoq muddatli tabiiy jarayonda takomillashtirib, til va tafakkurning rivoj topishida beqiyos rol o'ynagan. Albatta, dastlab paydo bo'lgan til va nutqni bizning tilimizga yoki nutqimizga aslo tenglashtirib bo'lmaydi. Ehtimol, dastlabki tilda har biri alohida narsani, harakatni yoki holatni bildiradigan so'zlar bo'lmagandir; o'sha davrdagi tilga xos so'zlar butun boshli voqea - hodisani ifodalagandir. O'sha davrda insonning tovush chiqaradigan a'zolari hozirgidek takomillashmagani uchun nutqda dastlab paydo bo'lgan so'zlarning talaffuzi aniq bo'lmagan. Demak, mehnat qilish, mehnat qurollarini yasash jarayonida odamlar jamoasi borgan sari uyushib boradi, natijada kishilik jamiyatining ilk ko'rinishlari vujudga keladi. Hayvonot dunyosidan ajralib chiqqan odamlarda jamoa bo'lib mehnat qilish jarayonida bir – birlariga nimadir deyish ehtiyoji tug'iladi. Ana shu zaruriy ehtiyoj tilning yaralishiga sabab bo'ladi. Til bilan bir paytda tafakkur ham paydo bo'ladi. Demak, uch omil - “mehnat–til–tafakkur” bir – biriga ta'sir etib, ularning rivoj topishiga sabab bo'lgan. Ijtimoiy mehnat natijasida nihoyatda katta (kuchli) zaruriy ehtiyoj talabi bilan til nutq a'zosi sifatida va miyaning asta – sekin takomillasha borishi biologik jihatdan xarakterlansa, til va tafakkurning paydo bo'lishi, tasavvurning, fikrning nutqda voqelana olishi ijtimoiylik, ya'ni kishilik jamiyati bilan uzviy bog'liqdir.

Inson tovush tili tufayli hayvonot dunyosidan ajralib chiqdi. Tovush tili esa tafakkursiz mavjud bo'la olmaydi. Ma'lumki, tafakkurda bor narsa tilda aks etadi, tilda bori esa nutqda voqelanaadi. Ayni paytda miyada paydo bo'ladigan har qanday oddiy tushuncha ham til orqali nutqqa ko'chmas ekan, ya'ni nutq tovushlari, so'zlar orqali ifodalanmas ekan, bunday tushuncha o'zicha hech kimga, hatto fikr qiluvchining o'ziga ham ma'lum bo'lmaydi. Qisqasi, tilsiz tafakkur, tafakkursiz til mavjud emas.

Ko'rinadiki, tilning paydo bo'lishi, bir tomondan, kishilik tanasining evolyutsiyasi bilan, ikkinchi tomondan, ibtidoiy jamoaning jamiyatga aylanishi bilan bog'liq bo'lgan. Hozirgacha tilning paydo bo'lishi haqida turli nazariyalar yaratilgan Har bir nazariyada bu masalaga turlicha yondashiladi. Quyida ularning ba'zilari bilan tanishamiz.

Ovozga taqlid nazariyasi. Bu nazariya qadimgi yunon olimlari Demokrit va Platonlar davrida paydo bo'lib, XX asrgacha yashab keldi. Ovozga taqlid nazariyasi talqiniga ko'ra, yer yuzida paydo bo'lgan dastlabki odamlar ongli ongsiz ravishda tevarakatdagi turli – tuman predmetlarning tovushlariga, chunonchi, yirtqich hayvonlarning o'kirishi, qushlarning sayrashi, tezoqar suvning shildirashi, shamolning uvillashi kabilarga taqlid qilish natijasida nutq paydo bo'lgan. Masalan, *sharshara, qarg'a, kaklik, chirillamoq, shildiramoq, g'urillamoq*; rus tilida: *шумел, шумение, гавкат, кукушка* kabi. Agar tillardagi, jumladan, o'zbek yoki rus tilidagi so'zlar faqat taqlidlardan, to'g'rirog'i, tovushga taqlidlardan iborat emasligini hisobga oladigan bo'lsak, bu nazariyaning u darajada asosli emasligini sezamiz. Va yana aytish mumkinki, tabiatda tovush chiqaradigan predmetlar soni tovush chiqarmaydigan narsalar soniga qaraganda kamroq. Tovushsiz narsalarning (tuproq, tog', quyosh, osmon, g'or, qor kabi) nomi qaerdan paydo bo'lgan-u, til va tafakkursiz nutq qanday yuzaga kelgan? XX asrning 90-yillarida – Avstraliya va Janubiy Amerikada topilgan, ibtidoiy formatsiyani boshidan kechirayotgan qabilalarda – o'tkazilayotgan tajribalarning ko'rsatishicha, bu tillarda tovushlarga taqlid asosida paydo bo'lgan so'zlar miqdori nihoyatda oz. Bundan tashqari, tabiatdagi tovushlarga taqlid qilish uchun insonda nihoyatda rivojlangan nutq organi bo'lishi ham zarur.

Demak, ovozga taqlid nazariyasi tafakkur va tilning chambarchas bog'liqligini inobatga olmaydi, til va nutqni farqlamaydi, tilning paydo bo'lishidagi ijtimoiy zaruratni e'tibordan chetda qoldiradi. Bu nazariya tilning paydo bo'lishi masalasini hal etmaydi.

Undov nazariyasi. Bu nazariya tilning paydo bo'lish masalasini boshqacha talqin etadi. Ushbu nazariya tarafdorlari tildagi barcha so'zlar kishilarning his -tuyg'ulari, qahr-g'azablari, hayajonlari ta'sirida ixtiyoriy yoki ixtiyorsiz baqirishlari natijasida paydo bo'lgan, deb da'vo qiladilar. Bunday so'zlarga *oh (ohlamoq), uff (uflamoq), voy (voyvoylamoq), dod (dodlamoq)* kabilarni misol keltiradilar va tildagi boshqa so'zlar esa ana shu kabi so'zlarning kombinatsiyalaridan kelib chiqqan, deb hisoblaydilar. XVIII asrda yashagan fransuz olimi Jan Jak Russo ham shu nazariya tarafdorlaridan biri bo'lgan. Madomiki, tildagi barcha so'zlar haqiqatan ham shu nazariya tarafdorlari aytganidek yaratilgan bo'lsa, tildagi emotsiyalardan yiroq ming – minglab predmetlarning nomi qanday paydo bo'lgan? Tabiiyki, undov nazariyasi tarafdorlari bu kabi savollarga javob berishga ojiz. Undov nazariyasi tilning ijtimoiy xarakterini inobatga olmaydi, ya'ni biologik aspektning birgina jihatiga tayanib inson va kishilik jamiyatining paydo bo'lishini hisobga olmaydi. Bu g'ayriilmiy nazariyadir.

Mehnat qiyqiriqlari nazariyasi. Bu nazariya tarafdorlari tildagi barcha soʻzlar ibtidoiy kishilarning birgalashib mehnat qilishlari jarayonida mehnat qilishga undaydigan ixtiyorsiz qiyqirishlar natijasida paydo boʻlgan, deb daʼvo qiladilar. Uning asoschisi XIX asrning ikkinchi yarmida yashagan fransuz faylasufi L.Nuaredir. Nemis olimi Karl Byuxer ham shu nazariyani qoʻllab quvvatlagan. Mehnat qiyqiriqlari nazariyasi undov nazariyasiga oʻxshab ketadi. Biroq bunda qiyqiriq va hayqiriqlar kishilarning mehnati jarayonida yuz beradi. Instinktiv qiyqiriqlar mehnat bilan bogʻliq boʻlsa-da, u biologik faktordir. Mehnat qilishdagi hayqirishlar mehnat jarayonidagi harakatni bir maromga solish uchun vosita boʻlgan, xolos. (Bu hozirda ham xuddi shunday.) Ammo hayqiriqlar, qiyqiriqlar mantiqan hech qachon kishilarning aloqa vositasi boʻla olgan emas.

Imo – ishoralar nazariyasi. Bu nazariyaning asoschilari nemis olimi Vundt va akademik N.Y.Marr boʻlib, ularning fikricha, insonlar tovush tili paydo boʻlgunga qadar bir birlari bilan imo-ishora orqali aloqa qilganlar. Maranning daʼvo qilishicha, odamlar yarim million yil davomida “imo-ishora tili” orqali aloqa qilganlar va keyinchalik bu tovush tiliga aylangan. Agar insoniyatning hayvonot dunyosidan ajralib chiqqanligini, qorin toʻygʻazish maqsadidagina mehnat qilganligini, jamoa boʻlib mehnat qilish natijasida tilning paydo boʻlishiga ehtiyoj tugʻilganligini hisobga olsak, kishilarning muhim aloqa vositasi boʻlgan tilga imo-ishora juda kichik bir qoʻshimcha vosita boʻlganligini anglab yetish qiyin emas. Demak, inson nutqi taraqqiyotining maʼlum bir bosqichida imo-ishora tili kishilarning oʻzaro aloqa qilishlarida yagona vosita boʻlgan edi, degan fikr ilmiy jihatdan asosli emas.

XIX asrning ikkinchi yarmida **ijtimoiy kelishuv nazariyasi** ham paydo boʻldi. Bu nazariya vakillarining fikricha, narsa-buyum, voqea- hodisalarni nomlashda odamlar oʻzaro kelishib olishgan. Bu fikr ijtimoiy kelishuv nazariyasining ham asosi aniq emasligini koʻrsatib turibdi. Vaholanki, oʻzaro kelishuv vositasi, asosan, tildir. Oʻzaro ijtimoiy kelishuv uchun insonda yuqori darajada rivojlangan tafakkur va til boʻlmogʻi zarur. Bu nazariya tilning paydo boʻlishini emas, balki til rivojlanishining baʼzi tomonlarinigina koʻrsatib bera oladi, xolos.

Yuqorida sanab oʻtilgan nazariyalarning hech biri tilning paydo boʻlishi masalasini inson, tafakkur va jamiyatning paydo boʻlishi bilan bogʻlab oʻrganmaydi. Shunga koʻra, ular tilning kelib chiqishi va rivojlanishi masalasini toʻgʻri yoritishga oʻzaro qiziqibdi. Bu masalaga XIX asr oxiri XX asr boshlarida paydo boʻlgan dialektik materializm asoschilari, yuqoridagilardan farqli oʻlaroq, bir qadar toʻgʻri yondashdilar. Dialektik materializm oqimining namoyandalari nemis olimlari K.Marks va F.Engelslar boʻlib, ular “Maymunning odamga aylanish protsessida mehnatning roli”, “Oila, xususiy mulk va davlatning kelib chiqishi” kabi qator asarlarida tilning paydo boʻlishi muammosiga katta eʼtibor qaratganlar. Ularning yozishlaricha, bundan taxminan bir million yillar muqaddam yer yuzida odamsimon maymunlarning juda taraqqiy etgan nasli yashagan. Ular, odatda, yerda yurishgan, oldingi ikki oyoqlari qoʻl vazifasini bajargan. Odamsimon maymunlar oldingi oyoqlari bilan dastlab tabiatdagi tayyor predmetlardan qurol sifatida foydalanarlar va koʻproq tik yurishni oʻrgana boshlaganlar. Tik yurish asta-sekin ular uchun hayotiy zaruratga aylangan, shu tariqa ozod boʻlgan qoʻl borgan sari koʻproq va turli-tuman ishlarni bajarishga moslashgan. Kishilik jamiyatining, til va tafakkurning paydo boʻlishi mehnat tufayli maymunning odamga aylanishi bilan bogʻliq.

Bu nazariya bir qancha asosli biologik va sotsial faktorlarga tayanib, ilmiy farazlar qiladi. Hozirgi tarix, antropologiya kabi koʻpgina fanlar odam, jamiyat, til, tafakkur va nutqning paydo boʻlishi toʻgʻrisidagi talqinlarda shu ilmiy farazlardan foydalanadi. Biroq, shuni ham taʼkidlash zarurki, keyingi yuz yillar davomida odamsimon maymunlar ustida olib borilayotgan maxsus tajribalar “odam odamsimon maymunlardan tarqalgan” degan fikrni bir qadar rad etmoqda.

Diniy taʼlimotga oid muqaddas kitoblarda esa til insoniyatga olloh tomonidan inʼom etilgan neʼmatdir, mazmunidagi fikrlar ilgari suriladi.

Xullas, tilning kelib chiqishi tafakkurning paydo boʻlishi, qolaversa, yer yuzida inson zotining paydo boʻlishi kabi muammolar bilan uzviy bogʻliq boʻlib, bu muammolar insoniyat tarixida uzil – kesil yechimini topgan emas.

Yuqorida bayon etilgan fikrlardan maʼlum boʻladiki, til hayvonot dunyosidan ajralib chiqqan kishilar ibtidoiy jamoasining mehnat jarayonida eng zaruriy ehtiyoji natijasida paydo boʻlgan. Garchi qadimgi ibtidoiy jamoa tillarning qachon paydo boʻlganligi, u tillar qanday til ekanligi, ularning lugʻat tarkibi, grammatik qurilishi nimalardan iboratligini isbotlovchi dalillar boʻlmasa-da, yozuv paydo boʻlgandan keyingi, yaʼni bundan 15-20 ming yillar oldin yozib qoldirilgan yodgorliklarga asoslanib, baʼzi tillarning shakllanishi va taraqqiyoti toʻgʻrisida mulohaza yuritish mumkin. Bu xususda keyingi mavzularimizda batafsil toʻxtalamiz.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriq:

1. Tilning paydo boʻlishi qanday omillar bilan uzviy bogʻliq?
2. Yer yuzida inson zoti va jamiyatning paydo boʻlishidagi olimlar qayd etgan uch bosqich haqida maʼlumot bering.
3. “Ijtimoiy mehnat ~ ehtiyoj ~ til ~ tafakkur ~ nutq”ning oʻzaro zich bogʻliqligini isbotlashga harakat qiling.
4. Tilning kelib chiqishi toʻgʻrisidagi nazariyalar haqida maʼlumot bering.

Asosiy adabiyot:

1. Азизов О. Тилшуносликка кириш. Т., “Ўқитувчи”, 1996.
2. Баскаков Н., Содиков А., Абдуазизов А. Умумий тилшунослик. Т. “Ўқитувчи”, 1979.
3. Содиков А., Абдуазизов А., Ирискулов М. Тилшуносликка кириш. Т., “Ўқитувчи”, 1981.

Yordamchi adabiyot:

- 1.Реформатский А. Введение в языкознание. М., 1967 стр.465-528.
- 2.Содиков А. ва б. Тилшуносликка кириш. Т., “Ўқитувчи”, 1981.

Mavzu: Tilning tarixiy taraqqiyoti

Reja:

1. Tilning tarixiy taraqqiyoti va o'zgaruvchanligi.
2. Sinxroniya va diaxroniya.
3. Tilshunoslik va unga yondosh predmetlarning o'zaro munosabati.
4. Til taraqqiyotidagi fonetik, leksik, grammatik o'zgarishlarni tahlil etishda yozma tarixiy manbalarning ahamiyati.
5. Tildagi qonuniy o'zgarishlar va nutqiy hodisalar.

Mavzu bo'yicha tayanch tushunchalar:

Til taraqqiyoti, til hodisalarining o'zgaruvchanligi, soddalashuv, qayta tuzilish, murakkablashuv, diaxroniya, sinxroniya, tilshunoslik va falsafa, tilshunoslik va mantiq, tilshunoslik va tarix, yozma tarixiy manbalar va til, tilning umumiy qonuniyatlari, tilning xususiy qonuniyatlari.

Tevarak-atrofimizdagi narsa va hodisalarga bir nazar tashlab ko'raylik. Bular eng mayda zarrachalar va g'oyat katta yulduz sistemalari, bir hujayrali eng oddiy organizmlar-u yuksak darajadagi tuzilishga ega bo'lgan yirik mavjudotlardan iborat. Narsalar, hodisalar katta-kichikligi, shakli, rangi, zichligi, tuzilishining murakkablik darajasi, tarkibiy va boshqa juda ko'p xossalari, xilma-xilligi hamda utri-tumanligi bilan bir-biridan farq qilishi bilan birga ular doimo o'zgarib turadi. Ma'lumki, dunyoda o'zgarmaydigan narsaning o'zi yo'q. Barcha narsa vaqt o'tishi bilan ma'lum darajada o'zgaradi, yangilanadi, bir turdan ikkinchi turga o'tadi... O'zgarish tabiat-hodisalarigagina emas, tabiiyki, ijtimoiy hodisalarga, shu jumladan, til hodisalariga ham xosdir. Tarixiy taraqqiyot va o'zgaruvchanlik tilning hamma sathlariga xosdir. Kishilik jamiyati paydo bo'lgandan buyon til uzoq davrlar o'tishi bilan o'zgarib, boyib borgan. Ayni vaqtda til taraqqiyoti kishilarning turli-tuman tajribalarining takomillashishiga, bu tajriba-yu bilimlarning avloddan avlodga o'tishiga ham imkon bergan. Til taraqqiyoti natijasida fan, texnika, madaniyat taraqqiy qilgan, ya'ni kishilik jamiyati rivojlangan.

Tilning tarixiy taraqqiyoti va o'zgaruvchanligi jamiyat hayoti bilan bevosita bog'liq bo'lib, ijtimoiy hayotda ro'y bergan o'zgarishlar tilda aks etadi. Bu o'zgarishlar hammadan ko'proq tilning lug'at boyligida o'z ifodasini topadi. Yangi narsa-buyum, tushunchalarning paydo bo'lishi yoki, aksincha, narsa-buyum va tushunchalarning keng iste'moldan chiqib ketishi hammadan avval tilning lug'at boyligida o'zgarish bo'lishiga olib keladi. Chunonchi, Muqimiy (1850-1903) ning «Navbahor ochildi gullar, sabza bo'ldi bog'lar» matnali g'azalidagi ayrim baytlarga e'tibor qarataylik:

*Xush bu mahfilda tiriklik ulfatu ahhob ila
O'ynashib, gohi tabiatni qilaylik chog'lar.
Hayfkim, ahli tamiz ushbu mahalda xor ekan,
Oldilar har yerda bulbul oshyonin zog'lar.*

Hozirda Muqimiy davrida keng qo'llanilgan *mahfil, ulfatu ahhob, ahli tamiz* kabi juda ko'p so'z va so'z birikmalari keng iste'moldan chiqib, eskirgan so'zlarga aylangan. Muqimiy yashagan davrda tilimizda *patta, vistavka, gimnaziya, pech* kabi yangi-yangi so'zlar paydo bo'lgan bo'lsa, bu so'zlarning ko'pchiligi bizning davrimizga kelib eskirib qoldi. Tilning lug'at sostavida yangi so'zlar, iboralar paydo bo'lishi, ayrim so'zlarning semantikasida o'zgarishlar yuz berishi, ba'zi so'zlarning eskirib qolishi barcha tillarga xos bo'lgan umumiy qonuniyatlardandir. Chunonchi, o'tgan asrning boshlari va o'rtalarida rus tilida paydo bo'lgan *большевизм, меншивизм, пролетариат, съезд, колхоз, советский марксизм, ленинизм, коммунизм* kabi ko'plab so'zlar hozirda eskirib iste'moldan chiqqan. Tilda sodir bo'layotgan o'zgarishlar so'zning tuzilishiga ham o'z ta'sirini o'tkazadi, oqibatda u ham asta-sekin o'zgarib boradi. So'z strukturasi o'zgarishi turli tillarda turli yo'l bilan yuz beradi. Tilshunoslikda buning asosiy uch usuli qayd etiladi: **soddalashuv, qayta bo'linish va murakkablashuv.**

So'zlarni qo'shish yo'li bilan yasalgan qo'shma so'zlarning tub so'zlarga yoki o'zakka, ko'p morfemali so'zning bir morfemali so'zga o'tish hodisalari s o d d a l a s h u v deyiladi. Odatda, soddalashuv hodisasi so'z o'z «ichki tuzilish shakli»ni o'zgartirganda, ya'ni morfemalar orasidagi chegara yo'qolganda ro'y beradi. Ilmiy adabiyotlarda soddalashuv hodisaning sodir bo'lishiga asosan ikkita sabab borligi ko'rsatiladi:

- 1) u yoki bu morfemaning ma'nosi kuchsizlanishi, asta-sekin yo'q bo'lib ketishi natijasida uning iste'moldan chiqib ketishi;
- 2) o'zakdosh so'zlar o'rtasidagi aloqaning uzilishi.

Birinchi usulga o'zbek tilidagi *qishloq, qovurg'a, yuksak, qachon, bo'rsiq* so'zlari, rus tilidagi *нужный, хижина, кольцо* so'zlari misol bo'la oladi. *Qishloq* so'zi aslida **qish+la** (fe'l yasovchi affiks) + **q** (ot yasovchi affiks) morfemalaridan; *qovurg'a* so'zi **qop+ur** (daraja ko'rsatuvchi affiks) + **g'a** (ot yasovchi affiks) morfemalaridan; *yuksak* so'zi **yuk+sa** (fe'l yasovchi affiks) + **k** (sifat yasovchi affiks); *qachon* so'zi **qay, chog'** va **-in** morfemalaridan hamda *bo'rsiq* so'zi esa **bo'r+si+q** morfemalaridan tashkil topgan. Hozirgi tilshunoslikda bu so'zlar soddalashuv tub so'zlar sifatida baholanadi.

Нужный, хижина, кольцо so'zlarini hozirgi rus tili grammatikasi nuqtai nazaridan yuqoridagi so'zlar kabi izohlash mumkin. Bir vaqtlar rus tilida *нужа, хижа, коло* so'zlari bo'lgan, ana shu so'zlarga so'z yasovchi (**-н, -ин, -у**) va shakl hosil qiluvchi (**-ый, -а, -о**) affikslar qo'shilishi natijasida bu so'zlar hosil bo'lgan.

Hozirgi o'zbek tilidagi *qishloq* va *qishki* so'zlari ikkinchi usulga misol bo'la oladi. Etimologik jihatdan har ikkala so'zning ham o'zagi **qish** so'zi bo'lgan. Hozirgi til nuqtai nazaridan ularda hech qanday semantik umumiylik yo'q. Rus tilidagi *жур (yog'), жизнь (hayot), жуеой (tirik)* so'zlari qadimda o'zakdosh so'zlar hisoblangan. Aslida *жур* so'zi **жи+р** (so'z yasovchi affiks)dan tuzilgan bo'lib, «hayotda o'ttirilgan» ma'nosini bergan. Tilning tarixiy taraqqiyotida bu so'zlarning morfemalari orasidagi chegara yo'qolgan, ya'ni soddalashuv hodisasi ro'y bergan. Soddalashuv jarayoni ba'zan bir tildan ikkinchi tilga so'z o'zlashtirganda ham sodir bo'lishi mumkin. Chunonchi, ingliz tilidan o'zlashgan *футбол, вейбол* so'zlari, nemis tilidan o'zlashgan *курорт* so'zi o'zbek tilida tub so'zlar hisoblanadi. Aslida esa o'z holatida bular qo'shma so'zlardir, ya'ni **foot** – oyoq, **ball** – to'p, **volley** – qo'l, **ball** – to'p; **kur** – dam, **ort** – joy kabi. O'zbek tiliga fors tilidan o'zlashgan *navro'z* tub so'zi aslida *nav*-yangi, *ro'z*-kun ikki o'zakdan, *astoydil* tub so'zi «*az tagi dil*» uch o'zakdan tashkil topgan. Rus tiliga o'zbek tilidan o'zlashgan *карандаш, утюг* so'zlari hozirda shu tilda tub so'zlar hisoblanada, etimologik jihatdan o'zbek tilida bular «qora tosh», «o't yoq» shaklidagi qo'shma so'zlar bo'lgan.

Soʻzdagi morfemalar chegarasining oʻzgarishi natijasida yangi affiksial morfemalar paydo boʻlishi ham mumkin. Bunday jarayon soʻzning material strukturasi q a y t a b oʻl i n i s h hodisasi deb yuritiladi.

Oʻzbek tilidagi *boʻlajak*, *ular*, *gulduros* soʻzlarida, rus tilidagi *готовность* soʻzida qayta boʻlinish hodisasini kuzatish mumkin. Hozirgi kunda bu soʻzlar *boʻlajak* (sifatdosh shakli affiksi), *u+lar* (koʻplik shakli affiksi), *guldur+os* (sifat yasovchi affiks); *готов+ность* (soʻz yasovchi affiks) shaklida morfemalarga ajratiladi. Ilmiy adabiyotlarda keltirilishicha, bu soʻzlarda quyidagicha qayta boʻlinish roʻyi bergan:

boʻlajak < boʻl-a-jak < boʻl-ajak

ular < ul-ar < u-lar

gulduros < guldur-a-s < guldur-os

готовность < готов-н-ость < готов-ность.

Baʼzi hollarda faqat afiksial morfemalar emas, soʻzlar ham qayta boʻlinadi. Masalan, rus tilidagi **s** va **k** predloglari uchta tovushdan tashkil topgan: *сън, кън*. Maʼlumki, predloglar yordamchi soʻzlardir. Nutqda urgʻu olmaydigan predloglar, odatda, olmoshlarga qoʻshilib talaffuz etiladi. Vaqt oʻtishi bilan bu predloglar quyidagi koʻrinishga ega boʻlgan:

сън ум < сънум < съ нум < с нум;

кън ум < кънум < къ нум < к нум.

Avval tub deb hisoblangan soʻzlarning yasama yoki murakkab soʻzlar qatoriga oʻtishi m u r a k k a b l a s h u v deyiladi. Bu hodisani boshqa tildan oʻzlashgan soʻzlarda kuzatishimiz mumkin. Murakkablashuv hodisasi tilda soddalashuv va qayta boʻlinish hodisalariga nisbatan kamroq uchraydi. Chunonchi, rus tilidagi *правюра* (toshga, metallga yoki yogʻochga oʻyib ishlangan va bosmaxonada bosilgan rasm) soʻzi fransuz tilidan olingan boʻlib, rus tilida *правёр, правуровать* soʻzlari paydo boʻlgandan keyingina uch morfemaga (*прав-юр-а*) ajratiladigan boʻldi.

Yuqorida taʼkidlab oʻtganimizdek, tilning tarixiy taraqqiyoti va oʻzgaruvchanligini tilning istalgan sathida kuzatishimiz mumkin. Albatta, bundan yangi soʻzlarning hosil boʻlishi masalalari bilan shugʻullanuvchi «Soʻz yasash» boʻlimi ham mustasno emas. Yasalma soʻzlarning soʻz yasaliş strukturasi hamda har bir tilga xos soʻz yasash vositalari sistemasi tarixan oʻzgaruvchidir. Shunga koʻra, bu sathda **diaxroniya** va **sinxroniya** aniq farqlanishi lozim. Xoʻsh, bu atamalarda qanday maʼno mujassamlashgan? Til taraqqiyotining maʼlum davrida soʻzlar qanday hosil boʻlganligini, uning dastlabki holati, soʻz yasaliş strukturasi boʻlgan oʻzgarishlarni oʻrganuvchi soha diaxroniya yoki tarixiy soʻz yasaliş deyiladi. Til taraqqiyotining hozirgi bosqichida soʻz yasash tizimini sinxroniya yoki hozirgi soʻz yasaliş oʻrganadi.

Diaxroniya va sinxroniya oʻzaro bir-biriga mos kelishi ham, mos kelmasligi ham mumkin. Chunonchi, oʻzbek tilidagi *xazinachi, suvchi* (Izoh: **-chi** affiksi bilan ot yasaliş turkiy tillarda qadimdan mavjud va u qadimgi yodgorliklar tilida ham aks etgan. Qarang: Mahmud Qoshgʻariy. DLT. II tom, T., 1961. 54-bet), *vaʼfosiz, sensiz* (Qarang: A.Navoiy. Muhokamatul lugʻatayn. TA., III tom. T., 1948.) soʻzlarida sinxronik soʻz yasaliş strukturasi diaxronik soʻz yasaliş strukturasi mos keladi.

Ammo oʻzbek tilidagi *yumsha, yurak, yuksak* soʻzlarining tuziliş diaxronik aspektida *yum+sha, yur+ak, yuk+sa+k* shakliga ega boʻlsa-da, sinxronik aspektida bir oʻzak sifatida qaraladi. Chunki sinxronik aspektida ularning *yum, yur, yuk* soʻzlari maʼnosi bilan bogʻlanishi sezilmaydi.

Diaxronik va sinxronik soʻz yasaliş oʻzaro dialektik bogʻliqdir. Til taraqqiyotining har bir bosqichida mavjud qoliqlar asosida yangi soʻzlar yasalişida yasaluvchi soʻzning boshlangʻich soʻz yasaliş strukturasi emas, oʻsha davrdagi sinxronik soʻz yasaliş strukturasi muhimdir. Chunonchi, hozirda rus tilida eng sarmahsul hisoblanadigan **-ник** suffiksi tarixan qayta boʻlinishga uchragan boʻlib, diaxronik aspekt uning asl shakli **-ик** boʻlganligini koʻrsatadi. Demak, *цветник, охотник* soʻzlarining sinxronik soʻz yasaliş strukturasi diaxronik soʻz yasaliş strukturasi mos kelmaydi. Biroq **-ник** suffiksi hozirda yangi soʻzlar yasashga xizmat qilmoqda: *градусник, плотник* kabi.

Odatda, har qanday yasalma ikki aʼzoli boʻladi: asos va formant. Birinchi yasalma bilan semantik bogʻlanishda boʻlgan qism, ikkinchisi esa farqlovchi qismdir. Masalan, *sinf* soʻzining semantikasi bilan bogʻliq boʻlgan qism **sinf** va bu soʻzni farqlovchi qism **-dosh** shaklidir. Yasaluvchi soʻz bilan yasalgan soʻzning maʼnolarida bogʻlanish boʻlishi sinxronik soʻz yasalişining asosini tashkil etadi.

Maʼlumki, til gʻoyatda murakkab va serqirra hodisadir. Til insonning bevosita kuzatishi va mustaqil ilmiy izlanishlari uchun mavjud emas. Aslida til insonning nutq faoliyati bilan chambarchas bogʻlanib, soʻzlashish, eshitish, yozish va oʻqish kabi murakkab protsesslarni oʻz ichiga oladi. Bu jarayonlar faqat tilshunoslikda emas, balki boshqa fanlarda ham oʻrganiladi. Shunga koʻra, inson tili mustaqil obyekt sifatida bir necha fanlarning predmetini tashkil etadi.

Tilshunoslik til boʻyicha tadqiqotlar olib borilganida, boshqa fan materiallariga ham suyanadi. Ayni paytda boshqa fanlar ham til materiallaridan foydalanadi. Umuman, tilshunoslik boshqa fanlar bilan uzviy aloqadordir.

Tilni tilshunoslik bilan bir qatorda falsafa, psixologiya, sotsiologiya, mantiq kabi fanlar ham oʻrganadi. Tilni oʻrganishda ishtirok etadigan har bir fanning tilga nisbatan oʻz munosabati bor.

«Tilshunoslikka kirish» kursini chuqur egallashni istagan talaba, albatta, shu fanga yondosh boʻlgan sohalaridan ham yaxshigina xabardor boʻlmogʻi lozim. Jumladan, falsafa tilshunoslikning metodologiyasini belgilab berar ekan, falsafani oʻrganmagan kishi tilshunoslik uchun xarakterli boʻlgan analiz tamoyillari va metodlarini tushuna olmaydi. Dialektika qonuniyatlarini bilmagan «til oʻrganuvchi» til va nutq faoliyatiga sistema sifatida yondasha olmasligi aniq. Yoxud til-fikr ifodalash quroli, fikr esa mantiq fanining oʻrganish obyekti ekanligini hisobga oladigan boʻlsak, logik kategoriyalarni bilish naqadar muhim ekanligini izohlashga hojat yoʻq.

Tilshunoslikning psixologiya (inson ruhiy protsesslarining qonuniyatlarini oʻrganadigan fan) bilan bogʻliqligini lingvistikaning nisbatan yangi sohasi psixolingvistika oʻrganadi.

Tilshunoslik tarix, bazis va ustqurma haqidagi fanlar, pedagogik fanlar bilan ham uzviy aloqadordir. Soʻzlarning tarixini, tilning lugʻat boyligini oʻrganishda tarix tilshunoslikka katta yordam beradi. Sababki, til urugʻ va qabila, elat hamda millat tarixi bilan chambarchas bogʻliq. Shunga koʻra kishilik jamiyatining tarixi tilda oʻz aksini topadi.

Tilshunoslik va tarixning bog'lanishi ikki tomonlama bo'lib, tarix materiallari til taraqqiyotini o'rganish uchun, til faktlari tarix uchun muhimdir. Ushbu fan arxeologiya, etnografiya, shuningdek, adabiyotshunoslik bilan ham zich bog'langandir. Zero, tilshunoslik bilan adabiyotshunoslik filologiyani tashkil etadi.

Tilning o'zgaruvchan hodisa ekanligi xususida yuqorida batafsil mulohaza yuritgan edik. Biroq tilda sodir bo'layotgan o'zgarishlar (lug'at sostavi hisobga olinmasa) shu qadar sekinlik bilan amalga oshadiki, buni bir avlodning yashash davrida ajratib olish, qayd etish ancha mushkul vazifadir. Ba'zan asrlar osha, to'rt-besh avloddan keyingina tilning fonetik, grammatik sathlaridagi siljishlar ko'zga tashlana boshlaydi. Til taraqqiyotidagi bunday o'zgarishlarni tahlil etishda yozma tarixiy manbalarning o'rni beqiyosdir.

Yozma tarixiy manbalarga suyanan holda tilning grammatik qurilishi taraqqiyotini tarixiy grammatika o'rganadi. Har bir tilga xos bo'lgan tarixiy grammatika qadimgi davrdan tartib hozirgacha bo'lgan yozma manbalarning tilini tahlil qilish va bir davr yozma manbaining til xususiyatlarini boshqa davr yozma manbalari til xususiyatlariga qiyoslash yo'li bilan til taraqqiyoti qonuniyatlarini aniqlaydi va tilning tadrijiy taraqqiyotini belgilaydi. Xususan, o'zbek tilining tarixiy taraqqiyotini belgilashda, til taraqqiyotidagi fonetik, leksik, grammatik o'zgarishlarini tahlil etishda quyidagi tarixiy manbalar muhimdir:

1. Mahmud Qashg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asari (1073/1074);
 2. Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» didaktik asari (1069-1070);
 3. Abulqosim Zamaxshariyning «Muqaddimatul adab» nomli arabcha-forscha-turkcha lug'ati (1137);
 4. Ahmad Yugnakiyning «Hibatul haqoyiq» asari (XII asr);
 5. XIII asrda yaratilgan «O'g'iznoma» asari;
 6. XIII-XIV asrlarda yaratilgan «Qissasul anbiyo» (Rabg'uziy); «Tafsir»; «Muhabbatnoma» (Xorazmiy), «Xisrav va Shirin» (Qutb), «Rohatul qulub», Nahjal farodis; «Qissai Yusuf» (Qul Ali), «Yusuf va Zulayho» (Durbek) asarlari;
- Lutfiy, Atoiy, Sakkokiy, Yaqiniy, Ahmadiy, Yusuf Amiriy, Mir Haydar, Xo'jandiy, Husayniy asarlari.

XV asr boshlarida ijod etgan Javhariy, Qambar o'g'li, Qosim, Gadoiy, Mir Sayid, Omoniy va o'z asarlarida eski o'zbek adabiy tili rivojini eng yuqori nuqtaga ko'targan Nizomiddin Mir Alisher Navoiyning ulkan adabiy merosi va boshqalar. Ushbu ro'yxatni bosqima-bosqich yuzlab prozaik va poetik asarlar nomi bilan to'ldirib uzoq davom ettirish mumkin.

Tarixiy yozma manbalar asosida kuzatishlar shuni ko'rsatadi, tilning lug'at boyligida shunday so'zlar ham bo'ladiki, ular umumxalq so'zlari bo'lib, tilda asrlar davomida ishlatilaveradi, masalan: *suv, yer, havo, qizil, bir, uch, men, sen, berdi, oldi, kecha, bugun, biroq, uh, oh, taq-tuq* va h.

Bu kabi juda ko'p so'zlar o'zbek tilida Navoiy davrida ham, undan oldin ham tez-tez ishlatilgan, hozir ham ishlatilmoqda. Shu asnoda tilda zarur barqarorlik ta'min etiladi, til avloddan avlodga o'ta beradi. Til grammatikasidagi o'zgarishlar juda sekinlik bilan ro'y berishini yuqorida eslatib o'tgan edik. Quyidagi misollar fikrimizni dalillaydi:

Hozirgi o'zbek adabiy tilida ravishdoshning bir shakli fe'l o'zak-negiziga **[-b/ib]** affiksini qo'shish bilan hosil bo'ladi: *asrab, qarab, yurib* kabi.

Bu affiksning qadimgi shakli **[-bon/ibon]** ko'rinishiga ega bo'lgan.

Hunarni asrabon netkumdir oxir,
Olib tuproqqamu ketkumdir oxir?!

(XV asr. A.Navoiy.)

Chiqti ul muncha kishi otlanibon,
Ish qilurg'a barisi qatlanibon.

(XVI asr. M.Solih.)

O't qo'yubon kuydiradurg'on o'zim.

(XIX asr. Muqimiy.)

Qorong'u kechada ko'kka ko'z tikib,
Eng yorug' yulduzdan seni so'raymen.
(XX asr. Cho'lpon.)

Tilning asta-sekin rivojlanishi va takomillashuvi ma'lum qonuniyatlar asosida yuz beradi. Til qonuniyatlari tabiat qonuniyatlaridan tubdan farqlanadi. Ko'p qirrali ijtimoiy hodisa bo'lgan tildagi barcha elementlar bir-biri bilan uzviy ravishda bog'lanadi. Shu sababli tildagi qonuniyatlar ham o'zaro uzviy bog'liqdir. Til qonuniyatlari tilning ichki jihatini belgilaydi va xarakter-xususiyatiga ko'ra umumiy hamda xususiy qonuniyatlarga bo'linadi.

Barcha tillarga xos bo'lgan universal holdagi tartib va qoidalarni belgilab beruvchi qonuniyatlar umumiy qonuniyatlar hisoblanadi. Masalan, turkiy tillardagi singarmonizm (unlilarning uyg'unlashuvi yoki unlilar garmoniyasi) qonuniyati.

Ayrim tillargagina xos bo'lgan hodisalarni izohlovchi qonuniyatlar xususiy qonuniyatlardir.

Til qonuniyatlarining yuzaga kelishiga tildagi ichki faktorlar ham, tashqi faktorlar ham ta'sir ko'rsatadi. Chunonchi, olimlarning fikricha, o'zbek shevalarida singarmonizm hodisasining yo'qolishiga eron tillari sabab bo'lgan yoki rus tilining barakali ta'siri natijasida hozirgi o'zbek tilidan **[f]**, **[j]** fonemalari mustahkam o'rin oldi va urg'u ham ko'chma tabiatga ega bo'ldi.

Til qonuniyatlari moddiylikka ega bo'lmagan imkoniyat bo'lib, tildagi birgina qonuniy o'zgarish milliardlab nutqiy voqealardagina tajallilinishi mumkin. Zero, tildagi qonuniy o'zgarishlar nutqiy hodisalarni belgilab beradi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Til o'zgaruvchan ijtimoiy hodisa ekanligini tushuntiring.
2. So'z strukturasi o'zgarishining uch usuli haqida ma'lumot bering.
3. Soddalashuv hodisasining yuz berishiga sabab bo'lgan omillarni tushuntiring.
4. Qayta bo'linish hodisasiga misollar keltiring.
5. Tarixiy so'z yasash deganda nimani tushunasiz?
6. Sinxroniya haqida batafsil ma'lumot bering.
7. «Gulbahor kasalga e'tibor bermadi, uning fikri-yodi «Navro'z»da edi». Ushbu gapda so'z yasashning qaysi usullaridan foydalanilganligini aniqlang.
8. Tilshunoslik faniga yondosh predmetlari haqida ma'lumot bering.
9. Nima uchun tilshunoslik va adabiyotshunoslik birgalikda «filologiya» deb ataladi?
10. Tilshunoslik va yozma manbalarning ahamiyati haqida so'zlang.
11. Til qonuniyatlarining o'zgarishiga sabab bo'luvchi omillar haqida gapiring.
12. Til qonuniyatlaridagi umumiylik va xususiylik nimalardan iborat?

Asosiy adabiyot:

1. Азизов О. Тилшуносликка кириш. Т., «Ўқитувчи», 1996.
2. Баскаков Н., Содиқов А., Абдуазизов А. Умумий тилшунослик. Т. «Ўқитувчи», 1979.
3. Содиқов А., Абдуазизов А., Ирискулов М. Тилшуносликка кириш. Т., «Ўқитувчи», 1981.

Yordamchi adabiyot:

1. Абдурахмонов Ф., Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. Т., «Ўқитувчи», 1973.
2. Кодухов В. Введение в языкознание. М., 1987.
3. Нейматов Х., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. Т., 1995.
4. Содиқов А. ва б. Тилшуносликка кириш. Т., «Ўқитувчи», 1981.
5. Шоабдурахмонов Ш. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. III қисм. Т., «Ўқитувчи», 1980.
6. Ғуломов А. ва б. Ўзбек тили морфем луғати. Т., «Ўқитувчи», 1977.

Mavzu: Jamiyat va til taraqqiyoti

Reja:

1. Til taraqqiyotida tashqi omillar.
2. Jamiyat va til aloqadorligi.
3. Differensiya va integratsiya.
4. Tillarning bir-biriga ta'siri.
5. Xulosa.

Mavzu bo'yicha tayanch tushuncha:

Tashqi omillar, jamiyat va til, tilning ekstralingvistik omillari, differensiya, integratsiya, tillarning o'zaro ta'siri, tillarning chatishuvi, bilingvizm, tillarning o'zaro progressiv va regressiv ta'siri.

Til taraqqiyotidagi tashqi omillar- jamiyat va til, nutqiy situatsiya, tilning boshqa tillar bilan o'zaro aloqasi va ta'siri, tir taraqqiyotida differensiya va integratsiya hodisalari, tilning ekstralingvistik faktorlarini o'z ichiga oladi. Paralingvistika, psixolingvistika, areal lingvistika, sotsiolingvistika, ekstralingvistika singari sohalar mana shu tashqi omillarni tadqiq qiladi.

Lisoniy rivojlanishning tashqi omillari tilning hududiy (areal), davriy, ijtimoiy va tarixiy sharoitlariga ko'ra yuz beradi. Bunda nutq jarayoni aloqa va kontakt masalalari va vaziyatlari (situatsiya) hisobga olinadi. Tillarning o'zaro ta'siri va bilingvizm hodisasi, nutqiy iqtisod va tushunarlik qonuniyatlari o'rganiladi. Tashqi omillarning asosini- tilning ijtimoiy ahamiyati va funksiyalari, tillarning tarixiy taraqqiyotini tashkil qiladi.

Til hamisha jamiyat bilan aloqadorlikda ekan, so'zlovchilarning ekstralingvistik omillar ta'sirida bo'lishlari ham shu munosabatdan kelib chiqadi.

Til – jamiyat a'zolarini birlashtiruvchi qadriyat. Til umumiy, nutq esa –xususiydir, ya'ni har bir kishining nutqi o'ziga xos, individual. Kishilar o'z tafakkur tarziga, fikrlash qobiliyati va imkoniyatlariga ko'ra so'zlaydilar. Bundan tashqari nutqidan uning bilish saviyasini, umumiy dunyoqarashi - odatlarini, madaniyat darajasini – ma'naviy olamini bilsa bo'ladi, qolaversa, har birimiz o'z uslubimiz (stil) va estetik, etik didimiz, tushunchaimizga ko'ra turlicha nutqqa egamiz.

Inson – jamiyatda tug'ilib voyaga yetadi, kamol topadi. Demak, insoniy til ham jamiyat bilan birgalikda rivojlanishdadir. Til ijtimoiy hodisa sifatida tabiiy hodisalardan ajralib turadi. Masalan, kishilarning tabiiy biologik xususiyatlari (ovqat eyishi, nafas olishi va h.) tabiat qonunlariga muvofiq, jamiyatga bog'liq bo'lmagan holda rivojlanib boradi. Ammo tilda so'zlashish va fikrlashish uchun kishilik jamiyati (sotsial muhit) bo'lishi shart. Til nasldan- naslga, avloddan-avlodga o'tadigan irsiy hodisa emas, aksincha, til jamiyat taraqqiyotining mahsulidir. Agarda yosh go'dak kimsasiz orolga yoki hayvonlar orasiga tashlab qo'yilsa, u insoniy tildan bexabar bo'lib o'sadi (olimlar bunday tajriba o'tkazishgan yoki eslang: Maugli) yoki agar xitoy bolasi o'zbeklar orasida ulg'aya, tarbiyalansa, u faqat o'zbekcha so'zlab, ajdodi tilini bilmasligi mumkin. Lekin xitoy bolasining biologik belgilari (yuz ko'rinishi) irsiy holda o'zgarmaydi.

Til va jamiyatning uzluksiz ta'sirini tildagi argo, jargon, tabu va evfemizmlar yoki semantik o'zgarishlar misolida kuzatish mumkin.

Tilimizda muayyan bir guruh kishilarni ishlatuvchi- “ko’kidan”, “soqqa”, “mullajiring”, “malak”, “shef”, “oqidan”, “kabutar” kabi so’z va tushuncha tilga, jamiyatga oid hodisalardir. Shuningdek, tabu va evfemizmlarning paydo bo’lishi ham, ijtimoiy tafakkur, aniqrog’i irim va e’tiqodlar bilan bog’liq. Masalan, *ilon* - “arg’amchi”, *pes* – “oqarmoq” kabi qo’llashlar bu yomon hodisalarning oldini olish, irim bilan bog’liq bo’lsa, *tug’moq*- “yengil bo’lmoq”, “ko’zi yorimoq”, “o’g’il yo qiz ko’rmoq”; *erga bermoq* - “turmushga chiqarmoq” (*uzatmoq*), “*baxti ochilmoq*” singari qo’llashlar etika (madaniyat)ga daxldordir.

Differensiya va integratsiya jarayonlari til taraqqiyotining o’ziga xos ijtimoiy qonuniyatlari hisoblanadi. Differensiya – tillarning bo’linishi, farqlanishi bo’lib, til doirasidagi sheva va lahjalarning yoyilishi, tarqalishidir. Differensiya natijasida tillar qardosh tillarga yoki dialektlarga bo’linib ketadi. Integratsiya esa, aksincha, sheva va dialektlarning qisqarib, adabiy tilga yaqinlashuvi, uyg’unlashuvi hodisasidir. Demak, bular bir-biriga zid tushuncha bo’lib, differensiya tillar va dialektlar sonini ko’paytirs, integratsiya ularni qisqartiradi. Har ikkala holat ham tilning **tarixiy** va **davriy** omillariga tegishli bo’lib, lisoniy traqqiyotning o’ziga xos ijtimoiy tarixini ifodalaydi. Bu hodisalar ilm- fanda ijtimoiy mehnat nazariyasi asosida rivojlantirilgandir. Chunonchi, kishilarning dastlabki ibtidoiy to’dalari bora-bora urug’ga, so’ngra qabilaga aylangan. Bu qabilaning o’z tili (dialekti) bo’lgan. Qabila ma’lum bir ijtimoiy-siyosiy., hududiy sabablarga ko’ra bo’linib ketgach, qarindosh - urug’lar paydo bo’ladi. Endi bu qarindosh - urug’lar bir til doirasida, lekin turli sheva va dialektlarda so’zlashuvchi xalqqa aylanadi. “Yangi – yangi dialekt va tillarning paydo bo’lishida ikki faktor hal qiluvchi ahamiyatga ega bo’ldi: vaqt va masofa. Vaqt o’tgan sayin masofaning kengaya borishi yangi dialekt va tillar paydo bo’lishiga olib keladi” (Qarang: Содирув А. ва б. Тилшуносликка кириш. Т., 1981. 212-6.).

Integratsiya jarayonini shunday tasavvur qilish mumkin: bir til doirasida mavjud bo’lgan ta’siri tufayli yo’qolib boradi; masalan, televizor va radio, ommaviy matbuot va axborot sur’atining jadallashishi, adabiy til mavqeining oshishi, barcha uslublarda, adabiy tildan foydalanish integratsiya jarayonini yanada oshiradi, uning ta’sir doirasini kengaytiradi. Chunki, har bir millat adabiy tilning mustahkamlanishi, boyishi uchun qayg’uradi va shu borada sa’y – harakat olib boradi. Xuddi shuningdek, o’zbek adabiy tilining yuksalishi va mustahkamlanishi uchun astoydil intilishimiz zarur.

Til hamisha rivojlanishdagi hodisa sifatida boshqa tillarga o’zaro ta’sir qiladi yoki tashqi ta’sirga uchraydi. Ilm-fan va texnika taraqqiyoti, savdo-sotiq, madaniy va maishiy aloqalar, hattoki, urush va bosqinlar ham tilga o’z ta’sirini o’tkazadi. Tillar tarixiga nazar tashlydigan bo’lsak, tashqi ta’sir natijalarini ko’ra olamiz. Masalan, hozirgi o’zbek adabiy tilidagi aksariyat so’zlar arabcha va ruscha-internatsionaldir. Arablar bosqini va arab tili ta’siri, hukmronligi oqibatida tilimizga ko’plab arabcha so’zlar kirib keldi: *kitob*, *madrasa*, *ma’lum*, *marshhur*, *maktab*, *domla*, *maktub*, *iymon*. Arabcha leksika tilning kattagina qismini egallab olgan. Shuningdek, qardosh xalqlar bilan munosabat, savdo-sotiq va boshqalar fors-tojik, uyg’ur, xitoy tillaridan so’z o’zlashtirishga asos bo’ldi: *xona*, *barg*, *xazon*, *devor*, *zimiston*, *dil xhat*, *kulba*, *shahar*, *siyoh*; *manti*, *lag’mon*, *xonim* va hokazolar.

Chor Rossiya sinig O’rta Osiyoni zabt etishi hamda ruslashtirish oqibatida o’zbek tili leksikasida, umuman butun til tizimida kuchli ta’sir sodir bo’ldi. *Bolshevik*, *partiya*, *sovet*, *kommunizm*, *sotsializm* singari ko’rinishlar o’sha davr neologizmlari edi. *Stol*, *stul*, *papka*, *sumka*, *doska*, *klass*, *lampochka*, *ostanovka*, *dirijyor*, *muzikant*, *televizor* va hokazo so’zlar ommalashdi. Rus tili orqali inglizcha-baynalmilal so’zlar kirib keldi: *telefon*, *aktyor*, *artist*, *radio*, *kollektiv*, *ideya*, *obyekt* va boshqalar.

Bunday lisoniy ta’sir xususiyatlarini barcha tillarda kuzatish mumkin; masalan, hozirgi ingliz tili lug’at boyligidagi so’zlarning taxminan 30 foizigina sof inglizcha so’zlar, qolganlari qardosh xalqlardan, roman, fransuz yoki italyan, sharq tillaridan o’zlashgan so’zlardir. Tillarning bir- biriga o’zaro ta’siri tillarning chatishuvi va belingvizm hodisalariga sabab bo’ladi. (Agar so’z o’zlashtirish tilning ichki (grammatik) strukturasiga ta’sir ko’rsatmasa, bu tillarning hamkorligi (языковые контакты) deyiladi, agarda bir til boshqa tilga tazyiq o’tkazib, uning ichki strukturasiga o’rnashsa, bu tillarning chatishuvi deyiladi. Lekin bu tushuncha ham nisbiydir. Masalan, arab xalifaligi davrida turkiyzabon va eroniy xalqlar uning tazyiqi ostida edilar. Arab tili nafaqat davlat tili, balki madaniy va diniy (ilohiy kitob “Qur’on” arab tilida bo’lganligi, hamda uni o’rganish, o’qish majburiy qilib qo’yilganligi bois mustamlaka xalqlardan arab tilining nafaqat leksikasini, balki grammatikasi va fonetik, ifodali (qiroat) o’qish malakalarini egallashlarini ham talb qilar edi) ta’sir vositasiga aylantirilgan edi. Biroq, arab tili turkiy tilga jips singganligi bilan, uning grammatik qurilishi (flektiv) turkiy tilga ko’chmagan.

Fransiyaning XI asrda Britaniya orolini bosib olishi va fransuz tili bilan anglosakson tillari orasidagi kurash natijasi chatishuvga misoldir. Fransuz tili Angliya hududida g’olib, ingliz tili esa mag’lub bo’ldi, lekin fransuz tili o’z vatanida yashar, rivojlanar ham edi. Xullas, til kurashlaridan keyin, g’oliblar o’z tillarini unutib, anglosakson tilini qabul qiladilar. Ingliz tili ham fransuz tilidagi so’zlarning ma’lum bir qismini saqlab qolib, tilning (kelgindi tilni) o’zini siqib chiqaradi. Demak, bu yerda superstrat hodisasi, ya’ni kelgindilar tilining mahalliy tilga ta’siri sodir bo’lishi, lekin uni siqib chiqarolmasligi yuz bergan.

Endi bilingvizm jarayoni haqida. Bilingvizm – ikki tillilik demakdir. Turkiy xalqlar uchun ikki tillilik ularning butun tarixiy taraqqiyoti davomida va barcha hududlarda tarqalishi doimiydir. Ancha intensiv ifodalangan ikki tillilikning qadimiy davrdagi ko’rinishlari turkiy-mo’g’ul, turkiy - fin-uyur va turkiy – fors, turkiy- arab bo’lib, ularning o’zaro ta’sirini ko’rsatuvchi xususiyatlar hozirgi davrgacha saqlanib qolgan. Bu ta’sir bir tomondan, Sibir va Volga bo’yi turkiy tillarida, boshqa tomondan O’rta Osiyo va Kavkaz turkiy tillarida hozirgacha ko’rinadi. Sovet ittifoqi davrida turkiy-rus bilingvizmi bu davr tilining asosini tashkil etdi. Bilingvizm shevalararo ham bo’lishi mumkin: masalan, Buxoro shevasida tojik-o’zbek ikki tilligi mavjud.

Tillarning o’zaro ta’siri tufayli tilning fonetik, leksik va grammatik tizimida ma’lum o’zgarishlar sodir bo’lishi mumkin. Rus tili ta’sirida o’zbek tili tizimida sezilarli o’zgarishlar ro’y berdi: ruscha- internatsional so’zlar kirib keldi, kalkalash va terminologiya rivojlandi, dublet so’zlar va variantlar paydo bo’ldi, har xil tarkibli so’z va iboralar paydo bo’ldi: *sovxoz*, *qishloq xo’jaligi*. Bu jarayonlar o’zbek tili leksik strukturasini o’zgartirdi.

Fonetik struktura esa, ru tili va boshqa tillardan (fors - tojik, tatar, boshqird, arab) o’zlashgan fonemalar ham uchraydi: masalan, lab, tish fonemalar – [v], [f], affrikatlar - [u], [r], sirg’aluvchilar – [x], [sh], ba’zi tillarda – [o], [e] (tatar, boshqird) unlilari.

Sintaksis sohasida birmuncha jiddiy oqibatlar kuzatildi. Jumladan, rus va hind-evropa tillari uchun xos bo’lgan gap strukturasiga zo’rma-zo’rakilik bilan o’zbek tiliga tiqishtirildi, chunonchi, bosh bo’laklar, bir sostavli va ikki sostavli gaplar kabi. Birgina – *Mevalar terildi* gapining shaxssiz gap sifatida talqin qilinishi (mantiqiy subyektga tayanilib) o’zbek tili sintaksisida g’ayrimilliy, noto’g’ri oqibatlar yuzaga kelganligini ko’rsatadi.

Til taraqqiyoti tilning yashash tarzi, mavjud bo'lishlik shartidir. Tilda hech bir narsa yo hodisa birdaniga, o'z-o'zidan sodir bo'lmaydi, lisoniy hodisa va jarayonlar til rivojlanishining ma'lum bir qonuniyatlari asosida asta-sekin, evolyutsion ravishda yuz beradi. Til taraqqiyoti uning tashqi va ichki omillariga bog'liq. Bu omillar til taraqqiyoti sistemasini, zanjirini hosil qiladi. Sistemadan har bir komponent, zanjirdagi har bir xalqa esa boshqalari bilan chambarchas, zich bog'langan bo'ladi. Tilning rivojlanishida ham har bir lisoniy omil (ichki omillar, tashqi ekstralingvistik omillar, sotsial omillar) muhim ahamiyatga ega. Mana shu obyektiv qonuniyat, munosabat tufayli tillarning rivojlanishi, o'zgarishi, taraqqiyoti sodir bo'laveradi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriq:

1. "Tilsiz jamiyat mavjud bo'lmaydi", degan fikrni qanday izohlaysiz?
2. Differensiya va integratsiya hodisalari nima sababdan ro'y beradi?
3. Hozirgi o'zbek tiliga qaysi til(lar)ning tashqi ta'siri seziladi va nima uchun?
4. Tillarning rivojlanish qonuniyatlari haqida qanday xulosaga keldingiz?

Asosiy adabiyot:

1. Азизов О. Тилшуносликка кириш. Т., "Ўқитувчи", 1996.
2. Баскаков Н., Содиқов А., Абдуазизов А. Умумий тилшунослик. Т. "Ўқитувчи", 1979.
3. Содиқов А., Абдуазизов А., Ирискулов М. Тилшуносликка кириш. Т., "Ўқитувчи", 1981.

Yordamchi adabiyot:

1. Амирова Т., Ольховиков Б., Рождественский Ю. Очерки по истории лингвистики. М., 1975.
2. Абдурахмонов Ғ., Рустамов А. Қадимги туркий тил. Т., 1982.
3. Будагов Р. Проблемы развития языка. М. – Л., 1965.
4. Головин Б. Введение в языкознание. М., 1977.

Mavzu: Til taraqqiyoti. Til taraqqiyotining ichki qonuniyatlari

Reja:

1. Rivojlanish tushunchasi. Tilning rivojlanishi.
2. Til tizimi sathlarining notekis rivojlanishida ichki qonuniyatlar.
3. Shevalar- til lug'at boyligini oshiruvchi ichki manba.

Mavzu bo'yicha tayanch tushuncha:

Rivojlanish, tilning rivojlanishi, rivojlanish qonuniyatlari, lisoniy taraqqiyotning, ichki va tashqi omillari, ichki lingvistika, ichki leksik o'zgarishlar, fonetik taraqqiyot, grammatikaning rivojlanishi, milliy grammatikamiz masalalari, shevalar va ularning til tizimida tutgan o'rni.

Rivojlanish - obyektiv, dialektik jarayon bo'lib, bir sifatdan boshqa sifatga o'tish natijasida yuz beradigan o'zgarishlar tufayli ro'y beradi. Dunyodagi har bir predmet, hodisa doimiy harakatdadir. Xuddi shuningdek, til ham hamisha o'zgarishda. Bu esa til bevosita bog'liq bo'lgan jamiyat hayoti, uning doimiy harakati, rivojlanishi bilan bog'liq. Jamiyat bu harakatdan to'xtasa yoki bu aloqa uzilsa, o'sha zahoti til ham rivojlanishdan to'xtaydi, yo'qoladi. Xuddi shu fikrni V.A. Zveginsev ham ishonch bilan ta'kidlaydi: "Jamiyatsiz til rivojlanish xususiyatini yo'qotadi va u sun'iy lashadi. Masalan, lotin tili katolik dinining tiliga aylandi, o'rta asrlarda esa ilm-fanning xalqaro tili vazifasini bajardi. Xuddi shuningdek, O'rta Sharq mamlakatlarida mumtoz arab tili ham analogik rol o'ynadi" (Звегинцев В.А. Очерки по общему языкознанию. М., 1962, стр.: 178- 179).

Ilm-fan, texnika va madaniyat mudom o'zgarib, yangilanib, rivojlanib boradi. Til taraqqiyotida ichki va tashqi omillar mavjud. Til taraqqiyotining ichki omillari til tizimidagi sathlarning o'ziga xos rivojlanishiga asoslansa, tashqi faktorlar til va jamiyat, tillararo munosabat va ta'sir, nutq jarayoni, o'zlashma, qatlam singari lisoniy, aniqrog'i ekstralingvistik hodisalarda aks etadi. Shunga ko'ra, tilshunoslik 2 ga: ichki tilshunoslik hamda tashqi tilshunoslikka bo'linadi. Ichki tilshunoslik tilning ichki qurilishini, sistemasini o'rgansa, tashqi tilshunoslik tilning ijtimoiy ahamiyati va vazifasini, ya'ni jamiyatda yashovchi inson, so'zlovchining tildan qay tarzda foydalanishini, tilning jamiyatga ta'siri, shuningdek, bir xil hamda turli til oilasiga mansub tillarning o'zaro munosabati, tilga tashqi ta'sir natijasida ro'y beradigan o'zgarishlar kabilarni tadqiq qiladi.

Ichki lisoniy qonuniyatlar til tizimi sathlarida o'z aksini topadi. Lisoniy qonuniyatlar o'ziga xos ko'rinishda namoyon bo'ladi. Shu jihatdan qaraganda til taraqqiyotida umumiy va xususiy qonuniyatlarni kuzatish mumkin. Umumiy qonuniyatlar – barcha tillarga xos bo'lgan lisoniy hodisalarni, jarayonlarni anglatadi. Masalan, tilning kommunikativlik va ekspressivlik funksiyalari, til sathlarining notekis rivojlanishi, ya'ni leksik qatlamning boshqa lisoniy qatlamlarga nisbatan tez o'zgaruvchanligi, doimiy harakati va hokazolar.

Xususiy lisoniy omillar esa har bir konkret tilning o'ziga xos qoidalarini o'z ichiga oladi, chunonchi, har bir til (hattoki bir tillar oilasiga mansub tillarda ham) o'ziga xos fonetik tizimga, leksik sathga, grammatik qurilishga, stilistik uslublarga ega. Demak, bu ikki tur qonun yoki faktorlar bir-birini taqozo qiladi; umumiylik xususiyatlarni o'z ichiga oladi.

Endi lisoniy sathlarning ichki rivojlanish xususiyatlari tahliliga o'tsak. Lingvistik taraqqiyot hodisasi, asosan, uch aspektda o'rganiladi: leksik, fonetik, grammatik.

Mu'lumki, til sathlari (leksika, fonetika, morfologiya, sintaksis) notekis rivojlanadi. Tilning eng tez rivojlanuvchan, harakatchan qismi – lug'at tarkibi hisoblanadi. Leksema doimiy o'zgaruvchan, yangilanuvchan qatlamdir. Insonlarning moddiy va ma'naviy hayoti,

shubhasiz, leksikada o'z aksini topadi. Buni kunda sodir bo'lib turuvchi neologizm va arxazmlar hodisasidayoq kuzatish mumkin. Fan-texnika, ilm-fan va dunyoqarash o'sib borgan sari tilimizda yangi so'zlar paydo bo'laveradi: *kosmonavt, yadro, klip, estrada, kompyuter, internet, elektron pochta, sistema, leksema* va hokazo. Shuningdek, ijtimoiy va siyosiy hayotda qatnashmaydigan so'zlar til tizimida eskirib, arxazimga yoki istorizmga aylanadi: *bo'zchi, mirob, faytun, qozi, amir, saroybon, obkom, raykom* va boshqalar. Yaqin o'tmishda *raykom, traktor, televizor, radio* so'zlari neologizm, yangi kirib kelgan so'zlar edi. Hozirda esa ularning ko'pchiligi kundalik so'zlashuv leksikaga aylangan.

Leksik rivojlanishning ichki omillari faqat shulardan iborat emas. Semantik rivojlanish lug'atning asosini tashkil qiladi. So'zlar vaqt o'tishi bilan yoki biror- bir sabab, sharoitga ko'ra, o'z ma'no semalarini yo'qotib, boshqa sema (ma'no, tushunchaga) ga ega bo'ladilar. Masalan, o'zbek tilidagi *qishloq* so'zini olib qaraylik. Ilgari *qishloq* tushunchasi-qishlash uchun joy, qishlov ma'nosini bildirgan bo'lsa, hozirda butunlay o'zgacha, yangi ma'no anglatadi: *qishloq*- shahardan tashqarida, shahar atrofida joylashgan, asosan qishloq xo'jalik ishlari: ekin va chorvachilik uchun mo'ljallangan aholi yashash joyi. Shuningdek, *sovchi* so'zi ham qadimgi turkiy tilda sab(v)chi – so'zchi, ya'ni birovning so'zini yetkazuvchi, xabarchi, elchi ma'nosida ishlatilgan bo'lsa, hozirga qadar- uylanish niyatida bo'lgan yigit (kuyov)ning qiz (kelin) uyiga vakil kishisini yuborshi, qiz tomonning roziligini so'rash uchun harakat (ko'pincha, onasi yoki ayol qarindoshlari) ma'nosida tushuniladi. Bu kabi hodisalarni barcha tillarda kuzatish mumkin.

Rus tilidagi (hozirgi) *мучить* so'zi, dastlab ishlamoq ma'nosida ishlatilgan. Og'ir mehnatga nisbatan ishora qiluvchi *мучение, мука-работа* tushunchai bora-bora taraqqiy etaverib, alohida so'z va tushunchaga aylangan: *мучить* – azoblamoq, *мучиться* – mashaqqat va nihoyat – *работать – трудиться, заниматься работой*.

Xuddi shu ma'noviy (semantik) o'zgarish fransuz tili leksikasida ham uchraydi, masalan: fransuz tilidagi *fravail* (ish) va *fravail lor* (ishlamoq) aslida latinch *frupalium* so'zidan kelib chiqqan. *Tripalium* – otlarni taqalash paytida qattiq qisib turuvchi stanok bo'lgan. Xullas, *fravailler* (ishlamoq), dastlab *frupalium* yordamida *qiynash* semasini, keyinchalik haqiqiy *qiynash* ma'nosini anglati boshlagan. Faqat keyinchalik bu so'z ishlash ma'nosini anglati boshlagan (Qarang: Бугаров Р.А. Проблемы развития языка М.-Л. 1965. стр.: 42-43).

Bundan tashqari, til tizimida yahlitlanish, atamalashish (terminologizatsiya), soddalashish kabi ko'plab usullar mavjudligi, ular lug'at tarkibining o'zgarib turishiga xizmat qiladi. So'zlarni ko'chma ma'noda qo'llash leksika taraqqiyotida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. *Oq oltin, oltin qo'llar, bo'ri* (hayvon va salbiy ma'noda kishiga nisbatan), *tulki, ilon* (ayyor ma'nosida), *xola, otajon, amaki* (ko'chma ma'noda begona kishiga nisbatan) kabi misollar shu turkumga mansubdir.

Til taraqqiyotining ichki qonuniyatlari fonetikada yanada konkret aks etadi. Ma'lumki, fonetika nutq tovushlarini, nutqning fonetik bo'linishini o'rganadi. Fonetikada assimilyatsiya, dissimilyatsiya, singarmonizm, diftongizatsiya, enkliza, prokliza singari ko'plab qonuniyatlari mavjud. Har biri o'ziga xos fonetik tabiatga ega. Masalan, o'zbek tilida urg'u hodisasi unumli emas, shunday bo'lsa-da, o'zbek tilidagi urg'u ko'chuvchanligi bilan ajralib turadi (odatda oxirgi bo'g'inga tushadi: *kitob- kitobni...*). Rus, xitoy, yapon tillarida urg'u unumlidir: *у окна - окна, руку - руку, насномпа - насномпа*.

Fonetik qonuniyatlarning muhim jihati shundaki, ular xususiy hodisalar uchun umumiylik rolini o'taydi. Masalan, ingliz tilidagi *leaf* (urmoq) so'zi $\varepsilon : e : i$ fonetika jarayonining mahsulidir: *leaf* – be: te>be: t>bi: t. Shuningdek, o' >4 almashinuvi, taraqqiyoti qonunini ham quyidagi misollar, xususiyliklarda kuzatish mumkin: *moon-mo: n>mu: n*.

O'zbek tilining fonetik taraqqiyotini qadimgi turkiy tilni o'rganganda sezish mumkin. Hozirgi o'zbek adabiy tilida unlilar 10 ta va ularning talaffuzi ham o'zgargan: *at-ash, abag'-oyoq*. Fonetikamizda milliy hodisa sifatida saqlanib qolgan qonuniyat – singarmonizm. Singarmonizm –o'zak va qo'shimchadagi unlining uyg'unlashuvi, o'xshab qolishidir: *unum, suzuk, kulgu, qiliq, toroq* (Toshkent shevasida), *qilg'iliq* va h.z.

Grammatika – til sathlari ichida eng turg'un bo'lim hisoblanadi. Grammatik taraqqiyot bu tilning sifatii rivojlanishni aks ettiradi, chunki tildagi qatlam (math)lararo miqdoriy o'zgarishlar grammatikada umumlashadi hamda grammatik kategoriyalarning, grammatik ma'no ifodalovchi vositalarning taraqqiyotiga ichki omil bo'lib xizmat qiladi. Tillardan grammatik kategoriyalarning nisbati bir xil emas, chunonchi, ingliz va nemis tillaridagi otlarni farqlovchi xususiyat shundaki, nemis tilida (xuddi rus tilidagidek) rod kategoriyasi mavjud: *tad* (kun) – muj.r.; *wasser* –(suv) -serd.r.; *yunge* (til) jen.r. Bu hodisa qadimgi ingliz tilida ham bo'lgan: *doy* (kun) muj.r.; *water* (suv) – sred.r.; *tongue* (til) – jen.r.

Biroq, zamonaviy ingliz tilida bu grammatik kategoriya “bosib o'tilgan”, “unutilgan” ko'rinish hisoblanadi. Shuningdek, otlardagi turlanish (kelishiklar) hodisasi har ikki tilda sintetik bo'lgan, hozirda esa faqat nemis tili bu turkum qonuniyatlarini saqlab qolgan: *Именительный падеж - Tad; родительный – Tages* va hokazo.

Zamonaviy ingliz tili zamonaviy nemis tilidan hozirda grammatik tuzilishi jihatidan katta farz qiladi, chunki ulardan birinchisi analitik turkumdagi tilga aylangan bo'lsa, keyingisi sintetik turkumda davom etmoqda. Yoki yana bir misol, ingliz tilidagi kelasi zamon ma'nosini beruvchi *Shall/will* modal fe'llari o'rta asrlarda keng tarqalgan edi. Bu ikki fe'llning rivojlanish xususiyatlari quyidagicha:

Will – odatda, insonning xohish, mayl va istagi ustunroq bo'lgan o'rinlarda (*/will study - Men o'qimoqchiman*);

Shall – zaruriyat yo majburiyat ma'nosida (*/shall look to my brother - Men ukamga qarashim kerak*) qo'llanilgan.

Bibliya uslubida *shall*, badiiy uslubda *will* qo'llanilar edi. Djorj Mezon 1622-yilda bu ko'makchi fe'llarning funksional jihatlarini asoslab bergan (“Grammaire Anglaise”) va *shall*ning I shaxsda, *will*ning esa qolgan shaxslarda ishlatilish me'yorini belgilagan edi.

Nemis tilida ham parallel ravishda kelasi zamon modal fe'llari taraqqiyotida dinamik holatni kuzatish mumkin. XI-XIV asrlarda keng ishlatila boshlangan *soller / woller* modal fe'llari aynan kelasi zamonni ifodalashda o'ziga xoslik kasb etadi. Barcha shaxslarda ko'pincha *soller* qo'llanmalar edi. Biroq, keyinchalik uning o'rini keyingisi egallay boshlaydi, xususan, Lyuterning bibliyasida bu shakl juda kam ishlatiladi. XI asrda paydo bo'lgan va XII – XIII asrlarda keng foydalanilgan *werden* formasi endilikda kelasi zamon ma'nosini bera boshlagan. Zamonaviy nemis tilida *Futurum*ni ifodalash uchun har uchchala shakl qo'llaniladi. *Ich werdet kommen; Ich will in die Bibliothek gehen* (Qarang: Deutsch.T., 1977).

Endi, o'zbek tili grammatikasidagi o'zgarishlar haqida qisqacha to'xtalsak. Avvalo milliy grammatikamizning chinakam o'zbekona, milliy tabiatga ega bo'layotganligi, ko'pgina muvaffaqiyatli yutuqlar qo'lga kiritilayotganligini ta'kidlab o'tmoq joiz. Morfologiya sohasida deyarli barcha narsa-so'z turkumlari tasnifidan boshlab qo'shimchalar tasnifigacha ilmiy asosli izlanishlar olib borildi.

O'zbek tilining turkona tabiatidan kelib chiqib, sintaksisda ham muhim rivojlanish sodir bo'lmoqda. Bu sohada "gap markazi", [WPM] qolipi, atov birlik, predikativ singari tushunchaning isbotlanishi o'zbek tili milliy grammatikasi talqinini tubdan oydinlashtirdi. "Gap markazi" tushunchasi SG va QG hodisalariga aniqlik kiritdi.

Shevalar til tizimida dialektizmlar sifatida tadqiq qilinadi. Shevalar – hududiy tushuncha bo'lib, muayyan bir territoriyada yashovchi kishilar, adabiy tildan farqlanib turuvchi o'ziga xos til hisoblanadi. Sheva va dialektizmlarni o'rganuvchi tilshunoslik sohasi-dialektologiya deb ataladi. Unda lahja va shevalarning fonetik, morfologik, sintaktik va leksik xususiyatlari tavsif qilinadi. Milliy tilning paydo bo'lishi va rivojida shevalarning tutgan o'rni, milliy tilga asos bo'lgan shevalar aniqlanadi. Shevalararo, shuningdek, adabiy til va qardosh tillar bilan ularning munosabati aniqlanadi.

Shevalar – til lug'at boyligini oshiruvchi ichki manba hisoblanadi. O'zbek adabiy tili uchun Toshkent va Farg'ona shevalari asos qilib olingan. Aslida, sheva so'zi- forscha so'z bo'lib, ovoz, til, so'zlashish, odat, yo'sin, ravish degan ma'nolarni bildiradi. Sheva-biror bir tilning o'ziga xos fonetik, leksik va grammatik xususiyatlarini o'zida aks ettiruvchi kichik qismi hisoblanganligi bois lahja tushunchasidan kichikdir. Lahja shevalar yig'indisidir.

Badiiy uslubda, ya'ni badiiy asarlar yaratayotganda shevalardan foydalanish voqea, hodisalarga mahalliy, hayotiy va ijtimoiy tus berishda, shuningdek, personajlar nutqini individuallashtirishda ulkan ahamiyatga ega. Misol uchun, *shoti* so'zi Farg'ona shevasida narvon ma'nosida ishlatilsa, adabiy tilda "arovaning bir qismi", *tovoq* so'zi ham "lagan" ma'nosida, Toshkent shevasida esa lagan-katta tovoq ma'nolarida ishlatiladi. *Tovoq* so'zi Buxoroda *tabaq* shaklida keladi. Xorazm shevasida *g'uch* so'zi – mard, botir; *galadi* - keladi, *nishatamiz* - nima qilamiz kabi ma'nolarni bildiradi. Toshkent shevasi fe'llardagi hozirgi zamon formasi (-*yapti*) ning -*votti* shaklida ishlatilishi bilan ajralib turadi: *borvotti*, *borvomman*. Shuningdek, olovchi fonetika ham Toshkent shevasida kuzatiladi: *oka*, *torog'*, *johongir*, *dovlat*. [u] fonemasining [i] bilan almashinishi holatlari: *eshu-eshik*, *kichu-kichik*. [t] o'rnida [ch] kelishi: *chochu-sochiq*, *choch-soch*.

O'g'uz lahjasida esa (Xorazm) [t]-[d] almashinishlari uchraydi: *til* - *dil*; [k]- [ch]- *kul- gul*, *kel-gall*: [-ga] jo'nalish kelishigining [-ya], [-a] tarzida kelishi ham bu sheva uchun xos: *Buxoroya*, *jonima*, *ko'nglima*.

Shevalardan o'rinni foydalanish badiiy ijodning, umuman, nutqning badiiyligini, uslubning fazilati, ta'sirchanligini oshiradi. Ammo shevalarning ishlatilish doirasi va me'yori chegaralangan. Shevalarni faqat adabiy va so'zlashuv uslubida qo'llash mumkin. Rasmiy, ilmiy uslublarda shevaga xos so'zlarni qo'llash noto'g'ridir.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriq:

1. Jonli organizm va tilning rivojlanishi orasida qanday farq va umumiylklar bor?
2. Til taraqqiyotining ichki omillariga nimalar kiradi?
3. Til tizimi sathlarining notekis rivojlanishi qonuniyatini isbotlang.
4. O'zingiz yashab turgan hududdan shevaga xos so'zlarni misol keltirng, ularni adabiy tildagi so'zlar bilan solishtiring va ishlatilish me'yorlarini izohlang.

Asosiy adabiyot:

1. Азизов О. Тилшуносликка кириш. Т., “ Ўқитувчи”, 1996.
2. Баскаков Н., Содиқов А., Абдуазизов А. Умумий тилшунослик. Т. “Ўқитувчи”, 1979.
3. Содиқов А., Абдуазизов А., Ирискулов М. Тилшуносликка кириш. Т., “Ўқитувчи”, 1981.

Yordamchi adabiyot:

1. Турсунов У. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Т., 1975.
2. Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. Т., 1985.

Mavzu: Dunyo tillari

Reja:

1. Tillarni tasniflash asoslari.
2. Areal va funksional tasniflar.
3. Geneologik klassifikatsiya.
4. Morfologik yoki tipologik tasnif.

Mavzu bo'yicha tayanch tushunchalar:

Tasnif tushunchasi, tillar tasnifi, tillar tasnifi turlari, areal tasnif, funksional tasnif, geneologik tasnif asoslari, tillar oilasi, morfologik yoki tipologik tasnif, til tiplari, analitik va sintetik tizimdagi tillar.

Tasnif (arabcha - *sinf* demakdir) yoki klassifikatsiya (latinchа klassis – *sinf*, *turkum*, *guruh*) atamaları hodisalarni, tushuncha va ko'rinishlarni bir sinfga, guruhga yoki tizimga birlashtirish degan ma'noni bildiradi. Voqelikdagi barcha narsa va hodisalar muayyan tizim (sistema)ning tarkibida yashaydi, shuningdek, ma'lum bir sinflarga, guruhlarga birlashadi. Shu jihatdan qaraganda, tasnif yoki tasniflash

ilm-fan va insoniy bilish jarayonida juda muhim rol o'ynashi aniqlashadi. Ilmiy tasnif voqelikning ma'lum ko'rinishni tadqiq etishda ifodalanuvchi ilmiy qonuniyatlarga asoslanadi. Odatda, tabiiy klassifikatsiya hamda sun'iy klassifikatsiya ajratiladi: masalan, kimyoviy elementlarni sistemalashtirish yoki biologik hodisalarni guruhlashtirish tabiiy tasnif bo'lsa, yordamchi klassifikatsiyalar, bibliografiya sohasidagi alifbo asosidagi hamda nom asosidagi, soha hamda yo'nalish bo'yicha kataloglar sun'iy tasniflardir.

Dunyoda 2,5 mingdan ortiq til borligi taxminiy hisoblab chiqilgan; buni aniqlashning, hisoblashning qiyin tomoni shundaki, ba'zi bir tillar yetarli darajada o'rganilmaganligi tufayli mustaqil tilmi yoki dialektmi, noaniq bo'ladi. Zero, bunda muayyan tilda so'zlashuvchilarning soni e'tiborga olinmaydi, chunki shunday dialektlar borki, 100 ming va, hatto, ko'proq aholiga xizmat qiladi, shuningdek, shunday tillar ham borki, bir necha ming kishi va ba'zan undan ham ozroq kishilar foydalanishadi. Ba'zi bir tillar borki, juda tor doiradagi insonlar guruhiga xizmat qiladi. Masalan, Afrika, Polineziya, Amerika hududlari, Dog'istondagi ba'zi elat va qabilalar tili misol bo'la oladi. Bir xil tillar faqat bir xalqning tili hisoblanadi. Masalan, dungan tili (Qirg'iziston, Qozog'iston), mansi tili (Shimoliy Zauralye) muayyan xalq tili bo'lsa, chesh, polyak, bolgar tillari millat bilan bog'liq. Tillarning yana bir sinfi – bir necha millatlarga xizmat qiluvchi til bo'lib hisoblanadi. Bunga misol qilib, portugal tilining Portugaliya va Braziliyada, fransuz tilining Fransiya va Shveytsariyada, ingliz tilining Angliya va AQSH, nemis tilining Germaniya va Avstraliyada, shuningdek, ispan tilining Ispaniya hamda Janubiy va Markaziy Amerikaning 20 ta respublikasida qo'llanilishini keltirish mumkin. Dunyoda ikki tili xalqlar ham bor, shu bilan birga ikki va undan ortiq xalqning tiliga aylanganlari ham mavjud. Shunday tillar borki, ularda adabiy tildan farq qiluvchi bir necha variantlar, tillar mavjud. Masalan, komi-ziryan va koma-permyas tillari yoxud arab tili. Somiy tillar guruhining janubiy tarmog'iga mansub bu til – Yaqin va O'rta Sharq hamda Afrika shimolidagi yigirmadan ortiq mamlakatning rasmiy davlat tili hisoblanadi. Unda 200 milliondan ziyod aholi gaplashadi (1997). Misr, Sudan, Suriya, Iroq, Mag'rib, Hasaniya (Mavritaniya), Shoa (Nigeriya, Kamerun, Niger) lahjalariga bo'linadi. Shu va shu kabi hodisalar, tillarni sistemalashtirishning muhim masalalari sanaladi. Umumiy tilshunoslikning dolzarb vazifasi – tillarni tasniflash, ularni tasniflash asoslarini tekshirishdan iborat.

Tilshunoslar hamda tadqiqotchilar orasida tillarni tasniflash bo'yicha har xillik mavjud. A.Reformatskiy ham, B.Golovin ham tillarning klassifikatsiyasini 2 guruhga – geneologik va tipologik (yoki morfologik)ka bo'lsalar¹⁻², V.Koduxov hamda A.Sodiqovlar darsligida tillar tasnifi 4 guruhga ajratiladi: areal (geografik), tipologik, geneologik, funksional³⁻⁴.

Areal tasnifda dunyo tillarining xaritasi, turli mamlakatlarning til tomonidan tabiati, ayrim tillar qo'llanish doirasining kengayishi kabi masalalar o'z ifodasini topadi. XX asning 80-yillarida dunyoda 130 ga yaqin millat va elat vakillari hisobga olingan bo'lib, rus, ukrain, belorus, o'zbek, tatar, qozoq, ozarbayjon, arman, gruzin, litva, moldavan xalqlari eng ko'p sonli millatlar hisoblanadi. Shimoldagi xant, chukcha, evenesk, nenes, nanay, maksi, koryak xalqlari (Kavkaz), Dog'istonda rus, qumi va ozarbayjonlardan tashqari yashovchi: avar, dargin, lazgin, lak, tabasaran, chechen va no'g'ay kabi 30 ga yaqin elat va etnik guruhlar yashaydi. Sobiq SSSRning areal lingvistik tasnifi shuni ko'rsatadiki, unda, asosan, hind-yevropa, turkiy, fin-ugor, kavkaz, mo'g'ul, tungus-manjur, paleozit manjur tillari keng tarqalgan edi.

Tillarning **funksional** tasnifi ko'p qirrali bo'lib, 3 asosiy jihatga ko'ra ajratiladi:

- 1)tilning o'zi mansub bo'lgan etnik jamiyat bilan aloqasi;
- 2)tilning jamiyatdagi vazifalari;
- 3)asosiy etnik oblast doirasida tilning tarqalganligi.

Tilning xalq tarixi bilan aloqasiga ko'ra, asosan, 3 tilga ajratiladi: qabila tili, elat tili, milliy til. Tillardagi ijtimoiy funksiyalarni tasniflash turli nutq uslub (stil)larining, tillar ixtisoslashuvining paydo bo'lishiga olib keladi. Dastlab mehnat faoliyatining, ijtimoiy jarayonning vositasi bo'lgan til, badiiy-nasriy tilga ega milliy va xalq tillarining vujudga kelishi bilan polifunksional, ya'ni ko'p vazifali bo'ladi, chunki bu alohida tillarning vazifaviy ixtisoslashuviga hamda uslublarning yuzaga kelishini ifodalaydi.

Quldorlik va feodolizm jamiyatida cherkov siyosiy hamda madaniy hayotda muhim rol o'ynagan. Dinlar ko'pgina mamlakatlarga tarqala boshladi, bu 3 asosiy dinning – buddizm, islom va nasroniylikning vujudga kelishiga olib keldi. Buddizmning yoyilishi sanskrit tilini ibodat tiliga aylantirdi. Islomda esa – arab tili. Ikki nasroniy (xristian) e'tiqodlar – sharqiy (pravoslav) va g'arbiy (katolik) dinlarning tarqalishi hamda cherkovlarning 1054-yilda rim-katolik va grek-pravoslavga bo'linishi – latin cherkovi, slavyan cherkovi ibodat tillarining qabul qilinishiga asos bo'ldi.

Millatlarning paydo bo'lishi bilan bunday tillar ta'sirini yo'qotadi. Biroq hozirgi adabiy tillarda ularning qoldiqlari kuzatiladi (rus adabiy tilida церковнославянизмы, chesh tilida latinizm sifatida). Shuningdek, hindu va urdu (keyingisi XIII-XIV asrlarda Hindiston musulmonlar tomonidan bosib olingandan so'ng vujudga keldi) tillari misolida kuzatish mumkinki, urdu tilining grammatikasi hindu bilan bir xil, ammo urdu leksikasi eroniy va arab so'zlari bilan ifodalanadi, alifbosi esa arabchadir (hinduniki - devanagari).

Geneologik tasnifning ildizlari juda qadimga borib taqaladi. Buni qadim olimlar va tarixchilar ham e'tirof etishadi. Jumladan, A.Reformatskiyning fikricha, «tillarning turlichaligi antik fikrlarda ifodalanmaydi, chunki greklar va rimliklar faqat o'z tillarini o'rganishni munosib ko'rib, qolgan tillarni «varvar», ya'ni tushunarsiz g'uldirash deb hisoblashar edi». Demak, turli tillilik o'rta asrlarda, varvarlarning Rimni vayron qilib, o'zlarining ko'plab «varvar» tillari - kelt, german, slovyan, turk va b. madaniy hayotga olib kirganlaridan so'ng yuzaga kelgan. Ilm olamida esa tillarning har xilligi cherkov ta'limoti, jumladan, Bibliya(Tavrot)dagi (Vavilon) Bobil minorasi haqidagi (eslang: Xudo Bobil qal'asini qurishga kirishgan kishilarning tilini aralashtirgan edi...) afsona bilan izohlanar edi. XIX asrgdan boshlab bu e'tiqod real ma'lumotlarni qidirish, izlashga intilish bilan almashdi. Tilshunoslikda qiyosiy-tarixiy metodning shakllanishi sabablari ham shu orqali anglashiladi. Bu metodning asoschilari F.Bopp, Y.Grimm, R.Rask, A.X.Vostokovlardir.

¹⁻² Реформатский А.А. Введение в языкознание. М.1955. стр. 299

Головин Б.Н. Введение в языкознание. М., «Высшая школа», 1977. стр.251

³⁻⁴ Кодухов В.Н. Введение в языкознание. М., «Просвещение», 1987. стр.248

Содилов А. ва б. Тилшуносликка кириш. Т., «Ўқитувчи», 1981. 190-б.

Bizga ma'lumki, qiyosiy-tarixiy tilshunoslik – bir bobo tildan ajralib chiqqan, o'tmishda qardosh, qarindosh bo'lgan tillar faktlarini o'zaro qiyoslab o'rganishi, shuningdek qayta tiklash vazifalarini o'z ichiga oladi. Avgust Shleyxerning qiyosiy-tarixiy tilshunoslik bo'yicha qilgan ishlari bizga ma'lum (hind-yevropa tillarida bobo til, tillar shajarasi, bobo til haqida).

Tillarning genealogik klassifikatsiyasi til faktlarini tarixiy prinsip asosida o'rganib, tillarning qarindoshlik munosabatini aniqlaydi. Bu tasnif turi dunyo tilshunosligida ancha keng tarqalgan bo'lib, deyarli barcha tillarni qamrab oladi. Tadqiqotlar natijasida tarixiy qarindoshlik belgisi asosida til oilalari deb ataluvchi bir necha yirik guruhlariga bo'linishi mumkin ekanligini aniqlashdi. Bir oilaga mansub tillar o'zaro uzoq yoki yaqin «qarindoshlik munosabatlari» bilan bog'lanadi, bu esa bunday strukturalar, aslida bobo til, asos tilga borib taqalishini ko'rsatuvchi tillararo umumiy xususiyatlarda, uyg'unlikda seziladi. Xuddi shuningdek, genealogik jihatdan turli til oilalariga mansub bo'lgan tillarda tarixiy genezis asoslari yoki umumiy kelib chiqishini ifodalovchi so'z va shakllar mavjud emas. Hozirgi kungacha qabul qilib kelinayotgan tillar genealogik tasnifi quyidagicha:

I. **Hind-yevropa tillari oilasi.** Bu oila eng keng tarqalgan

yirik oila bo'lib, unda 2500 million so'zlashuvchi kishilar tillari mujassamdir. Bu tillar ko'proq Yevropa mamlakatlariga tarqalgan. Osiyo (masalan, Hindiston), Amerika, hatto, Avstraliya va Afrikada ham hind-yevropa tillaridan foydalaniladi. Hozirgi hind-yevropa tillari quyidagi guruhlariga ajratiladi: hind, eron, slavyan, boltiq, german, roman, kelt, grek, alban, arman. Bu tillarning barchasi umumiy qonunga ega, ya'ni ularda o'zak, qo'shimcha va tovush muntazam mos keladi.

II. **Xom-som tillari oilasi.** 3 guruhga bo'linadi:

A. Berber guruhi – Tripoli janubi, Tunis, Aljir, Marokko.

1. shilx, 2) tuareg, 3) kabil, 4) amazir – tirik (jonli) tillar; 5) luviy, 6) numidiy, 7) getul – o'lik til.

B. Misr guruhi.

1) qadimgi yahudiy tili; 2) kopt tili – o'lik til.

V. Kushit guruhi.

Quyi kushit: 1) bedia (bishari, bezavis) Qizil dengiz va Nil orasida; 2) saxo,

3) afar (dalkali), 4) somali.

Yuqori kushit – Efiopiyaning g'arbida: 1) agav (bilin, xamir, kvara); 2) sidam (kafra).

O'rta kushit - galla (Somalining g'arbidan Markaziy Afrikaning shimoligacha).

III. **Kavkaz tillari oilasi.**

1. G'arbiy guruh: abxaz, kabardin, cherkas, adigey.

2. Nax tillari: chechen, ingush, batsbiy.

3. Dog'iston tillari: avar, dargin, lezgin, lak, tabasaran, andiy, karatin, tindin, chamolin, bagaul, axvax, butlix, gadoberin, sez, betetin kabilar.

IV. **Ugor – fin tillari oilasi.** 3 yirik guruhga ajratiladi:

1. Ugor tillari: vengr (mojor), mansiy, xanti.

2. Fin tillari: fin, saam, karel, komi, eston, udmurt, mariy, mordov.

3. Samodiy tillari: nenes, enes, selkum.

V. **Tungus – manchjur tillari oilasi.**

1. Tungus guruhi: evenk, even, negidal;

2. Manchjur guruhi: manchjur, nanay, udey, ule, orog.

VI. **Xitoy-tibet tillari oilasi.**

1. Xitoy tili – 450 million (7 ta bir-biridan juda farq qiluvchi shevalardan iborat).

2. Dungan: Qirg'iziston, Qozog'iston va O'zbekistonda 22 ming kishi, G'arbiy Xitoyda 10 million kishi so'zlashadi;

3. Vetnam (annam).

4. Siam (tay) Hindistonning g'arbi, Tay.

5. Tibet.

6. Birma tili.

7. Assam tillari.

VII. **Dravid tillari oilasi:** tamil, malalayam, telugu, kannar, tulu, barxun, gandi.

VIII. **Malay-polineziya tillari oilasi:** malay, yava, dayak, tagal, batak, age, bali, madur, torigi, bug'iy kabilar.

IX. **Afrika tillari oilasi.**

1. Sudan tillari: nil-chad, nil-abissin, nil-ekvatorial guruh, kardofan, nil-kong, ubang, shor, dagaliy va h.

2. Bantu tillari: bube, lundu, fang, kongo, rundi, ganda, potu, igala, luba, bamba, subiyl, suaxili, sanga, shambala, zulu, soto, venda, lunda.

X. **Avstraliya tillari oilasi.** Bu yerda mahalliy xalq tillari juda ko'p bo'lib, eng asosiy til aranta tili hisoblanadi.

XI. **Panuas tillari oilasi.** Yangi Gvineya, G'arbiy Eron hamda Malaneziyadagi ba'zi orollar tili bo'lib, barchasi yozuvsizdir. So'zlashuvchilar soni 1000 dan oshmaganligi sababli, til va dialektlar aniq farqlanmagan. Bu tillarga: xagen (medyapa), chimbu (kuman), xuli, kamano, abelam (maprik), ngalum, sianelar kiradi.

XII. **Eskimos tillari oilasi.** Vrangeli, Chukotka, Kanada, Alyaskada tarqalgan.

XIII. **Paleosiy tillari oilasi.**

1) Chukot tillari: chukot, koryak;

2) Sibir guruhi: odul, nix.

XIV. **Mo'g'ul tillari oilasi.**

a) xalxa - mo'g'ul tili; b) buryat tili; v) qalmoq tili.

XV. **Uzoq Sharqning birorta tillar oilasiga kirmagan tillar oilasi.**

1) Yapon tili. 70 million kishi gaplashadi.

- 2) Ryukyu – Ryu-Kyu orollarida (yapon tiliga yaqin).
- 3) Koreys tili. 30 million kishi gaplashadi.
- 4) Ayn tili 15 ming kishi gaplashadi. Yaponiyadagi Xokkondo orollari, Saxalin orolining janubi, Kuril orollari.

XVI. Turkiy tillar oilasi.

Bu ham yirik oila bo'lib, 30 ga yaqin til kiradi. Bu tilda so'zlashuvchilarning aksariyati Osiyo qit'asida yashaydi. Turkiy tillar oilasiga quyidagilar kiradi: turk, ozarbayjon, turkman, gagauz, qrim-tatar, bashqird, oltoy, shor, xakas, tuva, yoqut, qirg'iz, o'zbek, qoraqalpog, chuvash, uyg'ur, qozoq. Mazkur oila – bulg'or tillari guruhi, o'g'uz, qipchoq, o'zbek va uyg'ur, o'g'iz guruhi, qirg'iz-qipchoq tillari guruhiga ajratiladi.

Tilshunoslikda morfologik tasnif muhim ahamiyatga ega. Bu tasnifning ahamiyatli tomoni shundaki, tillar morfologik xususiyatlari, tiplari asosida muayyan guruhga birlashtiriladi va turg'un sistematisatsiyaga, qat'iy klassifikatsiyaga erishiladi. Morfologik klassifikatsiya tillarning kelib chiqishi, tarixi, qarindoshlik aloqalari bilan qiziqmaydi, balki tillarning grammatik xususiyatlarini, aniqrog'i o'zak va affikslarni qarama-qarshi qo'yish asosida taqqoslab o'rganishga asoslanadi. Morfologik klassifikatsiya asosida til tiplari aniqlanadi va ajratiladi. U yoki bu tilning qaysi morfologik tipga mansub ekanligini aniqlash uchun esa shu tillardagi so'z qurilishi (strukturalari) o'rganiladi.

Morfologik tasnif - so'zlarni, o'zak va qo'shimchalarni qarama-qarshi qo'yishga asoslangan. XIX asr o'rtalarida nemis komparativist olimi Avgust Shleyxer (1821-1868), aka-uka Shlegellar (Fridrix Shlegel va Avgust Shlegel) hamda Gumboldt g'oyalarini umumlashtirib, o'zaklar – ma'no, affikslar esa munosabatni ifodalashini isbotlaydi. O'z vaqtida F.Shlegel (722-1829) o'zining «Hindlarning donoligi va tili» (1809) nomli asarida sanskrit tilini grek, latin va turkiy tillar bilan chog'ishtirib, tillarni ikki tipga ajratiladi: a) affiksli tillar, b) flektiv tillar. Avgust fon Shlegel esa o'zining «Provansal tili va adabiyoti haqidagi mulohazalar» (1818) nomli asarida tillarni 3 tipga bo'ladi: a) flektiv; 2) agglyutinativ va 3) amorf tillar. V.Gumboldt esa bu qatorga polisintetik tillar guruhini ham qo'shadi. Avgust Shleyxer mana shu faktarga asoslanib, dunyo tillarini 3 tipga ajratadi: o'zakli yoki ajratuvchi (ruscha: *корневые, изолирующие*), agglyutinativ va flektiv.

Tillarning morfologik klassifikatsiyasi masalasi bilan G.Shteyntal (1821-1889), N.Fink, Moskva tilshunoslik maktabining asoschisi F.Fortunatov ham shug'ullangan (1848-1914). Xullas, dunyodagi barcha tillar morfologik tasnif, so'z strukturalari bo'yicha 4 tipga ajratiladi:

I. O'zakli yoki ajratuvchi tillar.

Bu tip tillar qo'shimchali tillarga zid qo'yiladi, chunki bunda grammatik munosabat ifodalovchi affikslar bo'lmaydi. Grammatik ma'nolar yordamchi so'zlar, so'z tartibi, intonatsiya, urg'u (ularning musiqaviyligi kuchli) yordamida yuzaga chiqadi. Xitoy, birma, tay, tibet va boshqa Janubi-Sharqiy Osiyo tillari kiradi.

Xitoy tili o'zakli (ajratuvchi) tillarning tipik vakili hisoblanadi. Bunda analitik strukturali so'zlarda suffiks o'rinda mustaqil so'z, morfema qo'llaniladi. Masalan, (gunjen - *ishchi*) *ish* + *odam* strukturali; *nuyjen* – *ayol*. Bunday polysuffikslar talaygina: *sza*, *ish*, *sin*, *xau*. *Sza* (*sze*, *za*): *fansza-uy*, *chjozsa-stol*, *itsza-stul*, *putsza-do'kon* va h.k.

Xitoy tilida so'zlarning gap bo'laklari bo'yicha guruhlanishi ham o'ziga xosdir. Otlar, gapda subyekt, obyekt, atribut, ot-kesim bo'lib kelishi mumkin, shuningdek, xitoy tili otlari predlog va posleloglar bilan mos: *szay chjotsza shan-stolda*, *szay Moseke-Moskvada*, *utsza li-ko'chada*. Otlar turlanmaydi, rod va son shakliga ega emas. Xitoy tilidagi fe'llar esa bog'lamasiz ham kesimga aylanishi mumkin: *Ma pao* – *Ot yuguryapti*; *Ta kan bao* – *U gazeta o'qiyapti*; *Vo chi* – *Yeyapman*.

Xitoy tilida so'zlar ko'p ma'noli va polifunksional (bir necha vazifalarda). Masalan, *xao* so'zi turli so'z birikmalari va kontekstlarda turli xil ma'no anglatadi: *xao jen* – *yaxshi odam*, *si xao* – *yaxshilik qilish*, *dzio xao* – *qadimgi do'stlik*, *xao vo* – *Bu kishi meni yaxshi ko'radi*. Ajratuvchili – analitik tillarda ton va urg'u asosiy rol o'ynaydi: tovushning pasayishi va ko'tarilishi hatto fe'l zamonlarini ham ifodalaydi. Bu tillarni – amorf deb atash ham mavjud (amorf-grekcha *amorphos* – «shaklsiz» demakdir). O'zakli tillarning o'ziga xos, ajratuvchi tillar morfologiyasi bu tillarda affiksli yoki flektiv formalarning yo'qligini yaqqol ko'rsatib turadi.

II. Agglyutinativ tillar. Bu tip tillar o'zak va qo'shimchani

erkin aloqasiga asoslanadi. Masalan, turkiy tillar, fin-ugor, mo'g'ul, dravid, bantu, yapon va b. Bunday affikslar bir ma'nolidir: *maktabimizga* so'zida [-*imiz*] – egalik, [-*ga*] – jo'nalish; tatar tilida *avel-ovul* (bosh kel.), *avel-da* – o'rin-payt; venger tilida *haz-uy*, *hazba* – *uyda*, *hazan* – *uylar*, *hazan ba* – *uylarda*. Yuqorida aytib o'tganimizdek, o'zak va qo'shimchalar erkin birikadi, mexanik ravishda qo'shilaveradi, lekin o'zak bilan birikib, singib ketmaydi, balki ajralib turadi; o'zak va affikslar alohida qo'llanmaydi (misralarni qiyoslang). Turkiy tillar uchun prefiksatsiya emas, o'ng qo'shimchalar xosdir; qo'shimchalar o'ngdan chapga qarab ketma-ket qo'shilaveradi: *ko'zlarimning*.

III. Flektiv tillar. Bunday tipga, avvalo, hind-yevropa tillari, som-

xom tillari kiradi. Agglyutinatsiyadan farqli ravishda, fleksiyada o'zakka affiks alohida, mustaqil qo'shilmaydi, balki o'zakka singib ketadi, natijada o'zak shaklini, tarkibini o'zgartiradi. Ingliz, nemis, rus va fransuz va, ayniqsa, arab tillari misolida flektiv tillarning morfologik asoslarini kuzatish mumkin: ingliz tilida *begin-began*, *find-found*, *bring-brought* va ko'plik formalari: *goose-geese*, *foot-feet*, *tuth-tooth*; nemis tilida: *schreiben-schrieb*, *fahren-fuhr*; *bruder* (aka-uka) – *bruder*, *buch-bucher* va h.z. Rus tilida ko'plab so'zlar fleksiya formalarda ifodalanadi: *вижу (видеть)* – *видешь (ведешь)*; fransuz tilida undosh tovushlarning almashishi sifatining rod formalari ham o'zgartiradi:

a) grand – katta (большой – muj. r.) ([d] tovushi talaffuz qilinmaydi.) b) grande – (большая – jen.r.) ([d] talaffuz qilinadi.)

Flektiv tillarning tipik namoyandasi arab tilidir. Bunda o'zak-negiz faqat undosh tovushlardan iborat formula bo'lib, yangi ma'noli so'zlar unli tovushlar qo'shilishi natijasida hosil bo'ladi: *HBB* – *hubub* (sevmoq) – *uhbub-sev*; *mahbub-oshiq*, *sevimli*; *mahbuba-ma'shuqa*, *sevimli ayol*; *muhabbat-ishq*, *sevgi*; *habib*, *habiba-sevimli*, *sevgili*; *KTB-kataba-yozdi*, *katib-kotib*, *yozuvchi*, *kitab-kitob*, *akteb-yozmoq*, *maktab-idora* yoki *maktab-makaatib-idoralar*, *maktub-xat*, *noma*, *yozilgan narsa*.

Flektiv tillarda agglyutinativ tillardan ajralib turadigan yana bir morfologik jihat-qo'shimchalarning ko'p ma'noli va polifunksionalligidir. Rus tilida: *ведет* so'zidagi [-*ен*] qo'shimchasi zamon (o'tgan), son (birlik), shaxs (I), mayl, rod ma'nolarini ifodalaydi.

IV. Polisintetik tillar. Amerika hindulari, chukot, koryak

va boshqa tillar. Bu tillarning asosiy morfologik xususiyatlari – ega, aniqlovchi, to'ldiruvchi va holni ifodalab kelgan so'zlar fe'l bilan birikib, murakkab tarkibli qo'shma so'z formasiga o'xshash gap hosil qilishidir. Bunda gap boshida ega, oxirida kesim, to'ldiruvchi, hol, aniqlovchilar esa ega bilan kesimning o'rtasida keladi. Masalan, chukot tilida *te-ata-kaa-nme-rkein* – *Men semiz bug'ularni o'ldiryapman*.

Tillarning tipologik xarakteristikasida yana analitik va sintetik tuzumdagi tillar farqlanadi.

Analitik ¹ – grammatik munosabatlar qo'shimchalar orqali emas, analitik vositalar (so'z tartibi, bog'lovchi, ko'makchi) yordamida ifodalanadi. Masalan, ingliz, fransuz, fors tillari. Roman tillari, daniya tili, yangi grek tili (va boshqalar) ham kiradi.

Sintetik ² – grammatik ma'no qo'shimchalar orqali ifodalanadi. Qadimgi hind-yevropa, hozirgi litva, nemis, slovyan va turkiy tillar shu siraga kiradi. Shuni ta'kidlash lozimki, tillar sof analitik yoki sof sintetik bo'lmaydi. Analitik tilda sintetik vositalar, sintetik tizimdagi tillarda analitik unsurlar uchraydi. Masalan, o'zbek tilida: *Kitobni ukamga oldim* (sint.). *Kitobni ukam uchun oldim* (anal.). Sintetik til bo'lmish rus tilida ham *буду ждaть*, *будем ждaть* kabi (yordamchi fe'l) analitik hodisalar mavjud.

Xullas, hozirgi kunga qadar tilshunoslikda tillarni tasniflash va sistematzatsiyalashning mana shunday tip va guruhlari, prinsip va metodlari mavjud bo'lib, dunyo bo'ylab tillarni farqlash va o'rganish, ularni qon-qarindoshlik (geneologik), hudud (areal), vazifaviy va morfologik, struktur xususiyatlariga ko'ra anglash imkonini beradi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Tillarni tasniflashning ahamiyati nimada?
2. Tillar qarindoshligi va asos til deganda nimani tushunasiz?
3. A.Shleyxer qarashlarini sharhlab bering.
4. Morfologik klassifikatsiya asoslari haqida tushuncha bering.
5. Agglyutinativ va flektiv tillarning o'zaro zid jihatlarini tasniflang.
6. Amorf til nima?
7. Xitoy tili misolida o'zakli tillar tabiatini tahlil qiling.
8. Analitik va sintetik tillarni ajratish nimaga asoslanadi?

Asosiy adabiyot:

1. Азизов О. Тилшуносликка кириш. Т., “Ўқитувчи”, 1996.
2. Баскаков Н., Содиқов А., Абдуазизов А. Умумий тилшунослик. Т. “Ўқитувчи”, 1979.
3. Содиқов А., Абдуазизов А., Ирискулов М. Тилшуносликка кириш. Т., “Ўқитувчи”, 1981.

Mavzu: Hind – yevropa tillari oilasi

Reja:

1. Hind – yevropa tillarining o'rganilish tarixidan.
2. Hind – yevropa tillarining qarindoshlik aloqalari.
3. Hind – yevropa tillarining tipologik xususiyatlari.

Mavzu bo'yicha tayanch tushuncha:

Hind – yevropa tillari oilasi, bu oilani o'rganish tarixidan, ovropashunoslar va ularning tadqiqot manbalari, metodlari, hind – yevropa tillarining qarindoshligi, hind – yevropa tillari oilasining guruhlanishi, eng yirik guruh, eng yirik (so'zlashuvchilar va jahondagi o'rni) tillar, hind – yevropa tillarining ichki (lisoniy) xususiyatlari, hind – yevropa tillari flektiv tillar sifatida.

Genealogik tasnif asosida, tillarni qiyosiy-tarixiy metod orqali organish, avvalo, hind – yevropa tillari materiallarida ishlab chiqilgan edi. Bunda XIX asrning birinchi yarmida nemis filologi F.Bonn (1791-1867), rus tilshunosi A.X.Vostokov (1781-1864), nemis olimi A.Shleyxer (1821-1868), fransuz tilshunosi F.Dits (1794-1876)lar hind – yevropashunoslikka asos soldilar. Bundan keyin som-xom, fin-ugor, turkiy, kavkaz tillari oilasi tasniflandi.

Fransuz gumanisti Gvilyelm Postellus (1510-1581) ozining “Tillarning qarindoshligi haqida”, gollandiyalik olim Iosif Skaliger (1540-1609) esa “Yevropaliklarning tillari haqida mulohazalar” nomli tadqiqotlarida yevropa tillari doirasida 11ta “ona til”larni ko'rsatadilar. 4 ta “katta”: grek, latin (roman tillari bilan), tevton (german), slavyan hamda 7ta “kichik”: alban (epirot), irland, kimrcha (britt), tatar, fincha, venger va bass tillari. Tilshunoslar qadimgi hind (sanskrit) tilini ilmiy o'rgana boshlaydilar. Sanskrit tilini o'rganish esa qiyosiy -tarixiy tilshunoslikning shakllanishiga katta ijobiy ta'sir ko'rsatdi. 1786-yilda ingliz sharqshunos olimi Vilyam Djounz (1746-1794) Kalkuttada qilgan imiy ma'ruzasida sanskrit tilining grek, latin, kelt, got va qadimgi fors tillari bilan qarindosh ekanligini ko'rsatib berdi. Sanskrit tilini “klassik tillar”ga qiyoslab, bu tillarda faqat o'zaklarninggina emas, balki grammatik (forma) shakllarning ham o'xshash, bog'liq ekanligini va bu o'xshashliklarning tasodifiy emasligini, bular hind – yevropa tillari orasida qarindoshlik munosabati borligini ko'rsatadi, deya mulohaza yuritdi.

Frans Bopp (1791-1867) esa xuddi shu yonalishda, ya'ni sanskrit tili va ko'pgina yevropa tillarini qiyoslash asosida 1816-yilda “Sanskrit tilining tuslanish sistemasi va uni grek, latin, fors va german tillaridagi tuslanish sistemasiga qiyoslash” nomli asarini e'lon qildi

¹ analitikas – «ечилиш», ажратишиш.

² sintetikas – «бириктириш».

va bu asarda mazkur tillardagi tuslanishning o'xshashligini, bu tillarning bir manbadan kelib chiqqanligini ko'rsatib o'tdi. Olim o'zining III tomlil "Sanskrit, hind, arman, grek, latin, litva, qadimgi slovyan, got va nemis tillarining qiyosiy grammatikasi" nomli asarida (1833-1852) hind – yevropa tillarida fleksiyaning kelib chiqish tarixini o'rganib, tilshunoslikda "agglutinatsiya" nazariyasini ishlab chiqdi.

Hind – yevropa tillari oilasini o'rganish sohasida Y. Grimm va R. Rasklar ham katta xizmat ko'rsatishgan. Xususan, Rasmus Rask (1787-1832) o'zining "Qadimgi island tili va island tilining paydo bo'lishi" (1814) nomli asarida tillarning qarindoshligi so'zlarning o'xshashligiga emas, balki grammatik formalarning o'xshashligiga asoslanishi kerakligini qayd qilgan. Yakob Grimm (nemis olimi) (1785-1863) esa german tillari qiyosiy grammatikasini yaratdi. 1819-1877-yillar davomida to'rt tomlilik "Nemis tili grammatikasi" asarida german tillari va boshqa hind – yevropa tillariga xos bo'lgan fonetik sistemani qiyoslaydi. Bu qonun "Grimm qonuni" deya nom qozongan bo'lib, german tillaridagi [f], [b], [h] tovushlari hind-yevropa tillaridagi [p], [t], [k] tovushlariga mos kelishini isbotlaydi.

Slovyan va roman tillarini tadqiq etish borasida M.V. Lomonosov (1711-1765) ham izlanishlar olib borgan. Uning "Rossiya grammatikasi" (1755), "Rossiya (rus) tillariga qarindosh tillar hamda qadimgi dialektlar haqida" (tugallanmagan) asarlari ma'lum.

1820-yillarda mashhur rus tilshunosi A.X. Vostokov o'zining "Slovyan tili haqida mulohazalar" asarida slovyan tillarining genetik aloqalarini asoslab berdi. Quyosiy - tarixiy tilshunoslik haqida, ayniqsa, hind-yevropa tillari oilasi haqida gapirganda buyuk olim Avgust Shleyxerning naturalistik qarashlariga to'xtalmasdan bo'lmaydi. Shleyxerning "Сравнительно – лингвистическое исследование" (1848-1850), «Немецкий язык» (1859), «Компендий сравнительной грамматики индоевропейских языков» (1861-1862) kabi asarlarida uning eng asosiy g'oyalari o'z aksini topgan. Olimning tilga "jonli organizm" sifatida qarash, jonli organizmlarga xos "tug'ilish, rivojlanish va o'lish" (inqiroz) hodisalari aynan til misolida yaqqol ko'rinishini e'tirof etish, tillar shajarasi va bobo til masalalarini tadqiq etish faoliyatining naturalistik tafakkuri asosini tashkil qilar edi.

A. Shleyxerning fikricha, dunyo tillarining barchasi uchun umumiy bobo tilni o'rnatish mumkin emas. Demak, bir necha bobo tillar bor bo'lgan. Chunonchi, tillarning ko'pgina qismi yo'qolgan va yo'qolayotgan bir paytda, bizga ma'lum bo'lmagan juda ko'p tillar bo'lganligini va shunga yarasha ko'plab bobo tillar bo'lganligini tasavvur qilish mumkin. "Hayvon va jonzorlarga xos yashash uchun kurash" qonunini tilga tadbiiq etib, shunday xulosaga keladi. "Insoniyatning hozirgi davrida "yashash uchun kurash"da hind-german tillari g'oliblik qilmoqda, ularning yoyilishi hanuz davom etmoqda, boshqa ko'plab tillar ular tomonidan siqib chiqarilgan".¹ Tillar tasnifi masalasiga keladigan bo'lsak, Vilgelm fon Gumboldt nazariyasidan (tillarni 4 tipga bo'lish) farqli ravishda, u Avgust Shlegel g'oyasiga qo'shiladi, tillarni 3 turga bo'ladi.

1. Tarkibli (односложные), agglutinatив va flektiv. U buni yer yuzidagi taraqqiyot bosqichlari bilan uyg'unlashtiradi; xitoy, kxasi, birma, namakva tillari arxaiik ko'rinishlar, turk-tatar, mo'g'ul, fin, venger, dravid, tibet tillari o'tuvchi, oraliq tillar, semit va hind – yevropa tillari – eng rivojlangan tillardir.

2. Hind-yevropa tillari eng keng tarqalgan yirik oiladir. Hozirgi hind – yevropa tillari oilasi qarindoshlik darajasiga ko'ra 10 guruhga ajratiladi: hind, eron, roman, german, slovyan, grek, kelt, arman, boltiiq, alban.

1. **Hind guruhi.** 24 tildan iborat. 676 million kishi so'zlashadi. Bu 33,7 % ni tashkil qiladi.

2. Roman guruhi, 10ta til. 522 million kishi so'zlashadi. 26,0%

3. German guruhi, 10ta til. 421 million kishi so'zlashadi. 21,0%

4. Slovyan guruhi, 11ta til. 282 million kishi so'zlashadi. 14,1%

5. Eron guruhi, 31ta til. 68 million kishi so'zlashadi. 3,4%

6. Grek guruhi, 1ta til. 11,7 million kishi so'zlashadi. 0,6%

7. Kelt guruhi, 4ta til. 9,4 million kishi so'zlashadi. 0,5%

8. Arman guruhi, 1ta til. 6 million kishi so'zlashadi. 0,3%

9. Boltiiq guruhi, 2ta til. 4,7 million kishi so'zlashadi. 0,2%

10. Alban guruhi, 1 ta til. 4,5 million kishi so'zlashadi. 0,2%

Demak, hind – yevropa tillari jami 95 tildan hamda 2005,3 million so'zlovchidan iborat oiladir. Bu tillarning barchasini umumlashtirib turuvchi tipologik xususiyat bor: ularning hammasi flektiv tipga mansub.

Hind – yevropa tillarining genealogik tasnifi quyidagicha:

Hind guruhi:

1). Hind (Hindiston), 150 million, 2 adabiiy shakli bor: urdu hamda hind;

2). Bengal, 60 million, Ganga daryosi va Bengal qo'ltig'i tomonlari;

3). Bixori, 30 million, Hindistonning shimoliy-sharqi;

4). Maratxi, 20 million, G'arbiy Hindiston;

5). Panjob, 20 millionga yaqin, Shimoliy Hindiston;

6). Rajastoni, 15 million, Hindistonning shimoliy g'arbi;

7). Bujarat, 13 million, Hindistonning g'arbi;

8). Uriya, 10 million, Sharqiy Hindiston;

9). Sindxi – Hind daryosi vodiysi va b. yangi hind tillari;

10). Sigan (lo'li) – Ispaniya, Vengriya, Chexiya, Ruminiya, Germaniya, Turkiya, Rossiya va Osiyoda V-X asrlarda migratsiya yo'li

bilan tarqalgan elatlar tili;

11). O'lik tillar (veda tili)-sanskrit: veda tili, pali, prokrit.

2. **Eron guruhi.**

1). Forsiy, 15 million, Eronning davlat tili;

2). Afg'on (pushtu) – Afgonistonning millii adabiiy tili;

3). Baluchi (beludja) – Baluchiston tili;

¹ Амирова Т.А. и д. Очерки по истории лингвистики. М., «Наука» 1975 . 361 стр.

- 4). Kurd – shimoliy – gʻarbiy Eron, Iroq, Turkiya chegaralari va Armanistonda yashovchi kurdlar tili;
 - 5). Tojik, 1 million, Tojikiston, Oʻzbekiston va Qozogʻiston;
 - 6). Osetin, 266 ming, shevalari; iron (shim. Oseteya) va digorga (jan. Osetiya) kavkaz tillarining baʼzi belgilari bor;
 - 7). Tolish, 80 ming, Ozarbayjon;
 - 8). Togʻ, Ozarbayjon, janubiy Dogʻiston;
 - 9). Rushan, 7, 1 ming
 - 10). Shugʻnon, 12 ming Badaxshon togʻlari;
 - 11). Yagʻnob, 1 ming, oʻsha yerda va boshqa pomir shevalari.
- Oʻlik tillar: qadimgi fors, avesto, pahlaviy, skif, soʻgʻd, xorazmiy, sak tillari.

3. Slovyan guruhi.

A. Sharqiy guruh:

- 1). Rus, 10 million, Rossiya va sobiq SSSR respublikalarida; shimoliy rus – “olovchi” va janubiy rus – “alovchi” eng muhim aloqa tili (jahon boʻylab);
- 2). Ukrain, 40 million, Ukraina, shimoliy Kavkaz, Sibir, Qozogʻiston; oʻng qirgʻoq va chap qirgʻoq (Dnepr boʻylab) tillari mavjud;
- 3). Belarus, 9 million, Belorussiyada.

B. Janubiy guruh:

- 4). Bolgar, 7 million, Bolgariya, Yugoslaviya, Moldaviya va Ukrainada;
 - 5). Makedon – Bolgariya, Yugoslaviya va Gretsiyada;
 - 6). Serb – xorvat, 10 million, Yugoslaviya (Serbiya, Bosniya, Gersogovina, Xorvatiya); serblarda – rus alifbosi, xorvatlarda – latin yozuvi;
 - 7). Slovyan, 1 million, Yugoslaviya, Pridunay Avstriya, Italiya.
- Oʻlik tillar: qadimgi staroslavyan – rus adabiy tilining tarkibiy asosi.

D. Gʻarbiy guruh:

- 8). Chex, 9 million, Chexoslovakiyada;
- 9). Slovak, 3 million, oʻsha yerda;
- 10). Polyak, 25 million, Polshada;
- 11). Koshub, 150 ming, Polsha va Boltiq qirgʻoqlarida;
- 12). Serbelug (sorab, vend), 10 ming, Shpre daryosida, Luzatsiyada, Germaniyada, yuqori lug va quyi lug tillari mavjud.

4. Boltiq guruhi.

- 1). Litva, 2 million, Litvada;
- 2). Latish, 1 million, Latviyada;
- 3). Latyul – Latviyaning sharqida.

Oʻlik tillar: pruss XVII asrdan soʻng “oʻldi”, sobiq Sharqiy Prussiya hududlarida.

5. German guruhi.

A. Shimoliy german (skandinav) guruhi:

- 1). Dat, 3 million, Daniya;
- 2). Shved, 7 million, Shvetsiya, gʻarbiy Finlyandiya, Norvegiya;
- 3). Norveg, 3 million, Norvegiya (ikki adabiy til, riksmal, (bukmal)-datchaga yaqin kitobiy til, lansmal (nyunorsk) – norveg dialektlariga eng yaqin);
- 4). Island, 100ming, Islandiya;
- 5). Farryor, 25 ming, Farryor orollari (Atlantika okeanida);

B. Gʻarbiy german guruhi:

- 6). Ingliz, 170 million, Buyuk Britaniya, Irlandiya, AQSH (ingliz tilini “amerikacha shakli”), Kanada, Alyaska, janubiy Afrika Birlashmasi, Sudan, Misr, Siriya, Falastin, Iroq, Hindiston, Avstraliya, Yangi Zelandiya (V-XI asrlarda- qadimgi ingliz, XI-XVI asrlarda – oʻrta ingliz, XVI asrdan- yangi ingliz; ingliz adabiy tili London dialekti asosida shakllandi, jahonda xalqaro til maqomiga ega);
- 7). Golland flamandchasi, 13 million, Gollandiya, Shimoliy Belgiya, Afrikadagi buryatlar tili;
- 8). Friz, shimoliy Gollandiya (Germaniya bilan chegaradosh) va Nemets daryosi orollarida;
- 9). Nemis tili, 80 million, Germaniya, Avstriya, shimoli gʻarbiy va gʻarbiy Shveytsariya (ikki tili: quyi nemis hamda yuqori nemis adabiy til janubiy nemis tilining shimoliy talaffuzi asosida shakllandi, eng yirik xalqaro tillardan biri);
- 10). Idish (tedish, yangi yahudiycha) – turli yuqori nemis dialektlari-qadimgi yahudiy, slovyan va boshqa tillar bilan qoʻshilgan holda, Germaniya, Polsha, Ruminiya, Chexoslovakiya, Vengriya va hokazolarda tarqalgan yahudiylar tili.

D. Sharqiy German guruhi:

Oʻlik tillar: vestgot hamda ostyut.

6. Roman guruhi.

- 1). Fransuz, 45 million, Fransiya, Janubiy Belgiya, Gʻarbiy Shveysariya, Kanada, shuningdek, Marokko, Aljir, Tunis, Fransuz Ekvatorial Afrikasi, Levant, Siriya, Hindixitoy, AQSH, Gviana va Gaiti (adabiy til XVI asrda II-de-Fransa dialekti asosida shakllandi, fransuz tili boshqa yevropa tillaridan oldin xalqaro tilga aylanadi);
- 2). Provansal, 10 million, Janubi sharqiy Fransiya;
- 3). Italian, 40 million, Italiya, Janubiy Shveysariya, Afrikadagi sobiq italyan toʻdalari (adabiy til toskan dialektlari hamda Florensiya shevasi asosida shakllandi, tarixan - Yevropada birinchi milliy til);
- 4). Sardin (yoki sard), 900 ming, Sardiniya oroli;
- 5). Ispan, 85 million, Ispaniya, Filippin orollari hamda Markaziy va Janubiy Amerikaning barcha Respublikalari (Braziliyadan tashqari);

- 6). Katalan, 5 million, Shimoli g'arbiy Ispaniya, Janubiy Fransiya;
- 7). Portugalcha, 40 million, Portugaliya, Shimoli-sharqiy Ispaniya, Janubiy Amerikadagi Braziliyada;
- 8). Rumin, 13 million, Ruminiyada;
- 9). Moldav (rumin tiliga yaqin), 2 million, Moldaviyada;
- 10). Makedon-rumin, 300 ming, Makedoniya, Albaniya va Gretsiya;
- 11). Ret-roman, 400 ming, Shimoliy-sharqiy Italiyada; 50 ming, Janubiy-sharqiy Shveytsariyada.

O'lik tillar: latin, o'rta asr vulgar latin tili, osks, umbr, sabel tillari.

7. Kelt guruhi (3 millionga yaqin).

A. Gael guruhi:

- 1). Irland (eyre), Irlandiyada;
- 2). Shotland, 140 ming, Shimoliy Shatlandiyada, Gebrid va Orkney orollarida;
- 3). Man orollari tili (Irland dengizi) - o'layotgan va faqat qari baliqchilarda saqlanib qolayotgan til.

B. Britt guruhi:

- 4). Breton, 1 million, Fransiya'dagi Bretan yarim oroli;
 - 5). Uelz (yoki vallyi), 900 ming, Ueylz (Wallis) - G'arbiy Angliyada.
- O'lik tillar:
- 6). Kornual-XVII asrda o'lgan (Kornual - Janubi-g'arbiy Angliyada yarim orol).

V. Gallcha guruhi:

- 7). Gall - fransuz tilining shakllanishi bilan o'lgan (Galliya, Shimoliy Italiya, Bolqon va, hatto, Kichik Osiyoda tarqalgan edi).

8. Grek guruhi.

- 1). Yangi grek, 8 million, Gretsiya, O'rta yer dengizi sharqiy qismi orollari.
- O'lik tillar:
- 2). Qadimgi grek, eramizgacha X asr - eramizning V asrlarida mavjud bo'lgan, o'rta grek yoki vizantiy tili.

9. Alban guruhi.

Alban tili - Albaniyada.

10. Arman guruhi.

Arman, 2 million, Armaniston, Eron va Turkiyada.

11. Xett guruhi.

- 1). Xett-Kichik Osiyodagi Xett davlati (eramizgacha XIX-XII asr);
- 2). Luviy;
- 3). Palaet.

12. Toxar guruhi.

- 1). Toxar a) (turfan, qarashor) - Xitoy Turkistonida;
- 2). Toxar b) (kuchan) - o'sha yerda, VII asrda Kuchada.

Hind - yevropa tillari flektiv tillardir. So'zlarning morfologik shakllarining fleksiya orqali yasalishi bu tillarning asosiy morfologik xususiyatidir. Bu tillarda har bir mustaqil so'zning dastlabki shakli ham negiz va qo'shimchalarga bo'linadi, natijada, o'zak-negiz mustaqil ma'ruza matniydi. Masalan, rus tilida *вужу, вудушь, вудят* so'zlarining o'zak negizi *вуж, вуд* bo'lib, bular mustaqil ishlatilmaydi. Bundan tashqari, flektiv tillarda (agglutinativ tillardan farqli o'laroq) bir qo'shimcha bir necha grammatik ma'no ifodalashi mumkin. Masalan, rus tilida - *вуден* so'zidagi [-en] qo'simchasi zamon (o'tgan zamon), son (birlik), shaxs (birinchi), mayl, rod ma'nolarini ifodalaydi.

Flektiv tillarga so'z yasovchi va so'z o'zgartiruvchi funksiyani bajaradigan ichki fleksiya xos. Bunda o'zak - negizda tovush almashuvi bilan turli grammatik ma'nolar ifodalanadi.

Ichki fleksiyada undosh tovushlar ham, unli tovushlar ham o'zgarishi mumkin. Ingliz va nemis tillarida ko'proq unli tovush o'zgarsa, rus tilida ko'proq undosh tovushlarning o'zgarishi kuzatiladi. Masalan, ingliz va nemis tillarida kuchli fe'llarning asosiy formalarini yasaydigan ablaut hodisasi quyidagicha:

nemis tilida - *singen - sang - gesungen* ;

ingliz tilida - *sing - sang-sung; bring - brought - brought; see - saw - seen*.

Son kategoriyasining ko'plik shakli nemis va ingliz tillarida ham agglutinativ (affiksatsiya) usulida ham ichki fleksiya orqali yasalishi kuzatiladi:

ingliz tilida - 1) *sister - sisters, book - books, eye - eyes, egg - eggs*; 2) *foot - feet, toose - teese, goose - geese, woman - women, child - children*.

Nemis tilida otlar quyidagicha qo'shimchalar orqali yasaladi:

[-e] *Der Tisch (stol) - Die Tische (stollar)*;

[-en] *Der Student - Die Studenten* ;

[-n] *Die Tafel - Die Tafeln (doskalar)*;

[-er] *Das Buch - Die Bucher (kitoblar)*.

Xuddi shu ko'rinishlararo ichki fleksiya ham kuzatiladi. Chunonchi,

Buch-Bucher, Bruder - Bruder (aka-akalar). Nemis tilidagi *Bruder* - aka oti ko'pgina hind - yevropa tillarida ma'lum bir fonetik o'zgarishlar bilan ko'rinadi.

Masalan,

rus	polyak	ingliz	nemis	fransuz	fors
<i>брат</i>	<i>brat</i>	<i>brother</i>	<i>bruder</i>	<i>frere</i>	<i>birodar</i>

Mather (ona), father (ota), sister (opa) so'zlari ham fonetika differensiyalarni namoyon qiladi:

rus	ingliz	nemis	fransuz	fors
мать	mother	mater	mer	modar
nana	father	pater	per	padar
сестра	sister	schwester	sceur	-

Flektivlik fors tilida ham ko`rinadi.

Shudan (bo`lmoq) – *shaved*; *kardan* – *kun* (buyruq maylida) – *bikun*; *shushtan* (yuvmoq) – *sho`y* (*bisho`y*).

Fransuz tilida undosh tovushlarning almashishi sifatining rod formalarini ham o`zgartiradi:

rond – *круглый* (muj.r.), *aylana* ([d] tovushi talaffuz etilmaydi).

ronde – *круглая* (jen.r.) ([d] aytiladi).

grand – *кatta* – *большой* ([d] aytilmaydi).

grane – *большая* ([d] aytiladi).

Hind - yevropa tillarida grammatik ma`no ifodalashning yana bir usuli suppletivizmdir. Buni quyidagi misollarda kuzatamiz:

	hoz.z.	o`tgan z.	kel.z.
ingliz t.	<i>am-are</i> <i>is-are</i>	<i>was/were</i>	<i>shall/will</i>

To be (bo`lmoq) fe`lining zamonlar bo`yicha tuslanishi mana shunday suppletiv yo`l bilan hosil qilinadi. Va, nihoyat, gap sohasida hind – yevropa tillarining umumiy xususiyati shundaki, bunday tillarda ega va kesimning qat`iy ishtiroki va o`rni muhim ekanligi kuzatiladi.

nemis tilida	ingliz tilida	rus tilida	o`zbek tilida
Der Lehrer kommt	The teacher came	Учитель пришёл	O`qituvchi keldi
Ich kammt	I came	Я пришёл	Keldim

Ko`rinadiki, hind – yevropa tillaridagi *kelmoq* fe`li o`zbek tilidagi(fe`l) kesim kabi zamon, shaxs –son, mayl va bo`lishli bo`lishsizlikni birdaniga ifodalay olmaydi, balki barcha shaxslar uchun bir, o`zgarmasdir.

<i>Я пришла</i>	<i>I came</i>	<i>we came</i>
<i>Ты пришла</i>	<i>You came</i>	<i>You came</i>
<i>Она пришла</i>	<i>She-He came</i>	<i>They came</i>

Hind – yevropa tillaridan tashkil topgan bu yirik oilaning eng xarakterli tipologik xususiyatlari shulardan iboratdir.

Tillarning o`zaro qarindoshlik aloqalari va lisoniy xususiyatlari, tipologik belgilari tilshunoslikning muhim masalalaridandir. Xuddi shuningdek, eng yirik til oilasi bo`lishi hind – yevropa tillarini qiyosiy tarixiy (hamda qiyosiy-tipologik) metod asosida tadqiq etish ko`pgina jahon tillarini bir genetik uya zamidida tekshirish imkonini beradi. Hind – yevropa tillari tarkibiga rus, ukrain, belorus, chex, polyak, bulg`or, nemis, ingliz, golland, shved, norveg, fransuz, ispan, italyan, portugal va forsiy tillar kiradi. Bu tillarning barchasi o`zaro, qarindosh. Avgust Shleyxer ta`biri bilan aytganda “barcha hind – yevropa tillari bir” “bobo til” asosida vujudga kelgan”.¹

Flektiv grammatik usul xos bo`lgan tillarning ham eng ko`p qismini hind – yevropa tillari tashkil qiladi. Shuningdek, analitik tizimdagi ko`pchilik yevropa tillarida sintetik unsurlar ham kuzatiladi yoki sintetik belgilar xarakterli bo`lgan til (masalan, rus tili) analitik vositalardan ham foydalanadi. Umuman olganda, hind – yevropa tillari oilasi juda boy va keng imkoniyatlarga ega, eng rivojlangan lisoniy xususiyatlarni umumlashtirgan va, nihoyat, jahondagi eng yirik, eng salmoqli xalqaro aloqa tillari (rus, ingliz, nemis, fransuz, italyan...)ga ega ekanligi bilan ajralib turadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriq:

- 1.Hind – yevropa tillari oilasini tarixiyli, qon-qarindoshligi bo`yicha tasniflang.
2. Avgust Shleyxer hind – yevropa tillarini o`rganish va tasniflashda qanday metod va g`oyalardan foydalangan?
- 3.O`zingiz biladigan tillar doirasida (hind – yevropa tillarida ) o`xshash, genetik aloqador til birliklaridan misollar keltiring. Fonetik, leksik va grammatik belgilarning umumiyli va farqlarini tushuntiring.
4. Hind – yevropa tillarining jahonda tutgan o`rni va ahamiyati qay darajada? Bugungi kunda qaysi tillar ilm-fan, siyosat, madaniyat va biznesning xalqaro tiliga aylangan?

Asosiy adabiyot:

1. Азизов О. Тилшуносликка кириш. Т., “Ўқитувчи”, 1996.
2. Баскаков Н., Содирев А., Абдуазизов А. Умумий тилшунослик. Т. “Ўқитувчи”, 1979.
3. Содирев А., Абдуазизов А., Ирискулов М. Тилшуносликка кириш. Т., “Ўқитувчи”, 1981.

Yordamchi adabiyot:

¹Вопросы методики сравнительно – исторического изучения индоевропейских языков. М., 1956. стр. 8.

- 1.Амирова Т. и д. Очерки по истории лингвистики. М., «Наука», 1975.
- 2.Буранов Д. Сравнительная типология английского и тюркских языков. М., «Высшая школа», 1983.
- 3.Головин Б. Введение в языкознание. М., «Высшая школа», 1977.
4. Реформатский А. Введение в языкознание. М., 1955.

Mavzu: Turkiy tillar oilasi

Reja:

- 1.Turkiy tillarni o'rganish tarixidan.
- 2.Turkiy tillar oilasi, uning genealogik guruhlari haqida.
- 3.Turkiy tillarning lisoniy xususiyatlari.

Mavzu bo'yicha tayanch tushuncha:

Turkiy tillarning o'rganilish tarixidan, ilmiy turkiyshunoslik asoschilari, turkiy tillarning genealogik tasnifi, turkiy tillar oilasi, agglutinativ tillar, turkiy tillarning fonetik strukturasini.

Turkiy tillarni o'rganish uzoq davrlarga borib taqaladi. Turkiyshunoslikni XI asrda Mahmud Qoshg'ariy boshlab berdi. O'zining "Devonu lug'atit turk" asarida olim (Qomus Istambulda Ahmad Rif'at tomonidan 1915-1917-yillar (III tomlik) da nashr qilingan, shuningdek, Sim Atalay (Divanu Lug'at-it-Turk terkumesi) va C.Bchoskelmann (Mittelturkischer Wortschatz nach Mahmud al-Kasgaris Divan Lug'at-at-Turk) tomonidan tarjima qilingan) asosan uyg'ur, xakas, qipchoq va o'g'uz tillari materiallari asosida qiyosiy-tipologik tadqiqotlarni yuzaga chiqargan. Asarda qirg'iz, qipchoq, uyg'ur, tuxsi,yag'mo, chigil, igrak, charuk, yemak, boshqird tillari va xalqlari qarindosh deyiladi. Bulg'or va suvar tillarini birmuncha farq qiluvchi, o'g'uz tillarini esa eng oddiy, deb hisoblaydi. Chumul, kay, yabaku, tatar, basmil xalqlari boshqa tilda gaplashishgan. Eng to'g'ri, ya'ni abadiy tilga eng yaqin til – tuxsi va yag'mo tillari bo'lgan.

Mahmud Qoshg'ariy lug'atida so'zlar ulardagi tovushlar sonining o'sib borishiga ko'ra joylashtirilgan.Ismlar va fe'llar farqlanib, turkiy tillarning fonetik – morfologik tasnifi hamda jo'g'rofiy yoyilganligiga ko'ra xarakteristikasi berilgan. Tillar tabiatini hamda ularning u yoki bu tasnif guruhiga mansubligini ifodalovchi belgilar sifatida M.Qoshg'ariy quyidagilarni ko'rsatadi:

- a) соответствие (y~j) so'z boshida y-j mosligi;
- b) so'z boshida m~b;
- v) so'z oxirida y – n;
- g) so'z boshida t~d;
- d) so'z o'rtasida y~z.

Az-Zamaxshariyning (1143-yilda vafot etgan) "Muqaddimat al-adab" nomli filologik asari arab-fors-turk-mo'g'ul tillari lug'ati sanaladi. V.V.Bartoldning aniqlashicha, bu lug'atning turkiy qismi eramizning XII-XIII asrlari adabiy turkiy tilini aks ettiradi. Al-Andalusiy (arab tilshunosi) yaratgan lug'at va grammatikada qipchoq (kuman yoki poloves) tilining o'g'uz (turkman) tili bilan qiyosan elementlari mavjud. Jamoliddin ibn Muxannaning "Xil'at ul-lison va halibot ul bayon" asari o'g'uz tillaridan birining lug'at va grammatikasini, shuningdek, fonetik xarakteristikasining bayon etilganligi bilan ajralib turadi. b va m, t va d undoshlarining boshda f va n, k va x undoshlarining boshqa pozitsiyalarda kelish xususiyatlari ochib beriladi. Jamoliddin at-Turkiyning "Bulg'at al-mushtak" lug'ati arab-qipchoq tillarini qiyoslash asosida tuzilgan.

Misrda arab filologlari tomonidan yaratilgan asarlar: XV asr grammatik tadqiqoti "Qavanin al-Kulmiya li-dabt al-lug'at at-Turkiya" (1928-yilda Istambulda Kilisli Rif'at tomonidan nashr etilgan) hamda XV asrning filologik asari "Kitob at-tuhfatuz zakiya" (1945-yilda Istambulda Basim Atalay tomonidan nashr qilingan)dir. Turkiyshunoslikning yana bir tarmog'i XVIII va XIX asrning 1-yarmidagi rus va g'arb tadqiqotchilarining izlanishlari samarasini o'z ichiga oladi. XVIII asrdan turkiy tillarni qiyosiy o'rganish sohasida F.I.Tabbert – Stralanberg (shved ofitseri) muhim o'ringa ega. U ural-oltay nazariyasi-ural (fin-ugor va samold) va oltay (turk, mo'g'ul va tungus-manchsjur) tillarining qarindoshligini aniqlagan. Bu nazariyaning tarafdorlari sifatida V. Shott, M.A.Kastren, O.Donner, G.Vinkler, I.Gryunsel, G.Ramatedt, A.Sovaneo va boshqalar ma'lumdirlar.

Ilmiy turkiyshunoslikning asoschilari - O.Byotlingk va V.V.Radlov hisoblanadi. Turkologiyadagi¹ qiyosiy - tarixiy tadqiqot O.Byotlingkka tegishli bo'lib, unda yoqut tili va uning boshqa turkiy tillardagi grammatik qurilish va leksika bilan solishtirilgan tarzda bayon qilingan. L.Budagov² va H.Vamberi ham turkiy tillar leksikasi bo'yicha muhim izlanishlar natijalarini yozib qoldirishgan. V.V.Radlov turkiy tillarini qiyosan o'rganish bo'yicha eng mukammal va asosli ishlar yaratganki, undan keyingi tadqiqotlar V.V.Radlov ishlarining davomi va to'ldirilgan ko'rinishlari bo'lib yuzaga chiqdi. Olimning "Образцы народной литературы тюркских племён" (т. I-X, СПб, 1868-1904), "Опыт словаря тюркских наречий". (СПБ, 1888-1905) kabi asarlari turkiy tilshunoslikda eng qimmatli ilmiy asarlardir.

N.F.Katanova "Опыт исследования урянхайского языка с указанием главнейших родственных отношений его к другим языком тюркского корня" (Казань, 1903) nomli tadqiqoti ham fanda ulkan shuhrat qozondi. Xullas, turkiy tillarini o'rganish bo'yicha qisqacha sharh shulardan iborat bo'lib, turkiy tillar, turkiy xalqlar va ularning madaniyati kabilar olimlarni qiziqtirib kelganligini dalillaydi.

Turkiy tillar – oltay oilasiga kiruvchi hamda genetik va tipologik belgilari bilan umumlashadigan qarindosh tillar hisoblanadi. Turkiy tillarni genealogik jihatdan tasniflash bo'yicha I.N.Berdin, N.I.Ilminskiy, V.V.Radlov, N.A.Aristov, N.F. Katanov, F.Ye.Korsh, A.N.Samaylovich kabi olimlar izlanishlar olib borishgan. Shulardan A.N.Samaylovichning tasnifi keng tarqalgan bo'lib, turkiy tillarning barchasi 6 asosiy guruhga ajratiladi:

1. R-guruh, bulg'or yoki chuvash:

¹ Bo'htlingk O.Ueber die sprache der Jakuten. SPB., 1851

² Будагов Л. Сравнительный словарь турецко – татарских наречий. 1-П.СПБ., 1868-1871.

1) taxar; 2) ura; 3) pul; 4) tao//tu; 5) sari; 6) qalan//yo`lna; bu guruhga zamonaviy chuvash va qadimgi bulg`or tillari kiradi.

2. D-guruh, uyg`urcha yoki shimoliy-sharqiy:

1) toquz; 2) adaq//azaq; 3) pol; 4) tag`; 5) sarig`; 6) qalg`an; bu guruhga 3 kichik guruhlar kiradi:

a) b-guruhi: O`rxun–Enasoy yodgorliklari qadimgi tili, qadimgi uyg`ur va zamonaviy karagas, salar va tuva tillari;

b) z-guruh: sariq uyg`urlar, ilor va xakaslar tili;

v) t-guruh: yoqut tili.

3. Tao` - guruh, qipchoq yoki shimoli - g`arbiy:

1) tog`uz; 2) ayaq; 3) bol//bul; 4) tao`; 5) sari; 6) qalg`an. Bunga:

a) mo`g`ullargacha: oltoy tili, qirg`iz, qumiq, qorachoy-bolqor, qaraim, tatar, boshqird;

b) mo`g`ullardan so`ng: qozoqcha va no`g`aycha kiradi.

4. Tag`liq – guruh, chig`atoy yoki janubiy – sharqiy:

1) toquz; 2) ayaq; 3) bol; 4) tag`; 5) sariq; 6) qalg`an. Bunga qadim chig`atoy, Xitoy Turkistoni aholisi tili, o`zbek tili va qora tatarlar tili kiradi.

5. Tag`li – guruh, qipchoq – turkman:

1) doquz; 2) ayaq; 3) bol; 4) tag`; 5) sari; 6) qalg`an. Bularga xorazm o`zbeklarining shevasi ham kiradi.

6. Ol- guruh, turkmancha yoki janubiy – g`arbiy:

1) doquz; 2) ayaq; 3) ol; 4) dag`; 5) sari; 6) qalan. Turkman, ozarbayjon va turk tili, gagauzlar tili ham kiradi.

Turkiy tillar oilasiga 30 ga yaqin til kiradi. Bu tillarda so`zlashuvchi xalqlar Osiyo, Yevropa, Amerika va Avstraliyada istiqomat qiladilar. Bu tillarda so`zlashuvchilarning aksariyati Osiyo qit`asida yashaydi.

Turkiy tillar oilasiga quyidagi tillar kiradi: turk, ozarbayjon, turkman, gagauz, qrim-tatar, qorag`ay, balqor, qo`miq, no`g`oy, tatar, boshqird, oltoy, shor, xakas, tuva, yoqut, qirg`iz, o`zbek, qoraqalpoq, chuvash, uyg`ur, qozoq.

Turkiy tillar quyidagilardan iborat:

1. Bulg`or tillari guruhi: hozirgi chuvash tili va qadimgi bulg`or va xazar tillari.

2. O`g`uz tillari guruhi:

a) turkman tili – Turkmaniston;

b) turkman tili – Shimoliy Kavkaz va Stavropol o`lkasida yashovchi turkmanlarning tili;

v) o`g`uz – bulg`or tillariga gagauz va balqon turklari tillari kiradi;

g) ozarbayjon va turk tillari.

3. Qipchoq tillari guruhi:

a) qaray tili. Bu tilda Litva, Ukrainaning janubida va Qrimda istiqomat qiluvchi qaray elati so`zlashadi;

b) qo`miq tilida Dog`iston Avtonom respublikasida istiqomat qiluvchi qo`miqlar so`zlashadi;

v) qorag`oy – balqar tilida Kavkazda yashovchi qorag`oy va balqor elatlari so`zlashadi;

g) qrim - tatar tilida qrim, belarus, litva tatarlari so`zlashadilar;

d) tatar tili, boshqird tili;

j) no`g`oy tili;

z) qoraqalpoq tili;

i) qozoq tili.

4. O`zbek va uyg`ur tillari guruhi. O`zbek tili o`zbek xalqining milliy adabiy tili bo`lib, bir-biridan fonetik, morfologik va leksik xususiyatlari bilan farqlanib turadigan shevalardan tashkil topgan. Uyg`ur tili O`rta Osiyo, Qozog`iston va Xitoy Xalq respublikasining Sinsyan – Uyg`ur respublikasida yashovchi uyg`ur xalqining tilidir.

5. O`g`iz tillari guruhi:

a) Tuva tili. Tuva va Mongoliya Xalq respublikasi territoriyasida yashovchi tuva xalqining tilidir;

b) tofalar (yoki karagas) tili Krasnoyarsk o`lkasida yashovchi elat tili.

6. Yoqut tili. Yoqutistonda yashovchi yoqutlarning tilidir.

7. Xakas tillari guruhi: xakas tili, shor tili, cho`lim tili (cho`lim tatarlari tili),

oltoy tilining shimoliy shevalari.

Turkiy tillar – agglutinativ tillar guruhiga kiradi. Turkiy tillardagi affiksalar bir ma`nolidir – so`z tarkibida ishtirok etayotgan har bir qo`shimcha faqat bir ma`noni anglatgan holda birin – ketin yopishib ketaveradi. Masalan, o`zbek tilida o`qituvchilarga so`zida o`qi - o`zak, t-ortirma nisbat qoshimchasi, uv-harakat nomi qo`shimchasi, chi-shaxs oti yasovchi affiks, lar-ko`plik, ga-jo`nalish ma`nosoni ifodalaydi; vengr tilida haz-uy, hazfa-uyda, hazak-uylar, hazakba-uylarda. Ko`rinadiki, turkiy tillardagi qo`shimchalar o`zakka mexanik ravishda qo`shilaveradi, lekin o`zak bilan birikib, singib ketmaydi, o`zakdan ajralib turadi. Shuningdek, turkiy tillarda prefiks yo`q (fors-tojik tillaridan kirib kelgan ayrim old qo`shimchalardan tashqari), ya`ni qo`shimchalarining ketma- ket qo`shilishi natijasida so`zning kengayishi faqat bir tomonga, ya`ni o`ng tomonga yo`nalgan bo`ladi: maktablarga. Turkiy tillardagi ko`makchilar otdan yoki ot vazifasidagi so`zdan keyin kelib, uni boshqa so`zga – boshqaruvchiga bog`laydi va ular orasidagi sintaktik munosabatni ifodalaydi. Masalan, Baxtim uchun kurashaman. Ukam bilan bordim.

Turkiy tillarda grammatik rod (jins) kategoriyasi yo`q. Shunga ko`ra, gapda so`zlarning o`zaro sintaktik aloqaga kirishuvi o`zgacha: turkiy tillarda, jumladan, o`zbek tilida, sifat, son, olmosh, sifat-doshlar ot bilan bitishuv munosabatiga kirishadi. Hind – Yevropa tillarida kesimning morfologik belgilari faqat fe`lga qo`shilsa, turkiy tillarda kesim vazifasida kelgan har bir so`z turkumiga qo`shilishi mumkin. Qiyoslang: Это здание - институт; Bu bino institutdir. Men – onaman. Ko`ylagimni tiktyrdim.

Turkiy tillarning qiyosiy – tipologik xususiyatlari N.A.Baskakovning “Введение в изучение тюркских языков” (M., 1962) nomli kitobida atroflicha sharhlangan. Jumladan, so`zning morfologik tarkibi xususida shunday hodisalarni aniqlaydi: o`zaklar birlamchi yoki tub bo`ladi (umumturkiy o`zaklar): al-olmoq, kel, min, ot (o`t), tas/tash (tosh), kyo`z (ko`z) yoki yasama, ya`ni o`zak va unumsiz (o`lik) qo`shimchalar orqali, masalan: qoraqalpoqcha: jurek (yurak), qizil (qiz+il), azira (boqmoq-az+ir+a), qora kabilardir. Tas/tash (tosh), qal

(qop), *ic/ish (ish)*, *at (ot)*, *qol (qo'l)* va hokazolar predmetlarning nomini atab, ot soʻz turkumiga kiradi hamda birlikdagi, bosh kelishikdagi soʻzlar qatorini hosil qiladi³.

Aq, sari, qara, biyik, (baland) oʻzaklari statik belgini ifodalab, sifat soʻz turkumini tashkil qiladi. *Endi (endi), burun, en (eng)* kabilar, deydi olim, belgining belgisini ifodalab, ravish kategoriyasiga kiradi. *Bir, eki (ikki), uch/ush (uch) tort, (toʻrt)* kabilar sonlardir. *Oʻay! Iq! Maa!* undov va taqlidlar, *uchin/ushin, deyin (-gacha)* kabilar koʻmakchilar, *-gʻu (-ku), -ma/me (-mi)* (soʻroq yuklamasi) – yuklamalar hamda *hem, biraq* boglovchilar hisoblanadi. Turkiy tillarda feʼllar ham oʻziga xos tabiatga ega, yaʼni ular yasash xususiyatiga ega: *tashla, angla, bilim, qapshiq (qopchiq- qop va kichraytirish shakli –chiq/-shiq.)* Turkiy tillarda fonetik struktura- oʻzak morfemalardagi 3 tovushli tarkib bilan ajralib turadi. Har bir oʻzak –undosh + unli+ undosh tartibidagi yopiq boʻgʻindan iborat (cgc). Ikki tovushli, bir tovushli oʻzaklar turkiy tillarda kam uchraydigan istisnoliktir, ular aslida 3 tovushli tarkibning tarixan, fonetik jihatdan qisqargan koʻrinishidir. 3 tovushdan koʻp soʻzlar boshqa tillardan oʻzlashgan hisoblanadi.

Turkiy tillarga xos boʻlgan gap qurilishi [WPM] qolipi asosida voqelanadi. Предикатив bogʻlanish [Pm] (predikate-kesim, m – shaxs/son, zamon, mayl, modallik) orqali yuzaga chiqadi. Soʻz birikmasi –gap kengaytiruvchilari yoki soʻz kengaytiruvchilaridan iborat boʻlishi mumkin. Mana shu sintaktik xususiyat barcha turkiy tillar uchun xos boʻlib, bu oilani boshqa tillardan, ulardagi grammatik xususiyatlardan keskin farqlab turadi (chunonchi, Hind-yevropa tillarida gap birgina kesimning oʻzidagina emas, balki ega va kesimning qatʼiy ishtiroki va tartibi (egadan keyin albatta kesim keladi) asosida tuziladi).

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriq:

1. Turkiy tillarni oʻrganishda Mahmud Qoshgʻariyning xizmatlari haqida soʻzlang.
2. Turkiy tillarni oʻrganishda rus olimlarining qanday xizmatlari bor?
3. Oltoy til oilasiga kiruvchi tillar haqida maʼlumot bering.
4. Agglyutinativ tillar guruhi haqida nimalar bilasiz?
5. Turkiy tillarning qiyosiy-tipologik xususiyatlari haqida gapiring.

Asosiy adabiyot:

1. Азизов О. Тилшуносликка кириш. Т., “Ўқитувчи”, 1996.
2. Баскаков Н., Содиқов А., Абдуазизов А. Умумий тилшунослик. Т. “Ўқитувчи”, 1979.
3. Содиқов А., Абдуазизов А., Ирискулов М. Тилшуносликка кириш. Т., “Ўқитувчи”, 1981.

Yordamchi adabiyot:

1. Баскаков Н.А. Введение в изучение тюркских языков. М., «Высшая школа», 1962.
2. Рустамов А. ва б. Қадимги туркий тил. Т., “Ўқитувчи», 1992.

Mavzu: Yozuv. Yozuvning taraqqiyoti

R e j a :

1. Yozuv. Yozuv va til.
2. Yozuv tarixidan.
3. Davr va yozuv taraqqiyoti.

Mavzu boʻyicha tayanch tushuncha:

Yozuv, yozuvning tilga munosabati, yozuvning paydo boʻlishi, piktografik yozuv, logografik yozuv, xitoy ieroglifikasi, misr mixli xatlari, fonografik yozuv va uning turlari, alifbo, lotin alifbosi, kirill yozuvi.

Yozuv insoniyatning tarixiy taraqqiyoti mahsulidir. U azaldan kishilarning aloqa qilishlari, fikr almashishlarida muhim rol oʻynagan. Shubhasiz, yozuv insoniyatning ulugʻ kashfiyoti, muvaffaqiyati hisoblanadi. U ogʻzaki nutq va tilga yordamchi vosita sifatida yuzaga keldi.

Yozuv – muayyan bir tilda qabul etilgan va kishilar oʻrtasidagi muloqotga xizmat qiladigan yozma belgilar yoki tasvirlar tizimi. Yozuv kishilik jamiyati madaniy taraqqiyotning tom maʼnodagi, bashariyatning uzoq va murakkab tadrijiy takomili jarayonidagi omillarning eng asosiylaridan biridir. Yozuv ogʻzaki tilga nisbatan ikkilamchi, qoʻshimcha aloqa vositasi boʻlsa-da, unga qaraganda koʻp afzalliklarga ega. Xususan, tilning asosiy vazifasi – kishilar oʻrtasidagi aloqani taʼminlashdir. Tilning kommunikativ vazifasi yozuvsiz amalga oshishi mumkin emas. Tilning estetik, gnosiologik (bilish) kabi asosiy vazifalarini ham yozuvsiz tasavvur qilish qiyin. Ayniqsa, tilning insoniyat qoʻlga kiritgan tajriba-bilimlarini saqlash va avlodlarga yetkazishdan iborat vazifasi bevosita yozuv orqali bajariladi. Tovush tili uchun noqulaylik tugʻdiruvchi masofa va vaqt omili yozuvning bu borada ustunligini dalillaydi. Bir latinch maqol bor: “Verba volant – scripta manent” – “Soʻzlar uchib ketadi, yozilgani esa qoladi”.

Yozuv tildan ancha keyin paydo boʻlgan. Tovush tili 400-500 ming yillar ilgari yuzaga kelgan, yozuv esa 4-5 ming yil oldin paydo boʻlgan. Ogʻzaki nutqning zamon va makon nuqtai nazaridan cheklanganligi va uni bartaraf etish zaruriyati yozuvning paydo boʻlishiga olib kelgan. Ogʻzaki til talaffuz vaqtidagina va ayni paytda muayyan masofadagi (tovush toʻlqinlari yetib borishi mumkin boʻlgan) kishi

³ Баскаков Н.А. Введение в изучение тюркских языков. М., «Высшая школа», 1962, стр.95.

uchungina mavjuddir. Boshqa sharoitlarda tilga ehtiyoj paydo bo'lishi bilan inson dahosi bu ehtiyojni qondira oluvchi vositalarni qidira boshlagan, natijada belgilar tizimidan iborat yozuv dunyoga kelgan. Aslida, belgilar tizimi sifatidagi yozuv paydo bo'lishidan oldin inson ramziy vositalardan keng foydalangan. Masalan, slavyan qabilalarida non-tuz – do'stlik ramzi, trubka-tinchlik, atirgul-sevgi ramzi va h.k. belgilar "buyumli yozuv" xarakteriga ega edi. Fanda turli xil yozuv ko'rinishlari aniqlangan va yozuvning tadriijiy tarixi isbotlangandir.

Piktografik (lat. pictus - chizmoq), rasmiy yozuv dastlabki yozuv turidir. Piktografik yozuv ibtidoiy tasviriy san'at namunasi bo'lib, toshlarga, suyaklarga, g'or devorlariga o'yib ishlangan. Piktografiyada hayotiy vaziyatlar (ov, sayohat), narsalar (qayiq, uy, oy, quyosh, yer), mavjudotlar (inson, sigir, qo'y) kabilar aks ettirilgan edi. Yozuvning rasm bilan aloqador hodisa ekanligini turkiy tillardagi bitik (yozuv) so'zi tarkibidagi biti-xitoycha *bi*: *mo'yqalam* bilan aloqadorligi, shuningdek, slavyan tillaridagi *nucamь* (jivopis) fe'lining o'zagi lat. "pingere" – *rasm solmoq* tushunchasi bilan bog'liqligi, gotcha *melian* (yozmoq) fe'lining dastlabki ma'nosi ham *mo'yqalamda rasm solmoq* bo'lib, hozirgi nemis tilida "*malen*" – *rasm chizmoq*" ma'nosida qo'llanilishi tasdiqlab turibdi.

B.N.Golovin piktografiya hodisasini shunday tushuntiradi: "Piktografik maktublar bilan muloqot qilmoqchi bo'lgan ikki hozirzamon do'stlarni tasavvur qilaylik. Ulardan biri qorong'u osmondagi yarimoy tasvirini, chiqayotgan quyosh, qayiqdagi odam, baliq va qarmoq rasmini chizdi. Keyingisi javob tariqasida botayotgan quyosh, qorong'u osmondagi yarimoy, paravoz va uch vagon va ular oldida odam hamda Moskva Kremlning tasvirini bergan. Shuningdek, vagonni quyosh bilan bog'laydigan chiziqli (liniya)ni ham ko'rsatgan. Demak, bulardan birinchisining mazmuni: "*Men ertaga baliq oviga boraman*". Ikkinchisi esa: *Bugun kechqurun (oqshomda) men poezdda Moskvaga ketaman*", - degan ma'nolarni anglatadi.¹ Darhaqiqat, olim juda to'g'ri tasavvur, mulohaza keltiradi. Ibtidoiy tafakkur va yozuvning tabiatini shu kabi ko'rinishlarda kuzatish mumkin. Shu boisdan ham, rasmiy (piktografik) yozuv dunyodagi mavjud barcha yozuvlarning kelib chiqishi uchun asos bo'lgan, degan fikrga kelish to'g'ridir.

Rasmlar yordamida muayyan fikr-axborotni ifodalash, yuborish mumkin ekanligini odamlar juda qadimiy davrlarda anglab yetganlar. Shuning uchun ham rasmiy yozuvning og'zaki til bilan bog'liq bo'lmaganligi uning turli til vakillari tomonidan ham tushunilaverishini ta'min etgan, ammo unda ifodalangan mazmunning turlicha, ixtiyoriy talqin etilishiga yo'l qo'ygan, abstrakt tushunchani bunday yozuv orqali ifodalash deyarli mumkin bo'lmagan. Davlat tuzumi rivojlanib, turli yozishmalarga va bu yozishmalarning ayni bir xil talqin qilinishiga bo'lgan ehtiyoj kuchayib borgani sari piktografik yozuvning o'z tomonlari ko'proq ko'zga tashlana boshlagan. Bu hol rasmiy yozuvning taraqqiyotiga, ideografik va ieroglifik yozuvning shakllanishiga olib kelgan.

Ideografik yozuv (grekcha *idea* - tushuncha), shuningdek, logografik yoki ieroglifik deb ham ataladi. Qadimgi yahudiy, shumer, xitoy, astek va mayya qabilalarining yozuvi ideografik namunalaridir.

Ideogrammalar, asosan, konkret tushunchani ifodalovchi rasm (piktogramma)lar asosida shakllandi. Chunonchi, yahudiy va shumer mixli xatlarida **tog'** tushunchasi-orasidan vodiy va jarlik o'tuvchi ikki tog' tasviri orqali, **suv**-to'lqinlarni eslatuvchi to'lqinsimon chiziqli bilan bildirilardi. **Quyosh** tushunchasi shumer yozuvida xitoy ideogrammasi kabi ichida nuqtali doira (O) shaklida ifodalangan. Ideogrammalarning piktogrammalardan kelib chiqqanligini qadimgi xitoy yozuvi yaqqol ko'rsatib turadi. Eng qadimgi logografik yozuv tizimlari (misr ieroglifikasi, xitoy ieroglifikasi, shumer va b.) mil. av. 4-ming yillikning oxiridan 2-ming yilliklarning boshlarigacha bo'lgan davrda shakllangan. Hozirgi kunga qadar eng turg'un va tarqalgan ideografik yozuv xitoy yozuvidir, bunga Xitoy tarixi va xitoycha so'zlarning bir bo'g'inli tabiati omil bo'lib xizmat qilgan. XV asrdayoq in' qabilalari rivojlangan yozuv tizimiga ega edilar. Biroq, davlat bo'lib birlashish va ierogliflarning sistematsiyasi (tizimga solinishi) Xitoyning Sin va asosan Xan sulolalari davrida siyosiy markazlashuvi davomida sodir bo'ldi. Syuy Shen I-II asrlarda "Shoven szeszi" ("Elementlar va murakkab belgilar haqida") degan xitoycha ierogliflar jadvalini yaratdi: bunda 10,5 ming ieroglif ko'rsatilgan.

Yozuvning keyingi taraqqiyot bosqichi **bo'g'in** yozuvi bo'lib, u **fonografik** yozuv turiga kiradi (mil.av. 2-ming yilliklarning o'rtalarida paydo bo'lgan). Bu yozuvda bo'g'inlar ierogliflardir. U yoki bu so'zni yozishga to'g'ri kelsa, ana shu bo'g'inlarni bir-biriga qo'shish usulidan foydalaniladi. Tildagi so'zlar soniga qaraganda bo'g'inlar soni ancha kam, shuning uchun ham bo'g'in yozuvi logografik yozuviga nisbatan sezilarli darajada oz belgilar tizimi bilan ish ko'radi. Masalan, **devonagari** (hind) yozuvi bo'g'in yozuvidir: ulardagi har bir ishora undosh tovushlarning a unlisi bilan qo'shib talaffuz qilinishini ko'rsatadi, ya'ni **na, ga, sha** va h.z. Agar boshqa unlini talaffuz qilish zarur bo'lsa, unda harflarning yo ustiga, yo tagiga ma'lum belgilar qo'yiladi. Devonagarida 50 ta belgi bor: 13 tasi unli va so'z yoki bo'g'in boshida keluvchi diftongni, 33 tasi bo'g'inni ko'rsatadi. 4 ta yordamchi belgi. Bo'g'in belgilari sillabogramma deyiladi. Bu yozuvdan Shimoliy Hindiston hindilari foydalanadilar. Arab, misr, efiopiya, yapon (kana), koreyscha (kunjumun) yozuvlari ham bo'g'in-yozuv turiga kiradi.

Fonografik yozuv tizimini keyingi taraqqiyoti harf-tovush yozuvi bo'lib, fanda inqilobiy hodisa sifatida e'tirof etiladi. Bu yo'nalishdagi ilk yozuv **finikiy** yozuvidir. Birinchi marta sof tovush yozuvi, sanoqli harflardan iborat mukammal alfavitning yuzaga kelishi jamiyatdagi yozuvni biladigan kishilar doirasini kengaytirib yuborgan. Bu jarayon mil.av. 9-asrdan boshlangan. Hozirgi kunda bizga ma'lum bo'lgan harf-tovush tizimidagi yozuvlarning beshdan to'rt qismidan ko'prog'i finikiy yozuvidan kelib chiqqan. Harf-tovush tizimi, hozirda, asosan 4 xil yozuv tizimidan iborat: lotin yozuvi (jahondagi 30 % aholi), slavyan – kirillitsa (10%), arab yozuvi (10%), hind yozuvi (20%).

O'rta Osiyodagi xalqlar, jumladan, o'zbek xalqi turli yozuvlardan foydalanib kelgan. Bu yozuvlar avesto, pahlaviy, o'rxun-enasoy (runik), turkiy (uyg'ur), sug'd, arab, kirill, lotin yozuvlaridir.

Yozuvning, xususan harf-tovush tizimining takomillashuvi – alifboni yuzaga keltirdi. Alifbo (arab alfavitining boshlang'ich ikki harfi – alif va bo nomidan olingan) – biror tilning yozuviga qabul qilingan va ma'lum an'anaviy tartib berilgan yozuv belgilari yoki bo'g'in belgilar (devonagari) majmui bo'lib, mil.av. 2000-yillar oxirlarida qadimgi Uyurit va finikiy yozuvi tovush tizimidan kelib chiqqan. Turkiy xalqlarning runik va turkiy (uyg'ur) yozuvlari bo'lgan. Ammo bu o'ziga xos turkiy yozuvlar alifbosi haqida ma'lumot uchramaydi. Ularga oid harflar jadvali tovush belgilari haqidagi boshqa manbalardagi ma'lumotlar hamda shu yozuv yodgorliklari asosida tuzilgan. Qadimgi turkiy yozma yodgorliklari turkiy run (o'rxun-enasoy), uyg'ur va qisman moniy (monoviy), brahmon, sug'd va so'ryoniy yozuvlarida yozilgan obidalar kiradi. Run va uyg'ur yozuvlari turkiy xalqlarga xos yozuvdir. Toshga o'yib yozilgan run yozuvi XIX asr oxirida

¹ Головин Б.Н. Введение в языкознание. М., 1977. стр.: 232.

Mo'g'ulistonning O'rxun daryosi bo'yida topilib, bu yozuvni dastlab daniyalik tilshunos V.Tomson va rus turkologi V.Radlov aniqladi. Hozirgi paytgacha o'rxun yozuvida yozilgan ko'plab tosh, idish, asbob, tangalar, kitob, kitob varaqlari va ayrim qog'ozlar ham ma'lum. Talas va Yenisey obidalaridagi yozuv O'rxun obidalariga nisbatan harflarning, shakliy variantlarining ko'pligi bilan farq qiladi.

Uyg'ur yozuvida yozilgan asarlarning hammasi ham qadimgi turk davriga oid emas, chunki bu yozuv XVIII asrgacha qo'llandi. Uyg'ur yozuvini Mahmud Qoshg'ariy "turk yozuvi" deb ataydi hamda bu yozuvda 18 ta harf borligini va turkiy tillarda mavjud bo'lgan 7 ta tovush (p, j (portlovchi), j (sirg'aluvchi), f, g, ng, g) uchun maxsus harflar yo'qligini, unilarning esa arab tilidagidek harakatlar bilan emas, harflar bilan ifodalanishini aytib o'tadi. Mahmud Qoshg'ariy turk (uyg'ur) harflarining alohida va qo'shib yozilgandagi ko'rinishlarini bergan.

Yozuv taraqqiyotida grek yozuvi, lotin yozuvi va kirill yozuvi muayyan sharoitlarda yuzaga keldi. Greklar dastlab konsonant yozuvidan fodalanishgan. Eramizdan oldingi VII-VI asrlarda vokal-tovush namunalari uchraydi. Eramizgacha 403-yilda Evklid tomonidan Afinada mumtoz grek alifbosi kiritildi. Qadimgi grek yozuvi 24 ta harfga ega (17 ta undosh va 7 ta unli).

Grek yozuvi asosida latin alifbosi shakllandi. Sharqiy grek yozuvi asosida esa kirill, gruzin va arman alifbolari yaratildi. Lotin yozuvi G'arbiy Yevropada keng tarqaldi. XIV asrda qog'ozning paydo bo'lishi, kitob nashr qilishning kashf etilishi bu yozuvning keng tarqalishida muhim omil bo'ldi. Qadimgi lotin yozuvida 23 ta harf bor edi (tovushlar 35 ta bo'lgan: 16 ta unli, 19 ta undosh).

Slovyan alifbosi esa IX asr oxiri – X asr boshlarida paydo bo'ldi, chunonchi, ikki ko'rinishda qo'llanila boshlandi: glagalitsa va kirillitsa.

Kirill yozuvi janubiy (bolgar, serb, makedon) va sharqiy slavyanlarga tarqaldi. Bu alifbolarning yaratilishi Kirill va Mefodiy (aka-ukalar) nomlari bilan bog'liq. Kirill alifbosida 43 ta harf bor edi, tovushlar esa 44 ta: 11 ta unli va 33 ta undosh. Kirill yozuvi asosidagi zamonaviy rus alfaviti 33 ta harf, 43 ta tovush: 6 ta unli va 37 ta undosh mavjud.

Aslida, yozuv va tilning taraqqiyoti bir xil, bir-biri bilan to'la mos keladigan jarayon emas. Tildagi u yoki bu o'zgarish tadrijiy ravishda, asta-sekin yuz beradi. Yozuv haqida esa bunday deb bo'lmaydi. Odamlar, aniqrog'i xalqlar til xususiyatlariga yanada moslashtirish uchun yozuvga turli o'zgarishlar kiritadilar, islohotlar qiladilar, bir yozuv tizimini boshqasi bilan almashtiradilar. Masalan, o'zbek xalqi asrlar davomida arab alifbosidan foydalanib kelgan. O'zbekistonda 1929-yilda lotin yozuvi asosidagi o'zbek alifbosiga o'tilgan, 1940-yildan esa kirill yozuvi joriy etilgan. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi 1993-yil 2-sentabrda "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Bu qonunga va uni amalga kiritish tartibi haqidagi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi 1995-yil 6-mayda o'zgarishlar kiritadigan qonun qabul qildi. Bu hujjatga ko'ra lotin yozuviga asoslangan yangi o'zbek alifbosi 26 ta harf va 3 ta harflar qo'shilmasidan iborat.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriq:

- 1.Yozuvning afzalliklari nimada?
- 2.Yozuvning ilk ko'rinishi rasmiy yozuv bo'lganligi qanday manbalarda o'z aksini topgan?
- 3.Piktografiya – ideografiya – fonografiya - yozuvning tadrijiy bosqichlari sifatidagi taraqqiyotini izohlab bering.
- 4.Xitoy va hind yozuvlari nima bilan farqlanadi?
- 5.Alifbo nima? Uning jahonda qanday turlari bor?
- 6.O'zbek yozuvlari tarixini so'zlab bering.

Asosiy adabiyot:

1. Азизов О. Тилшуносликка кириш. Т., “Ўқитувчи”, 1996.
2. Баскаков Н., Содиқов А., Абдуазизов А. Умумий тилшунослик. Т. “Ўқитувчи”, 1979.
3. Содиқов А., Абдуазизов А., Ирискулов М. Тилшуносликка кириш. Т., “Ўқитувчи”, 1981.

Yordamchi adabiyot:

- 1.Абдурахмонов Ғ., Рустамов А. Қадимги туркий тил. Т., “Ўқитувчи”, 1982.
 - 2.Головин Б.Н. Введение в языкознание. М., «Высшая школа», 1977.
 - 3.Кодухов В.Н. Введение в языкознание. М., «Просвещение», 1987.
 - 4.Реформатский А.А. Введение в языкознание. М., 1955.
- Ўзбекистон Миллий энциклопедияси Т., 2002. I-II жилдлар.

Mavzu: Til va tafakkur masalalari

Reja:

- 1.Til va tafakkurning o'zaro bog'liqligi.
- 2.Mantiq va tilshunoslik.
- 3.Umumiy xulosalar.

Mavzu bo'yicha tayanch tushuncha:

Til va tafakkur, ong, bilish, mantiqiy kategoriyalar, grammatik kategoriyalar, aqliy bilish, hissiy bilish, mantiqiy va til kategoriyalarining mos tushish va tushmaslik hodisasi.

Til va tafakkur munosabati tilshunoslik fanining asosiy masalalaridan biri sanaladi. Tilsiz fikrni ifodalash sira mumkin bo'lmaganidek, tafakkursiz til o'z ifodasini shakllantira olmaydi. Shular bilan bog'liq yana falsafiy, psixologik ong tushunchasi ham mavjud. Ong ijtimoiy-psixologik hodisa bo'lib, insonning fikrlash qobiliyatini boshqaradi. Ong biologik hodisa bo'lib, mantiqiy fikriy

faoliyatni o'z ichiga oladi. Demak, ong tafakkurdan ham katta hodisa, tushunchadir. Tafakkur – bilishning eng yuqori bosqichidir. Bilish bu obyektiv voqelikning inson ongida aks etish jarayonidir. Fanda ikki xil bilish farqlanadi:

1. Sezgililar orqali bilish.
2. Aqliy bilish va tafakkur.

Hissiy bilishda tashqi olamni sezgi a'zolarimiz orqali bilib olamiz. Bunday bilish hayvonlarda ham rivojlangan. Aqliy bilish esa insonlarga xos bo'lib, tashqi olamni faqatgina his qilib qolmay, balki har bir hodisa, predmet, jarayonlarini fahmlaydi, ularni qayta ishlaydi, fikr yuritadi, xulosalaydi, tushunchaga ega bo'ladi. Mana shu jarayon **tafakkur**dir. Demak, tafakkur oliy bilish, fahm, idrok kabi tushuncha bilan uzviy bog'liq bo'lib, bilishning mahsuli sanaladi. Tafakkur – miyaning oily mahsuli. Tafakkur kishilarning ijtimoiy ishlab chiqarish faoliyati jarayonida paydo bo'ladi. U insoniyat jamiyatiga xos bo'lgan mehnat va nutq faoliyati bilan chambarchas bog'liq holdagina mavjuddir. Tafakkurning voqelikni bevosita aks ettirish qobiliyati insonning xulosa chiqarishga, isbotlashga bo'lgan qobiliyatida ifodalanadi. Bu qobiliyat bilish imkoniyatlarini kengaytiradi. Inson tafakkuri turli fanlar (mantiq, psixologiya, gnoseologiya, kibernetika va sh.k.) tomonidan va turli usullarda o'rganiladi. Eksperimental tadqiqotlar orasida so'nggi vaqtda tafakkurni turli kibernetik qurilmalar yordamida modellashtirish shaklida tadqiq qilish metodlari ancha keng rivojlangan.

Biz yuqorida tafakkurni bilish, ong, idrok kabi tushuncha bilan bog'liq ekanligini qayd etdik. Tafakkur til bilan ham zich aloqador ekanligini ham unutmaslik kerak. Uning til bilan munosabati, aloqadorligi tilshunoslik fanining o'rganilish doirasiga ham kiradi. Har qanday fikr so'zlarda o'z ifodasini topadi. Fikrning voqeligi, uning mavjudligi tilda namoyon bo'ladi. Biz istalgan predmet, voqea-hodisa haqida til vositasiz, so'z va gaplarsiz fikrimizni ifodalay olmaymiz. Til – bilish jarayonining muhim sharti. Tilsiz tafakkur mavjud bo'lmaganidek, tafakkursiz til ham mavjud emas. Hech qanday ma'noga ega bo'lmagan, faqat ma'lum tovushlar tizimidan iborat bo'lgan so'zlar muayyan tushunchani ifodalamaydi, tasavvur ham hosil qilolmaydi. Va nihoyat, fikr ifodalash funksiyasini bajarmagan bunday so'zlar nutq uchun xizmat qilolmaydi. Xullas, til va tafakkur munosabati o'zaro dialektik aloqadorlikda bo'lib, birgalikda rivojlanish va ta'sir etish qonuniyatlariga amal qiladi. Ammo til qonunlari bilan tafakkur qonunlari bir-biriga teng kelmaydi. Til grammatikaning o'rganish manbai bo'lsa, tafakkur logika (mantiq) ilmining manbayidir. Shunga ko'ra mantiqiy kategoriyalar (tushuncha, subyekt, predikat, hukm va sh.k.) bilan grammatik kategoriyalar (so'z, ega, kesim, to'ldiruvchi...) farqlanadi. Mantiq birliklari umumiy, mavhumdir. Til birliklari, ayniqsa, nutqiy birliklar real, voqeyidir. Mantiqiy kategoriyalar umumiy, metodologik bo'lganligi bilan tillardagi grammatik kategoriyalar o'ziga xosdir. Chunonchi, rus tilida otlarning jonli va jonsizligini ifodalash kategoriyasi mavjudki, bu o'zbek tili uchun xos hodisa emas.

Одушевленные		Неодушевленные	
Кто?	Она Девочка Котёнок	Оно Стол Книга	Что?

Rus tilida rod kategoriyasi mavjud bo'lib, u mantiqiy **jins** kategoriyasi bilan muvofiq va nomuvofiq holatda turishi kuzatiladi. Masalan, *мужчина, бабушка* “женский род”ni ifodalaydi, ammo jins kategoriyasi jihatidan erkak (мужской пол)lik belgisiga ega. Demak, mantiqiy jins kategoriyasi grammatik rod kategoriyasi bilan nomutanosiblik hosil qilgan. Mantiqiy sifat va miqdor kategoriyasi o'zbek tili grammatikasida ham ifodalanadi. Chunonchi, mantiqiy sifat kategoriyasi sifat so'z turkumi ichida turli usullar (morfoloqik, leksik-semantik, takror) bilan aks ettirilishi mumkin. Falsafiy miqdor ma'nosi esa son kategoriyasida o'z ifodasini topadi (birlik va ko'plikda). Grammatikada miqdor ma'nosini ifodalash son so'z turkumi (*yigirmata talaba*), ravish so'z turkumi (*ancha, picha*), takrorlar (*qop-qop un*) orqali ham ifodalanadi.

Xullas, til bilan tafakkur bir-biridan ajralmas dialektik birlikni tashkil etuvchi, ammo o'z xususiyatlariga, qonun-qoidalariga ega bo'lgan hodisalardir. Til bilan tafakkurni bir hodisa deb tushunish qanchalik xato bo'lsa, ularni bir-biridan ajratish ham shunchalik xatodir. F.de Sossyur ta'biri bilan aytganda: “Язык можно сравнить также с листом бумаги. Мысль – его лицевая сторона, а звук оборотная...”, demak, tilni fikrdan ajratish mumkin emas. Fikr va tilda voqeyiy turmush, hayot namoyon bolishi lozim.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriq:

1. Til, tafakkur, ong bilish kabi tushunchani izohlang.
2. Til va tafakkurning o'zaro munosabati muammosida muhim va murakkab tomonlar nima bilan izohlanadi?
3. Mantiqiy kategoriyalarni sanab, ularni birma-bir izohlang.
4. Qanday grammatik kategoriyalarni bilasiz? Ularning mantiqiy kategoriyalar bilan munosabatini qanday izohlash mumkin?
5. Til va tafakkur masalalarini yana qaysi fanlar o'rganadi va nima uchun?
6. Til va tafakkur munosabatlari aks ettirilgan hikmatli so'zlar, ko'chirma (sitata)lar qatorini tuzing.

Asosiy adabiyot:

1. Азизов О. Тилшуносликка кириш. Т., “Ўқитувчи”, 1996.
2. Баскаков Н., Содиқов А., Абдуазизов А. Умумий тилшунослик. Т. “Ўқитувчи”, 1979.
3. Содиқов А., Абдуазизов А., Ирискулов М. Тилшуносликка кириш. Т., “Ўқитувчи”, 1981.

Yordamchi adabiyot:

1. Облокулов С. Тафаккур ва тил тарихидан. Тошкент, 1969, 3-20-бетлар.

2. Ражабов Н. Тил ва жамият. Тошкент, 1984, 21-28-бетлар.
3. Серебренников Б.А. К проблеме “Язык и мышление”. стр.: 11-5.
4. Философия луғати (Р. Абдурахмонов таржимаси). Тошкент, 1984, 21-28-бетлар.

Mavzu: Til va nutq munosabati

Reja:

1. Til va nutqning farqlanishi. Lison va nutqni ajratishda F.de Sossyur ta'limoti.
2. UMIS tabiatli lison va YAHVO tabiatli nutq hodisasi.
3. Lisoniy va nutqiy birliklar haqida ma'lumot.

Mavzu bo'yicha tayanch tushuncha:

Lison va nutq farqlanishi, F.de Sossyur ta'limoti, tilning psixofizik hodisa ekanligi, UMIS (umumiylik, mohiyat, imkoniyat, sabab) YHVO (yakkalik, hodisa, voqelik, oqibat) lisoniy birlikning shakili va ma'noviy qiymati, lisoniy birliklar, nutqiy birliklar, fonema va tovush munosabati, leksema va so'z munosabati, morfema va qo'shimcha munosabati, qolip va hosila munosabati.

Tilshunoslik boshqa fanlardan ajratilib, o'zicha alohida mustaqil fan sifatida tanilgan davrlardayoq til va nutqni farqlashga e'tibor berilgan edi. Ammo fan taraqqiyoti tarixi davomida hamma jihatdan ham til bilan nutq bir-biridan farqlanavermadi. Shuning uchun, ko'pincha, nutqqa xos hodisalar til hodisasi sifatida talqin qilinib kelindi. Tilshunosligimizning keyingi taraqqiyotida til va nutqni farqlashga jiddiy e'tibor berilmoqda.

Til va nutq hodisalariga o'zaro farqlab yondashishni dastlab VIII-IX asrlarda arab tilshunosligida, keyinchalik V.Humbold, A.Shteyntal, Boduen de Kurtene ta'limotlarida uchratamiz. Lekin til bilan nutq hodisalarini va ularga xos birliklarni ilmiy va amaliy farqlash, shu tushunchani batamom yangi mazmunda qo'llash F.de Sossyur va uning izdoshlari yaratgan ta'limot bilan bog'liqdir. Lison(til) va nutqning farqlanishi, tilga tizim sifatida yondashuv XX asr jahon tilshunosligida inqilobga teng hodisa sifatida baholandi. Chunki bu hodisa tilshunoslikdagi mavjud qarashlarni tubdan o'zgartirib yubordi. Tilga, xususan, o'zbek tiliga sistema sifatida yondashuvning dastlabki yillarida lison o'rnida til atamasi qo'llanilib, bu so'z ko'p ma'nolilik tabiatiga ega bo'lganligi sababli, ayrim chalkashliklarni keltirib chiqarardi, chunki insonning nutq so'zlash qobiliyati ham, nutqi ham shu atama bilan yuritilardi. Atamalarga esa bir ma'nolilik xosdir.

Lison deyilganda ma'lum bir jamiyatning barcha a'zolari uchun avvaldan tayyor holga keltirilib qo'yilgan, hamma uchun umumiy va majburiy fikrni ifodalash va boshqa maqsadlar uchun xizmat qiladigan birliklar hamda bu birliklarning o'zaro birikish qonuniyatlari yig'indisi tushuniladi [3,8;]. Tilning bunday talqini uning psixofizik hodisa ekanligini, u o'ziga umumiylik, mohiyat, imkoniyat, sabab(UMIS) kabi sifatlarni mujassamlashtirganligini isbotlaydi. Til (lison) bunday xususiyatlarini aniq formalarda – xususiy hodisa va voqeliklar sifatida gavdalantiradi. Shu nuqtayi nazardan til va nutqning har biriga xos mustaqil birliklari mavjuddir. (Keyinroq, bu birliklar haqida to'xtalib o'tamiz).

Lisonda birliklar va birikish qonuniyatlari farqlanadi. Lisoniy birlik ikki tomonning bir butunligidan iborat bo'ladi:

- a) lisoniy birlikning shakili, tashqi tomoni;
- b) lisoniy birlikning ma'lum bir vazifasi, ma'noviy qiymati.

Lisoniy birlik ongda qandaydir tarh, ramz sifatida saqlanadi. Masalan, **[a]** fonemasining talaffuz xususiyatlari haqida umumlashma tasavvur o'zbek tilida so'zlashuvchi barcha jamiyat a'zolari tilida birdir. Bu **[a]** fonemasining tashqi tomonidir, uning ichki tomonini ma'no farqlash, chegaralash xususiyati tashkil etadi. Ichki va tashqi tomonni bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Bir-birini shartlovchi, bir-biriga bog'liq bo'lgan “lison – nutq qobiliyati - nutq” zanjirida faqat nutqqa tashqi shaklda (og'zaki, yozma) namoyon bo'ladi. F.de Sossyur lison – nutq munosabatini shatranj o'yini qoidalarini asosida tushuntirib o'tgan. Shaxmat donalari va har bir donaning yurish qoidasi ongimizdagi lisoniy birliklar va ularning birikish imkoniyatlariga o'xshaydi. O'yin qoidalarini hamma uchun bir xil. O'yinchi xuddi so'zlovchi bo'lib, shaxmat oyinini bilishi esa so'zlovchining nutq qobiliyatiga o'xshaydi. Donalarning harakatlantirilishini nutqqa qiyoslash mumkin. Chunonchi:

shaxmat – o'ynash qobiliyati - o'yin;

lison – nutq qobiliyati – nutq.

Lison va nutq munosabatiga dialektik, dialektika kategoriyalari nuqtayi nazaridan yondashilganda, u haqdagi tasavvur va bilimlarimiz to'laqonli bo'ladi. Lison va nutq munosabatiga dialektikaning umumiylik va yakkalik, mohiyat va hodisa, imkoniyat va voqelik, sabab va oqibat munosabati asosida yondashilsa, u haqdagi bilimlarimiz yanada ravshanlashdi, ya'ni til (lison) umumiylik, mohiyat, imkoniyat, sabab (UMIS) belgilariga, nutq esa yakkalik hodisa, voqelik, oqibat (YHVO) belgilariga egadir.

Lison va nutqning o'ziga xos birliklari mavjud:

Lisoniy birliklar – fonema, morfema, leksema, qolip;

Nutqiy birliklar – tovush, qo'shimcha, so'z, (yasama so'z, qo'shma so'z...) so'z birikmasi, gap.

Biz quyida bularning farqini birma-bir ko'rib o'tamiz.

1.Fonema va tovush. Eng kichik lisoniy birlik fonemalardir. Fonema muayyan til egalarining ma'lum tovushlar tipi haqidagi umumiy tasavvurlardir. Har bir fonema so'zlovchilar ongida o'z tipini farqlovchi belgilari majmui asosida vujudga kelgan maxsus “akustik – artikulyatsion portret” yoki “tovushlar obrazi” sifatida saqlanadi. Muayyan fonemaning farqlovchi belgilari uning artikulyatsion va akustik xususiyatlari asosida shakllanadi. Artikulyatsion belgilar muayyan tovushlarni talaffuz qilish uchun nutq a'zolarining bir xildagi harakatga moslashgan avtomatik, standart holatlari haqidagi tasavvur bo'lsa, akustik belgilar sifatida bir turdagi tovushlarga xos talaffuz sifati va miqdori tusuniladi.

O'zbek tilida so'zlovchi shaxslarning ongida hozirgi o'zbek adabiy tilidagi 30 ta tovush tipi – fonemalar haqidagi ma'lumot bor. Bu ma'lumot kishi ongida uning til o'rganishi, o'zgalar va o'zining nutqini ko'rsatish natijalari sifatida jonlanadi. Masalan, o'zbek tili sohibi

o'zining eshitish va so'zlash a'zolari faoliyatini kuzatish natijasida [a] fohemasining unlilik, kenglik, lablanmaganlik, [u] fohemasining unlilik, torlik, lablanganlik, [p] fonemasining undoshlik, shovqinlilik, jarangsizlik, portlovchilik, lab – lablik kabi belgilarga ega ekanligi haqidagi "tabiiy" (go'yoki o'zi hosil qilingan) bilimga ega bo'ladi. Nutq so'zlaganda, kishi ana shu tipik belgilarni jonlantirishga, ongidagi imkoniyatni voqelantirishga, fonetik umumiylikni xususiyashtirishga harakat qiladi.

Lisoniy birliklar nutqiy birliklarga nisbatan miqdoran cheklangan bo'lsa-da, ammo ularning soni ham sanoqli emas. Shu boisdan ularning xotirada saqlanish mexanizmini ochish lozim bo'ladi.

Ma'lumki, inson narsalarni ularning umumlashtiruvchi va farqlovchi belgilari asosida esda saqlaydi. Esda saqlanishi lozim bo'lgan narsa miqdor jihatdan ko'p bo'lsa, eslab qolishning asosiy yo'li tasniflash, ya'ni guruhlariga ajratishdir. Tasnif esa o'xshash va noo'xshash, umumiy va farqlovchi belgilarini aniqlash asosida kechdi. Bu tamoyil barcha lisoniy birliklar, xususan, fonemalar tasnifida ham to'la amal qiladi.

Hozirgi o'zbek adabiy tilida 30 ta fonema so'zlovchi ongida, avvalo ikki guruh – unlilar va undoshlarga bo'lingan holda mavjud bo'ladi. Bu guruhlar tovushlar talaffuzidagi ovoz va shovqinning ishtiroki darajasiga qarab belgilanadi. Bo'linish shu tarzda alohida fonemagacha davom etib boradi. Unlilar ham, undoshlar ham qarama-qarshi belgilari asosida kichik guruhlariga bo'linib boraveradi. Masalan, o'zbek tilidagi 6 ta unli bir tizim bo'lib, ular shovqinsizligi bilan undoshlardan ajraladi. Biroq bu tizimchaning o'zi ham unsurlarning qarama-qarshi belgilari asosida bo'linadi. Unlilarning qarama- qarshi qo'yilishi quyidagicha:

i u
e o'
a o

Umuman olganda, minimal lisoniy birlik bo'lmish fonemalar inson nutq a'zolari yordamida vujudga kelgan tovush ko'rinishlarining umumiy andozasi bo'lib, cheksiz tovushlarning umumlashmalari qatori sifatida ongimizda yashaydi. So'zlovchilar ongidagi ushbu psixo-akustik obrazlar asosida nutq a'zolarini harakatga keltirib tovushlarni hosil qiladi. Yoki tinglovchi o'zgalardan tomonidan hosil qilingan tovushlarni eshitish orqali ongidagi andozaga solishtirib ko'radi.

Fonemalarning ma'no farqlash xossasi mavjud bo'lib, bir fonemaning turli ko'rinishlari bo'lgan tovushlarda bu hodisa kuzatilmaydi. Bir fonemaning nutqiy varianti bo'lmish tovush boshqa fonemaning varianti bo'lgan tovush bilan almashtirilsa, so'z ma'nosi yangilanadi, ya'ni boshqa so'zga aylanadi. Qiyoslang: [qora] va [qara] [ota] va [ata], [ona] va [ana]. Shu boisdan ham fonemaga tilning ma'no farqlovchi eng kichik birligi deb ta'rif berildi. Bir fonemaning turli variantlari ma'no farqlamaydi. Masalan, til oldi va til orqa [o'] unlilari quyidagi so'zlarda ma'no farqlamagan: o'l – o'l.

Leksema va so'z. Lisonning borliq hodisalarini nomlash, ifodalash, ko'rsatish uchun xizmat qiluvchi birligi leksemdir. Lisoniy birlik sifatidagi leksema biri ikkinchisiz mavjud bo'la olmaydigan ikkita psixofizik-akustik struktura (tovush qobig'i), ya'ni nomema hamda ma'lum bir tusuncha asosida vujudga kelgan mazmuniy struktura, ya'ni sememaning birligidan iborat.

Lisoniy birlik sifatidagi leksemalarning tovush strukturasini fonetik birliklar ko'rinishlar (variant)larining turlicha kombinatsiyalari asosida vujudga kelgan. O'zbek tilida mavjud leksemalarning barchasining shakli tomoni tilimizda mavjud 30 ta fonema asosida, xolos. Shu boisdan tashqi fonetik strukturasida leksemalarni kuchli va kuchsiz ziddiyatlarga qo'yish mumkin. Kuchli oppozitsiyalar bittadan (u – olmosh, e - undosh), ikkitadan (ot - ish), uchtdan (bor - kel), to'rttdan (qunt - band) fonema variantining zidlanishi asosida hosil bo'lgan bo'lsa, kuchsiz ziddiyatlar leksemalarning tarkibidagi ayrim fonema variantlari asosida bo'ladi.

Har bir leksema lisoniy birlik sifatida mazmun mundarijasiga ham ega. Leksemalarning mazmun rejasi **denotatlar** yoki **referentlar** deb ataladigan borliqdagi narsa, harakat, belgi, miqdor kabilarni ifodalovchi tushunchani bildiradi. Masalan, borliqda yuz deb ataluvchi kishi burnining ikki tomonidagi peshonadan iyakkacha bo'lgan qismi mavjud. Shu asosda kishilar ongida yuz tushunchasi vujudga kelgan. Mazkur tushuncha asosida esa semema (leksema ma'nosi) shakllanadi. Tushuncha bilan ma'no bitta narsa emas, ular farqli xususiyatlarga ega. Masalan, ingliz, rus, nemis tillarida so'zlashuvchi kishilarning ongida aka va uka tushunchalari mavjud. Biroq bu tushuncha brother (ingliz), brat (rus) va bruder (nemis) leksemalarida bitta ma'no (semema)da birlashgan. Yoki [yuz], [bef], [bashara], [chehra], [oraz] leksemalari bitta tushunchani ifodalaydi, lekin ularning ma'nolari o'zaro farqlanadi.

Leksemalarning mazmun silsilasi bo'lgan sememani tashkil etuvchi uzvlar semalardir. Nomema tovushlarning turlicha kombinatsiyalari asosida tashkil topganligi kabi, ana shu semalarning turlicha birikuv va ba'zilarining o'rin almashinuvi asosida turli mazmundagi semema vujudga keladi. Bu sememalarning semik tarkibi quyidagicha:

[yuz] – "odamga xos", "boshning old qismi", "burunning ikki tomoni", "peshonadan iyakkacha", "burundan quloqqacha", "qo'llanishi chegaralangan", "uslubiy betaraf", "turkiy qatlamga oid", "umumiste'mol".

[jamol] – "odamga xos", "boshning old qismi", "burunning ikki tomoni", "peshonadan iyakkacha", "burundan quloqqacha", "qo'llanishi chegaralanmagan", "badiiy uslubga xos", "arabiy qatlamga xos". Har ikkala leksema ham bir tushunchani ifodalaydi. Ularning mazmun rejasi – sememalarning semik tarkibi farqlanadi. Leksemalar sememalarning atash semalari denotatning in'ikosi – tushunchani ifodalaydi. Har bir leksema sememasi o'xshash va farqlovchi semalarga ega. O'xshash semalar ularni guruhlariga birlashtirishga, farqli semalar esa ajratish uchun xizmat qiladi.

Leksemaning nutqiy qo'llanishidagi varianti so'zlar bo'lib, ular turlicha matn qurshovlar asosida har xil xususiyatlar kasb etadi. Leksemalar tub yoki yasama bo'lishi mumkin. Masalan, [kitob], [savdogar], nonchi birliklarini olaylik. Qatordagi [kitob], va [savdogar] birliklari tayyorlik, umumiylik, ijtimoiylik xossalriga ega. Biroq tilimizda nonchi degan lisoniy birlik yo'q. U nutq jarayonidagina hosil qilinishi mumkin va yuqoridagi birliklar ega bo'lgan xususiyatlardan xoli. Nonchi birligining nutq jarayonigagina xosligi tayyorlik belgisiga ega emasligini ko'rsatadi.

3. Morfema va qo'shimcha. Morfema leksemadan ajralgan holda o'z mohiyatini namoyon qila olmaydigan, shakl va denotativ bo'lmagan mazmunning birligidan iborat bo'lgan kichik lisoniy birlikdir. Qo'shimcha esa ana shu psixo-fizik mohiyatning nutqda namoyon bo'lishidir. Morfema ham tashqi (moddiy) va ichki (ma'no, vazifa) jihatlar yaxlitligidan iborat. Atov mustaqilligiga, mustaqil sintaktik mavqega ega bo'lmagan bu birliklar o'zida leksik va grammatik mohiyatlarni uyg'unlashtirgan bo'ladi:

- a) yangi so'zlar hosil qiladi;
- b) so'zlarga qo'shimcha leksik – semantik qiymat beradi.

Har bir tilga xos birliklar boshqa tillarnikidan o'zaro farqlanadi. Masalan, aloqasiz (amorf), yelimlovchi (agglyutativ) va egiluvchan (flektiv) tillardagi leksemalar mohiyatan o'ziga xosdir.

4.Qolip va hosila. Lisoniy birliklarning navbatdagi turi qurilma – qoliplardir. Qolip deganda yasama so'z, so'z birikmasi va gaplar hosil qilish sxemalari tushuniladi. Qoliplar ikki xil bo'ladi:

- a)so'z yasash qoliplari;
- b)sintaktik (so'z birikmasi va gap) qoliplari.

Qoliplar ham boshqa lisoniy birliklar kabi UMIS tabiatli bo'ladi. Masalan, nutqimizdagi cheksiz yasama so'zlar (masalan, (*nonchi*), (*sutchi*), (*uzumchi*), (*nisholdachi*) kabi bitta bevosita kuzatishda berilmagan lisoniy birlik (masalan, [*narsa/buyum oti+chi=shu narsa/buyum bilan shug' ullanuvchi kishi*], ya'ni so'z yasash qolipining nutqiy hosilalaridir. *Kitobni o'qimoq* nutqiy hosilasi boshqa o'ziga o'xshash cheksiz so'z birikmalari (*qog'ozni yirtmoq*, *uyni sotmoq* va h.k.) bilan birgalikda [*Ot^k+Fe'*]= vositasiz to'ldiruvchili fe'lli birikma] lisoniy sintaktik qolipidan chiqqan nutqiy hosilalardir.

Qoliplar miqdoran cheklangan bo'lib, masalan, o'zbek tilida so'z birikmasi hosil qilishning 18 ta ustivor qolipi ajratilgan va nutqimizda ulardan son- sanoqsiz so'z birikmalari hosil qilamiz.

Lisoniy va nutqiy birliklar o'zaro qarama-qarshi belgilarga ega bo'ladi: lisoniy birliklar moddiylikdan xoli, cheklangan, ijtimoiy, barqaror kabi belgilarga ega bo'lsa, nutqiy birliklar moddiylikka ega, cheksiz, individual, o'tkinchi belgilarga egadir.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriq:

- 1.Lison nima?
2. Lison va nutqning farqlanishini misollar bilan tushuntiring.
- 3.Til va nutq hodisalarini ilk bor farqlab yondashish tilshunoslikda qachon va qaysi olimlar ta'limotida shakllangan?
4. Lison va nutq munosabatiga dialektikaning qaysi kategoriyalari asosida yondashiladi?
5. Lisoniy va nutqiy birliklarni sanang. Ular orasida qanday farqlar bor?
6. Lisoniy va nutqiy birliklarni o'zaro farqlab o'rganishning ahamiyati nimada?
- 7.Tilshunoslikning qaysi yo'nalishi til hodisalariga til va nutq farqlanishi asosida yondashadi?

Asosiy adabiyot:

- 1.Азизов О. Тилшуносликка кириш. Тошкент, 1996.
- 2.Баскаков Н.А., Содиқов А.С., Абдуазизов А.А. Умумий тилшунослик, Тошкент, 1979.
3. Усмонов С. Умумий тилшунослик. Тошкент, 1972.

Yordamchi adabiyot:

1. Неъматов Х., Бозоров О. Тил ва нутқ. Тошкент, 1993.
2. Неъматов Х., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. Тошкент, 1995.

Mavzu: Til birliklarining o'zaro munosabati. Sintagmatik, paradigmatic va ierarxik munosabatlar

Reja:

1. Paradigma va paradigmatic munosabat haqida tushuncha.
2. Sintagmatik munosabatning lisoniy va nutqiy xususiyati.
3. Sintagmatik va sintaktik aloqa.
4. Til birliklari orasidagi ierarxik munosabatlar.
5. Lisoniy ziddiyat va uning turlari. Noto'liq, darajali, teng qiymatli ziddiyatlar.

Mavzu bo'yicha tayanch tushuncha:

Til birliklari orasidagi munosabat, paradigma, paradigmatic qator, sintagmatik aloqa, sintaktik aloqa, ierarxiya, lisoniy ziddiyat, noto'liq ziddiyat, darajali ziddiyat, teng qiymatli ziddiyat, ziddiyatning kuchli a'zosi, ziddiyatning kuchsiz a'zosi, binar ziddiyat, ternar ziddiyat.

Til va nutq birliklari orasidagi muhim farqlardan yana biri til birliklarining tanlanishga imkon beradigan **paradigmalarda**, nutq birliklarining esa tanlanish asosida birin – ketinlikda birlashadigan hosilalar - **sintagmalarda** voqe bo'lishidir. Lisoniy birliklar bir-birini eslatib turish xossasiga ega. Masalan, [**a**] fonemasi [**o**] fonemasini, [**u**] fonemasi [**o'**] fonemasini, [**i**] fonemasi [**e**] fonemasini eslatadi. Lekin [**a**] fonemasi dabdurdan [**q**] yoki [**g'**] fonemasini eslatmaydi. Chunki ular ikki tizim – unli va undosh tizimiga kiradi. Bir-birini eslatuvchi birliklar umumiy o'xshash belgilarga ega bo'ladi. Masalan, kelishik shakllarining umumiy belgisi "so'zni so'zga bog'lash", ammo ular farqli belgilarga ham ega bo'luvi shart, ya'ni qaratqich kelishigi o'tni otga, tushum kelishigi o'tni fe'lga bog'laydi. Yoki unli fonemalar "sof ovozga egalik" umumiy belgisi ostida birlashadi. Ammo ular farqli belgilarga ham ega: [**a**] lablanmaganlik, [**o**] lablanganlik farqlovchi belgilariga ega.

Umumiy belgilari asosida birlashgan va bir-birini taqozo etadigan, ammo har bir o'ziga xos belgilari bilan boshqasiga qarama-qarshi turuvchi lisoniy birliklar tizimi p a r a d i g m a deyiladi. Paradigmani tashkil etuvchi birliklar paradigma a'zolari deb yuritiladi. Paradigmada kamida ikkita a'zo va ular bir lisoniy sathga mansub bo'lishi shart. Bir paradigma a'zolari orasidagi o'zaro munosabat **paradigmatic munosabat** deyiladi.Chunonchi, otlarning egalik affiksleri orasidagi paradigmatic bog'lanishni ko'raylik. Paradigma qatorida olti affiks bo'lib, ularning har biri "narsa – buyumning shaxsga qarashliligi" ma'nosi ostida birlashadi. Ayni vaqtda ularning har biri

o'zining xususiy ma'nosiga ega, ya'ni ma'lum predmetning birlik yoki ko'plikdagi shaxs turlaridan aynan biriga qarashlilikni ifodalash bilan bir-biridan farq qiladi va shu jihatdan o'zaro oppozitiv sanaladi:

- [- im]-[- imiz]
- [- ing]-[- ingiz]
- [- i]-[- lari]

Paradigmatik bog'lanish fonema, morfema, leksema, konstruksiya kabi til birliklarini kishi xotirasida "zanjirsimon" tarzda ushlab turadi. Natijada ulardan birining eslanishi u bilan bog'langan boshqa birliklarni yodga tushiradi, shu yo'l bilan til birliklarining xotirada dastlabki kichik sistemalarga uyushuvi ta'minlanadi. Lisoniy birliklar tizimining qaysi lisoniy sathga mansubligiga ko'ra fonetik, leksik, morfologik, sintagmatik paradigmalar farqlanadi. F.de Sossyurning talqini bo'yicha **sintagmatik** aloqa, avvalo, til birliklarining yotiq chiziq bo'yicha birin-ketin o'zaro bog'lanib munosabat hosil etishidir. Sintagmatik aloqa lisonda ham, nutqda ham mavjud bo'ladi. Chunki sintagmatik aloqaga kirishish qobiliyati, imkoniyati til birliklarida mujassamlangan bo'ladi. Chunonchi, predmetlikni ifodolovchi leksema son kategoriyasi morfemalari bilan sintagmatik aloqaga kirisha oladi, lekin [- roq] morfemasi bilan xuddi shunday aloqaga kirisha olmaydi. Shuningdek, [kel -] fe'li nisbat, mayl, zamon kabi kategoriyalarning morfemalari bilan sintagmatik aloqa hosil qila oladi, lekin otlarga mansub son va egalik morfemalari bilan bog'lana olmaydi. Qoshimcha va o'zaklarda bo'lgani kabi lug'aviy birliklarda ham o'ziga xos qo'shnichilik (sintagmatik) munosabatlari mavjud. Lug'aviy birliklarning o'zaro qo'shnichilik munosabatlarga kirishishlari uchun ular orasida ma'no o'xshashligi, aloqadorligi, mantiqiy bog'lanish bo'lishi shart. Masalan, "temir qoshiq" birikmasini olaylik. Bunda "qoshiq" so'zi biror moddadan yasalgan narsani, "temir" esa shu moddani bildirib keladi. So'zlar ifodalagan ma'nolar orasida ham mantiqiy, ham ijtimoiy bog'lanishlar mavjud. Ushbu birikmada lug'aviy birliklar o'z ma'nosida qo'llangan. Ammo "temir iroda" birikmasida qo'llanilgan "temir" so'zi ko'chma ma'no kasb etgan. Buning sababi shundaki, "iroda" biror moddadan bo'lmaydi. "Temir iroda" so'z birikmasidagi qo'shnichilik munosabati g'ayrioddiy, tasodifiy munosabatdir. Ko'rinib turganidek, sintagmatik munosabat nutqda ro'yobga chiqsa ham, bunday munosabatga ega bo'lish imkoniyati til birliklarida mujassamlangan bo'ladi.

Sintagmatik aloqani sintaktik aloqadan farqlash lozim. Sintagmatik aloqa keng tushuncha. Sintagmatik va sintaktik aloqa butun – bo'lak munosabatidir. Boshqacha aytganda, sintaktik aloqa sintagmatik aloqaning bir ko'rinishidir. Sintagmatik aloqa barcha til birliklariga xos ketma-ket bog'lanish bo'lsa, sintaktik aloqa so'z va gaplarning hokim – tobelik munosabatidir.

Til birliklari orasida paradigmatik (o'xshashlik), sintagmatik (qo'shnichilik) munosabatlar bilan bir qatorda ierarxik (pog'onali) munosabatlar ham farqlanadi. Bunday munosabatda til birliklari o'zaro butun – bo'lak, tur – jins aloqalari bilan bog'langan bo'ladi. Masalan, morfologik sathda qaratqich kelishigi bir otni ikkinchi ot yoki harakat nomiga bog'lashga xizmat qiladi, shu bilan u kelishiklar guruhiga kiradi, kelishiklar so'zlarni bir-biriga bog'lovchi vositalar sifatida ko'makchilar bilan birgalikda tobe so'zni hokim so'zga bog'lovchi vositalar guruhiga kiradi. Tobe so'zni hokim so'zga bog'lovchi kelishiklar va ko'makchilar bog'lovchi va egalik kategoriyasi bilan birgalikda so'zlarni bir-biriga bog'lovchi vositalar sirasiga mansub bo'ladi. Leksik sathda [o'simlik], [daraxt], [tol] lug'aviy birliklari quyidagi ierarxik munosabatda turadi: [tol] anglatgan ma'no va tushunchasiga ko'ra [daraxt] ma'no tarkibiga, [daraxt] esa [o'simlik] ma'nosining tarkibiga kiradi.

Biz yuqorida paradigmatik munosabatlar haqida gapirib, paradigma a'zolari o'zaro ziddiyatda turadi, deb ta'kidlagan edik. Endi **lisoniy ziddiyat** va uning turlari haqida qisqacha so'z yuritaylik.

A'zolari orasidagi munosabatlarga ko'ra ziddiyatlar:

- a) noto'liq (privativ);
- b) darajali (gradual);
- d) teng qiymatli (ekvivolent) kabi turlariga bo'linadi. **Noto'liq ziddiyatda** a'zolaridan biri ziddiyat belgisiga ko'ra ijobiy boshqasi betaraf munosabatda bo'ladi. Masalan, [qo'chqor] va [qo'y] leksemalariga murojaat qilaylik. [qo'chqor] so'zining ma'no tarkibidagi "erkaklik" belgisi doimiy, o'zgarmas, [qo'y] so'zi esa urg'ochi qo'yni atab keladi. Ammo ba'zan [qo'y] so'zi "urg'ochilik" ma'nosini yo'qotib "erkak qo'yni ham atab kelishi mumkin. Demak [qo'chqor] va [qo'y] noto'liq ziddiyatida ziddiyat belgisi "erkaklik" dir. Bu belgi [qo'chqor] so'zida ifodalangan, shuning uchun u ziddiyatning kuchli a'zosi sanaladi. [qo'y] so'zida esa ifodalanmagan, shuning uchun u ziddiyatning kuchsiz a'zosisidir. Ziddiyatning kuchli a'zosi (barqaror, o'zgarmas) musbat alomati (+) bilan, kuchsiz a'zosi nol (0) belgisi bilan beriladi. Bunday misollarni [tovuq] va [xo'roz]; [o'g'il] va [bola] leksemalari misolida ham tushuntirish mumkin. Ushbu noto'liq ziddiyatda turuvchi [tovuq], [bola] leksemalari betaraf munosabatda, [xo'roz] va [o'g'il] leksemalari ijobiy, barqaror, o'zgarmas munosabatda turadi.

Noto'liq ziddiyat tilning barcha sathlarida mavjud. Masalan, morfologiyada leksemalarni umumiy grammatik ma'nolariga ko'ra mustaqil va nomustaqil leksemalarga bo'lish privativlik asosida amalga oshiriladi. Bunda "lug'aviy ma'no ifodalay olmaslik" noto'liq ziddiyatning belgisi bo'lib, ziddiyatda mustaqil leksemalar belgilanmagan, kuchsiz a'zo bo'lsa, nomustaqil leksemalar belgili, kuchli a'zo sifatida nomoyon bo'ladi. Chunki nomustaqil leksemalar barqarorlik, o'zgarmaslik belgilariga ega. Mustaqil leksemalar o'zgaruvchan xususiyatga ega bo'lib, ba'zan yordamchi leksemalar o'rnida ham kela oladi. Bunga yarim ko'makchilar, yarim bog'lovchilarni misol keltirish mumkin.

Darajali ziddiyat a'zolari kamida uchta bo'lib, bir belgining o'sib borishiga ko'ra a'zolar qator hosil qiladi. Darajali ziddiyat ham tilning barcha sathlarida uchraydi. Masalan, fonetikada unli fonemalar tilning ko'tarilish darajasiga ko'ra ziddiyat hosil qiladi: [o]~[o']~[u]. Leksikada [tuzuk] ~ [durust]~ [yaxshi]~ [ajoyib], [shivirla]~ [pichirla]~ [ayt]~ [gapir]~ [baqir]~ [hayqir], morfologiyada [harakat nomi] ~ [sifatdosh] ~ [ravishdosh] (fe'lni o'zgalash darajasiga ko'ra belgisi asosida) kabi darajali ziddiyatlar hosil qilinadi.

Teng qiymatli ziddiyatda ikki a'zo o'ziga xos xususiyatiga ko'ra qarshilantiriladi. Masalan, jarangli va jarangsiz undoshlar; oq va qora: *men* va *sen*, *ona* va *ota* kabi bir-biriga qarama-qarshi ma'noli so'zlar birligi teng qiymatli ziddiyatda turadi.

Ziddiyatlar a'zolari miqdoriga ko'ra ikki a'zoli (binar) va uch (ko'p) a'zoli (ternar) ziddiyatlarga bo'linadi. Noto'liq teng qiymatli ziddiyatlar binar va darajali ziddiyat ternar ziddiyat deyiladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriq:

1. Til birliklarining o'zaro munosabati deganda nimani tushunasiz?
2. Paradigmatik munosabatda til birliklari qay tarzda joylashadi?
3. Sintagmatik munosabat til birliklari uchun xosmi yoki nutq birliklari uchun?
4. Sintaktik aloqa nima? Uning sintagmatik munosabat bilan qay darajada bog'liqlik tomoni mavjud?
5. Ierarxik munosabat nima? Misollar keltiring.
6. Ierarxik munosabatda til birliklari qay tarzda bog'langan bo'ladi?
7. Sintagmatik munosabat til birliklarining qanday joylashuviga asoslandi?
8. Noto'liq, darajali, teng qiymatli ziddiyatlarning bir-biridan farqli tomonlarini sanang.
9. Lisoniy ziddiyat turlariga tilning fonetik, leksik, morfologik sathlaridan misollar keltiring
10. Lisoniy ziddiyatlar barcha turlar uchun xosmi va ular qay darajada o'rganilgan?
11. Ikki (binar) va uch (ko'p, ternar) a'zoli ziddiyatlar atamasini izohlang.

Asosiy adabiyot:

1. Неъматов Х., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. Тошкент, 1995.
2. Сафарова Р. Лексик – семантик муносабатнинг турлари. Тошкент, 1996.

Yordamchi adabiyot:

1. Неъматова Л. Ўзбек тилида привативлик (нофонологик сатҳлар). Номзодлик диссертацияси. Тошкент, 2002.
2. Орифжонова Ш. Даражаланиш (градуонимия). Республика ёш филолог олимларининг тантанали илмий анжумани материаллари. III қисм. Тошкент, 1991.

Mavzu: Tilning uslubiy ko'rinishlari

Reja:

1. Uslubiyat haqida umumiy ma'lumot.
2. Nutqning vazifaviy uslublari: ilmiy uslub, rasmiy-idoraviy uslub, publitsistik uslub, so'zlashuv uslubi va badiiy uslub.
3. Til imkoniyatlarining uslubiy ifodalarda namoyon bo'lishi.

Mavzu bo'yicha tayanch tushuncha:

Uslub, uslubiyat, nutq madaniyati va uslubiyat. Til vositalaridan foydalanish, adabiy til uslubi, ilmiy uslub, rasmiy-idoraviy uslub, publitsistik uslub, so'zlashuv uslubi, badiiy uslub, fonetik uslubiyat, leksik uslubiyat, morfologik uslubiyat, sintaktik uslubiyat.

Uslub arabcha so'z bo'lib, tartib, sistema demakdir. O'zbek tilida bu so'z ma'nosining qamrovi asliga nisbatan bir qadar kengroq bo'lib, "biror faoliyatni bajarishdagi, boshqarishdagi o'ziga xos yo'l" yoki "biror narsa yoki hodisa uchun xos bo'lgan xususiyatlar" kabi ma'nolari ham mavjud. Tilshunoslikda "uslub" atamasi zahirida tilning alohida ma'no anglatish va ifodalash maqsadlariga xizmat qiluvchi fonetik, leksik, sintaktik va frazeologik vositalari tushuniladi. Tilshunoslikning tildan foydalanish usullarini o'rganuvchi tarmog'i stilistika, ya'ni uslubiyat deb yuritiladi. Demak, uslubiyat tilshunoslik fanining alohida sathi bo'lib, nutq jarayonida til hodisalaridan maqsadga, sharoitga va muhitga mos ravishda foydalanish qonuniyatlari bilan tanishtiradi. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib shuni aytish mumkin: "uslubiyat" atamasi tilshunoslikda ikki ma'noda qo'llaniladi. U, avvalo, til vositalaridan nutqda o'rinni va maqsadga muvofiq ravishda foydalanishni anglatadi. Ayni zamonda til vositalarini nutqda tanlab ishlatish qonun-qoidalarini o'rganadigan fanning nomini ham bildiradi.

Uslubiyat muomala madaniyati, nutq odobi – nutq madaniyati bilan chambarchas bog'liqdir.

Nutq madaniyati insoniyat umummadaniyatining bir qismi bo'lgan ijtimoiy hodisadir. Nutq jarayonida yuksak axloqiy me'yorlarga rioya qilish, ta'sirchan, chiroyli va o'rinni so'zlash, tinglash madaniyati, suhbat madaniyati, bahs-munozara madaniyati, tildan nutqda e'tibor va ehtiyohtkorlik bilan foydalanish shoirona so'zlar bilan aytganda "har bir so'zni yor tanlagandek" saylab ishlatish nutq madaniyatining asosini tashkil etadi. Uslubiyat bilan nutq madaniyati aynan bir narsa emas, ular bir-birini taqozo etuvchi, bir-birini to'ldirib, yuksaltirib boradigan alohida – alohida hodisalardir.

Uslubiyatni o'rganish tarixi Sharqda, jumladan, O'zbekistonda ham ancha qadimiydir. Uslubiyat garchi hozirgidek alohida soha sifatida shakllanmagan bo'lsa ham, biroq tilshunoslik (sarf, nahv, lug'at), adabiyotshunoslik (ilmi bade', sharh tafsir), shuningdek, ilmi insho, ilmi munozara, voizlik san'ati kabi fanlar tarkibida o'rganib kelingan. Abu Mansur Saolibiyning «Muntaxab ul-ijoz vad a'joz» (XI asr), Abulqosim al-Lays Samarqandiyning "Risalat ul -istiorat" (XV asr), Xondamirning "Nomai nomiy" (XV asr), Mahmud Giloniyning "Manozirat ul – insho" (XV asr), Sodik Jondoriyning "Kitob ul –insho" (XVIII asr) kabi asarlari stilistik tadqiqotlarga bag'ishlagandir. Rus tilshunosligida uslubiyat XIX asr tilshunoslari A.A.Potebnya, Sh.Balli, K.Fossler, keyinchalik V.V.Vinogradov ishlarida o'rganildi.

O'tgan asrning 50-yillaridan boshlab o'zbek tilshunosligida til uslubiyati bilan bog'liq nomzodlik va doktorlik ishlari, o'nlab ilmiy asarlar yuzaga keldi va uslubiyat fanining alohida soha sifatida rivojlanishiga turtki bo'ldi. Bu borada o'zbek tilshunos olimlari Ayub G'ulomov, Sh.Shoadburahmonov, I.Qo'chqortoyev, A.Shomaqsudov, I.Rasulov, R.Qo'ng'urov, H.Rustamov, Y.Tojiyev. E.Qilichevlarning xizmatlarini alohida ta'kidlab o'tish joizdir.

Uslubiyat filologiyada adabiyotshunoslik va tilshunoslik o'rtasidagi oraliq fan bo'lib, fikrni, maqsadni har bir sohaning o'z talablariga mos ravishda til vositalari orqali aniq, ravon, ixcham va mukammal ifodalab berish san'atini o'rganadi.

Ijtimoiy hayotda shaxslar til vositalaridan turlicha foydalanadilar. Chunonchi, olimlar o'z ilmiy asarlarida ilmiy atamalarni qo'llasalar, yozuvchi yoki shoirlar badiiy asarlarda tasviriy-ta'siriy vositalarni ko'proq ishlatadilar. Masalan: 1. *Na'matak-atirguldoshlar*

oilasiga mansub, bo'yi 1-1,5 metr, guli yirik, pushti, sariq, kishini o'ziga jalb qiladigan butadir. Hozirgi kunda ekiladigan turfa atirgullarning ko'pchiligi shu na'matakdan kelib chiqqan.

2. Nafis chayqaladi bir tup na'matak,
Yuksakda, shamolning belanchagida,
Quyoshga ko'tarib bir savat oq gul,
Viqor -la o'shshaygan qoya labida... (O.)

Har ikkala matnda ham bir narsa haqida fikr yuritilgan. Birinchi matnda botanik olim na'matak o'simligi to'g'risida ilmiy izoh beradi – ta'riflaydi. Shoir esa nazmiy misralarda shu butaning rangli obrazini yaratadi, na'matakka ta'sirli, jozibali va shoirona tavsif beradi. Demak, adabiy tilda bir-biridan farq qiladigan uslublar mavjud.

Adabiy tilning ijtimoiy hayotning ma'lum bir sohasida qo'llanadigan ko'rinishi adabiy til uslubi deyiladi. Uslublar tilning asosiy vazifalari (kommunikativ, ekspressiv)ga ko'ra bir qancha turlarga bo'linadi. Shunga ko'ra, ular vazifaviy uslublar deb ham yuritiladi. Ya'ni nutq uslublari til ifoda vositalarining maqsadga muvofiq uyushgan sistemasidir.

Tilshunoslikda nutq uslublarining besh ko'rinishi mavjudligi va bu uslublarning har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligi qayd etiladi. Bular quyidagilar: ilmiy uslub, rasmiy-idoraviy uslub, publitsistik uslub, so'zlashuv uslubi, badiiy uslub.

Fan-texnika, san'atning turli tarmoqlariga doir ilmiy asarlar, darsliklar, ilmiy-texnik xabarlar, maqolalar, tezislar ilmiy uslubda yoziladi. Ilmiy uslub aniq ma'lumotlar asosida chiqarilgan ilmiy xulosalarga (qoidalar, ta'riflar, aksiomalarga) boy bo'lishi bilan boshqa nutq uslublaridan farqlanadi.

Ilmiy uslubdagi nutq monologik xarakterga ega bo'lib, unda obrazlar, obrazli tasvirlar, ko'chma ma'noli so'zlar, majoz, bo'yoqdor so'zlar, iboralar deyarli uchramaydi. Bu uslubga mantiqiy fikrlash, abstraksiya, analiz, sintez, tushunchaga mos keladigan atamalar bilan ish ko'rish - xos xususiyatlardir. Shuning uchun u o'rganuvchining his-tuyg'ulariga emas, ongiga, tafakkur –shuuriga ta'sir etadi. Ilmiy uslubda har bir fanning o'ziga xos ilmiy terminlaridan foydalanadi. Masalan, tilshunoslikda *morfologiya, sintaksis, fe'l, tuslanish, kesim, giponimiya* kabi atamalar; matematikada *teorema, tenglama, kosinus, sinus, parallelopiped, gipotenuza* kabi atamalar; meditsinada *analgin, adeopan, glyukoza, validol, penitsillin, glitserin* kabi atamalar ishlatiladi.

Ilmiy uslubda so'zlar, odatda, o'z ma'nosida qo'llaniladi. Qoida yoki ta'rifning mazmunini ochishga xizmat qiladigan ajratilgan izoh bo'laklar, kirish so'z, kirish birikma va kirish gaplar, shuningdek, ergashgan qo'shma gaplardan ko'proq foydalaniladi. Gaplarning kesimi, odatda, aniq yoki majhul nisbatdagi fe'llar bilan ifodalanadi; moslashuvli birikmalar deyarli hamma vaqt belgisiz (gap bo'lagi, unililar tasnifi, so'z o'zagi kabi); sonlar raqamlar bilan; birinchi shaxs birlikdagi kishilik olmoshi (men) ko'plik shaklida (biz) beriladi. Ilmiy uslubda gap bo'laklari tartibida inversiya uchramaydi. Ilmiy uslubga xos bo'lgan asosiy xususiyatlar deyarli barcha tillarga, jumladan, rus, ingliz, nemis, fransuz va h.larga ham tegishlidir.

Hukumat idoralari tomonidan chiqarilgan qarorlar, qonunlar, nizomlar, xalqaro hujjatlar, ariza, tilhat, ma'lumotnoma, shartnoma, chaqiruv qog'ozi, taklifnoma, tavsifnoma, e'lon, tarjimai hol, hisobot kabilar rasmiy - idoraviy uslubda yoziladi. Bu uslubdagi nutq boshqa uslublarga qaraganda ancha siqiy va chegaralangandir. Rasmiy- idoraviy uslubning ham o'ziga xos lug'aviy va grammatik xususiyatlari mavjud: so'zlar o'z ma'nosida ishlatiladi, qisqartma so'zlardan, har bir sohaning o'ziga xos atamalaridan foydalaniladi. Chunonchi, sud jarayoni bilan bog'liq ish qog'ozlarida **jinoyat, hukm, qonun, ...-modda** kabi; universitet ish qog'ozlarida **rektorat, dekanat, kafedra, dotsent, fan nomzodi** kabi so'z va birikmalar ishlatiladi.

Bu uslubda darak va buyruq gaplardan foydalanilib, gap bo'laklarining odatdagi tartibiga rioya qilinadi.

Publitsistik uslub davriy matbuot, ijtimoiy-siyosiy adabiyot, ommaviy- siyosiy mavzudagi ma'ruzalar uslubidir. Bu uslubdan targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borishda keng foydalaniladi. Odatda, gazetalarning bosh maqolalari publitsistik xarakterda bo'lib, ularda kundalik turmushdagi tarbiyaviy, iqtisodiy va siyosiy masalalar yoritiladi. Publitsistik nutqda ta'sirchan so'z va birikmalardan, maqol va hikmatli so'zlardan, ritorik so'roq gaplardan, takror, murojaat, undov, yoyiq undalmalar, chaqiriqlardan foydalaniladi. Publitsistik uslubda **qurultoy, anjuman, deputat, kengash, hukumat rahbarlari, davlat** kabi ijtimoiy-siyosiy so'zlar ko'p qo'llaniladi. Gap bo'laklari, ko'pincha, odatdagi tartibda bo'ladi, gap kesimlari buyruq va xabar maylidagi fe'llar bilan ifodalanadi.

So'zlashuv uslubi uchun hos bo'lgan eng asosiy xususiyat bu uslubda adabiy til me'yorlariga rioya qilinishi va nutqning dialogik xarakterda ekanligidir. Bu uslub uchun xos bo'lgan xususiyatlar quyidagilar:

- 1) uslubiy bo'yoqdor so'zlardan foydalaniladi: *do'ndiq, vaysamoq, bashara* kabi;
- 2) nutq jarayonida tovushlarning tushib qolishi, ortirilishi kuzatiladi: *matbachi (matbaachi) mazza (maza), haqqi (haqi)* kabi;
- 3) izohlovchilardan ko'proq foydalaniladi: *Salima opa, Toshpo'lat do'xtir* kabi;
- 4) iboralar, maqol, matal, hikmatli so'zlar ko'p uchraydi: *jonim chiqdi, boshi ochiq,...* kabi;
- 5) so'zlar tarkibidagi unli, undoshlarni cho'zish: *ka-a-atta, huv-v-v* kabi;
- 6) gap bo'laklarining tartibi erkin bo'ladi, to'liqsiz gaplardan, undalmali gaplardan foydalaniladi.

Nasriy, nazmiy va sahna uchun mo'ljallangan dramatik asarlar badiiy uslubda bo'ladi. Badiiy asarlar kishiga ma'lumot berishi bilan birga obrazlar vositasida estetik ta'sir ham ko'rsatadi. Badiiy uslub aralash uslub hisoblanadi, chunki bu uslubda yozuvchi tilda mavjud bo'lgan vositalarning hammasidan foydalana oladi. Hatto tasvirlanadigan davrning ruhini yoki nutq momentida asar qahramonining holatini tasvirlash uchun eskirgan so'zlar, vulgarizmlar, shevaga xos so'zlardan ham foydalanishi mumkin.

Barcha nutq uslublari o'zaro aloqador bo'lib, bir uslubda boshqa nutq uslublarining ko'rsatkichlari ham uchraydi. Ayni zamonda har bir uslub o'ziga xos fonetik, leksik, morfologik va sintaktik vositalarga ega.

So'zlashuv uslubida hamda badiiy uslubda fonetik vositalardan ko'proq foydalaniladi. Fonetik vositalar deganda ba'zi nutq tovushlari, urg'u, ohang va ularning nutqiy ta'sirchanligi tushuniladi.

So'zdagi unilarning cho'zib talaffuz qilinishi ajablanish, ta'kid, kuchaytirish, hayajon, olqish, erkalash, yalinish kabi konnotativ ma'nolarni ifodalaydi. Chunonchi, *Qorako'z opaaa, sizga xaaat! Katta konvertda xaaat!!!* (N.Qobul) Undoshlarni ikkilantirish kuchli hayajonni, qo'rquv yoki nutqiy kamchilikni ifodalashga xizmat qiladi. Masalan, *Bbbo'la qoling, ssovqotib ketdim-ku!* (M.Ismoilij)

Leksik uslubiyat deganda denotativ va konnotativ ma'noli so'zlardan, ko'chma ma'noli so'zlardan, so'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari (omonim, sinonim, antonim, paronim, giponim, partonim...)dan, chegaralangan qatlamdagi so'zlar (eskirgan

so'zlar, jargon, argo, dialektizmlar, vulgarizmlar...)dan, evfemizmlardan, iboralardan nutq sharoitiga mos ravishda to'g'ri foydalana olish usullari tushuniladi.

Funksional – uslubiy bo'yoqqa ham, hissiy-ta'sirchan bo'yoqqa ham ega bo'lgan grammatik shakllarning barchasi morfologik uslubiyatning o'rganish obyektini tashkil etadi.

Sintaksisning ham o'ziga xos uslubiy imkoniyatlari mavjud. Nutq uslublari xos turli sintaktik vositalar, so'z birikmalari va gaplardagi sinonimiya, polisemiya, omonimiya hodisasi, so'z tartibi, ifoda maqsadiga va tuzilishiga ko'ra gap turlarining nutqda ishlatilishi, ko'chirma va o'zlashtirma gaplarning uslubiy xususiyatlari va boshqalar sintaktik uslubiyatning asosini tashkil etadi. Sintaktik konstruksiyalarning uslubiy bo'yog'i shu konstruksiyalarda ifodalangan so'zlar, shaxs-son, kelishik, modallik va so'z tartibi kabi grammatik ma'nolar bilan bevosita bog'lanadi. Chunki tovushlar va qo'shimchalar, lug'atning hamma qatlami faqat jumlada ma'lum bir mazmun ifodalaydi. Har bir so'z va grammatik shaklning mazmuni hamda ijtimoiy qimmatiga gap ichida ravshanlashadi. Chunonchi,

Navdalarni bezab g'unchalar,

Tongda aytdi hayot otini

Va shabboda qurg'ur ilk sahar,

Olib ketdi gulning totini... (H.Olimjon.)

Ushbu she'riy misralardagi hamma so'zlar badiiylikka, go'zallikka, zavq-shavqqa xizmat qilgan. Deyarli barcha so'zlar ma'no jihatidan ko'chgan. Ayniqsa, salbiy bo'yoqli qurg'ur so'ziga ijobiy tus berilgan.

Dunyo tillarining deyarli barchasida so'zlashuv, badiiy, rasmiy-idoraviy, publitsistik, ilmiy uslub mavjud bo'lib, ular ijtimoiy hayotda, o'zaro munosabatlarda, nutqning og'zaki va yozma ko'rinishlarida til imkoniyatlaridan me'yoriy foydalanishni ta'minlaydi.

Biroq til imkoniyatlari har bir tilda o'sha tilning tabiati, qonun-qoidalariga bo'ysungan holda turlicha bo'lib, ular o'ziga xos uslubiy vazifalarni bajaradi. Har bir tilning o'ziga xos bo'lgan fonetik, leksik, morfologik, sintaktik vositalarini bilish, ularning har qaysisidan o'z o'mida ustalik bilan foydalana olish muhimdir. Ma'lum bir nutq uslubiga mansub bo'lgan jihatlarni boshqa uslubda asossiz (noto'g'ri) qo'llash nutqiy g'alizlikni keltirib chiqaradi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriq:

1. Tilshunoslikdagi "uslub", "uslubiyat" atamalari ifodalagan ma'nolarni tushuntiring.
2. Uslubiyatning o'rganilish tarixi haqida ma'lumot bering.
3. "Uslubiyat adabiyotshunoslik bilan tilshunoslik o'rtasidagi oraliq fan" ekanligini isbotlashga urining.
4. Nutqning vazifaviy uslublari sanab bering. "Yuragi hapriqib ketdi" gapini turli uslublarda ifodalang.
5. Ilmiy uslubning rasmiy –idoraviy uslubdan farqli tomonlarini va o'xshash jihatlari aytib bering.
6. So'zlashuv uslubining o'ziga xos xususiyatlari nimada?
7. Aralash uslub haqida ma'lumot bering.
8. Publitsistik uslubga xos nutq ko'rinishlaridan birini tanlang (istalgan gazeta yoki jurnaldan foydalanishingiz mumkin) va uni uslubiyat nuqtayi nazaridan tahlil qiling.
9. Fonetik uslubiyat haqida ma'lumot bering.
10. Leksik uslubiyat deganda nimani tushunasiz?
11. Morfologik va sintaktik uslubiyatning o'ziga xos jihatlari haqida ma'lumot bering.
12. Nutqning vazifaviy uslublari faqat o'zbek tili uchun xosmi?
13. O'zbek va rus tillaridagi ilmiy uslubni taqqoslashga harakat qiling.
14. Nutq uslublari rioya qilmaslik nutqiy g'alizlikni keltirib chiqarishini misollar asosida dalillang.

Asosiy adabiyot:

1. Азизов О. Тилшуносликка кириш. Т., "Ўқитувчи", 1996.
2. Баскаков Н., Содиқов А., Абдуазизов А. Умумий тилшунослик. Т. "Ўқитувчи", 1979.
3. Содиқов А., Абдуазизов А., Ирискулов М. Тилшуносликка кириш. Т., "Ўқитувчи", 1981.

Yordamchi adabiyot:

1. Ефимов А.И. Стилистика русского языка. М., 1986.
2. Неъматов Х., Бозоров О. Тил ва нутқ. Т., 1993.
3. Мўминов С. Сўзлашиш санъати. Фарғона, 1997.
4. ЎзСЭ. 10-сон. Т., 1978.
5. Қиличев Э., Қиличев Б. Нутқ маданияти ва услубият асослари. Бухоро, 2002.
6. Қиличев Э. Ўзбек тилининг амалий стилистикаси. Т., 1992.

Mavzu: Tilshunoslik sohalari. Fonetika

Reja:

1. Fonetikaning o'rganish manbayi.
2. Nutqning fonetik jihatdan bo'linishi.
3. Bo'g'in haqida ma'lumot.

Mavzu bo'yicha tayanch tushuncha:

Til sathlari, fonetika, umumiy va xususiy fonetika, qiyosiy va eksperimental fonetika, jumla (fraz), takt, bo'g'in, enklitika, proklitika, diftong, ochiq bo'g'in, yopiq bo'g'in, berkitilgan - yopiq bo'g'in, tovush.

Tilning fonetik tuzilishi, grammatik qurilishi va lug'at tarkibini ilmiy asosda har tomonlama o'rganish natijasida tilshunoslikning bir qancha sohalar yaratildi, chunonchi, fonetika morfologiya, sintaksis, leksikologiya, semasiologiya, etimologiya va stilistika kabilari [1, 13:]. Fonetika – tilning tovush tizimini, leksikologiya – lug'at tarkibini, morfologiya - so'z shakllarini, sintaksis – so'z shakllarining gapdagi vazifalarini, morfemika - so'z tarkibini, stilistika – nutq uslubini, semasiologiya - so'z ma'nolarini, etimologiya – so'zlarning kelib chiqishini o'rganadi. Tilning fonetik tuzilishi, grammatik qurilishi va lug'at tarkibining har biri alohida – alohida tizimni tashkil qiladi. Ammo til sohalar (fonetika, leksika, grammatika) shu tilga xos qonun – qoidalar asosida bir – biri bilan o'zaro munosabatda bo'lib, bir tizimni hosil qiladi.

Lisoniy sathlar sirasida **fonetika** eng kichik tashkil etuvchi bo'lib, boshqa sathlar (leksikologiya, grammatika...) birliklari uchun moddiy asos vazifasini o'taydi. Insonning nutq faoliyati nutq birliklari bo'lmish tovushlar tizimi vositasida ro'yobga chiqadi. Nutq tovushlari o'zida uch jihatni birlashtiradi: fiziologik, akustik (fizik), funksional. Nutq tovushlarining fiziologik jihati deganda talaffuz a'zolarining boshqarilishi, fizik jihati deganda tovushning akustikasi (eshitilish darajasi) tushunilsa, funksional jihati nutq tovushlarining sotsial tomonini, aloqa vositasi ekanligini belgilaydi. Tilshunoslikda har uchala jihatni bir – biridan ajratmagan holda tadqiq qilish kerakligi masalasida olimlar turlicha qarashlarni ilgari surganlar. Pirovard natijada, tilshunoslikda ikki – fonetika va fonologiya sohalar ajralgan. Fonetika nutqiy xususiyliklarni, fonologiya lisoniy umumiyliklarni tadqiq qilish bilan mashg'ul bo'ladigan bo'lib qoldi.

Fonetika grekcha so'zdan olingan bo'lib, "tovushga xos" degan ma'noni

bildiradi. Fonetika nutq tovushlarini hosil qiluvchi talaffuz apparatini ularning vazifasini ham tekshiradi. Tilning fonetika sathida boshqa fan sohalar - adabiyotshunoslik, fiziologiya, fizika, psixologiya kabi fanlar bilan aloqa yaqqol seziladi. Fonetika nutqdagi tovush o'zgarishlari va almashinishini, urg'u, bo'g'in va ularning turlarini o'rganadi. Fonetikaning amaliy ahamiyati orfografiya masalalarini hal qilishda, chet tillarni o'rganishda, tili chuchuk bolalarning tilini tuzatishda, adabiy va dialektal talaffuz farqlarini aniqlashda namoyon bo'ladi.

Fonetika umumiy, xususiy va qiyosiy fonetikaga ajraladi. **Umumiy fonetika** barcha tillarga xos bo'lgan talaffuz xususiyatlarini o'rganadi. Unda intonatsiya uchun qo'llaniladigan vositalar (tovush balandligi, kuchi, cho'ziqligi, tezligi (tempi)), pauza, tembr kabi masalalar tekshiriladi. **Xususiy fonetikada** yozorida aytilgan masalalar muayyan tillar misolida tekshiriladi. Xususiy fonetika tarixiy (diaxron) va zamonaviy (muosir) fonetika, tasviriy va eksperimental fonetika kabi ko'rinishlarda ish yuritadi. Alohida apparatlar yordamida nutq tovushlari, bo'g'in, urg'u va intonatsiyasidagi artikulyatsion – akustik xususiyatlar **eksperimental fonetikada** o'rganiladi. **Tarixiy fonetika** esa tildagi fonetik xususiyatlarning rivojlanishini tekshiradi.

Qiyosiy fonetika bir nechta qarindosh yoki qarindosh bo'lmagan tillarning yoxud bir qancha dialekt va shevalarning unli va undosh tovushlari, ulardagi fonetik o'zgarishlar va boshqa hodisalar qiyosiy aspektida tekshiriladi. Qiyosiy fonetika umumiy va xususiy fonetika oralig'idagi vaziyatni egallaydi.

Nutqda tovushlar alohida – alohida talaffuz etilmaydi. Nutq quyidagi fonetik birliklardan iborat: 1) fraza; 2) takt; 3) bo'g'in; 4) tovush.

1. Jumla (fraz) - nutqning yirik mustaqil birligi bo'lib, aloqa vositasi sanaladi. U o'ziga xos intonatsion birlikdir. Har bir jumla chuqur to'xtam bilan bo'linib turadi.

2. Takt - jumlaning bir bo'laki bo'lib, bir urg'u yordamida bir yoki bir necha bo'g'inlarning ulanishidan tashkil topadi. Ko'p tillarda urg'u mustaqil ma'noli so'zlarning o'zida bo'lgani uchun ularning har qaysisi bir takt bo'ladi. Yordamchi so'zlar mustaqil ma'noli so'zlar bilan birikib, bir taktni hosil qiladi. Mustaqil ma'noli so'zlardan oldin kelgan yordamchi so'zlar **proklitika** (prokliza), mustaqil so'zlardan keyin kelgan yordamchi so'zlar **enklitika** (enkliiza) deyiladi. Turkiy tillarda enkliiza hodisasi uchrasa, ovrupa tillari uchun esa ham prokliza, ham enkliiza hodisasi xosdir. Chunonchi,

O'zbek tilida	Rus tilida	Ingliz tilida
Stol ustida	На столе	on the table
O'quvchilar uchun	Для учеников	for pupils
Ukam bilan	С братом	for my brother

Taktilar bo'g'inlarga ajraladi. **Bo'g'in** ham nutqning bir bo'lagidir. Bo'g'in bir yoki bir necha tovushlar birikmasining bir havo zarbi bilan aytilishidan hosil bo'ladi. Har qanday tovush bo'g'in hosil qilavermaydi. Unli tovushlarga bo'gin hosil qiladi. Masalan, *maktabimiz* so'zida to'rt unli ishtirok etganligi tufayli bu so'z to'rt bo'g'inga ajraladi: *mak –ta –bi –miz* yoki rus tilidagi *книга, вода, парта* so'zlari tarkibidagi unilarga qarab ikki bo'g'inga ajraladi. Ba'zi tillarda bir bo'g'in tarkibida ikki va undan ortiq unli ishtirok etishi mumkin. Bu hodisa tilshunoslikda **diftong** atamasi bilan qo'llaniladi. Diftong yunoncha so'z bo'lib, "qo'sh tovush" degan ma'noni bildiradi. Ayrim tillarda bu hodisani kuzataylik:

Qirg'iz tilida – *tooda – tog'da*
 Ingliz tilida – *you – siz*
 Fransuz tilida – *moi – men*

O'zbek tilida bir unli bir bo'g'inni hosil qilganligi tufayli bu tilda **monoftong** (bir tovush) hodisasi xosdir. Bundan tashqari, ba'zi tillarda bir bo'g'inda uch unli tovushning birikib bo'g'in hosil qilish hodisasi ham uchraydi. Bu **trifontong** (yunoncha so'zdan olingan bo'lib "uch unli" degan ma'noni bildiradi) deb aytiladi. Masalan, ingliz tilidagi *eyes-ko'zlar; tennis player-tennischi, year-yil* kabi. Bo'g'in

tuzilishi jihatdan ham tillar bir-biridan farq qiladi. Jahon tillarida eng ko'p uchraydigan bo'g'in tipi "undosh + unli" bo'lib, u qulay talaffuzi bilan ajralib turadi: *qo-ra*, *to-ra*; *my-ka*, *py-ka* kabi. Tillarda juda ko'p uchraydigan bo'g'in chizmalari: cv, vc, vcv, cvc, ccv, vcc, cccv, cvcc va boshqalardir.

Bo'g'in tipi	O'zbek tilida	Rus tilida	Ingliz tilida
cv vc vcv	kema osh -	ру-ка он - -	ve-ry (juda) al-so (ham) one (bir) are (fe'l)
cvc ccv vcc ccccc cccv cvcc	non qon son ost ust - - tort surt	нас шаг суд три все иск встре-ча стра-на банк бинт	big (katta) bag (sumka) boy (bola) - -- - cry (yig'lamoq) sky(osmon) arm (qo'l) inn (mehmonxona) -- -- tint-(ton) help-(yordam bermoq)

Shunday qilib, o'zbek tilida cv, vc, cvc, c, cvcc, cccv kabi bo'g'in chizmalari ko'proq uchrasa, rus tilida ccv, cvc cvcc, cccv kabi bo'g'in chizmalari, ingliz tilida esa o'zbek va rus tillari uchun xos bo'lmagan vcv, vcc kabi bo'g'in shakllari ko'proq uchraydi.

Bo'g'inlar ulardagi boshlang'ich va oxirgi tovushlarga qarab tiplarga bo'linadi: ochiq (unli bilan tugagan – *to'la*, yopiq undosh bilan tugagan *o't*, *osh*) va berkitilgan – yopiq (*bog'*, *tosh*). Bo'g'inni morfemadan farqlamoq kerak. Morfema-so'zning ma'noli qismi. Bo'g'inga ajratilgan qism ma'no ifodalashi ham, ifodalamasligi ham mumkin. Demak, so'zni morfema va bo'g'inga ajratish har doim ham mos kelavermaydi. Masalan, *mehnatkashlarimizni* so'zining bo'g'in va morfemaga ajratilishi quyidagicha: *meh-nat-kash-la-ri-miz-ni* – *mehnat-kash-lar-imiz-ni*. Bir bo'g'inli hisoblangan xitoy, tibet tillarida ko'p hollarda bo'g'in va morfemaga ajratish mos tushadi.

Nutqning eng kichik birligi bu **tovush**dir. Bo'g'inlar tovushlarga bo'linadi. Masalan, *inson* so'zi ikki bo'g'indan iborat bo'lib, birinchi bo'g'ini ikki tovushdan (in), ikkinchi bo'g'ini uch tovushdan (son) tashkil topgan.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriq:

1. Tilshunoslikning qanday sohaları bor?
2. Lisoniy sathlarning uzviy bog'liqligini misollar asosida tushuntiring.
3. Fonetika nimani o'rganadi?
4. Umumiy va xususiy fonetikaning bir-biridan farqli tomonlari nimada?
5. Qardosh va qarindosh bo'lmagan tillarning fonetik xususiyatlarini qaysi fonetika o'rganadi?
6. Nutq birliklariga nimalar kiradi?
7. Faza va taktning bir-biridan farqli tomonlarini sanang.
8. Tillarning bo'g'in tuzilishiga ko'ra farqlanishini misollar bilan izohlang.
9. Qaysi mezonlar asosida so'z bo'g'inga ajraladi?
10. Bo'g'inning amaliy ahamiyati nimada?
11. Diftong hodisasi qaysi tillar uchun xos?

Asosiy adabiyot:

1. Азизов О. Тилшуносликка кириш. Т., “Ўқитувчи”, 1996.
2. Баскаков Н., Содиқов А., Абдуазизов А. Умумий тилшунослик. Т. “Ўқитувчи”, 1979.
3. Содиқов А., Абдуазизов А., Ирискулов М. Тилшуносликка кириш. Т., “Ўқитувчи”, 1981.

Yordamchi adabiyot:

1. Реформатский А.А. Введение в языковедение. Москва, 1967.

Mavzu : Nutq apparati va uning tuzilishi

Reja :

1. Nutq organlari va ularning vazifalari .
2. Tovush hosil bo'lishidagi asosiy bosqichlar .
3. Nutq artikulyatsiyasi haqida .

Mavzu bo'yicha tayanch tushuncha :

Nutq apparati, faol va nofaol nutq a'zolari, ovoz paychalari, bo'g'iz, artikulyatsiya, artikulyatsiya bazasi, artikulyatsiya o'rni va usuli, portlovchi, sirg'aluvchi, til oldi, til o'rta, til orqa, lab undoshlari.

Nutq tovushlarini hosil qilishda ishtirok etuvchi qismlar nutq a'zolari (apparati) deyiladi. Nutq tovushlarining hosil bo'lishida quyidagi a'zolar ishtirok etadi: o'pka, kekirdak, ovoz paychalari, bo'g'iz, bo'g'iz qopqog'i, kichik til, tanglay, til, tish, lab. Bular orasida faol ishtirok etadigan organlarga ovoz paychalari, til, lab, yumshoq tanglay, qattiq tanglay, pastki jag kiradi.

Nutq apparati 3 qismdan iborat:

1. Ovoz paychalaridan pastki qism. Bu qismga o'pka, nafas olish yo'llari,

kekirdak va diafragma (ko'krak qafasi bilan qorin bo'shlig'i o'rtasidagi parda) kiradi. Bu a'zolar havo manbai bo'lib, o'pkadan chiqqan havo tovush paychalarining yordami bilan ovoz hosil qiladi.

2. Bo'g'iz. Halqasimon va qalqonsimon tog'aylar bo'g'izda joylashgan. Bu ikki tog'ay o'rtasida ovoz paychalari o'nashgan. Bo'yin chetlarida tovush paychalari bir-biriga to'la yoki deyarli to'la jipslashib turadi. Ovoz paychalarining ishtirokisiz ovoz chiqarish mumkin emas.

3. Ovoz paychalaridan yuqori qism. Bu qismga bo'g'iz qopqog'i, og'iz bo'shlig'i, burun bo'shlig'i, qattiq va yumshoq tanglay, til, kichik til, ustki va pastki tishlar, ustki va pastki lablar kiradi. Bular orasida eng harakatchan a'zo tildir. **Til** harakati orqali til oldi, til o'rta, til orqa, chuqur til orqa tovushlari (unli va undoshlar) hosil qilinadi. **Lab** ham ancha faol nutq a'zosi bo'lib, b, p, m, v, f, o, o', u kabi tovushlar hosil qilishda ishtirok etadi. **Kichik til** qattiq tebranib, xitoy va fransuz tillariga xos bo'lgan tovushlarni hosil qiladi. **Bo'g'iz qopqog'i** ham ayrim tillarda tovush hosil qiluvchi a'zo sanalib, arab tilida ʻ(ayn) tovushini hosil qiladi.

Nutq apparatining, ya'ni nutq a'zolarining harakati natijasida tovush hosil bo'lish jarayoni **artikulyatsiya** deyiladi. Jahondagi barcha kishilarning nutq organlari bir xil tuzilgan bo'lsa ham, har bir tildagi tovushlarning talaffuzida ularning harakati turlicha bo'lishi mumkin. Ma'lum bir tilga xos bo'lgan nutq tovushlarini hosil qilishga muvofiqlashgan nutq apparati **artikulyatsiya bazasi** deb ataladi. Bir tilning artikulyatsiya bazasi shu tilga xos nutq tovushlarini hosil qiladi. Shuning uchun ham har bir tilga moslashgan nutq artikulyatsiyasi bazasi ikkinchi bir tilning tovushlarini birdan to'g'ri talaffuz eta olmaydi. Buni ingliz tilini, koreys tilini o'rganish jarayonida kuzatish mumkin yoki, aksincha, ingliz xalqining rus, o'zbek tilida so'zlashish jarayoni ham fikrimizni tasdiqlaydi.

Nutq artikulyatsiyasi 3 holatda bo'ladi:

- 1) tovush hosil qilishga o'tish;
- 2) tovush chiqarish uchun to'xtab olish;
- 3) asl holatga qaytish;

Masalan, [b] tovushini hosil qilish uchun shu tovushni hosil qilishda ishtirok etuvchi nutq a'zolari uni talaffuz qilishga tayyorlanadi. Shu vaqtda ustki lab bilan pastki lab jipslashib, o'pkadan keladigan havoni to'sadi, bir zum to'xtamdan so'ng o'pkadan kelgan havo kuchining zarbi bilan lablar yana ochilib, [b] tovushi hosil bo'ladi. Shudan so'ng nutq a'zolari yana o'z asliga qaytadi. Artikulyatsiyada ikki hodisa muhim rol o'ynaydi: birinchidan, artikulyatsiya o'rni, ikkinchidan, artikulyatsiya usuli. Tovush hosil qilishda nutq a'zolarining harakat etgan qismi **artikulyatsiya o'rni** deyiladi. Masalan, b, p, m, v, f kabi tovushlarni hosil qilishda lab ko'proq harakat qiladi, to'g'rirog'i labda hosil bo'ladi. Shuning uchun bu tovushning artikulyatsiya o'rni labdir va shunga ko'ra lab undoshlari deyiladi. Yoki d, t, s, z, ch tovushlari tilning ustki tishlar va milkka tegishi bilan hosil bo'ladi. Bu tovushlarning artikulyatsiya o'rni tilning old qismidir, shuning uchun bu tovushlar til oldi undoshlari nomini olgan.

Artikulyatsiya usuli deganda tovush hosil qilish paytida nutq a'zolarining qanday holatda harakat qilishi tushuniladi. Masalan, v, z, y, x, sh, h kabi tovushlarni talaffuz qilganda nutq a'zolari bir-biriga yaqinlashadi, ammo havo oqimining chiqishi uchun torgina oraliq qoladi, havo oqimi ana shu oraliqdan sirg'alib chiqadi va bunday tovushlar artikulyatsiya usuliga ko'ra sirg'aluvchi tovushlar nomini oladi. Portlovchi tovushlarni hosil qilishda esa havo oqimi jipslashgan a'zolar orasidan portlab chiqadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriq:

1. Nutq apparati nima? Nutq a'zolarini sanang.
2. Ovoz paychalaridan pastki qism a'zolariga qaysi organlar kiradi?
3. Bo'g'izda hosil bo'luvchi tovush haqida ma'lumot bering.
4. Ovoz paychalaridan yuqori qismda joylashgan nutq organlari va ularning vazifasini tushutiring.
5. Nutq artikulyatsiyasi nima? Tovush hosil bo'lishida nutqiy a'zolarining harakatini kuzating va xulosalar chiqaring.
6. Barcha tillarda nutq artikulyatsiyasi bir xilmi?
7. Til ishtirok etadigan tovushlardan o'ntasini sanang.
8. Unli va undosh tovushlar artikulyatsiyasini xarakterlang.
9. Turli tillardan bo'g'izda hosil bo'ladigan tovushlarga misollar keltiring.

Asosiy adabiyot:

1. Азизов О. Тилшуносликка кириш. Т., “Ўқитувчи”, 1996.
2. Баскаков Н., Содиқов А., Абдуазизов А. Умумий тилшунослик. Т. “Ўқитувчи”, 1979.
3. Содиқов А., Абдуазизов А., Ирискулов М. Тилшуносликка кириш. Т., “Ўқитувчи”, 1981.

Yordamchi adabiyot:

1. Буланін Л.Л. Фонетика современного русского языка. Москва, 1977.
2. Турсунов У. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Тошкент, 1992.

Mavzu: Nutq tovushlarining umumiy tavsifi. Unli va undosh tovushlar

Reja:

1. Tildagi unli va undoshlar tizimi va ularning paradigmasi.
2. Unli fonemalarning nutqiy xususiyatlari.
3. Undosh fonemalar va ular o'rtasidagi ziddiyatlar.

Mavzu bo'yicha tayanch tushuncha:

Vokalizm, tilning ko'tarilish darajasi, lablanish – lablanmaslik, aralash qator unli, qattiq va yumshoq unli, cho'ziq va qisqa unli, portlovchi va sirg'aluvchi undosh affrikat, titroq tovush, jaranglilik va jarangsizlik, shovqinlilar va sonorlar, bo'giz undoshi, korrelyativ belgi, binar ziddiyat.

Nutq a'zolari tomonidan hosil qilingan nutq tovushlari dastlab ikki katta guruhga bo'linadi:

1. Unli tovushlar;
2. Undosh tovushlar.

Unli tovushlar artikulyatsiyasiga ko'ra undosh tovushlardan farq qiladi. Unli talaffuzida o'pkadan chiqadigan havo og'iz bo'shlig'ida hech qanday to'siqqa uchramaydi, nutq a'zolarining holati bir xil bo'ladi. Musiqiy ohanglarga ega bo'ladi. Bunday xususiyatlarni undoshlar talaffuzida kuzatib bo'lmaydi. Undosh tovushlar og'iz bo'shlig'ida hosil bo'ladi, o'pkadan keladigan havo turli to'siqlarga uchraydi, musiqaviy ohangga ega emas. Undoshlarda, asosan, shovqin ustun turadi, unilarda esa ovoq.

Har bir til o'ziga xos unli tizimiga ega. Tildagi unli tizimi **vokalizm** (latinchadan unli, ovoqli degan ma'noni bildiradi) deyiladi. Tilda unli o'zi alohida bir tizimni, paradigmani tashkil qiladi va fonetik paradigmaning bir mikrosistemasini tashkil etadi. **Tilning ko'tarilish darajasi** (yuqori, o'rta, quyi) va **lablanish – lablanmaslik** belgilari unli fonemalarning **asosiy belgilari** bo'lib, bu belgilar ularning sistema hosil qiluvchi belgilari sanaladi. Unlilarning tilning gorizontol holatiga ko'ra (old qator, o'rta qator, orqa qator) belgilari asosiy hisoblanmaydi. Chunki bu belgilar ularning nutqiy yondosh tovushlar ta'sirida o'zgarib turadi. Masalan, [q] undoshi bilan qo'shnichilik munosabatida [a] unli o'zining orqalik xossasiga ega bo'lsa, [k] undoshi qurshovida o'z holatini saqlaydi: qarg'a, qurbaqa, kamalak, katta, kassa, katastrof kabi. Unli fonemalarning asosiy belgilariga ko'ra tasnifi quyidagicha:

Unli fonemalar	Asosiy belgilari				
	Tilning ko'tarilish darajasi			Lablanish belgisiga ko'ra	
	yuqori	o'rta	quyi	lablangan	lablanmagan
					an
[i]	+				+
[u]	+			+	
[o']		+		+	
[o]			+	+	
[e]		+			+
[a]			+		+

Demak, chizmadan ko'rinib turganidek, unli fonemalar tilning ko'tarilish darajasiga ko'ra uch pog'onali, lablanish belgisiga ko'ra ikki pog'onali sistemani hosil qiladi. Jadvalda berilganidek, unli fonemalar o'zaro o'xshash va farqli belgilari bilan ziddiyatni hosil qiladi. Masalan, [a] va [e] fonemalarning birlashtiruvchi (farqlanmovchi) tomoni ularning lablanmaganligi bo'lsa, tilning ko'tarilish darajasiga ko'ra [a] quyi keng, [e] o'rta keng fonema ekanligi bilan ziddiyatni hosil qiladi.

Demak, o'zbek tilidagi unli fonemalarning oppozitsiyalari tilning ko'tarilish darajasi va lablanish ishtiroki bilan belgilanadi. Qator belgisi (til oldi, til orqa) o'zbek tili unilari uchun fonologik farqlanish belgisi emas, chunki u yondosh undoshlarning ta'sirida o'zgarishi mumkin [2, 52;].

Rus adabiy tilida esa unli fonemalarning asosiy belgilariga ko'ra tasnifi quyidagi chizmada o'z aksini topgan:

Tilning ko'tarilish darajasiga ko'ra	Tilning gorizontol holatiga ko'ra		
	til oldi	til o'rta	til orqa
	lablanmagan		lablangan
Yuqori (yopiq)	и	ы	у
O'rta (yarim yopiq yoki ochiq)	е(э)		о
quyi (ochiq)		а	

Ushbu jadvalda ko'rsatilganidek, unli fonemalar tilning oldinga, orqaga harakati ko'rsatkichi belgisi bilan ham ziddiyat hosil qilgan. Ushbu holatda "oralik uchinchi" tabiatiga ega bo'lgan til o'rta yoki aralash qator unilari mavjudki, ularning talaffuzida tilning "bel"i va uchi bir oz yuqori ko'tariladi va tilning o'zi yassi holatda bo'ladi. Bunday aralash qator unilari ingliz tiliga xos: [ə] [ɜː]. Rus tilidagi [ɨ] va [a] unilalarining artikulyatsiyasi ham aralash qator unilari qatnashidir. O'zbek tilidagi [i], [e], [a] rus tilidagi [u], [ə], ingliz tilidagi [i], [e], [æ] unilari til oldi unilari sanalsa, o'zbek tilidagi [o], [oʻ], [u], rus tilidagi [o], [y] va ingliz tilidagi [u], [ʌ] orqa qator unilari hisoblanadi. O'zbek tilida bo'lgani kabi rus tilida ham lablarning ishtirokiga ko'ra, tilning ko'tarilish darajasiga ko'ra unilari ziddiyat hosil qiladi. Chunonchi, [i], [e] unilari "lablanmagan, til oldi" belgilari bilan "lablangan, til orqa" [u], [o] unilari qarama-qarshi qo'yiladi. Bu unilarning yana o'zi ichki ziddiyatda turadi, ya'ni [i], [u] tilning ko'tarilish darajasiga ko'ra yuqori (yopiq) unli sanalsa, [e], [o] o'rta (yarim yopiq yoki ochiq) unli sanaladi.

Unli fonemalar nutqda ayrim hollarda cho'ziq, ayrim holda qisqa, qattiq va yumshoq talaffuz qilinadi. Turkiy tillar oilasiga mansub bo'lgan turkman tilida cho'ziq va qisqa unilari ko'p uchraydi. Turkman tilida cho'ziq va qisqa unilarning har qaysisi mustaqil fonema bo'lib, ular so'z ma'nolarini ajratib boradi: *at* (*aat – nom, ism*) – *at* (*at – ot*), *ot* (*oot – olov*)–*ot* (*ot – o't , giyoh*). O'zbek tilida esa so'zlarni ajratib beruvchi maxsus cho'ziq unli fonemalar mavjud emas. Ammo o'zbek tili tarkibiga kirgan *da'vo*, *va'da*, *ra'no* kabi so'zlarda "ayn" tovushdan oldin kelgan unilari cho'ziq talaffuz qilinadi yoki yopiq bo'g'inli *til*, *bir*, *qiziq* kabi so'zlarda [i] fonemasi nutqda qisqa talaffuz etiladi: *til*, *bir qeleq* kabi. Rus tilida urg'u tushgan unli cho'ziq talaffuz qilinadi: *parta*, *doska*, *direktor* [1,22;].

Undosh fonemalar tasnifi. O'zbek tilida 25 ta undosh bo'lib, ularni farqlovchi asosiy belgilar quyidagilar sanaladi:

- a) hosil bo'lish o'rni ko'ra;
- b) hosil bo'lish usuliga ko'ra;
- d) ovoz va shovqin ishtirokiga ko'ra.

Undosh tovushlarning hosil bo'lishida bo'g'iz bo'shlig'i, og'iz bo'shlig'i va til muhim ahamiyatga ega. O'pkadan chiqadigan havo xuddi mana shu joylarda turli xil to'siqlarga duch keladi.

Undoshlar hosil bo'lish o'rni ko'ra:

1. Lab undoshlari:
 - a) lab-lab undoshlari: *b, p, m, v*;
 - b) lab-tish undoshi: *f*.
2. Til undoshlari:
 - a) til oldi: *d, t, z, s, sh, j (dj), ch, n, l, r*;
 - b) til o'rta: *y*;
 - d) sayoz til orqa: *k, g, ng*;
 - e) chuqur til orqa: *q, x, gʻ*.

3. Bo'g'iz undoshi – *h* tovushlariga bo'linadi.

Hosil bo'lish usuliga ko'ra esa undoshlar quyidagi kichik guruhlariga bo'linadi:

1. Portlovchilar : *b, p, d, t, k, g, q*;
2. Sirg'aluvchilar : *v, f, z, s, y, l, sh, g', x, h, j*;
3. Titroq: *r*;
4. Qorishliqlar : *dj, ch*;
5. Yon: *l*
6. Burun: *n, m, ng*.

Undosh tovushlar **ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra** ikki guruhga ajraladi :

1. Jaranglilar : *b, v, g, d, z, j, dj, y, g', m, n, ng, l, r*;
2. Jarangsizlar : *p, f, k, t, s, ch, sh, q, x, h*.

Undosh tovushlar akustik jihatdan **shovqinli va sonor** tovushlarga ham bo'linadi . Shovqinli undosh tovushlar talaffuz qilinganda shovqin ovozga nisbatan kuchli bo'ladi : *b, f, g', h, x, p* kabi . Sonor tovushlarda esa ovoz kuchli bo'ladi : *m, n, ng, l, r* kabi. Undosh fonemalar ham boshqa sath birliklarida bo'lgani kabi turli ziddiyatlarda turadi. Jumladan 8 ta undosh fonema "jarangli – jarangsizlik " belgisi bilan **korrelyativ** (ziddiyatda turgan fonemalarning birida bor, ammo ikkinchisida mavjud bo'lmagan belgi) munosabatga kirishadi. Ular quyidagilar: [b]-[p], [d]-[t] , [k]-[g], [s]-[z], [j]-[ch], [dj]-[sh], [gʻ]-[q], [v]-[f].

Yuqorida ko'rsatilgan tasnif asosida undosh fonemalar hosil bo'lish o'rni ko'ra quyidagi **binar** ziddiyatli munosabatlarga kirisha oladi:

- a) "lab-lab – til oldi": [p]-[t]; [m]-[n]; [v]-[z]; [l]-[r]....
- b) "lab-lab – til o'rta": [b]-[y]; [v]-[y];
- d) "lab-lab – til orqa": [p]-[k]; [b]-[k]; [m]-[x]; [v]-[g];
- e) "lab-lab – bo'g'iz": [p]-[h]; [v]-[h];
- f) "til oldi- til orqa": [t]-[k]; [t]-[q]; [d]-[g]; [s]-[x]; [z]-[g]; [n]-[g].

Hosil bo'lish usuliga ko'ra undosh fonemalar quyidagi ziddiyatli munosabatlarda bo'ladi:

- a) "portlovchi – sirg'aluvchi":
[p]-[f]; [b]-[v]; [t]-[s]; [d]-[z]; [t]-[sh]; [k]-[x]...
- b) "portlovchi – affrikat (qorishiq)":
[t]-[ch]; [d]-[dj];
- d) "sirg'aluvchi - affrikat": [sh]-[ch]; [j]-[dj];

Demak, o'zbek tilida undosh fonemalarning soni ko'pligi tufayli oppozitsiyalar ham anchadir. Unli fonemalar esa bir belgi asosida uch (tor unililar, o'rta unililar, keng unililar) va ikki a'zoli ziddiyatni (lablangan va lablanmagan unililar), ikki belgi ("tilning ko'tarilish darajasi va lablangan - lablanmaganlik ") asosida olti a'zoli ziddiyatni hosil qiladi. Bunday xususiyatlar rus, ingliz, nemis, fransuz kabi qator tillar uchun ham xos.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriq:

1. Bilish jarayonida zid qo'yishning qanday ahamiyati bor?
2. Tovushlarning farqlovchi va biriktiruvchi belgilari deganda nimani tushunasiz?
3. Nima uchun o'zbek tili unililarida qator belgisi fonologik farqlanish belgisi bo'la olmaydi?
4. Korrelyativ ziddiyatli munosabatlarga misollar keltiring.
5. Binar ziddiyatli munosabatlarga misollar keltiring.
6. She'riy parcha yozing. Undagi unli va undosh tovushlarga tasnif bering.
7. Unli va undosh tovushlar soni barcha tillarda bir xilmi?
8. Qaysi tovushlarni talaffuz qilganda til, til uchi, tish faol ishtirok etadi?
9. Qorishiq (affrikat) tovushlar ishtirok etgan so'zlar qatorini tuzing.
10. "Portlovchi – sirg'aluvchi" belgisi ziddiyatlar qatoriga misollar keltiring.

Asosiy adabiyot:

1. Азизов О. Тилшуносликка кириш. Т., "Ўқитувчи", 1996.
2. Баскаков Н., Содиқов А., Абдуазизов А. Умумий тилшунослик. Т. "Ўқитувчи", 1979.
3. Содиқов А., Абдуазизов А., Ирискулов М. Тилшуносликка кириш. Т., "Ўқитувчи", 1981.

Yordamchi adabiyot:

1. Баскаков Н.А. ва б. Умумий тилшунослик. Тошкент, 1979.
2. Нурмонов А., Собиров А., Қосимова Н. Ҳозирги ўзбек адабий тили. (Академик лицейлар учун дарслик). Тошкент, 2001.

Mavzu: Nutq jarayonidagi fonetik hodisalar

Reja:

1. Kombinator tovush o'zgarishlari.
2. Pozitsion tovush o'zgarishlari.
3. Fonetik o'zgarishlarning imlo bilan bo'g'liq tomonlari.

Mavzu bo'yicha tayanch tushuncha:

Kombinator va pozitsion o'zgarishlar, singarmonizm, assimilyatsiya, dissimilyatsiya, metateza, proteza, epenteza, eliziya, diereza, reduksiya, apakopa, sinkopa, sinerezis, epiteza, prokopa.

Fonema nutqda voqealanar ekan, uning variantlari nutqiy sharoit (yonma-yon kelgan tovushlar yoki qo'shimchalar ta'siriga uchrashi) tufayli turlicha namoyon bo'ladi. Ayrim tovushlar yondosh tovushlarga moslashadi, ayrimlarida o'zgarishlar kuchayib, boshqa tovushlarga almashadi. Nutq jarayonida sodir bo'ladigan o'zgarishlar tovushlarning **kombinator-pozitsion o'zgarishlari** deyiladi. Masalan, rus tilidagi *лодка* va *зород* so'zlarida [d] tovushi [t] tarzida talaffuz qilinadi, ya'ni jarangsizlashadi. O'zbek tilida *yutdi* va *obod* so'zlarida ham shu holat yuz beradi. *Лодка* va *yutdi* so'zlarida jarangsizlanish qo'shni tovush ta'sirida yuz bersa, *зород* va *obod* so'zlari talaffuzida o'zgarish tovushning so'z tarkibidagi mavqeyi bilan bog'liqdir. Birinchi holat kombinator o'zgarish bo'lsa, ikkinchi holat pozitsion o'zgarishdir. Biz quyida shu o'zgarishlar haqida fikr yuritamiz.

1. Singarmonizm. Bu hodisada unli va undoshlarning o'zgarishi farqlanadi. Unlilarning nutq jarayonida o'zgarishi **singarmonizm** deyiladi. Singarmonizm unlilarning moslashishi, uyg'unligi demakdir. Singarmonizm faqat turkiy tillarga xosdir. Uning ikki asosiy ko'rinishi mavjud:

- a) til garmoniyasi;
- b) lab garmoniyasi.

Til garmoniyasida unli tovushlar yumshoqlik va qattqlik, til oldilik yoki til orqalik jihatdan bir-biriga moslashadi. Masalan, *qalam* so'zidagi [q] undoshi chuqur til orqa undoshi bo'lganligi bois, birinchi bo'g'indagi [a] unlisi ham til orqalik xususiyatiga ega bo'ladi. Buning natijasida esa keyingi bo'g'inda [a] tovushi ham til orqa unlisi sifatida namoyon bo'ladi. Demak, birinchi [a] unlisi [q] undoshiga, keyingi bo'g'indagi [a] esa oldingi bo'g'indagi [a] unlisiga moslashadi.

Lab garmoniyasida unlilarning moslashishi ikki tomonlama bo'ladi. Bunda unlilar ham til oldi - til orqalik jihatidan, ham lablanganlik- lablanmaganlik jihatidan o'zaro, shuningdek, undoshlarga ham moslashadi. Bunga ko'ra, so'z boshidagi unli lablangan til oldi unlisi bo'lsa, so'z oxirida ham lablangan til oldi unlisi keladi. So'z boshidagi unli lablangan til orqa unlisi bo'lsa, so'z oxiridagi unli ham lablangan til orqa unlisi bo'ladi. Masalan, *boshqird*, *sog'in*, *bo'g'in* so'zlaridagi kabi.

2. Assimilyatsiya. Nutq tovushlari qator kelganda ba'zan bir-biriga ta'sir qilib, biri ikkinchisini o'ziga moslashtiradi. Nutqdagi bunday hodisa **assimilyatsiya** deyiladi. Assimilyatsiya ikki xil bo'ladi: progressiv assimilyatsiya va regressiv assimilyatsiya. Agar oldingi tovush keyingi tovushni o'ziga o'xshatsa, moslashtirsa, progressiv assimilyatsiya yuz beradi: *ket+di=ketti*, *ayt+di=aytti*, *ot+dan=ottan*, *yurak+ga=yurakka*.

Keyingi tovush oldingi tovushga ta'sir qilib, uni o'ziga o'xshatsa, moslashtirsa, regressiv assimilyatsiya yuz beradi: *yigit+cha=yigichcha*, *yoz+sin=yossin*, *uch+so'm=usso'm*, *tuz+sin=tussin*.

Rus tilida *омѣтаъ* so'zi *оѣтаъ* tarzida talaffuz etiladi. Bu ham regressiv assimilyatsiyaga misol bo'ladi. Regressiv assimilyatsiya odatda progressiv assimilyatsiyaga nisban nutqda kamroq uchraydi. Chunki assimilyatsiyaning bu turida keyingi tovush

oldingi tovushni o'ziga moslashtiradi. Demak, talaffuz jarayoni boshlanmasdan burun so'zining talaffuz texnologiyasi haqidagi tasavvur ham hosil bo'lmog'i lozim.

Assimilyatsiya to'liq va qisman bo'lishi mumkin.

To'liq assimilyatsiyada bir tovush ikkinchi tovushga aynan moslashadi va to'liq'icha uning tusiga kiradi. Yuqorida keltirilgan so'zlarning hammasi to'liq assimilyatsiyaga misol bo'ladi. Qisman assimilyatsiyada nutq tovushlaridan biri ikkinchisini biror tomondan qisman o'xshatadi (moslashtiradi): *osh+ga-oshka, ish+ga-ishka* so'zlarida jo'nalish kelishidagi [g] tovushi oldingi [sh] tovushining ta'sirida [k] tovushiga aylanmoqda. Bu so'zda qisman assimilyatsiya yuzaga kelmoqda, ya'ni [g] jarangli tovushi o'zidan oldingi [sh] tovushiga faqat bir tomonlama – jarangsizlanish tomonidan o'xshamoqda, xolos, lekin to'liq uning tusiga kirgan emas. [Uchta] leksemasining *ushta, [pochta]* leksemasining *poshta* deb talaffuz qilinishi ham shu hodisaga misol bo'la oladi. Rus tilidagi *каробка, еодка*: inglizcha: *goods, cats* so'zlarida ham shu turdagi assimilyatsiya mavjud.

Dissimilyatsiya. Og'zaki nutqda tovushlar doimo bir-biriga o'xshay bermasdan, ba'zan uning aksi bo'ladi. Ayrim paytda talaffuzda ikki o'xshash tovush bir joyda yoki bir so'zda kelgan vaqtda ulardan biri noo'xshash tovushga aylanib ham qoladi. Bunday hodisa assimilyatsiya kabi progressiv va regressiv bo'ladi. Keyingi tovush noo'xshash tovushga aylansa progressiv dissimilyatsiya yuz beradi: *zarar-zaral, zarur-zaril, birorta-bironta, muyassar-muyastar, kissa-kista* kabi.

Oldingi tovush o'zgarsa, regressiv dissimilyatsiya yuz beradi: *malol-malor, koridor-kalidor, ittifoq-intifoq* kabi.

Dissimilyatsiya hodisasi odatda juda kam uchraydi. Hatto assimilyatsiyaning regressiv turiga nisbatan ham ancha kam qo'llanadi. Chunki dissimilyatsiya hodisasi nutqda, odatda o'xshashlikdan noo'xshashlikka, ixchamlikdan noqulaylikka qaratilgan harakat bo'lib, tavitologiyadan qutilishga xizmat qiladi. Og'zaki nutqda *tumba-tunba, tramvay-tranvay, konbayn-kombayn* deb talaffuz qilishimiz ham dissimilyatsiyaga misol bo'ladi.

Metateza. Og'zaki nutqda ba'zan yonma-yon kelgan undosh tovushlarning o'mi almashishi mumkin. Nutqdagi bunday jarayon **metateza** deyiladi: **r-y:** *daryo-dayro*; **m-g:** *yomg'ir-yog'mir*, **b-r:** *tebratmoq-terbatmoq*; **m-l:** *yamlamoq-yalmamoq*; **h-v:** *ahvol-avhol*; **p-r:** *tuproq-turpoq*, **r-g:** *o'rganmoq-o'granmoq*; **g-r:** *to'g'ramoq-to'rg'amoq*, **n-m:** *aylanmoq-aynalmoq* va b. Chunonchi, rus tilidagi *mapenka* so'zi aslida nemischa *talerka* shaklida bo'lgan, arabcha *oqvot* so'zi o'zbek tiliga *ovqat* tarzida qabul qilingan. Demak, bu hodisa chetdan kirgan so'zlarda ko'proq uchraydi.

Proteza. So'z boshida bitta unilining orttirilishi **proteza** hodisasi sanaladi. Odatda, sonor [r] tovushidan oldin [o'] va [i] unililari orttiriladi: *ro'mol-o'ramol, ro'za-o'raza, rayhon-irahon, rozi-irozi, rais-irais, rang-irang, ro'zg'or-o'razg'or* kabi. Ayrim holatda so'z boshida sirg'aluvchi va portlovchi ikki undosh qator kelganda [i] unlisi orttirilishi mumkin: *shkaf-ishkaf, sprafka-isparafka, stol-istol, shtraf-ishtarap, stansiya-istansa*.

Epenteza. So'z boshida, o'rtasida va oxirida ikki undosh qator kelganda ular orasida [i], ba'zan [u] va [a] unlisi orttiriladi: *fikr-fikir, hukm-hukum, doklad-dakalad, klass-kilass*.

Epiteza. So'z oxirida bir o'rinda kelgan ikki undoshdan so'ng [a] tovushining qo'shilish hodisasidir: *disk-diska, bank-banka, tank-tank, kiosk-kioska, otpusk-otpuska* kabi.

Prokopa. Bunda so'z boshida ba'zan unli yoki undosh tovush tushib qoladi: *yiroq-iroq, yigna-igna, yog'ach-og'och, yirik-iri*.

Sinkopa hodisasiga binoan so'z o'rtasidagi va oxiridagi keng unililar tor unililar kabi talaffuz qilinadi va ayrim holatlarda tushib qoladi: *valochka-valichka, traktor-traktir, avtor-avtir, director-direktir, generator-generatir* kabi.

Apakopa so'z o'zagidagi oxirgi unli yoki undoshning tushishi hodisasidir: *do'st-do's, xursand-xursan, gazeta-gazit, smena-smen* va h.

Sinerezis hodisasiga ko'ra so'z o'rtasida bir joyda kelgan ikki unilining biri kuchsizlanadi va nutqda tushib qoladi. Ikkinchi unli fonema esa cho'ziq talaffuz etiladi: *maorif-mo:rif, saodat-so:dat, qiroat-qiro:t, jamoat-jamo:t*. Bu hodisa asl o'zbekcha so'zlarga xos emas.

Reduksiya. So'zning birinchi bo'g'nida biror unilining, odatda, tor unilining kuchsizlanib talaffuz qilinishidir. Masalan, *bir, bil, til* sozlari bir bo'g'inli bo'lganligi va urg'u shu so'zdagi [i] unlisiga tushganligi tufayli bu so'zlardagi [i] unlisi me'yordagidek talaffuz qilinadi va eshitiladi. Lekin shu so'zlarning oxiriga ikkinchi bir bo'g'in qo'shilishi bilan urg'u ham ikkinchi bo'g'inga ko'chadi. Natijada birinchi bo'g'indagi [i] unlisi kuchsizlanadi va eshitilar-eshitilmas holda sust talaffuz qilinadi: *bilak, tilak, biroq*. Birinchi bo'g'indagi urg'ularning ana shunday kuchsizlanib talaffuz qilinishi reduksiya hodisasiga misol bo'la oladi (reduksiya so'zining lug'aviy ma'nosi "kuchsizlanish", "orqaga qaytish", "pastga tushish" demakdir). Reduksiya quyidagi so'zlarning birinchi bo'g'nida kelgan [i] ning kuchsizlanib talaffuz qilinishi ham misol bo'la oladi: *pishiq, shira, pishak, qiliq, ichak* kabi. Reduksiyaning ikkinchi bo'g'inda kelish hollari ham uchraydi. Bu hodisa so'zga uchinchi bo'gin qo'shilganda sodir bo'ladi - ikkinchi bo'g'indagi unli tamoman kuchsizlanib, tushib qoladi. Masalan, *burun- burni, bo'yin-bo'yni, egin-egni, keyin-keyni* singari.

Eliziya. Unli bilan tugovchi va unli bilan boshlanuvchi ikki so'zning qo'shilishi natijasida unli tovushdan birining tushib qolish hodisasidir. Bunda bir necha holat kuzatiladi: a) birinchi so'z oxiridagi unli tushib qoladi: *yoza oladi-yozoladi, bora oladi-boroladi, qora ot- qorot*; b) unli bilan boshlanuvchi ikkinchi so'zning bosh unlisi tushib qoladi: *borar ekan-borarkan, borar emish- borarmish, yozgan ekan-yozgankan* kabi; v) *Abdusalom* so'zining *Abzalom, Abduljabbor* so'zining *Abjabbor, olib kel* so'zining *opke* tarzida talaffuz qilinishi natijasida bir unli va bir undoshning tushib qolishi ham eliziyaning yuqori, murakkablashgan formasi hisoblanadi. Bunday hollarda eliziyaning murakkablashishi natijasida so'zlarning qisqargan shakli hosil bo'ladi.

Diereza. So'z tarkibida birorta tovushning tushib qolishi. O'zbek tilida *go'sht, do'st, rost, bo'lsin* so'zlari tarkibida kelgan [t] va [l] tovushlari tushirib talaffuz qilinadi: *go'sh, do's, ros, bo'sin* kabi. Rus tilidagi *счастливо, известно* so'zlari nutqda *счастливо, известно* tarzida aytiladi.

Demak, nutq tovushlari har bir til qonun- qoidalariga muvofiq ma'lum tartib bilan tutashib, birikib so'z hosil qilar ekan, so'z tarkibida aks ettirilgan harflarga nisbatan o'zgargan holda ham talaffuz etilishi mumkin. Ba'zi hollarda bu imloda ham o'z aksini toptadi. Bunda o'zbek adabiy tilidagi [-ga] qo'shimchasining variantlarini misol qilish mumkin: *terak+ga=terakka, buloq+ga=buloqqa*. Rus tilida *бесплатно-бесплатно, рассказать-рассказать* so'zlarida qo'llangan jarangli [z] o'rtidagi [s] ham orfografiyada o'z aksini topgan. Eliziya hodisasiga uchragan ba'zi so'zlar ham shular jumlasidandir.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriq:

1. Fonetik hodisalar qanday ro'y beradi?
2. Fonetik hodisalar unilarga ham xosmi?
3. Xorijiy tillardan kombinator va pozitsion o'zgarishlarga misollar keltiring.
4. Do'stlik shishaga monand, sinsa- ulay olmaysan. Ushbu maqolda uchragan fonetik hodisalarni izohlang.
5. Imlodagi fonetik yozuvning fonetik hodisalar bilan bog'liq tomoni nimada?
6. Har bir tilga xos bo'lgan fonetik o'zgarishlar va ularning sababini tushuntiring.

Asosiy adabiyot:

1. Азизов О. Тилшуносликка кириш. Т., “Ўқитувчи”, 1996.
2. Баскаков Н., Содиқов А., Абдуазизов А. Умумий тилшунослик. Т. “Ўқитувчи”, 1979.
3. Содиқов А., Абдуазизов А., Ирискулов М. Тилшуносликка кириш. Т., “Ўқитувчи”, 1981.

Yordamchi adabiyot:

1. Баскаков Н.А. ва б. Умумий тилшунослик. Тошкент, 1979.
2. Нурмонов А., Собиров А., Қосимова Н. Ҳозирги ўзбек адабий тили. (Академик лицейлар учун дарслик). Тошкент, 2001.

Mavzu : Fonologiya fonemani o'rganuvchi soha sifatida

Reja:

1. Fonemaning til birligi ekanligi.
2. Fonologik ziddiyat va uning ko'rinishlari.
3. Fonemalarning variantlashuvi.
4. Fonema nazariyasi tarixidan.

Mavzu bo'yicha tayanch tushuncha:

Fonologiya, fonema va tovush munosobati, fonologik dipozitsiya, bir o'lchovli va ko'p o'lchovli ziddiyat, doimiy va neytrallashtgan ziddiyat, kuchli va kuchsiz pozitsiya, fanema va gradema, gradema va harf, harf va tovush, fonologik nazariyalar.

Fonologiyaning kelib chiqishida fonetika katta rol o'ynagan. Fonologiyaga XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshiga kelib, tilshunoslikning fonetika bobidan ajralib chiqqan alohida soha sifatida qarala boshlandi. Fonologik sathning taraqqiyotida mashhur rus va polyak olimi I.A. Boduen de Kurtene, rus olimi N.C. Trubeskoy, R. Yakobsonlarning xizmati kattadir. Turkiy tillar fonologiyasini tadqiq qilishda V.V. Radlov, E.D. Polivanov, N.K. Dmitriyevlarning tadqiqotlari ahamiyatga egadir. Umuman olganda, fonologiya nutq tovushlarining fiziologik – akustik (fizik) tomonidan funksional (lingvistik) tomonini farqlash ehtiyoji bilan paydo bo'ldi. Praga funksional strukturalizmi oqimining taniqli namoyondasi N.S. Trubeskoy fonetikani odam nutqining material tomoni, ya'ni artikulyatsiyasi va akustikasi haqidagi fan deb, fonologiyani esa, tildagi tovushlarning ma'noni farqlashga xizmat qiluvchi alomatlar va funksiyalarni o'rganuvchi fan, deb ta'riflangan edi. Bu ta'rifda tilni nutqqa, tovushlarning material tomonini ularning funksional tomoniga qarama-qarshi qo'yish yorqin ko'rinadi [2,22;]. Fonetikaning birligi bevosita kuzatishlarda berilgan nutq tovushlari bo'lgani kabi, fonologiyaning birligi so'zlovchilarning ana shu bevosita kuzatishda berilgan nutq tovushlari asosida yotgan tovush tipi haqidagi ijtimoiy tasavvurlardir. Har bir fonema kishilar ongida umumiy farqlovchi xususiyatlari asosida vujudga kelgan maxsus “akustik portret” yoki “tovush obrazi” sifatida yashaydi. Bu farqlovchi belgilar tovushlarning artikulyatsion va akustik belgilari asosida vujudga keladi va barqarorlashadi. Fonologik jihatdan fonemalar bir-biriga qarama-qarshi qo'yiladi, to'g'rirog'i, fonemalar boshqa lisoniy birliklar kabi paradigmatic munosabatda yashaydi. **Fonologik oppozitsiyalar** fonemalarning farqli belgilarini o'zida ifodalaydi. Masalan, [p]-[t] “lab – til oldi” belgisi bilan, [a]-[o] “lablanmagan- lablangan”lik belgisi bilan, [h]-[q] “bo'g'iz chuqur til orqa” xossalari bilan farqlanadi.

Tilshunoslikda fonologik ziddiyatlarning turli tip va ko'rinishlari farqlanadi. N.S. Trubeskoy “Fonologiya asoslari” asarida fonologik ziddiyatlar haqida ko'pgina ma'lumotlar beradi. Ziddiyatlar **bir o'lchovli** va **ko'p o'lchovli ziddiyatga** bo'linadi. **Bir o'lchovli ziddiyatda**, fonemalar bir belgi asosida zidlanadi. Masalan, [b] va [n] fonemalaridan biri jarangli va ikkinchisi jarangsiz bo'lib, ular bir belgi “jarangsizlik” xossasiga ko'ra qarama-qarshi turadi. Yoki [p] va [y] fonemalaridan biri iablanmagan va ikkinchisi lablangan bo'lib, bunda ular bir belgi – “lablanganlik” xususiyatiga ko'ra qarama – qarshi turadi. **Ko'p o'lchovli ziddiyatda** ziddiyat a'zolari birdan ortiq belgi asosida qarama – qarshi qo'yiladi: [h] [q] ziddiyatida [h] bo'g'iz, sirg'aluvchi undosh bo'lsa, [q] til orqa, portlovchi undosh sanaladi. Yoki [i]- [o] ziddiyatida [i] yopiq va lablanmagan bo'lsa, [o] yarim yopiq, lablangandir. Barqarorlik darajasiga ko'ra zidlanishlar barqaror (doimiy) va barqaror bo'lmagan (neytrallashtgan) turlarga bo'linadi. **Barqaror zidlanishda** fonemalarning qanday nutqiy vaziyatda bo'lishidan qat'iy nazar ulardagi ziddiyat saqlanib qoladi. Masalan, til oldi unlisi til orqa undoshi bilan kelgan vaziyatda til orqa undoshi sifatida namoyan bo'ladi. Unli va undoshlar orasidagi qarama – qarshilik barqaror ziddiyatga misol bo'la oladi. Yoki undoshlarning paydo bo'lish o'rniga ko'ra, unilarning tor – kenglik xossalari ko'ra, zidlanish ham barqaror ziddiyatlardir. **Barqaror bo'lmagan zidlanishda** fonemaning belgisi kuchsizlanadi. Masalan, [b] fonemasi so'z boshida jarangsizlashmaydi va bu pozitsiyada uning [p] fonemasiga zidligi saqlanadi. Va bu **kuchli pozitsiyadir**. Ba'zi hollarda esa jarangli undoshlar so'z oxirida jarangsizlashadi: *лук (лук), город (город), kitab (kitop), aktiv (aktiv)*. Bunday neytrallanish, so'nishga olib keluvchi pozitsiya **kuchsiz pozitsiyadir**. Bunday pozitsiyadagi ziddiyat barqaror ziddiyat deyiladi. Fonema va tovush munosabati invariant - variant dialektikasini o'zida aks ettiradi. Nutqiy variantlanishlarda fonemalar turli – tuman tovush sifatida yuzaga chiqadi va ularni shartli ravishda, masalan, (b1), (b2), (b3), (b4), (b5),..... (bn) tarzida belgilash mumkin. Nutqda voqelangan barcha (b) larni bitta [b] fonemasiga birlashtirishda ularning umumiy xossalari “yig'ildi”. Bunday umumiy xossalardan biri ularning akustik va artikulyatsion o'xshashliklaridir. Turli talaffuz sharoitlarida bu umumiy belgilar o'zgarishga uchrashi mumkin. Lekin bu o'zgarishlar miqdor o'zgarishlari darajasida bo'lib, sifat o'zgarishi bosqichiga yetmaydi. Masalan, [u] fonemasi

“yuqori” va “lablanganlik” mohiyatiga ega. Shu boisdan nutqda [u] voqelanganda, qanchalik oʻzgarishga uchramasin, baribir, tovush bu fonemaning varianti hisoblanishi uchun mazkur “yuqori tor”, “lablanganlik” mohiyati chegarasidan chiqmasligi kerak. Masalan, *qurbaqa* va *kunbotar* soʻzlarida 2 ta “u” tovushi va 3 ta “a” tovush mavjud boʻlib, “u” tovush “yuqori tor, lablanganlik” umumiy belgisiga, “a” tovush “quyi keng, lablanganlik” belgisiga ega. Nutqda bu tovushlar turli miqdor oʻzgarishlariga uchrasa ham, ular “a” va “u” fonemasining **varianti** hisoblanadi. *Kunbotar* soʻzidagi “u” bilan *qurbaqa* soʻzidagi “u” tovushlari qattiq – yumshoqligi bilan farq qiladi. Bu belgilar “u” fonemasi zotiy mohiyatida mavjud boʻlmay, balki talaffuz jarayonida “q” va “k” tovushlari taʼsirida yuzaga kelgan hodisadir. Boshqacha aytganda, *kunbotar* soʻzidagi “u” tovushiga xos boʻlgan yumshoqlik, *qurbaqa* soʻzidagi “u”ga xos boʻlgan qattqlik boshqa bir fonemaning, zarraning “u” fonemasiga yopishgan taxallusidir. Bir fonema ham jarangli, ham jarangsiz boʻla olmaganidek, “u” fonemasi ham yumshoq, ham qattiq yoki “a” fonemasi ham til oldi, ham til orqa tovush sifatida voqelana olmaydi. Demak, fonemaning zotiy mohiyati doirasidan chiqqan tovush uning varianti sanalmaydi. Deylik ruscha *зоро* soʻzi nutqda *зопом* tarzida talaffuz etiladi. “p” tovush jarangsizlanadi, “p” tovushi “b” tovushining varianti sanalmaydi. Bu ikki soʻzda “b” alohida va “p” alohida lisoniy mohiyat kasb etadi.

Fonema variantlari maʼno farqlash qobiliyatiga ega emas. Fonemaning oʻzi funksional maʼno farqlash xossasiga ega, yaʼni bir fonemaning nutqiy varianti oʻrnini ikkinchi bir fonemaning nutqiy varianti egallasa, soʻz maʼnosi oʻzgaradi: *besht* – *bet*, *ot* – *oʻt*, *togʻ* – *tosh* kabi.

Baʼzi tillarda undosh fonemalar, baʼzi tillarda esa unli fonemalar koʻp boʻladi. Masalan, oʻzbek tilida 25 undosh va 6 unli fonema, nemis tilida 18 undosh va 15 unli fonema, abxaz xalqining tilida esa 68 undosh va 3 unli fonema bor. Demak, fonema va tovush bir-biridan ajralgan holda mavjud boʻlolmaydi va ular aynan bir narsa ham emas. Fonema umumiylik, mohiyat, sabab belgilariga ega boʻlsa, tovush yakka, hodisa, voqelik, oqibat kabi belgilariga egadir. Fonemaning ongndagi shartli ifodasi **grafemadir**. Harf esa tovushning ifodasi. Qogʻozga tushurgan harflarimizda grafemalarning xossalari namoyon boʻladi. Demak, fonema bilan grafema, tovush bilan harf oʻzaro munosabatga kirishadi. Har qanday tovush fonema varianti, har qanday harf grafema varianti sanaladi. Fonema haqidagi nazariya, asosan, rus tilshunos olimlari tomonidan ishlangan.

1. Boduen de Kurtenening **psixologik fonema nazariyasi** mavjud. U bu nazariyasida ilk bor fonemaning umumiy tushuncha ekanligi, tovushning fonemani talaffuz qilishdagi aniq tassavur ekanligi qayd etilgan.

2. Boduen de Kurtenening shogirdi mashhur tilshunos L.B. Shcherbaning **fizik fonema nazariyasi** ham bor. Olim nutq jarayonida aniq talaffuz qilinuvchi yakka tovushlarni fonemalarning ottenkalari deb atagan.

3. N.S. Trubetskoyning **fonologik nazariyasi**. N.S. Trubetskoy ilk bor fonologik oppozitsiya (ziddiyat)larni oʻrgangan. Borliqdagi barcha narsalar bir – biriga qarama-qarshi qoʻyilib farqlanganidek, tildagi tovushlar ham oppozitsiyalar yordamida farqlanadi. Olimning ziddiyatlarning tiplari borasidagi fikrlari xususida biz yoqorida toʻxtalgan edik.

N. S. Trubetskoy fonema va uning variantlari xususida ham qimmatli fikrlar aytgan. Fonema, fonologik oppozitsiyalarni oʻrganishda N.S. Trubetskoy, A.A. Reformatskiylarning nazariyalari alohida ahamiyat kasb etadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriq:

1. Fonema va fonologiya atamalarini izohlang.
2. Fonologiya sathining taraqqiyotida qaysi olimlar qanday nazariyalarni yaratganlar?
3. Fonema va tovush munosabati haqida nima bilasiz?
4. Fonologik ziddiyatlar deganda nima tushuniladi va ularning qanday turlari bor?
5. Fonema va tovush munosabatida invariant - variant dialektikasi qanday aks etadi?
6. Fonema variantlari maʼno farqlash xususiyatiga egami?
7. Barcha tillarda unli va undosh fonemalar soni bir xilmi?
8. Grafema nima? Uning fonema bilan munosobati.
9. Quyidagi jumlaning izohlang :
Har qanday tovush fonema varianti , har qanday harf grafema variantidir.
10. Rus tilshunosi N.S. Trubetskoyning fonologiya sohasidagi nazariyasi qanday ahamiyatga molik ?

Asosiy adabiyot:

1. Азизов О. Тилшуносликка кириш. Т., “ Ўқитувчи”, 1996.
2. Баскаков Н., Содиқов А., Абдуазизов А. Умумий тилшунослик. Т. “Ўқитувчи”, 1979.
3. Содиқов А., Абдуазизов А., Ирискулов М. Тилшуносликка кириш. Т., “Ўқитувчи”, 1981.

Yordamchi adabiyot:

1. Ахманова О.С. Фонология. Москва, 1954.
2. Трубецкой Н.С. Основы фонологии . Москва , 1960 .

Mavzu: Tovush ifodasi. Transkripsiya

Reja:

1. Tovush ifodasi haqida.
2. Transkripsiya – nutq tovushlarining barcha xususiyatlarini yozuvda aniq ifodalash vositasi.
3. Transkripsiya tamoyillari toʻgʻrisida.
4. Baʼzi diakritik belgilarning vazifasi va ahamiyati.
5. Fonetik va fonologik transkripsiya.

Mavzu bo'yicha tayanch tushuncha:

Nutq tovushlarining ifodasi sifatida: harf, fonema, transkripsiya; transkripsiyaning asosiy tamoyillari, transkripsion belgilar va alifbo, diakritik belgilar, fonetik transkripsiya, fonologik transkripsiya, grafematik transkripsiya.

Havoning to'liqlanishidan tovush paydo bo'ladi. Tevarak- atrofimizdagi tovushlar (bir predmet ikkinchi bir predmetga urilganda, tekkanda chiqadigan tovushlar; shamolning ovozi, mashinaning g'izzillashi kabi) mexanik tovushlar hisoblanadi. Sizga ma'lumki, tovushlarni fizika fani o'rganadi.

Nutq tovushlari ulardan farq qilib, o'pkadan chiqqan havo oqimining tovush paychalarini tebratib o'tishi, nutq uzvlarining talaffuz jarayonidagi faoliyati natijasida vujudga keladi. Nutq tovushlarining tabiatdagi boshqa tovushlardan asosiy farqi ularning kishilar o'rtasidagi nutqiy aloqa qilish vositasining eng kichik, asosiy tarkibiy qismi ekanligidir. Demak, nutq tovushlari ijtimoiy qimmatga ega ekanligi bilan ahamiyatlidir.

Nutq tovushlarining, asosan, uch xil ifodasi mavjud bo'lib, bular **harf, fonema va transkripsiya**dir.

Nutq tovushlarining, yozuvdagi shartli ifodasi harf hisoblanadi. Tovush bilan harfni farqlash lozim, ular bir narsa emas. Tovush nutqqa xos birlik bo'lsa, harf yozuvga tegishlidir. Harf ham ijtimoiy qiymatga ega, biroq u o'z ijtimoiy xizmati bilan tovushga teng kela olmaydi. Tovushga nisbatan harfning vazifasi bir qadar chegaralangan. Chunonchi, o't (*olov*), o't (*maysa*), o't (*fe'l*), o'tkazmoq, o'tqazmoq, o'tqizmoq, *noo'rin*, *do'ppi*, *o'n*, *o'q* so'zlarining hammasida [o'] tovushi ishtirok etadi. Ammo bu so'zlar tarkibidagi [o'] tovushining talaffuzi aynan bir xilda emas, ma'lum darajada farqlanadi. Yozuvda esa tovushning serqirraligi hisobga olinmaydi va birgina harf bilan ifodalanaveradi. Zero, harf yuqorida ta'kidlaganimizdek, tovushning barcha xususiyatlarini aks ettira olmaydi.

Tovush so'zining faqat moddiy qobig'igina bo'lib qolmay, balki so'z va so'zshakllarni o'zaro farqlash, ma'no ajratish vazifasini ham bajaradi. Bu sizga "Fonema" mavzusidan yaxshi tanish. Demak, nutq tovushlari ifodasining yana bir ko'rinishi **fonema** bo'lib, fonemani harfdan farqlash juda zarurdir. Ma'lumki, fonema eng kichik til bo'lagi bo'lib, so'zlarni, morfemalarni o'zaro farqlashga xizmat qiladi. Masalan, *tor*, *tar*, *ter*, *tir*, *tur*, *to'r* so'zlarida [a], [o], [e], [i], [u], [o'] unlilari fonemalar hisoblanadi. *Sor*, *bosh*, *qol*, *dog'*, *nok*, *goh*, *joy* kabi so'zlarda [s], [r], [b], [sh], [q], [l], [d], [g'], [n], [k], [g], [h], [j], [y] undoshlari ma'no farqlovchi fonemalardir.

O'rdak so'zidagi har bitta tovush (harf) alohida fonemadir. Ammo o', r, d, a, k, tovush (harf)lari alohida olib qaranganda fonema bo'la olmaydi. Fonema bilan harf tushunchai o'zaro uzviy bog'liq, ammo ular aynan bir narsa emas. Harf yozuv birligi, fonema esa tilshunoslikning "Fonologiya" sathida o'rganiluvchi til birligidir.

Muayyan til yoki shevadagi tovushlar talaffuzini, ayrim shaxslar nutqini maxsus belgilar orqali aynan yozib olish **transkripsiya** deyiladi. Transkripsiya latinch "transcriptio" so'zidan olingan bo'lib, "qayta yozish" degan ma'noni bildiradi. Fan olamida transkripsiya so'zi turli ma'nolarda qo'llaniladi. Masalan, biologiyada tirik hujayralarda matritsa – dezoksiribonuklein kislotasi (DNK)da ribonuklein kislotasi (PNK) biosintezining amalga oshirish jarayoni tushinilsa, musiqada ayrim musiqasi asarini boshqacha tarzda – biror so'zga moslab ifodalash (aranjirovka) yoki erkin qayta ishlash tushiniladi.

Tilshunoslikda esa keng ma'noda atqli – geografik, tarixiy va boshqa nomlarning ma'lum bir qoida asosida berilishi; tor ma'noda esa transkripsiya yuqorida berilgan ta'rif asosi anglashiladi. Bu atama ko'pincha keyingi ma'noda ishlatiladi. Demak, transkripsiya nutq tovushlarining barcha xususiyatlarini yozuvda aniq ifodalash vositasi bo'lib, yozuvning shartli, sun'iy turidir.

Transkripsiya o'rganish nima uchun kerak? Bu savolga shunday javob berish mumkin:

birinchidan, transkripsiya og'zaki nutq jarayonida talaffuzning yozuvda aks ettirilmagan tovush xususiyatlari va yozuvdagi matnlarni to'g'ri va juda aniq ifodalash uchun zarur;

ikkinchidan, qadimgi yozuvlarni to'g'ri o'qish, o'rganish, o'qilishi qiyin va murakkab bo'lgan ieroglifik va bo'g'inli yozuvlarni o'rganish uchun zarur;

uchinchidan, orfografiya qoidalarida tarixiy- an'anaviy tamoyil saqlangan tillarni o'rganish ishlarini osonlashtiradi;

to'rtinchidan, chet tillarning talaffuzini o'rganishda katta ahamiyatga ega.

Transkripsiya tamoyillari o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, u orfografiyaning fonetik, morfologik, shakliy va tarixiy – an'anaviy prinsiplaridan farq qiladi. Transkripsiyaning asosiy tamoyiliga ko'ra so'zlar qanday eshitilsa, shunday yozib olinadi. Bu holat qisman orfografiyaning fonetik prinsipiga o'xshaydi. Biroq orfografiyada odatda bir tovush bitta harf bilan ham, ba'zan bitta tovush ikki harf bilan ham yoki, aksincha, ikki tovush bitta harf bilan (bunda kirill alifbosidagi e, ë, ю, я grafemalari nazarda tutilmoqda) berilishi ham mumkin. Transkripsiyada esa hamma vaqt bir tovush harf (belgi) bilan beriladi.

Transkripsion belgilar xalqlar o'rtasida keng tarqalgan an'anaviy alifbolar asosida tuziladi. Ularga qo'shimcha belgilar ham qo'shiladi. Transkripsion belgilar soni asos qilib olingan alifbo harflari sonidan ko'p bo'ladi. Asosiy transkripsion belgilarga qo'shiladigan qo'shimcha belgilar **diakritik belgilar** deyiladi.

Transkripsiyada yozib olinayotgan materialni mumkin qadar aniq qilib berish maqsadida shartli belgilardan ham foydalaniladi. Transkripsiyada ishlatilishi mumkin bo'lgan ba'zi shartli ifoda va diakritik belgilar haqida ma'lumot beramiz.

[] – umumiy matndan ajratilib, transkripsiya uchun tanlangan so'zlar ko'rsatiladi.

// – bu belgi ikkita shaklning bajaradigan funktsiyasi (vazifasi) jihatdan teng huquqqa ega ekanligini ko'rsatish uchun qo'llaniladi: - *dek* // - *day*

= - bu belgi tarjima bilan asl matn yoki asosiy mant bilan transkripsiyadagi izoh orasiga qo'yiladi.

> - biror so'z yoki shaklning boshqa so'z yoki shaklga o'tganligini ifodalaydi. Masalan, *durur* > *dir*, *bu kun* > *bugun* kabi.

< - bu belgi biror so'z yoki shakl qaysi so'zdan yoki shakldan kelib chiqqanligini ko'rsatadi. Chunonchi, *bilan* < *ila*, *uchun* < - *chun* kabi.

/ - bir shevadagi shakllarning variantlarini ko'rsatish uchun qo'llaniladi. Masalan, qipchoq shevalaridagi – *di* / *-ti*, *-di'* / *-ti'* kabi.

: - bu belgi o'zidan oldingi unli tovushning to'la cho'ziqligini bildiradi:

sha: *r* (*shahar*), *sa*: *r* (*sahar*) kabi. Bu belgi undosh tovushdan keyin qo'yilganda [i] unlisining kuchsizlanishini ko'rsatadi: *b*: *lak*, *t*: *lak*, *p*: *choq* kabi.

Transkripsiya, asosan, ikki xil ko'rinishga ega: fonetik transkripsiya va fonologik transkripsiya.

Fonetik transkripsiyada har bir tovush maxsus belgi bilan ifodalanadi va u, asosan, dialektologik ishlarda qo'llaniladi. Uning vazifasi tildagi tovushlarni mumkin qadar, to'liq va barcha qirralari bilan ifodalashdir. Fonetik transkripsiyada tovushlarning muayyan holatlarda artikulyatsion – akustik tomondan o'zgarishi hisobga olinadi va so'z tarkibidagi ma'no farqlovchi tovushlarning har bir varianti uchun alohida belgi qabul qilinadi. Transkripsiyaning bu turida transkripsion belgilar kvadrat qavs ichida beriladi. Chunonchi, [k], [t], [p] fonemalarining unilardan oldin talaffuz qilinuvchi variantlari [kh], [th], [ph] belgilari bilan ifodalanadi. Fonetik transkripsiyaning imkoniyatlari keng bo'lib, u ba'zan allofonik transkripsiya deb ham yuritiladi.

Fonologik transkripsiya so'zshakl va morfemalarni farqlay oluvchi har bir fonema uchun bir belgi qo'yish tamoyiliga asoslanadi. Bunda fonemalar variantlari, ya'ni tovushlarning turlicha talaffuzi hisobga olinmaydi. Fonologik transkripsiya belgilari vertikal chiziqdagi qavs ichida beriladi: /k/, /t/, /p/ kabi. Transkripsiyaning bu turi fonematik transkripsiya deb ham yuritiladi.

Hozirgi kunda kirill alifbosi asosida tuzilgan rus, o'zbek va boshqa tillardagi transkripsiyalar sistemasi mavjud. Yozuvdagi harflarni ba'zi tuzatishlar va o'zgartirishlar asosida tuzilgan grafematik belgilar **grafematik transkripsiya** deb yuritiladi. Tilshunos olimlar – V.V.Reshetov va Sh.Sh. Shoabdurahmonovlar tomonidan tuzilgan grafematik transkripsiya o'zbek dialektlarida uchraydigan tovushlarni ifodalashga mo'ljallangan. Bu transkripsiya sistemasida o'zbek kirill alifbosidagi barcha harflar va qo'shimcha diakritik belgilar qo'llaniladi.

Olim A.K.Borovkov tomonidan taklif etilgan va keyinchalik akademik L.V.Shcherba, professor E.V.Polivanovlar tomonidan takomillashtirilgan lotin alifbosi asosidagi transkripsiyadan hozir ham foydalanilib kelinmoqda. Lotin alifbosi asosida tuzilib tilshunoslikda keng qo'llaniladigan transkripsiya xalqaro fonetik alifbo nomi bilan yuritiladi.

O'zbek tilida unli fonemalarning quyidagi variantlari bor:

a – til orqa, lablanmagan, keng unli. U ko'proq qipchoq shevalaridagi **o** ni ifodalaydi. Chunonchi, *ata (ota), bala (bola), bash (bosh)* kabi.

ə-a unlisining tor va qisqa varianti: *ək ə(aka), ana (ən ə) ...*

o - o' unlisining urg'u tushmagan varianti: *otin (o'tin), g'oz (g'o'za), jora (jo'ra)* kabi.

o - o' unlisining til orqa, lablangan, o'rta keng varianti. Bu variant juda ko'p qishloq shevalarida uchraydi: *yol (yo'l), qol (qo'l), oraq (o'raq)* kabi.

Rus tilida unli tovushlarning (fonemalarning) variantlarini aks ettirish uchun (ъ, б, ^ъ) kabi diakritik belgilar qabul qilingan.

Transkripsiyada yumshoq undoshlar alohida belgi (') bilan ko'rsatiladi.

Masalan, (быть-быт', любов-л'увоф) kabi.

O'zbek tilidagi undoshlar transkripsiyada o'z holicha alifbodagi harflar kabi qo'llaniladi. Faqat **l, v** undoshlarining variantlariga maxsus diakritik belgilar qo'yiladi. Va yana **ng** undoshi **n** tarzida, sirg'aluvchi **j** undoshi **j₁** tarzida belgilanadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriq:

1. Nutq tovushlarining ijtimoiy qiymatga ega ekanligini isbotlashga harakat qiling.
2. Tovushning harf va fonemadan qanday farqi bor?
3. Transkripsiya nima? Bu so'z qaysi sohalarning o'ziga xos atamasi hisoblanadi?
4. Transkripsiyani nima uchun o'rganamiz?
5. Transkripsiya tamoyillarini orfografiya prinsiplaridan qanday farqi bor?
6. Transkripsion belgilar qanday tuziladi? Diakritik belgi nima? Misollar asosida tushuntiring.
7. Fonetik transkripsiyaning fonologik transkripsiyadan qanday farqi bor?
8. Grafematik transkripsiya nima?
9. Xalqaro fonetik alifbodan nima maqsadda foydalaniladi?
10. Quyidagi kichik matnni transkripsiyada yozing:

Fikrni chiroyli va ravon ifodalay olish, tushunarli qilib so'zlash va aniq, lo'nda javob berish jamiyat a'zolari uchun eng zarur va yaxshi xislatdir.

Asosiy adabiyot:

1. Азизов О. Тилшуносликка кириш. Т., “Ўқитувчи”, 1996.
2. Баскаков Н., Содиқов А., Абдуазизов А. Умумий тилшунослик. Т. “Ўқитувчи”, 1979.
3. Содиқов А., Абдуазизов А., Ирискулов М. Тилшуносликка кириш. Т., “Ўқитувчи”, 1981.

Yordamchi adabiyot:

1. Решетов В., Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. Т., “Ўқитувчи”, 1978.
2. Шоабдурахмонов Ш. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. I қисм. Т., “Ўқитувчи”, 1980.
3. Ўз СЭ. 11-сон. Т., 1978. 282-283 – б.
4. Қиличев Э. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Б., “Бухоро университети”, 1999.

Mavzu: Urg'u

Reja:

1. So'z urg'usi haqida.
2. Dinamik urg'u, miqdor urg'usi, musiqiy urg'u.
3. Mantiq urg'usi to'g'risida.
4. Frazalar urg'usi.

Ma'lumki, o'zbek tilida afiks yuklamalar urg'u qabul qilmaydi. Ammo bu ularga urg'u butunlay tushmaydi degani emas. – mi, - chi, - ku, - da, - oq (-yoq), - a(- ya), - gina (- kina, - qina) kabi affiks yuklamalar ko'p bo'g'inli so'zlarga qo'shilganda, urg'uning bo'linishi natijasida hosil bo'lgan ikkinchi darajali urg'u shu yuklamalarga ham tushishi mumkin. Chunonchi, *yuraversang – chi, nordonroq-ku* kabi.

Xuddi shunday [-miz], [-siz] tuslovchi qo'shimchalarga ham ikkinchi darajali urg'uning tushish tushmasligi shu affikslar qo'shilgan so'zning aytilish ohangiga bog'liq. Shuni ham ta'kidlash lozimki, turli sheva vakillarining nutqdagi urg'uning qaysi bo'g'inga tushishi har xil ko'rinishda bo'ladi. Toshkent, Farg'ona sheva vakillari nutqda *boramiz, kelamiz* kabi so'zlarning oxirgi bo'g'ini kuchsiz talaffuz etiladi va so'z oxiridagi **z** undoshi jarangsizlashib **s** tarzida eshitiladi. Aynan shu so'zlar Buxoro, Samarqand shevalarida boshqacharoq talaffuz etiladi, ya'ni oxirgi [– miz] qo'shimchasiga yordamchi urg'u tushiriladi, natijada so'z oxiridagi **z** undoshining aniq talaffuz saqlaniladi.

Mavzuning kirish qismida sintaktik hodisa sifatida xarakterlanuvchi mantiq urg'usining mavjudligi to'g'risida ham aytib o'tgan edik. Mantiq urg'usi gapdagi so'z shaklini mazmun jihatdan ajratib ko'rsatish uchun ishlatiladi. Mantiq urg'usi tilshunoslikda logik urg'u, gap urg'usi, intonatsion urg'u kabi nomlar bilan ham yuritiladi. So'zlovchining maqsadiga qarab, gapdagi biror so'z shakl yoki so'zshakllar guruhiga alohida etibor berilib, ular boshqa so'z shakllarga qaraganda kuchliroq ohang bilan aytiladi va bu bilan tinglovchining diqqati gapdagi o'sha so'zshakl yoki so'zshakllarning ma'nosiga jalb etiladi. Odatda, o'zbek tilida mantiqiy urg'u olgan so'zshakl kesim oldida keladi. Gapda nechta so'zshakl bo'lsa, shuncha miqdorda so'z urg'usi bo'ladi. Biroq qanchalik darajada yoyiq yoki yig'iq bo'lishidan qat'iy nazar, unda mantiq urg'usi bitta bo'ladi. Masalan,

Salimaxon bugun **institutga** boradi.

Bugun institutga **Salimaxon** boradi.

Salimaxon institutga **bugun** boradi.

Tilda emfatik emotsional urg'u ham mavjud. Urg'uning bu ko'rinishi ham gapdagi ma'lum bir so'zshaklini ajratib ko'rsatishga xizmat qiladi. Bu bilan u mantiqiy urg'uga o'xshab ketadi. Biroq, mantiqiy urg'udan farqli o'laroq emfatik urg'uda hissiylik kuchli bo'ladi. O'zbek tilida emfatik urg'u ostidagi so'z tarkibida unli yoki undosh cho'ziladi. Masalan,

Havo t - o- o – za ekan.

Ch - i - royli qiz keldi.

Mantiqiy va emfatik urg'u ostidagi so'zlarda pauza ham ko'maklashuvchi vosita sifatida qatnashadi. Bu kabi urg'ularni olgan so'zlardan oldin ko'p hollarda pauza paydo bo'ladi.

Fraza nutqqa xos fonetik birlik bo'lib, har ikki tomonidan chuqur pauza bilan bo'lingan eng katta segment hisoblanadi. Fraza va gaplardagi so'zlarning biror bo'g'inini ajratib talaffuz qilish **fraza urg'usi** deyiladi. Fraza urg'usi intonatsiyaning eng asosiy tarkibiy qismlaridan biridir. Fraza urg'usi, musiqiylik, ritm, tovushning asosiy toni, cho'ziqlik, temp, tembr kabi unsurlar birligidan iborat bo'lib, tilda har xil sintaktik, ekspressiv va hissiy – ta'siriy ma'nolarni ifodolovchi murakkab hodisa **intonatsiya** (ohang)dir.

Musiqiylik va fraza urg'usi ohang uchun birlamchi, qolgan unsurlar esa ikkilamchi qismlar hisoblanadi.

1. Nutq ohangining tushishi yoki ko'tarilishi **musiqiylik** (melodiya) bo'lib, nutqda har bir fraza o'z melodiyasiga ega. Musiqiylik frazalarni ulash va nutqni ifodali qilish vazifalarini bajaradi.

2. **Fraza urg'usi** nutqning biror qismini so'z, bo'g'in yoki so'z birikmasini ham alohida ajratib talaffuz etishi bilan xarakterlanadi.

3. Fraza va taktlarda urg'uli va urg'usiz hamda cho'ziq va qisqa bo'g'inlarning almashib turishi **ritmdir**.

4. **Tovushning asosiy toni**, ya'ni intensivlik deganda kuchli va kuchsiz talaffuz, nafas kuchi nazarda tutiladi.

5. Talaffuz vaqti, talaffuz tezligi (sekin, o'rta va tez) **nutq tempi** deyiladi.

6. Nutq jarayonida ovozning turli xil o'zgarishi va shu orqali hissiy – ta'siriy jihatdan ifodalanishi **ovoz tembri** deb ataladi.

Ohang – so'z va gapning libosi bo'lib, bu til va nutq birliklari qanday ifoda etilishiga ko'ra, uning ma'nolari ham o'zgarib boradi. Shuning uchun ham "gap so'zda emas, ohangda, qaysi so'zning qanday talaffuz etilishida" deydi taniqli rus so'zshunosi V.G.Belinskiy. Bu narsa qadimdan ham ma'lum. Xalq og'zaki ijodidagi Afandi latifalaridan biri shu fikrimizni isbotlaydi. Afandi bilan bahslashgan boyning jahli chiqib, Afandining nafsoniyatiga tegadi. Afandi esa "Axmoq ekansiz – ku!" deb yuboradi. Boy, tabiiyki, Afandini qoziga sudraydi. Qozi boyning yonini oladi va Afandidan so'zini qaytarib olishini talab qiladi. Afandi noiloj: "Siz axmoq, odam emassiz" deya uzr so'ragan ekan.

Ohang gapning mazmunini butunlay o'zgartirib yuborishi mumkinligini "O'lim, yo'q shafqat!", "O'lim yo'q, shafqat!" tipidagi gaplar misolida ham ko'rish mumkin.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriq:

1. Urg'u turlari haqida ma'lumot bering.
2. So'z urg'usi qaysi jihatlariga ko'ra tasnif qilinadi?
3. "Urg'u sifatiga ko'ra" deganda nimani tushundingiz?
4. Dinamik urg'uning miqdor va musiqiy urg'udan farqini tushuntiring.
5. Qaysi tillarda so'z urg'usi uchramaydi?
6. Urg'uning miqdoriga ko'ra turlarini ayting.
7. Shevalarning so'z urg'usiga ta'siri haqida ma'lumot bering. Fikringizni misollar asosida isbotlashga harakat qiling.
8. Mantiq urg'usi haqida gapiring.
9. Emfatik urg'u nima?
10. Fraza urg'usining so'z urg'usidan farqini tushuntiring.
11. Ohangni hosil qiluvchi asosiy birliklarning har biriga ta'rif bering.

Asosiy adabiyot:

1. Азизов О. Тилшуносликка кириш. Т., "Ўқитувчи", 1996.
2. Баскаков Н., Содиқов А., Абдуазизов А. Умумий тилшунослик. Т. "Ўқитувчи", 1979.

3. Содиқов А., Абдуазизов А., Ирискулов М. Тилшуносликка кириш. Т., “Ўқитувчи”, 1981.

Yordamchi adabiyot:

1. Решетов В. Узбекский язык. ч. I. Введение. Фонетика. Т., 1959.
2. Шоабдурахмонов Ш. ва б. Хозирги ўзбек адабий тили. Т., “Ўқитувчи”. 1980.

Mavzu: Leksikologiya. Lug'aviy sath. Leksema va so'z munosabati

Reja:

1. Leksikologiyada so'z muammosi.
2. Leksemaning til birligi, so'zning nutq birligi ekanligi.
3. Leksemaning ikki tomoni: nomema va semema.
4. Mustaqil va yordamchi leksemalar. Leksema ta'rifining mustaqil leksemalarga daxldorligi.

Mavzu bo'yicha tayanch tushuncha:

Leksikologiya, tilning lug'at tarkibi, leksema, semema, nomema, sema, lisoniy birlik, nutqiy birlik, denotativ ma'no, grammatik ma'no, leksemaning tayyorligi, majburiyligi, ijtimoiyligi va umumiy belgiga ega ekanligi

Leksikologiya grekcha «leksika» so'zidan olingan bo'lib, tilning lug'at tarkibini o'rganadi. Tilda mavjud bo'lgan so'zlarning hammasi lug'at tarkibi yoki leksika deb yuritiladi. Lug'at tarkibining quyidagi aspektlari mavjud:

- a) tilning asosiy birligi bo'lgan so'z muammosi;
- b) til lug'at tarkibi qurilishi;
- c) lug'aviy birliklarning qo'llanilishi;
- d) lug'at tarkibining boyishi, taraqqiyoti va boshqalar.

Ushbu masalalar keyingi mavzularda batafsilroq tahlil qilinadi. Demak, so'z muammosi leksikologiyaning asosiy o'rganish manbayidir. O'zbek tilshunosligida leksema va so'z atamasining hozirgacha yonma-yon qo'llanayotganligi va leksemani lisoniy sath birligi atamasi, so'zni nutqiy sath birligi sifatida qarashga intilish kabi ziddiyatli nuqtayi nazarlar yashab kelayotganligini aytish joizdir. Tilshunolar Arastu davridan boshlab leksikaga ta'rif berish ustida bosh qotirganlar. Ularning barchasi so'zning alohida-alohida qirralariga berilgan ta'riflar bo'lib, leksemaning barcha jihatlari qamrab olishga qodir emas. «Bugungi kunda sintaksis bo'yicha tilshunoslik nazariyasida yaratilgan kesim haqidagi yangi ta'limotga tayangan holda o'zbek tilshunosligida o'zbekcha kesim tushunchasini ishlab chiqish mumkin ekan, bunga bevosita metodologik omil sifatida tayanib, uni umumiy va xususiy leksema nazariyasiga ham tadbiiq qilish lozim», - deydi professor H. Ne'matov. Darhaqiqat, leksemaga ta'rif berilar ekan, har bir tilning ichki tabiatidan kelib chiqish zarurati mavjud bo'lishi kerak. Ma'lumki, yevropa tilshunosligida leksemaga morfema orqali ta'rif beradilar, chunki flektiv tillar, jumladan, rus va arab tillarida o'zaklar mustaqil qo'llanishga ega emas, o'zak morfemaning bir turi sifatida qaraladi. Chunonchi, *пишу, читаю, друзя, yuu* kabi ruscha, *ktb, qr'* kabi arabcha so'zlarda o'zak qo'shimchalar bilan qorishib ketgan, o'zak bilan affiks orasida chegara aniq emas. Turkiy tillarda o'zak va qo'shimcha orasida chegara aniq bo'lganligi tufayli, leksemaga morfema orqali emas, balki lisoniy sathning alohida bir birligi sifatida qarash lozim.

Leksema nima? Bu savolga shunday javob qaytarish mumkin: Jamiyat a'zolari uchun tayyor, umumiy, majburiy bo'lgan, shakl va mazmunning barqaror birikuvidan tashkil topgan voqeiylikdagi narsa, belgi, xususiyat va munosabatlarni shakllantiruvchi, nutq va lug'atda grammatik morfemalarni o'ziga birliktira oladigan morfema turi leksemadir. Ma'lumki, formal tilshunoslikda til va nutq hodisalari, birliklari farqlanmas edi. Shunga ko'ra, leksema va so'z ham bir-biridan farqlanmagan. Sistem tilshunoslik nuqtayi nazaridan bevosita kuzatishda berilgan matn va lug'atlarda qayd etilgan so'zlar nutq birliklari hisoblanadi. Yuqorida qayd etib o'tganimizdek, til birliklari bevosita kuzatishda berilmagan bo'lib, ular jamiyat a'zolari uchun tayyor va majburiy bo'ladi.

Til birliklari (fonema, morfema, leksema, konstruksiya)dan fonemaning to'la ta'rifi bilan tanishmiz. Morfemalarni keyingi ma'ruzalarimizda atroflicha o'rganamiz. Leksemaning nutqdagi voqeligi so'zdir. Leksemalar konstruksiyalarda mustaqil o'rin egallay olish yoki egallay olmasligiga ko'ra, mustaqil va yordamchi leksemalarga bo'linadi.

Mustaqil leksemalar nutqda alohidalik xususiyatiga, o'zidan keyin grammatik morfemalarni ergashtirish qobiliyatiga ega. Biroq leksemalar ichida shundaylari ham borki, ular gapda mustaqil o'rinni egallay olmaydilar. Bunday leksemalar sirasiga yordamchi so'zlar (bog'lovchilar, sof ot, fe'l, ravish, ko'makchi, yuklama, nisbiy so'zlar va b.: *ham, hamda, biroq, lekin; uchun, bilan, sari, sayin; tag, ost, bo'y, old; qara; boshla, yubor, bo'l, so'ng, kabi, yanglig', burun...*) kiradi. Mohiyatan ushbu yordamchi leksemalar grammatik morfemalardir. Ular leksemalarga o'xshab, alohidalik xususiyatiga ham ega bo'ladi. Boshqacha aytganda, yordamchi so'zlar leksemalar va qo'shimchalar orasida «oralik uchinchi» bo'lib, ham leksemalar, ham grammatik morfemalar xususiyatini o'ziga mujassamlashtiradi. Ammo ular na leksemalarga, na grammatik morfemalarga to'liq teng bo'la olmaydi.

Leksema jamiyatning barcha a'zolari uchun tayyor, umumiy va majburiy sanalishi bilan bir qatorda yana bir qancha xususiyatlarga egadir.

1. Jamiyat a'zosi leksemani yasamaydi, uni tayyor holda qabul qiladi.
2. Jamiyat a'zosining ongida har bir leksema boshqa leksemalar bilan o'xshashlik qatorlarida (paradigmalarda) yashaydi. Masalan: *[daftar] ~ [bloknot]; [daftar] ~ [oynoma] ~ [ro'znoma]; [daftar] ~ [qissa] ~ [roman]; [daftar] ~ [muqova] ~ [varaq] ~ [bet] ~ [bob]* kabi. *Daftar* so'zi shu munosabatlar asosida turlicha ma'no beradi.
3. Leksemalar inson ongida qo'shnichilik munosabatlarida (sintagmatik) ham

yashaydi. Masalan: [daftar] ~ [yoz] ~ [ol] ~ [sifatli] ~ [matematika] ~ [ona tili]; [daftar] ~ [son qo'shimchalari] ~ [egallik qo'shimchalari] ~ [kelishik qo'shimchalari]....

Bu o'xshashlik va qo'shniqlik munosabatlari, ma'no va vazifa imkoniyatlari nutqda oydinlashadi, aniqlashadi. Demak, leksemalar til egalari ongida voqelashgan va voqelashadigan nutqiy imkoniyatlar yig'indisi hamdir.

Leksema til birligi sifatida turlicha imkoniyatlar majmuasi bo'lsa, so'z uning voqelanishi, ro'yobga chiqishi, aniq shakl, mazmun va vazifa kashf etgan moddiy ko'rinishidir. Har bir leksema nutqda muayyan so'z sifatida namoyon bo'ladi. Leksema ikki tomonga ega bo'lgan til birligidir. Aniqrog'i, u shakl va mazmun tomonlaridan iborat ramzdir. Sistem tilshunoslikda leksemaning shakl tomoni **nomema** deyiladi. Nomema faqat leksemaning shakliga (moddiy qobig'i, tashqi tomoniga) nisbatan ishlatiladi. Leksemaning mazmun tomoni (ma'nosi, ichki tomoni...) esa **semema** nomi bilan yuritiladi. Demak, leksema = nomema + semema.

Nomema leksemaning tilga xos tomonidir. U ongimizda muayyan fonemalar tizmasi sifatida mavjud. Nomemaning fonemalar tizmasidan iboratligi ichki nutq jarayonida (kishi fikr yuritganda, ma'lum matn ichida o'qiganda) aniq seziladi. Chunki odam ichki nutq jarayonida so'zlarni, qo'shimchalarni ketma-ket tizib, xuddi gapirayotgandek, ularni grammatik jihatdan shakllantiradi. Demak, inson faqat ovoz chiqarganda emas, balki ovozsiz ham fonemalarga moddiy shakl bera oladi. Tashqi muhitda nomema tovushlar (yoki harflar) tizmasi sifatida voqelashadi. Substansional tilshunoslik leksemalarning moddiy tomoniga – nomemalarga ko'p ahamiyat bermaydi. Chunki nomema leksemaning mohiyatiga ta'sir ko'rsatmaydi. Leksemaning mohiyati esa uning ichki tomoni – semema orqali va shunga ko'ra leksemaning boshqa til birliklariga munosabati, aloqaga kirishuvi orqali belgilanadi.

Nomemaning ahamiyati nazmiy nutqda behad katta bo'ladi (qofiya, radif, tajnis turlari, saj'....). Shu sababli she'riyatda nomemaga asosiy e'tibor qaratiladi. Lingvistika nuqtayi nazaridan esa asosiy e'tibor faqat sememaga qaratiladi. **Semema** leksemaning ichki tomoni, uning mazmuni, ma'nosi, nimani ifodalab kelishidir. Sememalar ko'pincha ongimizda muayyan bir tushuncha bilan bog'liq bo'ladi. Tushuncha – ong, mantiq birligi, semema esa leksemaga xos birlikdir. Masalan, [o'rik] leksemasining sememasi quyidagi tushunchada namoyon bo'ladi:

- 1) ho'l meva turi;
- 2) shu mevaning quritilgani;
- 3) shu mevani beradigan daraxt.

Sememaning tushuncha bilan bog'liqligini faqat mustaqil leksemalardagina kuzatish mumkin. Yordamchi leksemalarda, olmoshlarda esa bunday bog'lanishni ko'rmaymiz. Tilshunoslikda sememani hosil qiluvchi ma'no bo'laklari **sema** deyiladi. Masalan: [daraxt] leksemasining semalari quyidagilar:

- 1) predmet; 2) o'simlik; 3) yerda o'suvchi; 4) tanali; 5) ildizli; 6) shoxli; 7) bargli.

Sistem tilshunoslikning asosiy vazifalaridan biri leksemalarni tizim sifatida tahlil qilishdir. Leksemalarni shu nuqtayi nazardan o'zaro ichki munosabatlar asosida muayyan qatorlarga, guruhlariga, tur va turkumlarga birlashtirish zarur.

Xulosa qilib aytish mumkinki, leksema «o'zida tayyorlik, majburiylik, takrorlanuvchanlik, ijtimoiylik xususiyatlarini mujassamlashtirgan, shakl va denotativ ma'no birligidan iborat mustaqil anglanish va qo'llanish tabiatiga ega bo'lgan lisoniy birlik» deb tariflanar ekan, bu ta'rif faqat mustaqil leksemalar uchun xosdir. Chunki yordamchi leksemalar denotativ xususiyatlarga ega emas. Yordamchi leksemalar uchun grammatik ma'no xosdir.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriq:

1. So'z nima? Uning til sistemasidagi o'rnini izohlang.
2. Leksema atamasining ma'nosini ochib bering.
3. Leksemaga barcha tillar uchun bir xil ta'rif berib bo'ladimi?
4. Leksemalar jamiyat a'zosi ongida qanday munosabatlarda yashaydi?
5. Quyidagi matnni o'qing. Mustaqil va yordamchi leksemalarni aniqlang. Ularning ma'nolari orasidagi farqni tushuntiring.

Uning uchun qamoqxonada eng tansiq narsa qog'oz edi. U hamma joydan faqat qog'oz qidirardi. Bir daqiqa sayrga olib chiqishsa, devorlar tagida sarg'ayib, g'ijim bo'lib yotgan bir parcha qog'oz topib olib, boshi osmonda yana zax xonaga qaytardi. Tergov paytida ham ilinji shu. Ovqat payti ham. Ana shunday ming mashaqqatlar bilan yig'gan qog'ozlari bir kuni qo'lyozmaga aylandi. Endi uni nima qilib bo'lsa ham tashqariga, odamlarga yetkazish zarur edi. Lekin qanday qilib? U turma boshlig'iga murojaat qildi..... Boshliq qo'lyozmani oldi-yu, gurillab yonib turgan pechkaning ichiga otdi... U yana o'sha zax va qorong'i xonada o'ziga keldi. Kim edi bu adib? Qodiriyimi? Cho'lponmi...? Yoki Usmon Nosirmimi?!.. (M. Yusuf.)

Asosiy adabiyot:

1. Азизов О. Тилшуносликка кириш. Т., “Ўқитувчи”, 1996.
2. Баскаков Н., Содиқов А., Абдуазизов А. Умумий тилшунослик. Т. “Ўқитувчи”, 1979.
3. Содиқов А., Абдуазизов А., Ирискулов М. Тилшуносликка кириш. Т., “Ўқитувчи”, 1981.

Yordamchi adabiyot:

1. Головин Б. Н. Введение в языкознание. Москва, 1977, стр. 88-107.
2. Неъматов Х., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. Тошкент, 1995.
3. Қўчқортоев И., Қўчқортоева Р. Тилшуносликка кириш. Тошкент, 1975, 32-35-бетлар.

Mavzu: Leksik-semantik munosabatlar

Reja:

1. Lisoniy munosabatlar: sinonimiya, antonimiya, graduonimiya, partonimiya, giponimiya.

2. Lug'aviy ma'no guruhlari (LMG) haqida ma'lumot.
3. Lug'aviy ma'no to'dalari (LMT) haqida

Mavzu bo'yicha tayanch tushunchalar:

Lisoniy munosabatlar: sinonimiya, antonimiya, partonimiya, giponimiya; lug'aviy ma'no guruhlari, LMGlarida asos va qurshov, lug'aviy ma'no to'dalari.

Til birikmalarini yaxlit bir tizim sifatida o'rganish borasidagi tadqiqotlar natijasida ma'lum bo'ldiki, leksik birliklar lisonda turli semantik munosabatlar asosida har xil paradigmalar hosil qilgan holda mavjud bo'ladi. Sinonimiya, antonimiya, graduonimiya, partonimiya, giponimiya kabilar ana shunday lisoniy munosabatlar sirasiga kiradi. Quyida ularning har birini alohida-alohida ko'rib o'tamiz.

Sinonimiya. Shaklan turlicha, ammo bir tushunchani turli bo'yoq va ottenkalar bilan ifodalaydigan leksemalar sinonimlardir. Ma'nodosh leksemalar orasidagi aloqadorlik *sinonimik munosaba*t deyiladi. Ma'lumki, o'zbek nutqida ishlatiladigan so'zlarning juda katta qismini ko'p ma'noli (polisemantik) so'zlar tashkil etadi. Ko'p ma'noli so'zlarda so'zning asl bosh (yetakchi) ma'nosidan o'sib chiqqan turli hosila ma'nolar kuzatiladi. Aslida leksemalar o'zaro sememalari asosida boshqa leksemalar bilan ma'nodoshlik munosabatida bo'ladi. Aniqlik, ko'p sememali (ma'noli) leksemalar har bir sememasi bilan alohida-alohida ma'nodoshlik qatoriga kiradi. Chunonchi, [bosh] leksemasi «tananing bo'yindan yuqori qismi» semasi asosida [kalla] leksemasi bilan, «rahbarlik qilmoq, boshqarmoq» semasi asosida [yetakchi], [yo'l boshchi], [sardor], [boshliq], [rahbar] leksemalari bilan, «tik narsalarning tepa qismi» semasi asosida [uchi], [cho'qqisi] leksemalari bilan sinonimik munosabatga kirishadi. Demak, sinonimiya hodisasi haqida gap ketganda, bu hodisani *semantik* sinonimiya deb atash to'g'riroqdir.

Sinonim leksemalar sememalaridagi atash va vazifa sememalari aynan bir xil bo'lib, faqat ifoda semalari farqlanadi. Masalan, *kulmoq ~ iljaymoq ~ tirjaymoq ~ ishshaymoq ~ hiringlamoq ~ tabassum qilmoq*. Ma'nodoshlik qatoridagi mazkur leksemalarning barchasida atash semalari bir xil: «xursandligini yoki zavq-shavqini, ichki quvonchini kulgi bilan ifodalamoq». Ammo ifoda semalari har bir leksemada o'ziga xos. Ya'ni «shaxsiy munosabat» har bir leksemada boshqacha namoyon bo'lgan. Bu munosabat [kulmoq] leksemasida «shaxsiy betaraf munosabat» ko'rinishida bo'lsa, [ishshaymoq] leksemasida «o'ta kuchli shaxsiy salbiy munosabat» tarzidadir.

Ma'nodoshlik qatoridagi leksemalarning ifoda semalari turli-tumandir. Chunonchi,

- 1)ijobiy yoki salbiy baho semalari;
- 2)leksemaning qo'llanilish davri bilan bog'liq holatdagi «arxaik», «tarixiy», «umumiste'moldagi», «yangi» semalar;
- 3)leksemaning qo'llanilish doirasini ko'rsatuvchi «shevaga xos», «so'zlashuvga xos», «kitobiy», «ko'tarinkilik» va h. semalar.

Ma'nodoshlik qatoridagi leksemalarning bittasi *dominanta* (bosh) bo'lib, boshqalari shu leksema atrofida birlashadi va ma'nodoshlik qurshovini hosil qiladi. Dominanta leksemaning yuqorida sanalgan barcha ifoda semalariga nisbatan neytral, betaraf bo'ladi.

Dominantaning	o'ziga	xos	xususiyatlari	quyidagilar:
---------------	--------	-----	---------------	--------------

1)dominanta leksemaning ma'nodoshlik qatoridagi boshqa leksemalarnikiga nisbatan «kambag'alroq» bo'ladi. Chunonchi, *oriq, nozik, qotma, qiltiriq, ramaqijon*. Ushbu qatordagi [oriq] leksemasida [nozik], [qotma], [qiltiriq], [ramaqijon] leksemalaridagi kabi hissiy-ta'siriy bo'yoq yo'q;

2)dominanta leksemaning qo'llanilish doirasi boshqa ma'nodoshlarnikiga nisbatan keng;

3)dominanta leksema istalgan vaqtda o'z ma'nodoshlarini almashtira oladi;

4)ma'nodoshlik qatori mansub bo'lgan katta tizimga faqat dominanta leksema kiradi va boshqa leksemalar bilan paradigma hosil qila oladi. Masalan, «kishi tana a'zolari» lug'aviy ma'no guruhiga *yuz, aft, bashara, turq, oraz, bet, diydor, tal'at, chehra* sinonimik qatoridan faqatgina [yuz] dominanta leksemasi kirib, [quloq], [burun], [lab], [qosh], [peshona] leksemalari bilan paradigma hosil qiladi. Boshqa ifoda semasidagi ifodalar «betaraf» bo'lolmaganligi bois yuqoridagi paradigmaga kira olmaydi.

Sinonimiya hodisasini deyarli barcha tillar doirasida kuzatish mumkin: *nizo, kelishmovchilik, ixtilof, nifoq, adovat; oqil, aqlli, bata'ni, dono*; ruscha: *светлый, ясный, яркий (ravshan); положение, состояние, обстоятельство (ahvol); путаный, запутанный, сложный, трудный (chatoq)*; inglizcha: *look, stare (qaramoq); misfortune, failure (baxtsizlik); whole, full (butun)* kabi.

Antonimiya. Leksemalar orasidagi zidlik munosabati antonimlikdir: *katta-kichik, oq-qora, baland-past, yosh-qari*; ruscha: *чёрный-белый, хорошо-плохо, лежать-вставать*; inglizcha: *necessary-needless (kerakli-keraksiz), light-dark (ochiq-to'q ranglar), rich-poor (boy-kambag'al)* kabi. Antonimik leksemalarning asosida borliqdagi qarama-qarshi hodisalarning in'ikosi bo'lgan o'zaro zid tushunchalar yotadi.

Antonim leksemalarda umumiy va birlashtiruvchi semalar ham, qarama-qarshi semalar ham bo'lishi lozim. Masalan, [yoz]:[qish] leksemalari umumiy «yil fasli» semasiga va qarama-qarshi [qish] – «yilning eng sovuq fasli», [yoz] – «yilning eng issiq fasli» semalariga ega.

Antonimlar tuzilishiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

- 1)har xil o'zakli antonimlar: *chiroyli-xunuk, issiq-sovuq, muhabbat-nafrat*;
- 2)bir xil o'zakli antonimlar: *ongli-onsiz, o'rinli-noo'rin, guldor-gulsiz, odobli-beodob*.

Antonimlarning mantiqiy asosini ikki ko'rinishdagi qarama-qarshilik tashkil etadi:

- a) kontrast qarama-qarshilik va b) komplementar qarama-qarshilik.

Kontrast antonimiya darajalanuvchi leksemalar qatorining birinchi va oxirgi a'zosiga tegishli bo'ladi, ya'ni ikki antonim leksema orasida har xil antonim a'zo belgilarini o'zida mujassamlashtirgan bog'lovchi bo'g'in mavjud bo'ladi. Masalan,

yosh~o`smir~balog`at~o`rta yosh~qari; past~o`rta~baland daraja qatorlarining birinchi va oxirgi a'zosi antonimlik hosil qiladi. Demak, leksemalarning kontrast qarama-qarshiligini ularning darajalanish (graduonimik) qatoridan izlash zarur.

Komplementar antonimiyada qarama-qarshilik uchinchi, oraliq bo`g`insiz bo`ladi: *oson-qiyyin, rost-yolg`on, arzon-qimmat* kabi.


Graduonimiya. Lug`aviy birliklarning o`zaro ma`noviy munosabatlariga ko`ra ma`lum darajalanish qatorlarini hosil etishi graduonimiya hodisasidir. Darajalanish qatori kamida uchta a`zodan iborat bo`ladi.

Darajalanish munosabatlari bilan bog`langan so`zlar qatorini ikki omilga tayanib ajratish mumkin: 1) *g`ayrilisoniy* asoslar va 2) *sof lisoniy* asoslar.

G`ayrilisoniy omilning mohiyati shundaki, borliqdagi narsa, belgi, xususiyatlarda sifat farqlari bilan birga miqdor farqlar ham mavjud. Inson ongida miqdoriy va sifatiy o`zgarishlar o`z aksini topadi va ular alohida-alohida leksemalar bilan ifodalanadi. Chunonchi, *nihol-ko`chat-daraxt; ninni-chaqaloq-go`dak-bola...; buzoq-tana-g`unajin-sigir*.

Demak, ongda aks etgan miqdoriy farqlarning tildagi in`ikosi g`ayrilisoniy omilning asosini tashkil etadi.

Darajalanish qatorlarini ajratishning lisoniy asosi ma`noviy omil hamda so`zlarning paradigmatic munosabatlarini qamrab oladi. Bir qator leksemalar sememalarida bir belgining oz-ko`pligi, turli xil darajalariga ishora ma`noviy omil bilan bog`liqdir. Masalan,



Gulobi - pushtiga moyil rang; **pushti** – shaftoli guli rangidagi och qizil, gulobidan to`qroq rang; **qizg`ish** – pushtidan to`qroq rang; **qizil** – qon rang; **ol** – qizildan to`qroq rang; **qirmizi** – to`q rangdagi qizil.

Demak, yuqoridagi chizmada har bir leksema ma`lum bir belgining turlicha darajalanishiga ishora qilmoqda. Shu asnoda ma`noviy omilning o`zi ham ikki jihatni – bir-biriga yaqin va o`xshash tushunchalarni ifodalashni hamda ayni bir belgining turli xil miqdoriga ishora qilishni qamrab oladi.

Graduonimik qatorlar lug`aviy paradigmalariga qo`yiladigan talablarning barchasiga javob bera oladi.

Giponimiya. Leksemalararo semantik munosabatlarning yana bir turi gipo-giperonimiya bo`lib, unda tur-jins munosabatlari o`z ifodasini topadi. Giponimik munosabatda giperonim (jins) va giponim (tur) farqlanadi.

Giperonim jins belgisini bildirgan predmetning nomini ifodalovchi ko`pgina ma`nolarni semantik jihatdan umumlashtiruvchi mikrotizimning markaziy leksemasidir. Giponim esa muayyan jins turlarining nomlarini hamda o`zining semantik tarkibida jins ma`nosini ham ifodalovchi, giperonimga nisbatan boy bo`lgan lug`aviy birlikdir. Chunonchi, *daraxt* (jins) – *terak, olcha, dub, chinor, olma, archa...* (tur); *meva* (jins) – *olma, olcha, shaftoli, o`rik, nok...* (tur).

Giponimik munosabat barcha tillar uchun xosdir. Chunonchi, *дерево* (jins) – *груша, вишня, яблоко, персик* (tur); *the man* (jins) – *women, man* (tur); *der Baum* (jins) – *der Tannenbaum, der Aafelbaum, der Abrikosenbaum* (tur).

Partonimiya. Partonimik munosabatlarda butun-bo`lak tushunchasi o`z aksini topadi. Tarkiban murakkablik, bo`laklarga bo`linuvchanlik borliq ashyolarining umumiy qurilish qonuniyati bo`lib, bu qonuniyat ong orqali lisonda o`z aksini topadi va shu asosda partonimik munosabatlar yuzaga chiqadi. Masalan, *daraxt* (butun), *shox, tana, ildiz* (qismlar); *odam* (butun), *bosh, tana, qo`l, oyoq* (qismlar). Tirnoq barmoqqa nisbatan, barmoq qo`lga nisbatan, qo`l esa odamga nisbatan butun-bo`lak munosabatida bo`ladi.

Omonimiya. Shaklan bir xil, mazmunan esa turlichalik nutqiy bosqichga xos bo`lib, lisoniy birliklarda omonimlik yo`q.

Nutqda ba`zan so`zlarning shakli ham, talaffuzi ham shakldosh bo`lib qoladi va uning ma`nosi kontekstda oydinlashadi. Chunonchi, *Topgan gul keltirar, topmagan bir bog` piyoz. Yaxshidan bog` qoladi, yomondan dog`*.

Omonim so`zlarda ma`no bog`liqligi bo`lmaydi, ular shu jihatiga ko`ra ko`p ma`noli so`zlardan farqlanadi.


Leksmalarning mazmun guruhleri (LMG) semasiologiyaning eng zarur tushunchalaridan biri hisoblanadi. LMG deganda, muayyan birlashtiruvchi semasi asosida ma`lum guruhga birlashtiruvchi, ayni paytda farqlovchi semalariga ko`ra o`zaro farqlanib, ajralib turuvchi leksemalar tushuniladi. Yuqorida ko`rib o`tilgan ma`nodoshlik qatorlari, mazmuniy darajalanish qatorlari LMGlarining bir turidir.

Leksemalarni LMGlariga birlashtirishda ularni shunday belgilar asosida umumlashtirish lozimki, bu guruhga birlashuvchi leksemalar ma`lum sohaga, muayyan turkumga oid bo`lib, ular orasida o`xshashlik juda ko`p, farq esa oz bo`lsin. Masalan,

1) qoramol LMG: (*sigir, buzoq, tana, g`unajin, ho`kiz, buqa, govmish...*);

2) o`ragichlar LMG: (*ro`mol, qiyiq, belbog`, tasma, peshonaband, gardanband, bo`yinbog`, paytava, kamar...*).

LMGlar ikki qismdan – asos va qurshovdan iborat bo`ladi. LMG asosi, odatda, bir necha (taxminan ikki - besh) leksemadan tashkil topadi va doimiy barqarorlikka ega bo`ladi. Qurshov esa o`zgaruvchidir. Chunonchi, «Osmon jismlari» LMGning markazi (XV asrdan to hozirgacha) to`rtta leksemadan iborat: [*quyosh, oy, yulduz, sayyora*]. Bu leksemalarning qurshovi har bir davr uchun o`ziga xos bo`lib, vaqt o`tishi bilan o`zgarib turishi tabiiydir. XV asrda:



Hozirgi kunga kelib [quyosh] leksemasi qurshovida [kun], [oftob] so'zlari qolgan xolos. Qolgan uchta markaz leksema va uning qurshovi haqida ham yuqoridagi kabi fikrlarni ayta olamiz.

Umumiy bir mavzuga oid bir necha LMGlarning o'zaro birlashuvi lug'aviy ma'no to'dalari(LMG) deyiladi. Masalan, o'zi bir necha LMGlardan iborat bo'lgan «Uy hayvonlari» LMGlari, «Qushlar» LMGlari shular jumlasidandir.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Leksik-semantik munosabatlar deganda nimani tushundingiz?
2. Sinonimik munosabatlar va darajalanish qatorlari o'rtasida qanday farqlar hamda o'xshash jihatlar bor?
3. Antonimlarning mantiqiy asosini tashkil etuvchi zidlikning 2 turi haqida ma'lumot bering.
4. «Tur», «jins» so'zlarining lug'aviy ma'nolarini sharhlang.
5. Butun-bo'lak munosabatlariga misollar keltiring.
6. LMGlari haqida nimalar bilasiz?Ularga misollar keltiring.

Asosiy adabiyot:

1. Азизов О. Тилшуносликка кириш. Т., «Ўқитувчи», 1996.
2. Баскаков Н., Содиқов А., Абдуазизов А. Умумий тилшунослик. Т. «Ўқитувчи», 1979.
3. Содиқов А., Абдуазизов А., Ирискулов М. Тилшуносликка кириш. Т., «Ўқитувчи», 1981.

Yordamchi adabiyotlar:

1. Менглиев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Қарши, 2004.
2. Неъматов Х., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. Т., «Ўқитувчи», 1995.
3. Сафарова Р. Лексик-семантик муносабатнинг турлари. Т., «Ўқитувчи», 1996.

Mavzu: Leksikografiya

Reja:

1. Lug'at nima?
2. Leksikografiya sohasi.
3. Lug'at turlari.
4. Lug'atchilikdagi muammolar.
5. Xulosa.

Mavzu bo'yicha tayanch tushuncha:

Lug'at tushunchasi, leksikografiya, uning tadqiq manbai, o'zbek lug'atchiligi tarixi, lug'at turlari, umumiy va maxsus lug'atlar, qomuslar, lingvistik lug'atlar, ularning turlari, tarjima lug'atlar, izohli lug'atlar, etimologik lug'atlar, lug'atchilikdagi muammolar, o'quv lug'atlari.

So'z – serqirra hodisa. So'z – insonlarning fikr, tushunchasi, his-tuyg'ularini ifodalabgina qolmay, uni o'z-o'zini yuksaltirishga, rivojlantirishga xizmat qilishi shubhasizdir. Chunki, so'z tafakkurning in'ikosi bo'lmish tilning mahsulidir. Ulug' bobokalonimiz Mir Alisher:

*Insonni so'z ayladi judo hayvondin,
Bilkim, guhari sharifroq yo'q ondin, - deya e'tirof etganlar.*

So'z hodisasi tilshunoslikda deyarli barcha sohalarida, lingvistik bo'limlarda tadqiq etiladi. Xususan, leksikografiyada ham. Bizga ma'lumki, **leksikografiya sohasi** - (grekcha lexicon – lug'at, leksika, grafo – yozmoq) lug'atlarni yaratish nazariyasi bilan shug'illanadi. Ho'sh, lug'at nima? U qanday tuziladi? Bu kabi savollarga javob berish uchun qomusiy lug'atlar va lingvistik adabiyotga murojaat etamiz.

“So'zlarning biror maqsadda to'planib, tartribga solingan yig'indisiga - **lug'at** deyiladi.”¹

“Lug'at -1) muayyan tilda, uning hududiy yoki ijtimoiy lahjasida mavjud bo'lgan, u yoki bu yozuvchi asarlarida uchraydigan so'zlar yig'indisi leksika; 2) so'zlar (yoki morfemalar, so'z birikmasi, iboralar va b.) muayyan tartibda (alifboli, uyali, mavzuli) joylashtirilgan, tavsiflanuvchi birliklar, ularning kelib chiqishi, ma'nolari, yozilishi, talaffuzi, uslubiy mansubligi, boshqa tillarga tarjimasi haqida ma'lumotlar jamlangan kitob”.²

Turli turdagi lug'atlar tuzish umummadaniy ahamiyatga egadir. Lug'at alfavit tartibida tuzilib, qulay qo'llanma sifatida xalq ommasiga bilim beradi, madaniy – oqartuv funksiyani bajaradi.

Lug'atlar ma'naviy madaniyat sohasida muhim o'rin egallaydi, ularda jamiyatning ma'lum davrda erishgan bilimlari aks etadi. Lug'atlar har birimizga ilmiy jarayonda to'g'ri va aniq ishlashga, real va obyektiv fikrlash va tasavvur qilishga yordam beradi. Ilk o'zbek lug'ati Mahmud Qoshg'ariyning “Devonu lug'otit turk” asari bo'lib, u qomusiy lug'at hisoblanadi.

Mahmud Zamahshariyning “Asos ul-balog'a”, “Muqaddimat ul-adab”, Navoiy asarlariga bag'ishlangan “Abushqa” (16 asr) lug'ati, Mirzo Mahdiyxonning “Sangloh” lug'ati, Chingiyning “Temurnoma”, Sulaymon Buxoriyning “Lug'ati chig'atoyi va turki usmoniy”, Tole Imoni Hiraviyning “Badoye' ul-lug'at» singari qimmatli asarlari lug'atchilikning nodir xazinasidan o'rin olgan.

¹ Содиқов А. ва б. Тилшуносликка кириш. Т., 1981, 120-б.

² ЎТИЛ. Т., 2003, 5 жилд.

Yuqorida leksikografiyaning lug'atchilik nazariyasi bilan ham shug'ullanishi, ya'ni nazariy leksikografiyaga ishora qilib o'tgan edik. Bu soha lug'atshunoslik deb ham ataladi. Nazariy leksikografiya lug'atlarning umumiy prinsiplari va tipologiyasini ishlab chiqish hamda yangi lug'at turlarini yaratish, lug'at strukturasi yaratish yoki o'zgartirish (masalan, maqola va havolalar tartibi, illyustratsion materiallar, so'z va tushunchaga izohli yoki lingvistik tasnif berish va h.) singari dolzarb vazifalar bilan shug'ullanadi.

2. Lug'atlar, asosan 2 turga bo'linadi: qomusiy (ensiklopediya) va filologik (lingvistik). Ensiklopedik lug'atlar so'zlarning qisqacha ma'nosini, tushuncha izohini berish asosida tuziladi. Qomusda barcha narsa va hodisalar, kishilar, fan-tehnika haqida ma'lumotlar keltiriladi. Zaruriy xarita va rasmlar, sxemalar beriladi. So'zning o'zi haqida faqat uning kelib chiqishini ko'rsatish bilan chegaralanadi. Shuning uchun bunday lug'atlar tushuncha lug'at, g'arbda esa "Husanrus" deb ham yuritiladi. Qomusiy lug'atlar umumiy va xususiy bo'lishi mumkin. Masalan, «**Советский энциклопедический словарь**» (М., 1981) umumiy qomusdir. Ammo adabiyotshunoslikka oid ensiklopedik lug'atlar, qishloq xo'jaligiga oid lug'atlar, tilshunoslikka oid (Ахманова С. Словарь лингвистических терминов. М., 1966) bo'lishi mumkin.

Filologik lug'atlar lisoniy birlik bo'lmish so'zning turli lisoniy xususiyatlarini yoritish, ko'rsatishga xizmat qiladi. Ular aniq qoida va lingvistik prinsiplar asosida yaratiladi. Filologik lug'atlar quyidagi turlarga ega:

1. Izohli lug'at. So'zlarning ma'nosi, qo'llanishi, nutqdagi semalari, fonetik va grammatik xususiyatlarini ochib beruvchi lug'at. Masalan: "O'zbek tilining izohli lug'ati". М., 1981, 1-2 jildlar; Ожерев С.И.ning "Толковый словарь русского языка. 20-е изд., М., 1988; O'TIL – 60000dan ortiq so'z va so'z birikmasini o'z ichiga oladi.

2. Tarjima lug'at. Bir tilga oid so'z va iboralarni boshqa bir yoki bir necha tilga o'girib ifodalovchi manbalar. Bunday lug'atlar har bir til leksikografiyasida juda ko'p tuzilgan va yaratilmoqda. Masalan:

Nemischa – o'zbekcha lug'at. Т., 1964;

O'zbekcha- nemischa lug'at. Т., 1967;

Inglizcha – ruscha, ruscha- inglizcha lug'at. Bishkek, 1995.

Ruscha –o'zbekcha lug'at. М., 1954.

Ruscha-o'zbekcha lug'at. М., 1950-1955;

Arabcha-o'zbekcha lug'at. 1986 va h.

3. O'zlashma so'zlar lug'ati. Bunday lug'atlar bir tilga o'zlashgan, lekin tarjima va izohni talab qiladigan so'zlar asosida tuziladi. Usmonov O., Doniyorov R. "Ruscha –internatsional so'zlar lug'ati"ni nashr ettirganlar. (Т., 1965) Yana «Словарь иностранных слов». 18-е изд., М., 1989. lug'ati ham mavjud.

4. Tarixiy lug'atlar. So'zlarning qachondan boshlab va qanday kelib chiqishi, dastlabki fonetik, semantik, morfemik va grammatik shakllari rivojini ochib beruvchi lug'atlar. O'zbek tilida tom ma'noda bunday lug'atlar hali yaratilmagan, biroq E.Fozilovning "Староузбекский язык: Харезмские памятники. XIV века" (ч.1-2., Т., 1966, 1971) asarini shunday manbalar sirasiga kiritish mumkin.

5. Imlo lug'ati. Muayyan bir tilning orfografik qoidalari, imloviy prinsiplari asosida to'g'ri yozishni o'rgatuvchi lug'atlar. O'zbek lug'atchiligida hozirga qadar 20 dan ortiq imlo lug'atlari yaratilgan. Shulardan eng mukammali 1975-yilda nashr qilingan, 6500 so'z va so'z shakllarini o'z ichiga oluvchi lug'atdir. Lotin grafikasiga asoslangan Yangi o'zbek imlo lug'ati esa 1995-yilda bosilib chiqdi.

6. Qiyosiy (tipologik) lug'atlar. Bir oilaga mansub tillarni o'zaro chog'ishtirib izohlovchi manbalar: Будагов Л. «Сравнительный словарь турецко-татарских наречий». ч. 1-2., 1869; Радлов В.В. «Опыт словаря тюркских наречий. 1-4. С.-Пб. 1888-1911.

7. Sheva lug'ati. Bir til doirasidagi sheva. Dialekt va lahjalariga xos bo'lgan fonetik yoki semantik jihatlarni adabiy til bilan solishtiruvchi lug'atlar: O'zbek xalq shevalari lug'ati, 1971; Словарь русских народных говоров. М., 1965-74.

8. Orfoepik lug'at. To'g'ri talaffuz qoidalarini, ya'ni adabiy talaffuz me'yorlarini ko'rsatuvchi lug'at. Sodiqova M., Usmonova O'.O'zbek tilining orfoepik lug'ati. Т., 1977.

9. Frazеологик lug'at. Frazеологик so'z va iboralar ma'nosini sharhlaydigan manba: Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. Т., 1978. Sodiqova M. Ruscha – o'zbekcha frazeologik lug'at. 1972; Jukov V. Фразеологический словарь русского языка. М., 1967.

10. Morfem lug'at. So'zlarning morfem tarkibini tahlil qiluvchi qomus: G'ulomov A.va b. O'zbek tilining morfem lug'ati. Т., 1977.

11. Ma'lum bir yozuvchi yo asar tilini sharhlovchi lug'at. Bular sirasiga: A.Navoiy asarlari tiliga bag'ishlangan "Abushqa" lug'ati; Navoiy asarlari lug'ati, 1972; A.Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati, 1-4-j.lar. 1983-1984; Словарь языка Пушкина. 1-4, М, 1956-61; Hasanov B. "Qur'oni Karim" so'zlarining arabcha-o'zbekcha ko'rsakichli lug'ati, 1995.

12. Etimologik lug'atlar. So'zlarning kelib chiqishini beruvchi lug'at. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati. Т., 2000; Севортян Э.В. Этимологический словарь тюркских языков, shuningdek, Фасмер М. Этимологический словарь русского языка. М., 1964-73.

13. Sinonimlar lug'ati: Hojiyev A. O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati. Т., 1980; Словарь синонимов русского языка. 3-е изд. М., 1971.

14. Omonimlar lug'ati. Ахманова О.С. Словарь омонимов русского языка. М., 1974, o'zbek tilida ham omonimlarning izohli lug'ati mavjud.

15. Antonimik lug'at. Rahmatullayev SH. va b. O'zbek tili antonimlarining izohli lug'ati. Т., 1980.

16. Antroponimik lug'at. Begmatov E. O'zbek ismlari lug'ati. Т., 1991.

17. Toponimik lug'at. Do'simov Z, Egamov X. Joy nomlarining izohli lug'ati. Т., 1977.

18. Paronimlar lug'ati. Ma'rufov A. Paronimlar lug'ati.Т., 1974.

19. Terminologik lug'at. Bunday lug'atlar- ensiklopedik lug'atga ham, lingvistik lug'atga ham yaqin turadi. Ulardan maxsus lingvistik lug'at bo'lmish Axmanova O. ning "Словарь лингвистических терминов" (1966) lug'ati alohida o'rin tutadi. 1925-yildan hozirgacha O'zbekistonda 50 dan ortiq mutaxassislik bo'yicha 140 qa yaqin atama lug'atlari nashr qilingan. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlari lug'ati. Т., 2002 .

20. Chastotali lug'atlar. So'zlarning qo'llanilish darajasini statik aniqlab beradigan lug'atlar: Штейнфельдт Э.А.Частотный словарь современного русского литературного языка. Тал., 1973.

21. Chappa (ters) lug'atlar. So'zning tugagan harfi asosida tuzilgan lug'atlar, masalan: *bola, pona, shona, dona* kabi. Qo'ng'urov R., Tixonov A. Обратный словарь узбекского языка. М., 1968; Обратный словарь русского языка. М., 1974.

O'zbek leksikografiyasi uzoq va boy tarixga ega. Biroq hozirgi kun nuqtai nazaridan olib qaraganda, lug'atchiligidan ba'zi muammolar ham mavjud. Ayniqsa, kundan kunga rivojlanib borayotgan davlatimiz, fanimiz va madaniyatimizni yuksaltirish singari ezgu vazifalar lug'atchilik muammosini va lug'atxonlik madaniyatini keskin hal qilish lozimligini ko'rsatmoqda. Mustaqillikka erishgan o'zbek xalqining ma'naviy-ma'rifiy yuksalishi, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" va uning oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarish, xususan, ijodiy tafakkur sohibini tayyorlash, ta'limning ilk bo'g'inlaridanoq lug'atlardan keng, maqsadli foydalana oladigan, izchil va mantiqiy so'z bankiga ega o'quvchini tarbiyalash ham aynan o'zbek lug'atchiligini rivojlantirish va ommalashtirish tamoyili bilan uzviy bog'liq.

Lug'atchiligidagi bugungi eng dolzarb muammo – o'quv lug'atlarining yo'qligidir. Afsuski, soha bu borada ancha orqada qolgan. O'quv lug'atlari –har qanday tur va hajmdagi, aynan biror tilda so'zlashishni o'rgatishga mo'ljallangan leksikografik asar hisoblanadi. O'zbek leksikografiyasida lug'atlar yaratish borasida ancha yutuqlar qo'lga kiritilgan bo'lsa-da, o'quv lug'atchiligi oqsab kelmoqda. Hozirgi kunda o'quvchilarimiz quyidagi lug'atlardan foydalanib kelishmoqda:

1. "O'zbek tilining imlo lug'ati": (Rahmatullayev Sh., Hojiyev A. T., 1995. Tiraj: 15000 nusxa).
2. "Imlo lug'ati" (Hojiyev A., Abdullayev Y., Zafarova S. T. 1-nashri, 1964. 4-nashri 1981. Tiraj: 100000).
3. "O'zbek tilining orfoepik lug'ati" (Hojiyev A. tahr. ostida T., 1977. Tiraj: 13000).

Lug'atlardan foydalanish madaniyati saviyasining shakllanganligining yorqin dalillaridan biri shuki, 1995-yilda atigi 150000 nusxada nashr etilgan, «O'zbek tilining imlo lug'ati»ni hozir ham kitob do'konlaridan topish mumkin. Vaholanki, agar maktab o'quvchilarining har yillik miqdori qariyb 6000000 ekanligini nazarda tutsak, bu imlo lug'atidan 400 o'quvchiga 1 lug'at to'g'ri keladi. Shunisi ham borki, lotin yozuviga asoslangan hamda hozirgi davr talabi bo'lgan bu imlo lug'atidan nafaqat o'quvchilar, balki talabalar, ma'rifat va madaniyat xodimlari, davlat va tashkilot organlari foydalanishga ehtiyojmand. Demak, bu holda, 1500-2000 kishiga atigi 1 ta lug'at to'g'ri kelishi kelib chiqmoqda. Imlo lug'ati bilan ta'minlanish rivojlangan davlatlarda 15-20 talabgorga bitta to'g'ri kelishini hisobga olsak, O'zbekistonda amaliy imlo lug'ati bilan ta'minlanish qariyb 70-100 baravar kamdir. Maktab o'quvchilari uchun yangi yozuvda chiqarilgan **"Imlo va talaffuz lug'ati"** ham mavjud bo'lib, sanoqli nusxalarda chiqarilgan. Bu lug'atdan ham keng omma foydalanish imkoniyatiga ega emas. Shunisi achinarliki, o'zbeklarda umuman 2000 kishiga 1 ta lug'at to'g'ri kelsa, ruslarda bitta oilaga 4-5 ta lug'at to'g'ri keladi. Bunaqada madaniy saviyaning yuksalishi-yu, ilm-fan taraqqiyoti haqida so'z borishining o'zi foydasizdir.

Xullas, shu kabi jiddiy muammolarni hisobga olib, hozirgi o'zbek leksikografiyasi o'quv lug'atlarini, xususan, uyadosh so'zlar lug'ati, o'quvchilar uchun sinonimik so'zlar lug'ati, shakldosh so'zlar lug'ati, o'quvchilar uchun izohli lug'at (hayvon nomlari asosida (qar: Jumaeva Saodat, Murodova Zulxumor. MB. Buxoro -2004), ideografik lug'atlar tuzish kabi masalalarni o'z oldiga dolzarb vazifa qilib qo'ydi.

Endi, O'TIL haqida to'xtalsak. Ma'lumki, bu lug'at 2 jildli, 1981-yilda nashr qilingan bo'lib, umumiy izohli lug'at hisoblanadi.

60000 so'zning izohiga bag'ishlangan bu lug'at o'zbek lug'atchiligining yutug'i, desak xato bo'lmaydi. Biroq, bugungi kun nigohi bilan qaraganda, ba'zi bir ko'z yumib o'tolmaydigan kamchiliklarning guvohi bo'ldik. Jumladan, lug'at maxsus mutaxassislariga mo'ljallangan. Bu esa o'zbek xalqi uchun nisbiy qiyinchiliklarni, hatto tushunmovchiliklarni keltirib chiqargani sir emas. Lug'atda keltiriladigan ko'pchilik tavsiflar o'zbek ongi-shuuri, tafakkuriga mos emas. Bundan tashqari, lug'atga kiritilgan so'zlarning 40 foizi rus tilidan kirib kelgan, qo'pol qilib aytganda tarjima qilingan (buni olma – meva va daraxt: яблоко – яблоня misolida). Shuningdek, milliy g'oyalarimizga muvofiq kelmaydi. Ana shu va boshqa ko'plab jihatlarni e'tiborga olgan holda O'zRFA "Til va adabiyot instituti" ilmiy jamoasi ko'p jildli "O'zbek tilining izohli lug'ati"ni yaratishga kirishdilar.

Xuddi shu fikrlarni 70-yillarda yaratilgan **"O'zbek sovet ensiklopediyasi"** to'g'risida ham aytish mumkin. Sovet voqeligi, sho'ro siyosati ta'siri aks etib turuvchi, milliy tariximiz va ma'naviyatimiz buzib ko'rsatilgan qomuslarni yangilash maqsadida, Prezidentimiz I.A.Karimovning sa'y-harakatlari bilan 12 jildli **"O'zbekiston milliy ensiklopediyasi"**ni yaratishga kirishildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1997-yil 20-martda "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyotini tashkil etish to'g'risida 154-qarorni qabul qilgach, bu katta ishni amalga oshirish uchun barcha shart-sharoitlar yuzaga keldi.

"Farzandlarimiz bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va, albatta, baxtli bo'lishlari kerak" (I.Karimov). Darhaqiqat, mustaqil diyorumizning poydevori bo'lmish kelajak avlod mana shu sifatlarni mujassam etishi lozim.

Lug'at – bilimlar xazinasi, madaniyatimiz, ilm-fan va san'at, dunyoqarashimizni yuksaltirishga qaratilgan ulkan zahmatlar mevasi. Lug'atlar tuzilishi, ya'ni leksikografiyani – igna bilan quduq qazishga o'hshatish mumkin. Shuning uchun har bir leksikografik asar – yuksak tahsinga, hurmatga loyiq javohirdir.

Lug'atlardan olam-olam bilim, ma'lumot olamiz. U fan – texnika, san'at, adabiyot bo'yicha yangiliklarni bayon etib, nutq madaniyatimiz va so'z boyligimizni oshiradi. Lug'at bilan ishlash - maroqli, qiziqarli va zavqli. Lug'atlar, ensiklopediya va ma'lumotnomalar bilan ishlashni tamoyil qilib olgan kishi esa savodli, ongli va madaniyatli insondir.

Leksikografiya – tilning mana shunday dolzarb masalalari bilan shug'ullanuvchi sohasi ekan, ishonch bilan ayta olamizki, o'zbek madaniyatini, ilmu fanini, ma'naviyatini yuksak rivojlangan mamlakatlar safiga olib chiqishdek mas'uliyatli vazifalarni bajarishga o'zbek lug'atchiligi munosib hissa qo'sha oladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriq:

1. Lug'atchilik va lug'atshunoslik orasida farq bormi?
2. Jahon leksikografiyasidan qanday manbalarni va qaysi leksikograf olimlarni bilasiz?
3. O'TIL haqida fikr bildiring.
4. Hozirgacha mavjud bo'lgan lug'at va qomuslarning qanday muvaffaqiyatli va nuqsonli jihatlari bor?
5. Siz foydalanadigan qaysi lug'atlarda (yoki ensiklopediyalarda) milliy tariximiz va o'zligimiz noto'g'ri talqin qilingan yoki umuman hisobga olinmagan? Misollar asosida tushuntiring.

6. O'ltidan biror so'zni olib (izohi bilan), boshqa lingvistik lug'atlardan (frazeologik, sinonimik, antonimik) berilishi, izohlanishi bilan tanishish.

Asosiy adabiyot:

1. Азизов О. Тилшуносликка кириш. Т., “Ўқитувчи”, 1996.
2. Баскаков Н., Содиқов А., Абдуазизов А. Умумий тилшунослик. Т. “Ўқитувчи”, 1979.
3. Содиқов А., Абдуазизов А., Ирискулов М. Тилшуносликка кириш. Т., “Ўқитувчи”, 1981.

Yordamchi adabiyot:

1. Абдуазизов А. Тилшуносликка кириш. Т., 1999.
2. Абузалова М. Юзта феъл қайси лугатларда изоҳланган? “Ўзбек тили ва адабиёти” журнали, 2001 й. 1-сон.
3. Ахманова О. Словарь лингвистических терминов. М., 1966.
4. Большая советская энциклопедия. Главн. Ред: А.М. Прохоров .М. Изд-во “Советская энциклопедия” 1972.
5. Головин Б. Введение в языкознание. М., 1977.

Mavzu: Frazeologiya

Reja :

1. Frazeologiya sohasi, uning shakllanish bosqichlari.
2. Frazeologik ma'no. Iboralar.
3. Iboralarning semantik tabiati.
4. Frazeologizmlarning grammatik xususiyatlari.

Mavzu bo'yicha tayanch tushunchalar:

Frazeologiya bo'limi, o'zbek frazeologiyasining taraqqiyoti, o'zbek frazeologiyasiga muhim hissa qo'shgan tilshunos-olimlar, frazeologik ma'no, ibora, frazeologik polisemiya, qarama-qarshi ma'noli iboralar, iboralar sinonimiyasi, frazeologik paronimiya va paroforma, iboralar omonimiyasi va polisemiya, iboralar variatsiyasi, frazeologizmlarning grammatik xususiyatlari, kalkalash va tarjima.

Frazeologiya – tilshunoslikning mustaqil sohasi bo'lib, leksikologiya bag'ridan XX asrning 50-yillaridan boshlab mustaqil bo'lim, yangi soha sifatida ajralib chiqdi. Frazeologiyaning alohida lingvistik yo'nalish bo'lib shakllanishida, jumladan, o'zbek frazeologiyasining dunyoga kelishida V.V.Vinogradovning muhim xizmatlari bor. Chunki, sobiq sho'rolar davrida mustamlaka xalqlar tillari frazeologiyasi shu olim ta'limoti asosida paydo bo'ldi. Bu sohaning rivojlanishida akademik A.Shaxmatov, V.Vinogradov, A.Yefimov, N.Shanskiylar, o'zbek tilshunosligida esa Sh.Raxmatullayev, Y.Pinxasov, M.Husainov, I.Qo'chqortoyev, B.Yo'ldoshev kabi zabardast olimlar ulkan xizmat qildilar.

O'zbek frazeologiyasining izchil ilmiy asosda tadqiq qilinishi Sh.Raxmatullayev nomi bilan bog'liqdir. Olim bu sohaga bag'ishlangan bir qator tadqiqotlari bilan milliy frazeologiyamizning yaratilishiga asos soldi. Jumladan, olimning quyidagi tadqiqot ishlari mavjud: «O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati» (T., 1978), «O'zbek tilining qisqacha frazeologik lug'ati» (T., 1964), «O'zbek frazeologiyasining ba'zi masalalari» (T., 1966), «Основные грамматические особенности образных глагольных фразеологических единиц современного узбекского языка» (M., 1952), «Hozirgi zamon o'zbek tili» (T., 1957), «Frazeologik birikmalarning asosiy ma'no turlari» (T., 1955) va h.z.

Shuningdek, Y.Pinxasov ham frazeologizmlarni o'rganishda katta muvaffaqiyatlarga erishdi. Olimning – « Фразеологические выражения в языке произведений Хаида Алимжана» (T., 1953), «Hozirgi o'zbek adabiy tili» (Leksikologiya va frazeologiya.) (T., 1969), «O'zbek tili frazeologiyasi haqida» (T., 1957) kabi asarlari tilshunoslik xazinasidan o'rin olgan.

O'zbek frazeologiyasining yangi muvaffaqiyatlarga erishuvida B.Yo'ldoshev, Abdumurod va Abdug'ofur Mamatovlarning xizmatlari katta bo'ldi. B.Yo'ldoshev frazeologizmlarning konnotativ ma'nolari, badiiy tasvir vositasi sifatidagi imkoniyatlarini atroflicha yoritib berdi. Abdumurod Mamatov frazeologik norma muammosini ko'tarib chiqdi va frazeologik norma hamda frazeologik variant o'rtasidagi munosabatni ko'rsatib berdi. Abdug'ofur Mamatov esa, o'zining qator asarlarida frazeologik shakllanish muammolarini o'rta qo'ydi va uning paydo bo'lish omillarini yoritib berdi. Frazeologizmlarning muhim farqlovchi belgisi mazmuniy qayta shakllanish ekanligini ko'rsatdi.

Ma'lumki, til birliklari shakl va ma'no munosabatida yashaydi. Til birligi bo'lishi uchun ma'lum shaklga ma'lum bir ma'no biriktirilgan bo'lishi kerak. Shunga ko'ra so'zlar leksik ma'no va grammatik ma'noga ega. Leksik ma'no – biror bir predmet, harakat-holatni yoki shularga mansub belgi-xususiyatlarni nomlovchi ma'no bo'lsa, grammatik ma'no leksik ma'nolarni bir tur, turkum ostida birlashtirish, umumlashtirish hodisasini namoyon etadi.

Odatda, ikki va undan ortiq mustaqil so'zning semantik va grammatik jihatdan aloqaga kirib, ma'lum tushuncha yoki tasavvurni, ba'zan nisbiy tugal fikrni bildiradigan birliklar-so'zlar bog'lanmasi uch ko'rinishda ajratiladi:

1. Erkin so'zlar bog'lanmasi;
2. Qo'shma so'zlar bog'lanmasi;

3. Frazeologik bog'lanmalar.¹

Frazeologik bog'lanmalar yoki frazeologizmlar ikki va undan ortiq so'zning birikib ko'chma ma'no ifodalashidan tashkil topgan, gapda bir butun bo'lak vazifasida keladigan, yaxlitlashgan, tarkiban barqaror, tayyor, obrazli tasavvurlarga ega lug'aviy birliklardir. Iboralar kamida ikkita mustaqil so'zdan (leksemdan) iborat bo'ladi. Shunga ko'ra iboralar o'zining ifoda tomoni bilan so'zdan farq qiladi: so'zning material tomoni – tovush bo'lsa, frazeologizmniki so'zdir. Iboralarning ma'no planiga bittadan ortiq so'zlarning yaxlitligicha, ma'lum bir obraz asosida, ko'chim asosida semantik bog'lanishi hodisasi xos bo'lib, bu **frazeologik ma'no** deyiladi. Masalan, *ko'zini ochmoq* birikmasi frazeologik ma'noni mujassamlashtirgan:

1. *Ko'zingni och! (uyg'on)*
2. *Ko'zingni och! (ogoh bo'l, g'afllatda qolma)*

So'zlar shakl va ma'no munosabatiga ko'ra ikki guruhga ajratiladi:

- 1) shakl tomoniga ko'ra: omonimlar, paronimlar;
- 2) mazmun tomoniga qarab: polisemiya, antonimiya va h.z.

Xuddi shuningdek, frazeologizmlarda ham shakl va mazmun munosabati aks etadi. Frazeologik sinonimiya, antonimiya, polisemiya, frazeologik paronimiya va omonimiya hodisalari mavjud.

Frazeologik ko'p ma'nolilik. Ikki va undan ortiq ma'noning iborada mavjud bo'lishi: **xayoliga kelmoq**: 1) «o'ylanmoq, fahmlamoq»;

2) «xotirasida tiklanmoq»; **o'ziga kelmoq**: 1) «tushunmoq, anglamoq»;

2) «hushiga kelmoq, sog'aymoq».

Frazeologik polisemiya ham, xuddi leksik polisemiya bo'lganidek, bosh ma'no va hosila ma'no bo'ladi. Biroq frazeologik polisemiya bosh ma'no ham ko'chma (obrazli) bo'ladi, chunki har qanday frazeologik ibora ko'chma ma'no asosida yuzaga keladi.

Iboralar sinonimiyasi. Shaklan, tarkiban har xil bo'lgan iboralarning mazmunan bir-biriga yaqin kelishi leksik sinonimiyaga juda o'xshab ketadi: *yer bilan yakson qilmoq – kulini ko'kka sovurmoq – dabdala qilmoq...*; *boshdan-oyoq – ipidan-ignasigacha – miridan-sirigacha – ikir-chikirlarigacha – qilidan-quyrug'ichgacha...*; Shu yerda iboralar mazmunan o'xshash bo'lgani bilan, ba'zi bir qirralarida, obrazlilik darajasida farq qilishi mumkinligi ko'rinadi: birinchi misolda *kulini ko'kka sovurmoq* iborasida frazeologik obrazlilik, bo'rttirish birmuncha kuchli.

Frazeologik sinonimlarni ibora variantligidan ajrata olish lozim: *jonini hovuchlab – yuragini hovuchlab, esi chiqmoq – esxonasi chiqmoq, ko'ngliga tugmoq – yuragiga tugmoq, esidan ko'tarilmoq – xayolidan ko'tarilmoq* kabi iboralar variantlar xolos. Odatda iboralar ma'nosi so'zga teng keladi: *qochmoq – quyon bo'lmoq, dumini qismoq; shafqatsiz – bag'ri tosh; xursand – boshi osmonga yetmoq, do'ppisini osmonga otmoq, og'zi qulog'ida, terisiga sig'maslik, og'zining tanobi qochmoq* va h.z.

Sizni qarang, men «to'rt» olsam, do'ppimni osmonga otgan bo'lardim! (O.Yoqubov. «Muqaddas»). *Rizvon xola terisiga sig'may gapira-gapira o'choq boshida ivirsirdi* (A.Muxtor. «Opa-singillar»)².

Qarama-qarshi ma'noli frazeologizmlar. Bu hodisa iboralar orasida juda keng tarqalgan hodisa bo'lib, leksik antonimiyaga yaqin turadi:

Ko'kka ko'tarmoq – yerga urmoq, yuragi keng – yuragi tor, ko'ngli joyiga tushdi – yuragiga g'ulg'ula tushdi kabi.

Iboralar antonimiyasi ba'zan o'zaro zid ma'noli so'zlar asosida, ba'zida esa o'zga tarkibli iboralar orasida sodir bo'lishi kuzatiladi. Masalan, *savol bermoq – javob bermoq, ko'kka ko'tarmoq – yerga urmoq, ko'zi to'q – ko'zi och, kalavaning uchini yo'qotmoq – kalavaning uchini topmoq, ruhi ko'tarilmoq – ruhi tushmoq* singari misollarda so'zlarning ma'noviy ziddiyati natijasida frazeologik antonimiya kelib chiqmoqda. *Ko'ngli joyiga tushdi – yuragiga g'ulg'ula tushdi, jonini jabborga bermoq – qo'l uchida kabi* misollar esa har xil tarkibli, grammatik tuzilishli birikmalararo zidlikni bildirimoqda.

Frazeologik iboralarda, shuningdek, shakldoshlik hodisasi ham mavjud bo'lib, ikki yoki uch ibora orasida yuzaga keladi. Masalan, *bosh ko'tarmoq* iborasi quyidagicha ma'nolarga ega:

1. *Bosh (ini) ko'tarmoq.* Zulfizar asta boshini ko'tardi (fizik harakat).

2. *Qo'zg'olon. Xaloyiq bosh ko'tardi* (isyon ma'nosi).

Boshiga ko'tarmoq birikmasi ham omonimiyani hosil qiladi:

1. *Anvar onasini boshiga ko'tarib e'zozlar, maqtar edi* (hurmat).

2. *Bolalar butun hovlini boshlariga ko'tarib o'ynashar edi* (to'polon, shovqin, tartibsizlik).

Omonim iboralarning o'ziga xos jihati shundaki, bunday birikmalar ayni bir leksik ma'nosi bilan qatnashadi, ya'ni so'z komponentlarga yo sinonimlariga tayanib bo'lmaydi, balki iboralar asosida yotgan voqelikka, shu voqelikdan olingan obrazga suyaniladi. Masalan, *ichagi uzildi* (I) va *ichagi uzildi* (II) iboralaridagi so'z komponentlar ayni bir leksik ma'nosi bilan qatnashgan, ammo bu iboralar asosida boshqa-boshqa obraz yotadi: 1-iborada qattiq va uzluksiz kulganda ichaklar silkina-silkina uzilib ketgudek bo'lishidan, 2-sida esa uzoq muddat ovqatlanmaslik natijasida ichaklarning torayib, ingichkalashib, uzilish darajasiga yetishi obrazli tasvirlangan.

¹ Киличев Э. Хозирги ўзбек адабий тили. Б., 1999. 83-б.

² Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. Т., 1978.

Iboralarning paronimligi ham mavjud. Ular frazeologik paronimlar yoki frazeologik paraformalar deyiladi. Masalan, *jon kirmoq* – *joni kirmoq*; *esiga kelmoq* – *esiga keltirmoq*; *tumshug'ini suqmoq* – *tumshug'ini tiqmoq* va h.z. Paronimlar o'zaro bir so'z-komponenti bilan farq qiladi:

1) tarkibidagi hol komponent boshqa-boshqa, ammo o'xshash so'z bo'ladi: *yurag(i) tars yorilib keta yozdi* – *yurag(i) qoq yorila yozdi*;

2) tarkibidagi to'ldiruvchi komponent boshqa-boshqa, ammo o'xshash so'z bo'ladi: *o'z(i)ni qayerga qo'yishni bilmaslik* – *o'zini qayoqqa urish(i)ni bilmaslik*;

3) tarkibidagi boshqaruvchi fe'l komponenti boshqa-boshqa, ammo o'xshash so'z bo'ladi: *etti uxlab, tush(i)ga kirmaslik va etti uxlab tush(i)da ham ko'rmaslik; ikki oyog'ini bir etikka suqmoq* – *ikki oyog'ini bir etikka tiqmoq* kabi;³

4) Bizga ma'lumki, frazeologik iboralarning asosiy grammatik xususiyati gapda bir butun bo'lak vazifasida qatnashishidir: *Ishongan bog'im, suyangani tog'im – sensan, bolam!* (ega vazifasida). *Ziyodani holi-joniga qo'ymay olib kelaverdim* (hol vazifasida). *Hamma joyga birma-bir ko'z yugurtirib chiqdi* (kesim o'rnida), *Yuragi tosh ukangiz yaxshiligimni bilarmidi?! (aniqlovchi), Otdan tushsa ham, egardan tushmaydi-ya...* (gap).

Frazeologizmlar grammatik (sintaktik va morfologik) tuzilishi bilan farq qiladi. Ularning tarkibida ot, sifat, fe'l va boshqa so'z turkumlari ishtirok etadi hamda komponentlarining sintaktik birikuvini ham turlicha bo'ladi: *olam guliston, ta'bi xira, kayfi buzuq, tepsa-tebranmas, qorasi o'chmoq, yuragi qora, o'ziga kelmoq, o'rta tashlamoq, katta gapirmoq* kabilar. Tarkibida taqlid so'zlar bo'lgan frazeologizmlar alohida obrazlilik bilan ajralib turadi: *yuragi duk-duk qilmoq*. Ba'zi frazeologizmlarning tarkibida boshqa tillardan kirgan so'zlar ham ishtirok etishi mumkin: *infarkt qilmoq, gapning indallosini aytmoq, doklad o'qimoq*.

Xususan, iboralarning kalkalash asosida voqe bo'lishi ham grammatik omildir:⁴

a) to'liq kalkalar: *bir ovozdan* (ruscha *единогласно, единодушно*), *ko'zga tashlanmoq* (*бросаться в глаза*), *o'rniga keltirmoq* (tojikcha *bajo ovardan*);

b) yarim kalka: *dil(i) siyoh bo'lmoq* (*dilash siyoh shud*); *yer bilan yakson qilmoq* (*bo zamin yakson kardan*) va h.z.

Aslida, iboralarni kalkalash juda murakkab hodisa bo'lib, odatda so'zma-so'z tarjima emas, balki ma'noviy munosiblikka asoslaniladi. Masalan, inglizcha *have a drop in one's eye* rus tilida «быть под хмельком» deb tarjima qilinadi. Aslida (so'zma-so'z) esa bu ibora «иметь капельку в одном глазу» ma'nosini bildiradi. Shuningdek, *make good* iborasi – *делать хорошо* (yaxshi bajarmoq) ma'nosini bildirsa-da, *va'dasini bajarmoq, so'zida turmoq* deb tarjima qilinadi (kalkalashtiriladi). Qiziqarlisi, nemis tilidagi *im Dreck sitzen* iborasi rus tilida *терпеть нужду* (ehtiyojmand bo'lish), *нуждаться в деньгах* (zoriqish, pulga zor bo'lish) deya o'girilsa-da, o'z ma'nosida «сидеть в грязи» tushunchasini anglatadi.

B.N.Golovinning ko'rsatishicha, hatto idiomalar (frazeologizmlarning bir turi) ham tarixan muayyan mazmunga egadir. «Birgina V.N.Dalning «Izohli lug'ati»ga murojaat qilishning o'zi kifoya, - deydi u qarashlari davomida, - ko'ramizki, *буть баклуши* iborasidagi *баклуша* so'zi ham qachonlardir yog'och idishlar (*chashka, qoshiq*) tayyorlash anjomi ekanligi anglashiladi. Bu keraksiz yog'och bo'laklari, payraxalari bilan bo'lgan faoliyatdir. Demak, zamonaviy *буть баклуши* idomasining mazmuni, ya'ni ishyoqmaslik, ishdan qochish, bekorchilik ma'nosi aslida mana shu faoliyatdan kelib chiqqan ekan».⁵

Xullas, har bir tilning frazeologik qatlami o'sha til egasi bo'lmish xalqning urf-odatlarini, turmushini, dunyoqarashini aks ettiradi. Bundan tashqari, obrazli, mazmundor, ta'sirchan va bo'yoqdor iboralar nutqimiz ko'rki, tilimizning boyligidir. Frazeologizmlar leksik birliklar kabi iste'mol doirasi nuqtai nazaridan ham tasnif qilinadi, ya'ni umumiste'moldagi iboralar va qo'llanishi chegaralangan iboralar farqlanadi. Umumiste'moldagi iboralarga *shunga qaramay, holdan toymoq, ro'yobga chiqmoq* kabilar kirs, qo'llanilishi keng bo'lmagan iboralar ilmiyligi (*imkoniyatlar doirasi, nazar tashlamoq, og'riqli nuqtalar*), badiiyligi (*sabr kosasi to'lmoq, ko'ngli ochiq*), dialektalligi (*halak bo'lmoq* – *ovora bo'lmoq*), eskirganligi (*alifni kaltak demoq, dumi xurjunda*) bilan xarakterlanadi. Bunday xususiyatlar har bir tildagi frazeologik birliklar uchun xosdir. Bugungi kunda tilshunosligimiz oldida frazeologik iboralardagi darajalanish, giponimiya, ierarxonimiya kabi semantik munosabatlarni o'rganish va tadqiq etish asosiy vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Frazeologiya sohasining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan olimlar haqida gapirib bering.
2. Frazeologizm yoki iboralarning so'zdan farq qilib turuvchi qanday asosiy xususiyatlari bor?
3. Iboralarning qanday tasniflarini bilasiz?
4. Iboralarning semantik tabiatini so'zlararo ma'noviy munosabatlar bilan qiyoslagan holda sharhlab bering.
5. Gap yoki gap bo'lgi vazifasida keluvchi frazeologizmlarga misol keltiring.
6. Iboralar har bir xalqning milliy xususiyatlarini aks ettiradi, deganda nimani tushunasiz?

Asosiy adabiyot:

1. Азизов О. Тилшуносликка кириш. Т., «Ўқитувчи», 1996.
2. Баскаков Н., Содиқов А., Абдуазизов А. Умумий тилшунослик. Т. «Ўқитувчи», 1979.
3. Содиқов А., Абдуазизов А., Ирискулов М. Тилшуносликка кириш. Т., «Ўқитувчи», 1981.

³ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек фразеологиясининг баъзи масалалари. Т., 1966. 237-238 бетлар.

⁴ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек фразеологиясининг баъзи масалалари. Т., 1966. 247-б.

⁵ Головин Б.Н. Введение в языкознание. М., «Высшая школа», 1977. с.110.

Yordamchi adabiyotlar:

- 1.Кодухов В.Н. Введение в языкознание. М., 1987.
- 2.Головин Б.Н. Введение в языкознание. М., 1977.
- 3.Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. Т., 2002.
- 4.Рахматуллаев Ш. Ўзбек фразеологиясининг баъзи масалалари. Т., 1966.
- 5.Реформатский А.А. Введение в языкознание. М., 1955.

Mavzu: Morfologiya va sintaksis munosabati

Reja :

1. Morfologiya va sintaksisning dialektik birligi.
2. Nutqiy voqelanishdan umumiylikka—zotiy mohiyatdan qo'llanishga.
3. O'zbek tili morfologiyasining asosiy tamoyillari.

Mavzu bo'yicha tayanch tushuncha:

Morfologiya va sintaksisning dialektik birligi, [WPm] — gapning minimal qolipi, dialektik munosabatlarning morfologik sathda namoyon bo'lishi, qatorlanish (sintagmatik) tushunchasi, guruhlanish (paradigmatik) va pog'onaviylik (iyerarxik) tushunchai, birlik va ko'plik son shakllarining umumiy ma'nolari.

Hammaga ma'lumki, grammatika deganda tor ma'noda morfologiya va sintaksis, keng ma'noda esa tilning barcha qurilish sathlari tushuniladi. Til sathlari deganda fonetika va fonologiya, leksika va semasiologiya, frazeologiya, morfologiya, sintaksis va stilistika tushuniladi. Morfologiya va sintaksis bir-birini taqozo etuvchi sathlar sanaladi. Lisoniy birliklarga zotiy yondashuv morfologiya va sintaksisning dialektik birligi haqida hukm chiqarish imkonini berdi. Morfologiya — grammatikaning so'zshakl ma'nosi haqidagi sohasi bo'lsa, sintaksis grammatikaning so'zshakl vazifasi haqidagi sohasi sanaladi. Tilning asosiy ijtimoiy vazifasi aloqa - aralashuv, insonlar orasida fikr almashtirish vositasi bo'lganligi sababli sintaksisning o'rganish manbai bo'lgan gaplarda tilning barcha sathlarining - fonologiya va fonetikaning, leksika va semantikaning, morfemika va morfologiyaning birliklari voqelanadi, yuzaga chiqadi. Bu birliklardan har birini tilshunoslikning alohida-alohida bo'limlari o'rganadi. Lekin sintaksisning o'rganish manbai bo'lgan gaplarda barcha sath birliklarining belgilari jilvalanadi.

- Masalan: 1. *Kitobni ukamga oldim.*
Kitobni ukam uchun oldim.
2. *Salima xafa bo'ldi.*
Salimaning kapalagi uchdi

kabi hodisalar sintaktik hodisalar — sintaktik sinonimiya deb talqin etiladi. Lekin 1-holatda morfologik birliklarning ma'no va vazifadoshligi, 2 - holatda so'z va ibora ma'nodoshligini kuzatish mumkin. Bunday morfologik hodisalarga sintaktik jihatdan qaraladi va sof sintaktik hodisani o'rganish chetda qoladi.

Yoki: - u/ -yu
-da
lekin / ammo

yoki

Lola keldi -yu, men ketdim.
shuning uchun
-ki
deb


kabi gaplar bog'langan qo'shma gaplar, ergashgan gaplar va ularning ko'rinishlari sifatida an'anaviy tilshunosligimizda o'rganilib kelinmoqda. Agar diqqat bilan e'tibor bersak, bu misollarda turli xil gaplar (sintaktik hosilalar) ni emas, balki turli bog'lovchi vositalar bilan shakllangan morfologik hodisalarni - bog'lovchilar paradigmasini ko'rish mumkin. Bu yerda ham morfologik birliklarning sintaksisda "qorishilgan"ini sezish mumkin. "Sintaksis boshqa sathlar (ayniqsa, leksika va morfologiya) birliklari tajallisidan xoli bo'lgach, behad sodda va hammaga oson tushunarli qoliplarning o'zaro munosabat chizmalari shaklini oladi..." [2, 29-30;]. Jumladan, [WPm] sintaktik qolipi ham xuddi shunday keltirib chiqarilgan. Buning uchun nutqdagi oddiy bir gapga murojaat qilamiz: *(Bu kunda) Latofatning murg'akkina qalbiga shunday nogahoniy sevgi otash tashladi.* Bu nutq hosilasida barcha til sathlarining birliklari o'z ifodasini topgan. Bu gapning sintaktik qurilishini aniqlash uchun, nutqdagi gapning nosintaktik kategoriyalar ko'rinishlarini birma-bir olib tashlaymiz:

1. Intonatsion tugallanganlik. Yuqoridagi gap intonatsion tugallikka ega. Agar biz shu gapga boshqacha bir tus bersak, u intonatsion jihatdan tugallanmagan bo'lmagligi ham mumkin, ya'ni *"Bu kunda Latofatning murg'akkina qalbiga shunday nogahoniy sevgi otash tashladi va uning ko'zi oldida borliq o'zgacha libos kiydi"*. Gapning birinchi qismi ohang jihatdan tugallanmagan. Bunday xususiyatlar nutqdagi gaplar uchun xarakterli holat sanaladi. Ammo gapning qolipiga ahamiyatsizdir, chunki gaplarni ohang jihatdan o'rganish fonetika, fonetik tahlilning obyektidir.

2. Gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari. Yuqoridagi nutqiy hosila ham so'roq, ham buyruq, ham his - hayajon gap bo'lib shakllanishi mumkin. Ammo gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari gap semantikasida o'rganilishi lozimligi uchun, shuningdek, bunday xususiyatlar gapning eng kichik qolipiga dahldor bo'lmaganligi tufayli bu nosintaktik hodisadan ham voz kechamiz.

3. Modal ma'nolariga ko'ra turlari. Nutqda gap turli modal (gumon, taxmin, ishonch, qat'iylik...) manolarida bo'lishi mumkin. Jumladan, yuqorida bergan gapimizni quyidagi shaklda qo'llasak: *(Bu kunda) Latofatning murg'akkina qalbiga shunday nogahoniy sevgi otash tashlaganga o'xshaydi*. Bu gapda endi gumon ma'nosi o'z ifodasini topgan. Bu hodisa ham gapning sintaktik qurilishi uchun ahamiyatsiz bo'lganligi va tilning modallik kategoriyasida o'rganilishi lozimligi tufayli tajalli sifatida gapdan chetlashtiramiz. Qisqasi, shunga o'xshash nosintaktik hodisalarni gapdan chetlashtirgandan so'ng gapning bo'laklari qoladi.

Mashhur fransuz tilshunosi L.Tenyer grammatikasida (gap bo'laklarining gap ichidagi mavqei, darajalanishi) asoslangan holda gapdagi markaziy bo'lakni aniqlashga kirishamiz. Bu gapning eng kichik qolipini aniqlashdagi ikkinchi tayangan bosqichimiz bo'ladi *"(Bu kunda) Latofatning murg'akkina qalbiga shunday nogahoniy sevgi otash tashladi"* gapini bo'laklardan birma-bir xoli qilgach, fikrni ifodalay oladigan markaziy bo'lak — kesim vazifasidagi so'z forma ("otash tashladi") qoldi va bu asosda quyidagi chizmani hosil qilish mumkin: *Bu kunda Latofatning murg'akkina qalbiga shunday nogahoniy sevgi otash tashladi*.



Sxemada ko'rib turganimizdek, I, II, III bosqichda tobe bo'laklar aniqlanildi. Bu so'z, so'z birikmalari atash, nomlash xususiyatini ifodalaydi. Fikr ifodalash esa *"Otash tashladi"* frazemasida mujassamlashgan. *"Otash tashladi"* so'zining valentligi asosida yuqoridagi gap hosil qilingan. Bu so'zshakl ikki qismdan iborat: *otash tashla* — lug'aviy ma'no ifodalovchi qism, *-di* — kesimlik ko'rsatkichlari qismi, ya'ni bu [WPM]ga tengdir.

Yuqorida biz nutqiy voqelanishdan umumiylikka qarab intildik va umumiy hosilani vujudga keltirdik. Bu chizma, qolip (WPM) yuz minglab gaplarda voqelanadi, ro'yobga chiqadi. Ya'ni zotiy mohiyat nutqda rang-barang ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Bu o'rinda shuni ta'kidlash kerakki, biz yuqoridagi misolimiz bilan, dastlab, xususiyliklardan umumiylik keltirib chiqardik va bu umumiylik yana pastga qarab turli xususiyatlarini namoyish etadi. Bundan morfologiya va sintaksisning bosh maqsadi kelib chiqadi. "...xususiyliklarni ma'lum tamoyillar asosida umumiyliklarga birlashtirish va, aksincha, muayyan umumiylikning bevosita kuzatishda turlicha namoyon bo'lish imkoniyatlarini ochib berishga, boshqacha aytganda, induktiv usulga tayangan holda xususiyliklardan umumiyliklarga o'tish, umumiyliklar o'rtasidagi o'zaro munosabatni ochish — nazariy morfologiyaning bosh maqsadi sanaladi" [3,8]. O'zbek tili nazariy morfologiyasining asosiy xususiyatlari, vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Til - nutq zidlanishi asosida umumiylik - xususiylik, imkoniyat - voqelik dialektik munosabatining morfologik sathda namoyon bo'lishini ko'rsatib berish;

2. Morfologiya morfologik birliklar munosabatiga tayanadi;

3. Til birliklari o'rtasidagi uch xil munosabat tadqiqot markazida bo'ladi: qatorlanish (sintagmatik) guruhlanish - (paradigmatik) — pog'onaviylik (iyerarxik). Qatorlanish — til birliklarining ketma-ket joylashuvi. Guruhlanish munosabati ma'lum birlashtiruvchi belgi asosida muayyan sinfga birlashtiruvchi birliklar o'rtasidagi munosabat sanalib, u "Fahmiy bog'lash" orqali hosil qilinadi. Pog'onaviylik — kichik birliklarning o'zidan kattaroq birliklar tarkibiga kirish munosabati. Bu munosabat butun va bo'lak aloqasini namoyon etadi. Masalan, morfema affiksalar morfema bilan so'z morfemalardan tashkil topadi, morfema so'zshakl tarkibida real voqelanadi.

4. Morfologik birliklarning birlashtiruvchi va farqlovchi belgilari ularni ma'lum paradigma tarkibida zidlash asosida aniqlanadi. Shuning uchun ham har qanday grammatik paradigma zaminida zidlanish yotadi. Tilshunoslikning vazifasi ana shu zidlanish belgilarini ochishdan iborat. Bu zidlanishlar nutqiy konkret ma'nolar asosida emas, balki grammatik (morfologik) shaklning umumiy - lisoniy ma'nosi asosida quriladi. Umumiy - lisoniy ma'nolar esa o'zaro mutanosib grammatik shakllarning aloqadorligi asosida ochiladi. Chunonchi, birlik son bilan ko'plik son shakllarining nutqiy ma'nolarini qiyoslasak:

Birlik son	Ko'plik son
<i>kitob</i>	<i>kitoblar</i>
<i>1 ta kitob</i>	<i>ko'p kitob</i>
<i>10 ta kitob</i>	
<i>bu yer</i>	<i>bu yerlar</i>

Ikki son shakli ma'nolarini qiyoslab hukm chiqara olamizki, birlik son aniq miqdorni ham, noaniq miqdor (*ko'p kitob*)ni ham, birlikni ham, aniq va noaniq ko'plikni ham ifodalay oladi. Ko'plik son esa hamisha noaniq ko'plikni ifodalaydi. Mana shu noaniq ko'plikni ifodalash ko'plik sonning umumiy ma'nosi, birlikni ham, ko'plikni ham, aniqlikni ham, noaniqlikni ham ifodalay olish esa birlik sonning umumiy ma'nosidir.

Morfologik paradigmalarda shakllar mana shunday umumiy ma'nolar asosida zidlanadi. Mana shunday umumiy morfologik (grammatik) ma'nolarni ochish va paradigma a'zolarining zidlanish belgilarini tavsiflash bugungi o'zbek tili nazariy morfologiyasining tadqiq manbaidir. Bu ishga o'zbek tilshunosligi endigina kirishdi va uning rivoji bevosita iqtidorli yoshlarning kelajakdagi faoliyatlari bilan bog'liqdir.

Morfologik shaklning mana shu usulda ochilgan umumiy ma'nosi bu formaning qo'llanilishida — sintaksisda voqelanadi. Shuning uchun morfologik shakl umumiy ma'nosi imkoniyat sifatida unda yashiringan bo'ladi. Nutqda esa u ro'yobga chiqadi va morfologiya va sintaksisning uzviy aloqadorligi, bir-biridan ajralmasligi ta'minlanadi. Morfologik shakl imkoniyat bo'lsa, sintaktik qurilma voqelanishdir. Chunonchi, "ukamga" so'zshaklini olib ko'raylik. Bu shaklda

- 1) lug'aviy ma'no o'zidan kichik, erkak jinsidagi bir ota-onadan bo'lgan bir avloddagi qarindosh;
- 2) ma'lum bir so'z turkumi (ot)ga mansublik;
- 3) miqdor jihatdan noaniqlik;
- 4) qandaydir boshqa so'zga tobe (to'ldiruvchi yoki hol) mavqeida kelib, harakat yoki biror narsaning unga yo'nalganligi;
- 5) I shaxsga aloqadorlik ma'nolari mujassamlangan.

Bu ma'nolarning barchasi "ukamga" so'zshaklida noaniq va umumiydir. Bu so'zshakli nutqda boshqa so'zlar bilan aloqadorlikda voqelanganda yuqoridagi ma'nolar muayyanlashadi. "Kitobni ikkinchi ukamga oldim", "Bu gapni kenja ukamga aytdim", "Boshimni ko'tarib o'rtancha ukamga qaradim".

Bundan biz yana bir xulosaga kelamiz: morfologik shakl nafaqat sintaktik qo'llanishi bilan, balki lug'aviy ma'no va lug'aviy to'ldirilishi bilan ham uzviy bog'langan. Bu leksika, morfologiya va sintaksisning o'zaro uzviy aloqadorligi va tilning yaxlitligi bilan tabiatan bog'liqdir. Biz tilni, uning birliklarini turli sathlarga sun'iylik bilan ajratamiz, ayrim maqsadlarni ko'zlab ajratamiz. Haqiqatda esa ular bir butunlikda yashaydi, ularni bir-biridan ajratish mumkin emas. Lekin har bir sath uchun faqat shu sath uchun xos bo'lgan xususiyatlarni aniqlash maqsadida biz o'rganilayotgan sath birligini boshqa sathlar tajallisidan sun'iy ravishda ozod qilishimiz kerak. Masalan: "Ahmadlar" so'zshaklida -lar qo'shimchasining ma'nosi "kitoblar" so'zshaklidagi "-lar" ma'nosidan farq qiladi. Bu farq, shubhasizki, yakka shaxs nomi bo'lgan. "Ahmad" va bir jinsdagi predmetlarning umumiy nomi bo'lgan "kitob" so'zining lug'aviy ma'nosi bilan va morfologik shakl bo'lgan ko'plik sonning umumiy morfologik ma'nosiga aloqador emas. Xuddi shunday "-ni" tushum kelishigi qo'shimchasini qabul qilgan vositasiz to'ldiruvchi quyidagi birikmalarda har xil ma'noga ega:

Uyni qurdik.
Uyni buzdik.
Uyni bezadik.
Uyni ko'rdik.
Uyni o'yladik...

Lekin bu rang-baranglik "-ni" shaklining umumiy morfologik ma'nosidan emas, balki uning qanday so'zlar bilan birikib kelgani bilan bog'liq. Tushum kelishigining umumlisoniy ma'nosi ot yoki ma'nosi toraygan so'zni o'timli fe'l bilan tobe bo'lak (vositasiz to'ldiruvchi) mavqeida bog'lashdan iborat, xolos. Shuning uchun grammatika umumiy ma'nolar bilan ham, xususi nutqda voqelangani ma'nolar bilan ham ish ko'rganligi sababli biz bu ikki xil ma'no ustida alohida to'xtalishimiz lozim.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriq:

1. Nutqiy voqelanish tushunchasi nima?
2. Morfologiya grammatikaning qanday sathi?
3. [W P_m] qolipi qanday hosil qilingan?
4. [W P_m] chizmasi qanday gaplarda reallashadi?
5. Til birliklari orasida qanday munosabatlar yotadi?
6. Paradigmatik (guruhlanish) munosabati haqidagi tushunchangizni misollar bilan izohlang.
7. Sintagmatik (qatorlanish) munosabat nima?
8. Iyerarxik (pog'onaviy) munosabatda til birliklari qanday joylashadi?
9. O'zbek tili morfologiyasining asosiy tamoyillarini sanang.

Asosiy adabiyot:

1. Азизов О. Тилшуносликка кириш. Т., "Ўқитувчи", 1996.
2. Баскаков Н., Содиков А., Абдуазизов А. Умумий тилшунослик. Т. "Ўқитувчи", 1979.
3. Содиков А., Абдуазизов А., Ирискулов М. Тилшуносликка кириш. Т., "Ўқитувчи", 1981.

Yordamchi adabiyot:

1. Абузалова М. Ўзбек тилида содда гапнинг энг кичик қурилиш қолипи ва унинг нутқда воқеланиши. Тошкент, НДА, 1994 йил.
2. Неъматов Х. Тажалли тасаввуф билиш назарияси ва тилшуносликда синтаксисни ўрганиш масалалари. «Ўзбек тили ва адабиёти», 1993 йил, 2- сон.
3. Нурмонов А., Шахобиддинова Ш. ва б. Ўзбек тили назарий морфологиясининг Asosiy tamoyillari. «Ўзбек тили ва адабиёти», 1998 йил, 2 - сон.

Mavzu: Morfemika

Reja:

1. Morfemika sathi haqida umumiy ma'lumot.
2. O'zak morflar va affiks morflar.

3. Morfema va bo'gin munosabati.

Mavzu bo'yicha tayanch tushunchalar:

Morfemika, o'zak morf, affiksalar morf, so'z yasovchi affikslar, aloqa-munosabat shakllari, lug'aviy shakllar, affiksalar omonimiya, affiksalar polisemiya, affiksalar sinonimiya va anotomiya, allamorflar, bo'gin va morfema.

Nutqqa xos bo'lgan eng kichik birlik so'z (yoki so'zshakl) bo'lib, ma'lumki, mustaqil so'zlar ham leksik, ham grammatik ma'nolarga, yordamchi so'zlar esa faqat grammatik ma'noga egadir. So'zshakllar grammatik ma'no ifodalash xususiyatiga qarab ma'noli qismlarga bo'linadi. Vaholanki, har qanday so'z material (tovush) va ma'no tomonlarining yig'indisidan iborat.

So'zlar yoki so'zshakllar tarkibida ajratiladigan eng kichik ma'noli qismlar morf (yunoncha **morphe** – *shakl* demakdir)lar deyiladi. Morflar til faning morfemika sathida o'rganiladi. Demak, morfemika – so'zning ma'noli qismlari haqidagi ta'limot. Morflar ikki turga bo'linadi: o'zak morflar va affikslar morflar. Chunonchi, *tinchimoq, mehnatkashlarning, kitobxonlarimiz, to'qimachilik*. Ushbu so'zshakllarning har birida to'rttadan morf bo'lib, ularning bosh qismlari (*tin, mehnat, kitob, to'qi*) o'zak morflar, o'zaklarga qo'shilgan qismlar ([ch], [i], [moq], [kash], [lar], [ning], [xon], [imiz], [ma], [chi], [lik]) esa affiksalar morflar hisoblanadi.

Har bir so'zshaklda ishtirok etishi shart bo'lgan, lug'aviy ma'no ifodalovchi qism **o'zak** deyiladi. So'zga turlicha affikslar qo'shilganda ham o'zak morf o'z ma'nosini yo'qotmaydi va so'zshaklning umumiy ma'nosi o'zak morfning ma'nosi bilan zich bog'langan bo'ladi. Masalan, *tinch, tinmoq, betinim, tinchi* kabi so'zlar *tin* o'zagidan, *boshla, boshliq, boshchi, boshq, boshqalar* so'zlari *bosh* o'zagidan; rus tilidagi *опытник (tajribachi), опытническое (tajribachilik), опытный (tajribali)* so'zlari *опыт* o'zagidan; *братанье (birodarlashuv), братья (aka-uka tutinmoq), братья (birodarlar), братья (og'ayni)* so'zlari *брат* o'zagidan; ingliz tilidagi *worker (ishchi), working (ishlaydigan), workshop (ishxona)* so'zlari *work (ish)* o'zagidan yasalgan.

Affiksalar morflar mustaqil ravishda ishlatilmaydi, faqat so'zshakl tarkibidagina grammatik ma'no ifodalaydi, o'zak asosida yangi leksik ma'noli so'zning yuzaga kelishiga xizmat qiladi. Ifodalaydigan ma'no mohiyatiga ko'ra affiksalar morflar uch turga bo'linadi:

- 1) so'z yasovchi affikslar;
- 2) aloqa-munosabat shakllarini hosil qiluvchi affikslar;
- 3) lug'aviy shakl hosil qiluvchi affikslar.

So'z yasovchi affikslar turli so'zlarga qo'shib, uning ma'nosi bilan bog'liq yangi so'zlar hosil qiladi. Yasovchi affikslar bir so'z turkumi doirasiga mansub yangi so'zlar yasashga: *mulk ~ mulkdor, san'at ~ san'atkor, uzum ~ uzumzor, zina ~ zinapoya, odam ~ odamgarchilik* (ot); *кусок (do'koncha) ~ кусок (do'konchi), кран – крановщик (kranchi), глаз (ko'z) ~ глазница (ko'z kosasi)* (ot) va bir turkumdan boshqa turkum so'zlarini yasashga ham xizmat qiladi. Jumladan, *gul* (ot) – *gulli* (sifat) – *gulla* (fe'l), *keng* (sifat) – *kengay* (moq) (fe'l), *o'yin* (ot) – *o'yna* (fe'l), *yelpi* (fe'l) – *yelpig'ich* (ot), *chida* (fe'l) – *chidam* (ot); *эрубо* (qo'pol-sifat) – *эрубо* (qo'pollik-ot), *эруз* (yuk-ot) – *эруз* (yuklamog-fe'l), *ах* (oh-undov) – *аханье* (ohlamoq - fe'l) kabi.

O'zakka birdan ortiq yasovchi affikslar qo'shilishi ham mumkin. Bunday holatlarda so'z tarkibi murakkablashadi: *choy-xona-chilik, suvo-q-chilik, be-g'arazlik*.

So'z yasovchi affikslarning so'z yasash darajasi ham bir xil emas. Juda ko'p miqdorda yangi so'z yasashga xizmat qiluvchi affikslar unumli affikslar hisoblanadi. *Jangchi, tarixchi, aqlli, g'ayratli, oqla, tuzla, moslama, qatlama, yoshlik, bolalik* so'zlari tarkibidagi [chi], [li], [la], [lik] affikslari shular jumlasidandir. Miqdoran kamroq so'z yasovchilar kamunum affikslar deyiladi. Chunonchi, *qamoq, tirnoq, toshqin, qirg'in, ekin, tugun* kabi.

Tarixan yangi so'z yasashga xizmat qilgan, hozirda esa bunday xususiyatini yo'qotgan affikslar unumsiz affikslardir. Masalan, [-vul], (*qorovul*), [-dak] (*kekirdak*), [-chil] (*epchil*)...

Aloqa-munosabat affikslari so'z birikmalarida so'zlarni bir-biriga bog'lashga, shuningdek, gap bo'laklarini shakllantirishga xizmat qiladi. Aloqa-munosabat qo'shimchalari guruhiga 1) egalik affikslar; 2) kelishik affikslar; 3) kesimlik kategoriyasi qo'shimchalari (zamon, mayl, shaxs-son) kiradi. Masalan,

Bu gapni hech kimga aytmaganingiz juda yaxshi bo'libdi, buni hozircha sir tutganimiz ma'qul.

Lug'aviy shakl hosil qiluvchi affikslar sirasiga otlardagi son shakli, kichraytirish-erkalash shakllari, sifatlardagi daraja lug'aviy shakllari, fe'llardagi nisbat, ravishdosh, sifatdosh, harakat nomi va harakat tarzi shakllari kiradi. Bunday shakllar o'zaklarga qo'shib, ularning lug'aviy ma'nosiga qo'shimcha ma'no beradi. Lug'aviy shakl hosil qiluvchi affikslar deyarli barcha agglutinativ tillar uchun xosdir. Masalan, *kitobcha, qizaloq, kichikroq, o'qigan, yurib; книжка (kitobcha), домик (uycha), девочка (qizaloq); smaller (kichkinaroq), more comfortable (qulayroq).*

Nutqiy bosqichda so'zlarda bo'lgani kabi qo'shimchalarda ham shakl va ma'no munosabati asosida omonimiya, sinonimiya, polisemiya antonimiya kabi hodisalar uchraydi. Affiksalar omonimiya, ya'ni qo'shimchalarning bir xil bo'lib qolishi faqat nutqiy bosqichga xos, lisoniy bosqichda har bir affiksalar morf alohida zot sifatida mavjud bo'ladi. Qo'shimchalarda omonimlik ikki yoki uch so'z turkumi doirasida ro'y beradi. Jumladan, *tuzdon* (ot) – *bilimdon* (sifat), *bostirma* (ot) – *yasama* (sifat) – *yugurma* (fe'lning bo'lishsiz shakli), *ukam* (egalik shakli) – *o'qidim* (shaxs-son shakli) – *to'plam* (ot).

Affiksalar polisemiya deganda so'z yasovchi affikslarning bir so'z turkumiga xos bo'lgan xilma-xil ma'noli so'zlarni yasashi tushuniladi: *tortma* (joy oti), *isitma* (mavhum ot), *surma* (narsa oti); *supurgi* (narsa oti), *sevgi* (mavhum ot) kabi.

Adabiyotchi – adabiyotshunos, badavlat – davlatli – serdavlat – bodavlat – davlatmand, childirmachi – childirmakash kabilar affiksalar sinonimiyaga; *baxtli-baxtsiz, noumid-umidvor, sertashvish-betashvish, itoatkor-itoatsiz* kabilar esa affiksalar antonimiyaga misol bo'la oladi.

Affiksalar morflar o'zakka nisbatan joylashish o'rniga ko'ra uch xil ko'rinida bo'ladi:

1. Old qo'shimchalar (prefekslar). O'zak-negiz oldidan qo'shilishi mumkin

bo'lgan bunday qo'shimchalar, odatda, so'z yasovchi affikslar bo'ladi. O'zbek tilida prefekslar fors-tojik tili va rus tili ta'sirida paydo bo'lgan. [ba-], [bo-], [be-], [no-], [ser-], [bad-], [xush-], [ham-] affikslari fors-tojik tilidan o'zlashgan: *bahaybat, boadab, befarosat, noinsof, serchiqim, badbo'y, xushbichim, hamfikir*. [anti-], [pan-], [ultra-], [eks-] kabilar esa rus tili ta'sirida o'zlashgan affikslardir:

antidemokratik, antifashist, panturkizm, panislomist, ultratovush, ultrabinafsha, ekschampion, eksprezident; безграмотный, безопасно, изнать, починуть, наилучший, перечитать (ruscha); *rewrite, impossible* (inglizcha); *beenden, Vorgang* (nemischa); *combattre, ossasion* (fransuzcha).

2. Infiksalar. Infiksalar morflar o'zakning ichiga joylashgan bo'ladi. Masalan,

gulto'jxo'roz, ishqiboz, undan.

3. Postfiksalar. O'zakdan keyin qo'shiladigan qo'shimchalar ko'pchilik tillarga

xosdir. Chunonchi, *sinf-dosh, paxtadan, oynadek; снутник, бельи* (ruscha); *beautiful, lovely, tables* (inglizcha); *weifheit, Freundschaft* (nemischa).

Bir affiksalar morfemaning turli ko'rinishlari, variantlari allamorflar deyiladi. Jo'nalish kelishigi qo'shimchasi [-ga], uning variantlari [-ka], [-qa], [-ga] allamorflardir yoki sifatdosh shakli qo'shimchasi [-gan], uning variantlari [-kan], [-qan], [-gan] allamorflar hisoblanadi.

Morfemalarni bo'g'inlar bilan aralashtirilmaslik kerak. Birinchidan, morflar tilning eng kichik ma'noli birligi bo'lib, ular hamma vaqt bo'g'inlarga to'g'ri kelavermaydi va bo'g'inlar ham doimo morfemalarga mos bo'lavermaydi. Masalan, o'zbek tilidagi *sharoit* so'zi uch bo'g'indan, lekin bir morfemadan tashkil topgan, *bolam* so'zi esa ikki bo'g'in va ikkita morfemadan tashkil topgan bo'lsa ham, ularning chegarasi bir-biriga to'g'ri kelavermaydi. Fonetik jihatdan *bo-lam* tarzida bo'g'inlarga ajratiladi, morfemalarga esa quyidagicha ajratiladi: *bola-m*. Ba'zi holatlarda morfemalar bo'g'inlarga tasodifan mos kelib qolishi ham ehtimol: *sinf-dosh-lar, gul-lar-ning* kabi.

Ma'lumki, bo'g'in bir yoki bir necha tovush (harf)lardan tarkib topadigan, bir havo zarbi bilan talaffuz etiladigan bo'lakdir. Har bir bo'g'inda bitta unli ishtirok etishi shart. Bo'g'in ma'no anglatilishi ham, anglatmasligi ham mumkin. Morfema esa ma'no (leksik va grammatik ma'no nazarda tutilmoqda) ifodalashi shart. Ularning biri fonetik birlik, ikkinchisi esa morfemikaga xos birlik sifatida farqlanadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. So'z tarkibining tuzilishi haqida ma'lumot bering.
2. O'zak va affiksalar morflarning bog'liq hamda farqli tomonlarini tushuntiring.
3. Lisoniy bosqichdagi affikslarda omonimlik yo'q degan fikrni sharhlang.
4. Bo'g'in va morfemaning farqli jihatlari nimada? Javobingizni tillar doirasida misollar keltirib izohlang.

Asosiy adabiyot:

1. Азизов О. Тилшуносликка кириш. Т., "Ўқитувчи", 1996.
2. Баскаков Н., Содиқов А., Абдуазизов А. Умумий тилшунослик. Т. "Ўқитувчи", 1979.
3. Содиқов А., Абдуазизов А., Ирискулов М. Тилшуносликка кириш. Т., "Ўқитувчи", 1981.

Yordamchi adabiyotlar:

1. Турсунов У. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Т., «Ўқитувчи», 1992.
2. Ғуломов А. ва б. Ўзбек тили морфем луғати. Т., «Ўқитувчи», 1977.

Mavzu: Grammatik ma'no. Umumiy grammatik ma'no (UGM), oraliq grammatik ma'no (OGM) va xususiy grammatik ma'no (XGM). Ularning munosabati. Umumiy ma'noni ochish yo'llari

Reja:

1. Grammatik ma'noning yangicha talqini xususida.
2. Xususiy ma'nolar lisondagi umumiy ma'nolarning tajallisi, voqelanishi, yuzaga chiqishi.
3. Umumiy ma'noni ochish yo'llari (paradigmatik munosabat).

Mavzu bo'yicha tayanch tushuncha:

Grammatika, grammatik ma'no (GM), xususiy grammatik ma'no (XGM), umumiy grammatik ma'no (UGM), oraliq grammatik ma'no (OGM), son shakllarining XGM va UGMlari, UGM ni ochish yo'llari, bo'lunavchan yoki bo'linmaslik tushunchai, aniq miqdor, noaniq miqdor, noaniq miqdoriy ko'rsatkich (NMK).

Grammatik ma'no deganda nima tushuniladi?

Grammatik ma'no deganda har bir tilning qurilish tizimi nutqda ifodalanishini zaruruy va majburiy deb talab etadigan va turli xil shakliy ko'rinishlar bilan beriladigan umumlashgan ma'nolar tushuniladi. Chunonchi, *"Bolalar qiziqarli kitobni o'qiydilar"* gapini olsak, *"Bolalar"* so'zida 2 xil ma'no ajralib turadi:

1) lug'aviy ma'no, ya'ni bu so'zning borliqdagi odam jinsiga mansub bo'lgan, yosh jihatdan voyaga yetmagan shaxsni yoki voyaga yetgan kimsaning farzandi, avlodini atab kelish; 2) ko'plik sonda, bosh kelishikda, gapda ega vazifasida kelgan turdosh ot. Bu ma'nolardan birinchisi lug'aviy, leksik ma'no bo'lsa, ikkinchisi grammatik umumlashgan ma'nodir. Grammatik ma'nolar har bir til uchun shu til uchun o'ziga xos bo'ladi va rang-barang shakliy usullar bilan (biz ularni navbatdagi mavzuda ko'rib o'tamiz) ifodalanadi.

Grammatik ma'noni yangicha talqin qilishda ham til va nutq farqlanishi mezonida yondashiladi. Zohiriy narsa tez - tez yo'qolib, o'zgarib turadi. Lekin u mohiyatning yashash usuli sifatida ahamiyatlidir. Nutq hech qachon til haqida to'liq ma'lumot berolmaydi. Bizning til haqida nutq orqali olgan ma'lumotlarimiz hamisha noto'liq. Nazariyotchi ularni umumlashtirar ekan, til haqida ma'lumotga ega bo'ladi.

Grammatik ma'no (GM)ning an'anaviy talqini nutqiy hodisalarga tayanadigan empirik talqindir. An'anaviy talqindagi /GM/ ni /XGM/ desak to'g'ri bo'ladi.

UGM XGMga qarama-qarshi turadi. UGM XGM orqali voqelanadi. UGM hamma XGMLarni o'z ichiga oladi. UGM va XGMLar haqida gapirishdan oldin, biz umumiylik va xususiylik nima, umumiy va xususiy ma'noning o'zi nimaligi haqida bahs yuritaylik.

Biz ko'ra oladigan, seza oladigan, o'lchay oladigan, kuzata oladigan narsa, belgi, voqea - hodisa xususiylikdir. Masalan; *daraxtni* biz ko'ra olamiz, paypaslaymiz, shoxlari va barglarini, mevasini sanay olamiz. *Daraxtning* moddiylik uning ildizi, tanasi, shox-shabbasida. Har bir *daraxt* takrorlanmas, chunki bir yilda ekilgan 2 ta *olma daraxti* 2 ta alohidalikdir- mevasi, tanasi bir xil bo'lsa-da, barglar miqdori bilan farqlanishi mumkin. Demak, yer yuzida nechta *daraxt* bo'lsa, shuncha xususiy *daraxt* bor. Ularning hisobi nisbiy, chunki sanaguncha nechiasi quriydi, nechiasi yonib ketadi va hokazo...

Bir ashulani san'atkor 2 marta aytar ekan, bu bir emas, ikki xususiylikdir. "*Men ma'ruza o'qiyapman*" gapini 2 marta takrorlasak, bunda ikki xususiylik voqelangan bo'ladi. Chunki bu ikki gap hech bo'lmaganda zamonda farqlanadi.

Umumiylik nima? Xohlagan xususiylikda umumiylikning belgisi yotadi. Minglab daraxtlar uchun (*olma, anjir, chinor... daraxtlari*) umumiy bo'lgan tomon - tanasi, shoxi bor o'simlik. Bizning ongimizda *daraxt* xuddi shu ma'no bilan yashaydi. "Umumiylik - bevosita kuzatishda berilgan alohida xususiyliklardagi belgilarning ongimizdagi obrazi" [1,8;]. Umumiyliklar mayda - chuyda belgilarni o'z ichiga olmaydi, umumiylik xususiyliklarda takrorlanib turadi. Demak, xulosa shuki, xususiylik - takrorlanmas, chegaralangan; umumiylik - takroriy, chegaralanmagan.

Istalgan butunlik shakl va ma'no tomondan iborat bo'ladi. Yana *daraxt* misoliga qaytamiz. *Daraxtning* shakl tomoni bizga ma'lum: qattiq tanali o'simlik.

Daraxt nima uchun kerak?

a) soya soladi;

b) meva beradi;

v) yog'och beradi... Mana shu vazifalar *daraxtning* mazmun tomonidir, ya'ni vazifasi.

Nutqiy hosilalarning mazmuni turli nutqiy sharoitda qanchalik xilma - xil bo'lmasin, ma'lum bir lisoniy umumiylik ma'nosining tajallisidir. Masalan, bir oddiy *piyola* ham ichish quroli, ham o'lchov andazasi, ham aylana chizish mumkin... Lekin *piyolaning* umumiy mazmuni-choy yoki boshqa suyuqlik ichish uchun mo'ljallangan o'zbek milliy ro'zg'or buyumi. Ongimizda *piyola* mana shunday yashaydi. Chunki "nutqdagi xususiy ma'nolar lisonidagi umumiy ma'nolarning tajallisi" [1,11;]. Umumiy ma'no ma'lum bir fonema, morfema, leksemaning paradigmadagi o'rni, mavqidan ochiladi. Masalan, leksemalardagi umumiy ma'no shu leksemaning o'zi munosabatdosh bo'lgan leksemalar qatoridan anglashiladi. "*Ota*" leksemasi ongimizda quyidagi paradigmada yashaydi va UGMsi o'shandan ochiladi:

/bobo/ : /buvi/

/ona/ : /ota/

:

/bola/

:

/nevara/ :

Ushbu paradigmadan "*ota*" so'zining UGMsi kelib chiqadi: birinchi avlod, bevosita qon-qarindosh, katta, erkak. Leksemalardagi UGM s e m e m a deyiladi. Demak, umumiylikning mohiyati ma'lum bir umumiylikni o'ziga o'xshash va farqli umumiyliklar bilan munosabatidagina ochilishi mumkin.

Sh. Shahobiddinova ishida XGM va UGMlar atrofiga talqin qilingan. Jumladan, son kategoriyasi shakllarining XGM va UGMlari.

[-lar] ning XGMlari:

a) ko'plik - *Unda shirin - shirin bananlar bor* (Sh. Yul.);

b) jamlik - *ishchilar sinfi - ishchi sinfi*;

d) bog'liqlik va o'xshashlik - *Avvalgi sarvigullar o'qishni tugatishdi* (Sh. Yul.);

e) taxmin - *Soat beshlarda keldi*;

f) kuchaytirilgan ma'no - *Tillarimga ko'cholmaydi bo'g'zimdagi azobim...* (U. Azimov).

[o] shakl XGM lari:

a) jamlik - *Gadoning dushmani gado bo'ladi* (A.O.);

b) ko'plik - *Majlisga yigirma kishi keldi* (aniq ko'plik); *U qishloqda uch - to'rt kun qoldi* (noaniq ko'plik);

d) birlik ifodalash - bunda ko'rsatish olmoshlari, "*bir*" so'zi ko'proq ishtirok etadi: *Ushbu yodgorlikka murojaat qilar ekanman, mening maqsadim bitta...* (O. Matjon).

Demak, son kategoriyasi shakllari uchun quyidagi UGMlarni ko'rsatish mumkin: [-lar] UGMsi—bo'linuvchan/ bo'linmas sifat va noaniq miqdor ifodalash. [o] UGMsi — bo'linmas va aniq/ noaniq miqdor ifodalash.

Bo'linuvchanlik/ bo'linmaslik deganda, quyidagini tushunish kerak: har bir xususiylik alohidalik ekanligini ko'rib o'tdik. "*Qovunlar*" degan so'zshakli bir necha qovunlarni atab keladi. "*Qovunlar*" so'zshakli bir to'plamni ifodalaydi va u bir necha alohidaliklarga bo'linadi. "*Ahmadlar*" deganda *Ahmad* va *unu*ing o'rtoqlari, oilasi... tushuniladi. Ya'ni *Ahmadlar* bir to'plamni ifodalaydi va bu to'plam bo'linuvchan. "*Suvlarni stolga qo'ydi*" deganda kola, mineral suvlari... tushuniladi. "*Toshkentlarni kezib chiqdi*" so'zshakli Toshkentni bo'lib beryapti, tumanlari hisobga olingan. "*Tillarimga ko'cholmaydi bo'g'zimdagi azobim*" misrasida til, gap, so'z, og'iz ajratib berilgan. Shuning uchun "*ishchi sinfi*" va "*ishchilar sinfi*"; "*o'qituvchi odati*" va "*o'qituvchilar odati*" kabi so'z birikmalarida birlik va ko'plik son ma'nolari yaqinlashsa ham, orasida nozik farq bor. "*Ishchilar*"da sifatli bo'linuvchanlik sezilib turadi. Birlik sonda yaxlitlik ma'nosi ko'proqdir. Demak, bir jihatdan birlik va ko'plik son ko'plik sonning bo'linuvchanlikni ta'kidlashi, birlik sonning esa yaxlitlikni ko'rsatishi bilan qarama-qarshi turadi. Miqdoriy jihatdan esa birlik son birlik, aniq/noaniq miqdorni ifodalay olishi bilan hamisha noaniq miqdoriy ko'plikni ifodalovchi ko'plik son shakliga qarama - qarshi turadi. Shuning uchun "*Bu kitobni ol*", "*Stol ustida*

to'rt kitob bor", "Kitob - bilim manbai" gaplarida 3 xil ma'no voqelangan: *Kitoblar* so'zshakli hech qachon aniq miqdorni ifodalay olmaydi. Quyidagi gaplarni qiyoslang:

Uch kun (uch kunlar)dan keyin keldi;

O'ninchi yil (yillar)da tug'ildi.

Shuning uchun birlik sonning umumiy grammatik ma'nosi quyidagicha ko'rsatilishi mumkin: birlik — aniq yo noaniq miqdorni bo'linuvchan/bo'inmas

ma'noda berish. Ko'plik sonning ma'nosi — noaniq miqdoriy ko'plikni bo'linuvchan sifatda berish. Mana shu umumiy grammatik ma'nolar bilan birlik va ko'plik morfologik son shakllari til tizimida, ongimizda yashaydi. Bu umumiy ma'nolar nutqda muayyan moddiy shakllarda cheksiz rang-baranglikda voqelanganadi.

Ko'rib o'tdikki, *daraxt* umumiylik o'ta sodda va u "o'simlik + tana + shox"dan iborat, xolos. Lekin borliqdagi milliard *daraxt* behad rang - barang. Xuddi shunday ko'plik sonning ma'nosi "miqdoriy noaniq ko'plik + sifatiy bo'linuvchanlik" kabi soddadir. Nutqda esa u milliard xususiy ko'rinishlarda voqelanganadi. Birlik sonining ma'nosi "miqdoriy aniq/noaniq ko'plik + sifatiy bo'linmas" kabi. Lekin yuqorida ko'rsatilgan UGM nutqda XGM sifatida voqelanar ekan, u umumiylik bilan xususiylik orasida oraliq ma'nolar yotadi. Oraliq ma'nolar xususiy ma'nolar uchun ma'no tiplari, ya'ni "o'xshash ma'nolar majmuasi", UGM uchun esa "umumiylikning ko'rinishlari", turlari mavqeida bo'ladi. Chunonchi, birlik sonning UGMsi "aniq / noaniq va birlik" kabi ma'nolarni o'z ichiga oladi. Va UGM XGM sifatida voqelanguvcha yuqorida ko'rsatilgan aniqlik, noaniqlik, birlik kabi uch OGM ma'noning biridan o'tadi. Chunonchi,



OGM hamisha so'zning lug'aviy ma'nosi, matn, qurshov bilan aloqador bo'ladi. Chunonchi, [-lar] ko'plik sonning umumiy ma'nosi -"sifatiy bo'linuvchan, miqdoriy noaniq ko'plik" UGMsi bir necha OGMga ega. Bulardan asosiylari:

1. Bir yoki turli jinsdagi predmetlarning NMK(noaniq miqdoriy ko'rsatkichi)ni ifodalash (*kitoblar, odamlar...*);
2. O'lchanmas moddalarni alohidaliklarga ajratib noaniq miqdoriy ko'plikni ko'rsatish (*Toshkent suvlari...*);
3. Turli tur va jinslardan iborat NMKni ko'rsatish (*yog'lar-sariq yog', paxta yog'i; ichimliklar-aroq, mineral suv, kola*);
4. Narsani yondoshlari bilan birgalikda NMK sifatida ifodalash (*Ahmadlar keldi; Toshkentlarni aylandik.*);
5. Taxmin ifodalash: *70- yillar*;

6. Bo'linmasni bo'linuvchan etib ko'rsatib, ekspressiv ma'no berish (*Yuraklarimga to'kildi*). Mana shunday har bir morfologik shaklda XGM, OGM va UGMlar mavjud bo'ladi. Siz 1940-80-yillarda nashr etilgan darsliklarda tanishgan grammatik shakllarning ma'nolari asosan XGM va OGMlardir. UGMlarni ochish bosqichiga o'zbek tilshunosligi endi ko'tarilmoqda. Jumladan, ushbu mavzular mana shu UGMlarni ochishga bo'lgan ilk qadamlardan biridir.

Shunday xulosaga kelish mumkinki, UGM til birligining minglab turli xil matnlarda yuzaga chiqadigan va bevosita kuzatishda berilgan xususiy grammatik ma'nolari (XGM)ning umumiy yig'indisi emas, XGMlar negizida yotgan, XGMlarga nisbatan umumiylik vazifasini o'taydigan ma'nodir.

XGMlar bilan UGMlar orasidagi munosabat bilvositadir. Bu ikki bo'g'inni bog'lovchi ma'no tipi — bu OGMdir.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriq:

1. Grammatik ma'no nima ?
2. Grammatik ma'noning formal talqini nimadan iborat?
3. Xususiy grammatik ma'no (XGM) nima?
4. Umumiy grammatik ma'no (UGM) nima?
5. Son kategoriyasi shakllarining XGM va UGMlari haqida nima bilasiz?
6. [-lar] ning XGMlarini sanang.
7. [o] shakning XGMlarini sanang.
8. [-lar] va [o] shakning UGMlarini nima tashkil etadi?
9. Oraliq grammatik ma'no (OGM) nima? Misollar keltiring.

Asosiy adabiyot:

1. Азизов О. Тилшуносликка кириш. Т., “Ўқитувчи”, 1996.
2. Баскаков Н., Содиқов А., Абдуазизов А. Умумий тилшунослик. Т. “Ўқитувчи”, 1979.
3. Содиқов А., Абдуазизов А., Ирискулов М. Тилшуносликка кириш. Т., “Ўқитувчи”, 1981.

Yordamchi adabiyot:

1. Шаҳобиддинова Ш. Ўзбек тили морфологияси умумийлик ва хусусийлик диалектикаси талкинида. I-II-жузв. Андижон, 1994 йил.

2. Шаҳобиддинова Ш. Грамматик маъно талкини хусусида. НДА, Самарқанд, 1993 йил.

Mavzu: Grammatik ma'no ifodalash usullari. Grammatik shakl turlari

Reja:

1. Grammatik ma'no — grammatik munosabat ifodalaydigan umumiy ma'no.
2. Grammatik ma'no ifodalovchi vositalar haqida.
3. Umumiy xulosalar.

Mavzu bo'yicha tayanch tushuncha:

Grammatik ma'no, grammatik shakl, grammatik ma'no ifodalovchi usullar, suppletivizm, ichki fleksiya, grammatik ma'noning turli usullar bilan ifodalanishi, bir grammatik shaklning polifunksionalligi.

Grammatik ma'no, grammatik shakl va grammatik kategoriya grammatikaning eng muhim tushunchaidir va bular o'zaro uzviy bog'langan. Grammatik ma'no tilda rang-barang usullar bilan ifodalanadi. Dastlab, grammatik ma'no to'g'risida mufassal to'xtaylik. Grammatik ma'noning tashuvchisi va ifodalovchisi grammatik shakl sanaladi. Tabiatan agglutinativ va sintetik bo'lgan o'zbek tilida qo'shimchalardan aloqa - munosabat qo'shimchalari va lug'aviy shakl hosil qiluvchi qo'shimchalar, asosan, grammatik ma'no ifodalaydi. Masalan, *kitobi* so'zshakliga e'tibor bersak. Bu shakldagi [-i] qo'shimchasi kitobning qandaydir uchinchi bir shaxsga tegishlilikni ifodalasa, "*O'tgan kunlar kitobi*" birikmasida tur va jins nomini o'zaro bog'lab birikma hosil qilyapti. Shu ma'nolar [-i] qo'shimchasida mujassamlangan va shu ma'no ushbu affiks morfema orqali yuzaga chiqmoqda. Kelishik qo'shimchalari grammatik ma'no ifodalaydi. Masalan, "*Javondagi kitoblardan oldi*" gapida [-dan] qo'shimchasi ma'lum bir manbadan biror narsa ajralayotganini ifodalasa, "*Vijdondan qo'rqing*" gapida [-dan] vijdon va "*qo'rqmoq*" so'zlarini bir-biriga bog'lashga xizmat qilyapti, "*Anvar uydan chiqdi*" gapida esa Anvar degan shaxsning chiqish joyini ko'rsatmoqda. Yuqorida keltirgan misollarimizdan shunday xulosaga kelish mumkinki, grammatik ma'no lisoniy va nolisoniy munosabatlarning muayyan shakl(qolip) da mujassamlangan mavhum inikosidir. Chunki, yuqoridagi *kitobi* so'zidagi [-i] qo'shimchasida, "*Javondagi kitoblardan oldi*" gapidagi [-dan] qo'shimchasida nolisoniy munosabat yotsa, "*O'tgan kunlar kitobi*" birikmasidagi [-i] va "*Vijdondan qo'rqing*" gapidagi [-dan] qo'shimchalarida sof lisoniy munosabat mujassamlangan. Shuning uchun grammatik ma'no tarkiban murakkab bo'lib, lisoniy va nolisoniy munosabatlar inikosining birikishidan iboratdir.

Fe'l zamonlari ham grammatik ma'no ifodalaydi. Bu zamonlar faqat nutqdagi, matndagi so'zlarning qaysi zamonga oid ekanligini ko'rsatish bilan chegaralanmay, balki tashqi dunyoda sodir bo'ladigan voqea va hodisalarning qachon bo'lib o'tganini, ya'ni aynan gapirilayotgan vaqtda yoki gapirilayotgan vaqtdan oldin yo keyin sodir bo'layotganligini ifodalash uchun ham xizmat qiladi: *Lola o'qidi; Lola o'qiydi; Lola o'qiyotir; Лoлa пpoчитaлa; Лoлa читaeм...*

Sifat darajalari ham grammatik ma'no anglatadi. Ular narsa, predmet, hodisalarning borliqdagi nisbiy farqini aks ettiradi: *tor/ torroq /eng tor; go'zal/ go'zalroq/ eng go'zal; красивый-красивее-самый красивый.*

Mana shunday ma'lum bir shaklda mujassamlangan va tilda ifodalanishi zarur bo'lgan umumlashgan, lug'aviy ma'no ustidagi ustama ma'no — **grammatik ma'no** sanaladi. Grammatik ma'no aytib o'tganimizdek, rang-barang usullar bilan ifodalanadi. Grammatik ma'nolar quyidagi usullar bilan ifodalanadi:

1. Affiksatsiya.
2. Yordamchi so'zlar.
3. So'z tartibi.
4. Takror.
5. Ohang.
6. So'zlarni juftlash.
7. Ichki fleksiya.
8. Urg'u.
9. Suppletivizm.

1. **Affiksatsiya** tilimizda grammatik ma'noni ifodalashning eng keng tarqalgan usuli bo'lib, tilimizga xos bo'lgan grammatik ma'nolarning deyarli barchasi son, egalik, kelishik, hurmat, shaxsiy munosabat, belgi darajasi, harakat, nisbat, tarz (harakatning sodir usuli), bo'lishli-bo'lishsizlik (tasdiq-inkor), mayl- zamon, shaxs-son affiks - qo'shimchalar yordamida ifodalanadi. O'zbek tilida, asosan, suffiksalar, ya'ni o'zak yoki asosdan keyin qo'shiladigan qo'shimchalar ishlatiladi. Tilmizda eroniy tillardan kirgan bir qator [be-], [bo-], [ser-], [no-], [ba-] kabi prefiksalar — o'zak va asosdan oldin keladigan qo'shimchalar ham o'zlashib qolgan. Lug'aviy shakl va aloqa - munosabat qo'shimchalari vositasida yasaladigan shakllar tilshunoslikda s i n t e t i k shakllar deb aytiladi. Chunonchi, *kitoblar, akamga, uylarimizda, kelmasaydingiz, yaxshiroq, o'nta* kabi shakllar sintetik shakl sanaladi. O'zbek tilida kelishik shakllari standart holda(tushum kelishigi faqat — ni orqali ifodalanadi) bo'lsa, rus tilida kelishik ma'nosi turli shakllar orqali ifodalanadi. Qaratqich kelishigining birlik ma'nosi: **а** (окна), **и** (тетради), **я** (коня) va **h**.

2. **Yordamchi** so'zlar. Bular ham grammatik ma'no ifoda qilish uchun qo'llaniladi. Ko'makchilar ot, ma'nosi toraygan so'zlar bilan birga kelib, o'zi aloqador bo'lgan so'zni boshqa so'z bilan munosabatga kiritadi: *Biz kelajakka ishonch bilan qaraymiz* (A.Q.) - holat ma'nosi voqelangan; *Telefon orqali gaplashdim* —vosita ma'nosi voqelangan; *Do'stlik biz uchun hamisha ilhom va kuch-quvvat manbai bo'lib kelgan* (O'.U.) — atalganlik ma'nosi voqelangan. O'zbek tilida yordamchi so'zlar juda katta guruhni tashkil etadi, ko'makchi, bog'lovchi va yuklamalarning yarim bog'lovchi, yarim ko'makchi, yarim yuklama kabi turlari mavjud bo'lib, bunday so'zlar ham mustaqil, ham yordamchi ma'noga ega. Chunonchi, *Ishning boshida Abdurahim turar edi*.

Yordamchi so'zlar sifatida o'zbek tilida *juda, eng, bag'oyat, nihoyatda, o'ta, sal, birmuncha* kabi ravishlar ham, *olmoq, bermoq, qolmoq, o'tirmoq, chiqmoq, ketmoq, boshlamoq, bo'lmoq* kabi 40 dan ortiq fe'llar ham keng qo'llaniladi. Yordamchi so'zlar

vositasida yasalgan shakllar *analitik* shakllar deb ataladi. Tilimizda juda ko'p holatlarda ayni bir grammatik ma'no sintetik shakl bilan ham, analitik shakl bilan ham ifodalanishi mumkin. Chunonchi, *Kitobni akamga (akam uchun /akamga deb / akamga atab/ akamga mo'ljallab/...) oldim*. Ingliz tilida *the* va *a (n)*, fransuz tilida *le, un, nemis* tilida *der, das* kabi artiklar grammatik ma'no ifodalaydi. Masalan, *the table* ingliz tilida aniqlik grammatik ma'nosini ifodalayapti. Rus tilida *е, на, под* kabi predloglar turli ma'nolarni ifodalaydi.

3. Takror (reduplikatsiya)- bir so'zni aynan ikki marta takrorlash sanalib, bunda ham turli grammatik ma'nolar hosil qilinadi: predmetning ko'pligi, belgining oshirilishi, ma'noning kuchayishi, harakatning takrorlanishi hamda uzoq davom etishi va boshqalar. Chunonchi, *etak-etak paxta* — miqdoriy ko'plik; *ayta- ayta charchamoq* — harakat davomiyligi.

Grammatik vosita sifatida takror malay (indoneziya tili), hind, xitoy singari tillarda ishlatiladi. Masalan: xitoy tilida *син* — yulduz, *син-син* — yulduzlar; hind tilida *бхай* — birodar, *бхай-бхай* — birodarlar; malay tilida *orang* — kishi, *orang-orang* - kishilar. Tilimizda bu usulning to'liq takror (*etak- etak paxta*) va qisman takror (*qip - qizil, ko'm- ko'k, yam - yashil*) va tilimizgagina xos bo'lib, fanda "sadodosh takror" (сново-эхо) deb atalgan ko'rinishi ham keng tarqalgan (*mayda- chuyda, she'r-pe'r, kitob -mitob, ko'k- mo'k, qizil- pizil*).

4. So'z tartibi - grammatik ma'no anglatishning yana bir vositasi. So'zlarning gapda ma'lum tartibda oldinma-keyin joylashtirilishi ham grammatik ma'no ifodalash uchun xizmat qiladi. Tilimizda ba'zan shu vosita orqali so'zning qaysi kelishikda ekanligi aniqlanishi mumkin. Masalan, bunday holatlar xususan poetik nutqda keng uchraydi. So'z tartibi so'z birikmalari hosil qilishda yetakchi omillardan biri sanaladi. Chunonchi, *keng dalalar* (so'z birikmasi) - *Dalalar keng* (gap). So'z tartibi grammatik omili nutqda hamisha ohang bilan birga ish ko'radi. Shuning uchun yuqoridagi hosilalarning ohangi bir-biridan tubdan farq qiladi. Chunonchi, *bir, ikki kitob- bir- ikki kitob* birikmalarining ohangi har xildir. So'z tartibi xitoy-tibet tillari oilasiga kiruvchi tillar uchun juda muhimdir. Bu usul ingliz, fransuz tillarida so'zlarning gapdagi vazifalarini, turkumini ko'rsatadi.

5. Ohang ham grammatik ma'no ifodalashga xizmat qiladi. Bu vosita yordamida

a) gapning turini ajratish mumkin: *Imtihon topshirdi. Imtihon topshirdi? Imtihon topshirdi!*

b) gap bo'laklarini ajratish mumkin: *Gulnora, singlim keldi. Gulnora, singlim keldi! Gulnora singlim keldi.* Birinchi gapda "Gulnora" va "singlim" so'zlari uyushib kelgan bo'lsa, ikkinchi gapda "Gulnora" so'zi undalma vazifasida kelgan, uchinchi gapda esa *ism* ma'nosida kelgan. Ohangning so'z tartibi, so'zlarni bir-biriga bog'lash bilan uzviy aloqadorlikda voqelanishini takroran eslatib o'tish joiz. Yuqoridagilar buning yorqin dalilidir.

6. Juftlash har xil so'zlarni — ma'nodoshlarni (*baxt-saodat*), zid ma'nolilarni (*yaxshi-yomon*), giponimlarni ulov-*(ot-eshak)*, darajalanuvchilarni (*qo'y-qo'zi*), umumiste'mol arxaizmlarni (*bola- chaqa, cho'pon- cho'liq*) — o'zaro qo'shish orqali har xil grammatik ma'nolarni ifodalash ham tilimizda anchagina.

Yuqorida sanalgan olti usul tilimizning ichki qurilishiga xos bo'lgan grammatik ma'nolarni ifodalashning yetakchi usulidir. Bundan tashqari tillarda ichki fleksiya, suppletivizm kabi vositalar ham mavjud. Ichki fleksiya turli Grammatik ma'nolarni ifodalash uchun so'z tarkibidagi tovushlarning o'zgarishidir. Bu vosita hind — yevropa va semit tillarida keng qo'llaniladi. Masalan: ingliz tilida: *see-saw-seen*; nemis tilida *fahren* — fuhr. O'zbek tilida juda kam qo'llaniladigan suppletivizmlar, chunonchi, (*men -biz, sen -siz*; eski o'zbek tilida *u- alar, anga, anda, ani, aning*), arabcha so'zlar orqali o'zlashgan ichki fleksiya usullari mavjud:

Kitob - kutubxona

xabar - axbor

fikr - afkor

ilm - ulum

taraf - atrof va boshqalar.

7. Urg'u. Dynyo tillarining barchasida grammatik ma'nolarning ifodalanishida urg'u ham ajratiladi. Tilshunosligimizda ham urg'uni shunday vosita sifatida ajratib kelganlar va

tugma (ot) -*tugma* (fe'l)

yozma (sifat) - *yozma* (fe'l)

studentsiz (sifat) - *studentsiz* (kesim)

ximik (sifat) - *ximik* (ot) kabi so'zlarning o'zaro farqlanishini urg'uning turli xil o'rni bilan bog'laganlar. Lekin urg'uning o'zbek tilida ma'no farqlash vazifasi munozaralidir. Urg'uning ma'no farqlash vazifasi tilimizda rus tilidan ko'chirilgan hodisadir. Chunki "*Tugmang tushdi*" va "*Belbog'ni tugmang*" gaplaridagi "*tugma*" so'zida urg'u har ikki holatda ham "*a*" tovushiga tushadi.

Hozirgi tilshunoslikda grammatik ma'noni alohida til hodisasi sifatida o'rganish endi boshlandi. Shu kungacha grammatik ma'no grammatik shaklning bir tomoni sifatida o'rganilib kelindi. Grammatik ma'noni ifodalashning rang - barang usullarini ko'rib o'tgach, biz ayta olamizki, ayni bir grammatik ma'no xilma-xil vositalar bilan ifodalanishi mumkin. Chunonchi, son ma'nosi o'zbek tilida affiksatsiya *Øl-lar*, ya'ni birlik/ko'plik son shakllari paradigmasi doirasida ko'rib chiqilgan. Son shakllarining ma'nosi deganda mana shu ikki morfema nazarda tutilgan. Tilimizda son ma'nosining ifodalanishi yana boshqa vositalar orqali ro'yobga chiqadi. Chunonchi, ko'plik ma'nosi takror, juft so'zlar bilan ham, birlik ma'nosi juz'iy reduplikatsiya (takror) yoki so'z- so'zsimon (*kitob - mitob, non - pon, meva - cheva*) bilan ham ifodalanishi mumkin.

Hozirgi fanimizda son ma'nolarining o'xshashlik va farqli tomonlari, shuningdek, "*Kitobni akam uchun oldim*" va "*Kitobni akamga deb/ atab oldim*" kabi hosilalar orasidagi ma'no farqlari deyarli o'rganilmagan. Ya'ni ayni bir ma'noni turli xil vositalar bilan ifodalash yo'llari fanimizning o'rganilmagan muammolari sirasiga kiradi. Bularni tadqiq qilish bugungi kunning vazifasidir. Quyida shunday izlanishlardan namuna keltiramiz.

Aslida, gnoseologik (bilish) nuqtai nazardan materiyaning yashash shakli, hodisalarning izchil almashtirish tarzi sifatida tadqiq qilinadigan zamon (payt) ma'nosining lisoniy tizimda voqelashish hodisasi tilning bu kategoriyani yuzaga chiqarish imkoniyatlari keng, rang-barang ekanligini dalillaydi. Bu tillararo xususiyatlarni, xususan, ingliz va o'zbek tillaridagi payt ma'nosini ifodalashning lisoniy vositalarini tekshirganda yanada yaqqol ko'rinadi. Zamon (vaqt, payt) tushunchasini payt grammatik ma'nosi, mazkur kategoriyani yuzaga chiqaruvchi usul va vositalarni esa payt ma'nosini ifodalovchi grammatik vositalar deb hisoblaymiz. Ingliz va o'zbek tillarida payt

ma'nosini ifodalash lisoniy hodisasidagi tillararo uyg'un, o'xshash xususiyatlarni- umumiy (integral) belgilar, o'ziga xos xususiyatlarini esa farqlovchi (differensial, oppozitsion, zid) belgilar sifatida tekshiramiz. Payt ma'nosining qiyoslanayotgan tillarda yuzaga chiqish imkoniyatlarini quyidagi jadvalda umumlashtirishga harakat qilamiz:

Payt ma'nosining ingliz va o'zbek tillari tizimida voqelanishi

So'z turkumlari		o'zbek tilida	ingliz tilida	
turkumlari	fe'llar	Hoz.zamon: yozaman, yozmoqdaman. O'tgan zamon: yozdim, yozgan edim. Kelasi zamon: yozaman, yozmoqchiman.	Pres.: I write. I am writing. Past: I wrote. I had written. Future: I'll write.	
	Otlar	Kun, kecha, kunduz, yil, sutka, fasl, sahar, asr, namozshom, oqshom, erta, peshin, tong, nahor, indin, bugun.	Evening, day, night, centure, afternoon, morning, year, season, era, future, dawn, old (yosh);	
Mustaqil so'z	Sifat	Tonggi, kuzgi, qishki, bahorgi, tunggi, sirtqi, kunduzgi, kechki;	Fast, early, late, slow, short (day), long (night);	
	Son	Soat 7da uyg'ondi. Mustaqilligimizga 13yil to'ldi.	He came at 6 o'clock. Our republik was independent in 1991.	
	Ravish	Endi, hali, boya, doim, saharlab, ertalab, mudom, faqat;	Never, ever, usually, often, ago, yet, now, then, nowadays, lately, after, before, untill, forever, always, meanwile, recently;	
	Olmosh	Shu-shu (Shu-shu Fotima kelmay qo'ydi); so'roq olmoshlari: qachon? qachondan buyon? qachongacha?	When?	
Yordamchi so'z turkumlari	ko'makchi	Sayin, sari (Ko'rgan sari ko'rging kelaveradi); Yarim ko'makchi so'z: avval, keyin, so'ng;-gacha (qo'shimchasimon ko'makchi); qadar (sof ko'makchi); bilan (Qo'ng'iroq chalinishi bilan darsga kirdim);	Conjunctions	...as soon as.....as long as ..., since, before, after, until, while;
	bog'lovchi	Dam...dam,...ba'zan...ba'zan, goh...goh;		
	yuqoridagi klama	Toki, -u, -yu (Qo'ng'iroq chalindi-yu, dars boshlandi).	Predlogs	At night, on November, in 1991, in the morning, during the lesson; By four o'clock, from 5 till 6;
ya	Affiksatsiya	-da (o'rin payt): peshinda,-dan (chiqish): peshindan,-ga (jo'nalish): peshinga qarab;		

Ko'rinadiki, har bir tilning grammatik ma'no ifodalash usul va vositalari farq qilgani hamda har bir til o'ziga xos ichki grammatik qurilishga ega bo'lganidek, o'zbek va ingliz tillarida payt grammatik ma'nosini yuzaga chiqarish imkoniyatlari benihoya keng va o'ziga xos, farqlidir.

Qiyoslanayotgan tillar tizimida (morfologik sathda) zamon tushunchasini ifodalovchi umumiy imkoniyatlarni – ot, sifat, son, ravish va fe'l turkumlari misolida kuzatish mumkin. Demak, o'zbek tilidagi zamon otlari ingliz tilida vaqt munosabatini anglatuvchi otlarga,

payt mazmunini bildiruvchi sifat va ravishlar ma'lum jihatdan qiyoslangan til turkumlari xususiyatlariga o'xshab ketadi. Biroq o'zbek morfologiyasida ravishlar mustaqil ma'noli o'zgarmas so'zlar bo'lsa, ingliz tilida sof ravishlardan tashqari yasama ravishlar hosil qilinishi mumkin (late- sifat, lately-ravish). Shuningdek, differensial belgilarni yana zamon kategoriyasini ifodalaydigan fe'llar orqali aniqlash muhimdir: payt ma'nosini o'zbek tilidagi fe'llar zamon qo'shimchalari orqali (sintetik usulda) ifodalasa, ingliz tili fe'llari analitik tillarga xos bo'lgan ichki fleksiya, suppletivizm orqali yuzaga chiqaradi.

O'zbek tili yordamchi so'zlar va kelishiklar vositasida ham payt ma'nosini lisoniy ifodalashda keng imkoniyatlarga ega. Ingliz tilida esa bu vazifani predloglar o'z zimmasiga olgan (ingliz tilida predloglar kelishiklar vazifasini bajarishini esga oling). Mazkur jihatlar ham tillararo farqli tomonlarni ko'rsatib turibdi.

Shunday qilib, zamon tushunchasini ifodalash imkoniyatlari tipologiyasi har bir tilning o'ziga xos sifatlarini namoyon etadi. Haqiqatan ham, til murakkab tizim bo'lib, inson tafakkuri shakllari, tushunchaini izchil jilolantirishga qodir serqirra hodisadir.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Ichki fleksiya nima? Uning tovushi almashinuvidan farqli tomonlarini izohlang.
2. Yordamchi so'zlarni qo'shimchalar bilan nimalar yaqinlashtiradi va ajratadi? Ular qanday grammatik ma'nolarni ifodalaydi?
3. Grammatik ma'no ifodalovchi vositalarni tillarda tarqalganlik doirasiga ko'ra joylashtiring. Sabablarini tushuntiring.
4. Quyidagi badiiy parchada grammatik ma'no ifodalashning qanday usullari ifodalangan? Parchani rus va ingliz tiliga tarjima qiling. Grammatik ma'no ifodalash vositalarini solishtiring.

Yalpiz xushbo'y o'simlikdir. Bu ajoyib o'simlikning O'zbekistonda bir qancha xillari bor. Yalpiz ziravor va dorivor o'simlik sifatida qadimdan ma'lum. Erta bahorda endigina ko'karib chiqqan yalpizni terib somsa yopishadi, chuchvara tayyorlashadi. Barra barglari taomlarga solinadi. Yalpiz organik moddalar, mineral tuzlar va efir moyiga boy o'simlikdir. Undan parfyumeriya sanoatida, tish pastasi va kukunlar ishlab chiqarishda foydalaniladi. Yalpiz oziq-ovqat sanoatida ham ishlatiladi.

Asosiy adabiyot:

1. Азизов О. Тилшуносликка кириш. Т., “Ўқитувчи”, 1996.
2. Баскаков Н., Содиқов А., Абдуазизов А. Умумий тилшунослик. Т. “Ўқитувчи”, 1979.
3. Содиқов А., Абдуазизов А., Ирискулов М. Тилшуносликка кириш. Т., “Ўқитувчи”, 1981.

Yordamchi adabiyot:

1. Содиқов А. ва б. Тилшуносликка кириш. Т., «Ўқитувчи», 1981.
2. Шаҳобиддинова Ш. Ўзбек тили морфологияси умумийлик ва хусусийлик диалектикаси талқинида. II жузв. Андижон, 1994.

Mavzu: So'z turkumlari tasnifi. So'zning serqirraligi va tasniflarning xilma-xilligi

Reja:

1. Tasnif omillari. Tasnifning mantiqiyliги va uzluksizliги.
2. Leksemalarning ma'noviy tasnifi.
3. Leksemalarning morfologik tasnifi.
4. Leksemalarning sintaktik tasnifi.
5. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida so'z turkumlari va ularning tasnifi.

Mavzu bo'yicha tayanch tushuncha:

Leksemalarning serqirraligi, tasnif va uning mantiqiyliги, mustaqil ma'noli so'zlar, bo'sh ishora ma'noli so'zlar, yordamchi ma'noli so'zlar, o'zgaruvchi leksemalar, o'zgarmas leksemalar, so'z - gaplar, muchalanuvchilik (gap bo'lagi bo'lib kelishi), sonlanish, darajalanish, tartiblanish, ajraluvchilik (gap bo'laklari bilan munosabatga kirishmaslik), sintaktik aloqa vositasi.

Biz oldingi mavzuda tasnifning mohiyati nimada ekanliги, uning xususiyati haqida bir oz to'xtalib o'tgan edik. So'zlarning tasnifini berishda leksemaning serqirraligi mohiyati hamma vaqt diqqat markazida bo'lishi kerak. Leksemaning har bir qirrasini bir tasnifni yuzaga keltiradi. Chunonchi:

1. Bo'g'in soniga ko'ra: bir bo'g'inli, ko'p bo'g'inli.
2. Fonemalar miqdoriga ko'ra: bir fonemali, ikki fonemali, uch fonemali...
3. Fonemalarni ifodalovchi harflarning tartibiga ko'ra.
4. Tub-yasamaligiga ko'ra: tub va yasama.
5. Yasalish tipiga ko'ra: diaxronik va sinxronik.
6. Tuzilishiga ko'ra: sodda, qo'shma, juft, takroriy.
7. Shakl va ma'no munosabatiga ko'ra: ma'nodosh, shakldosh, qarama-

qarshi ma'noli so'zlar va paronimlar.

8. Qo'llanishiga ko'ra: aktiv va passiv.

9. Onomasiologik - nominatsion xususiyatlariga ko'ra; antroponim, toponim, zoonim...

10. Vazifaviy - uslubiy xususiyatlariga ko'ra: kitobiy, rasmiy, so'zlashuv.

11. Lug'at tarkibidagi qatlamiga ko'ra: o'z va o'zlashgan qatlam, chegaralangan va chegaralanmagan qatlam.

12. Emotsional - ekspressiv jihatiga ko'ra: emotsional - ekspressiv bo'yoqdor va bo'yoqsiz so'zlar.

13. So'zning ifodalaydigan kategorial umumiy ma'nosiga ko'ra: narsa, buyum, shaxs, mavjudotlarni atovchi so'zlar; belgi, xususiyat, munosabat ifodalovchi so'zlar; harakat-holat ma'nosini bildiruvchi so'zlar; o'rin-payt, tarz-tus ma'nosini ifodalovchi so'zlar va h.k. Demak, so'zlarga berilgan xilma-xil tasnifning mavjudligi ularning serqirraligidan dalolat beradi. Har xil tasnifning har biri o'z o'rnida ahamiyatlidir. So'z va uni tasniflash asoslari tilshunos I. Madrahimov tomonidan o'rganilib, uning ma'noviy, sintaktik, morfologik guruhlanishi asoslab berilgan.

So'zlar **ma'noviy belgisiga** ko'ra quyidagicha turkumlanadi:

1. Mustaqil ma'noli so'zlar:

a) mavjudotlarni atovchi so'zlar - otlar;

b) belgi - xususiyatni atovchi so'zlar - sifatlar;

d) harakat - holat ifodalovchi so'zlar - fe'llar;

e) miqdorni ifodalovchi so'zlar - sonlar;

f) o'rin - payt, tarz - tusni ifodalovchi so'zlar - ravishlar;

g) taqlidni ifodalovchi so'zlar - taqlidiy so'zlar.

2. Bo'sh-ishora ma'noli so'zlar - olmoshlar.

3. Yordamchi ma'noli so'zlar: ko'makchi, bog'lovchi, yuklama, ko'makchi fe'llar. So'zlarning mustaqil va yordamchi tiplarga ajralishi ularning mustaqil holda ma'no ifodalay olish qobiliyatiga ko'ra belgilanadi.

O'zbek tilshunosligida olmoshlarning doirasi va vazifasi zo'rma-zo'rakilik bilan cheklantirilib, "ot, sifat, son o'rnida qo'llanuvchi so'zlar" sifatida tor doirada tushinilgan edi. Bu o'rinda olmoshning nafaqat ot, sifat, son o'rnida, balki fe'l, ravish, taqlidiy so'z, undov gap, hattoki matnni almashtira olish, ularga ishora etish xususiyati hisobga olinmagan. Olmoshlar sinfiga:

- *men, sen, biz, siz, ular* kabi shaxsga;

- *kim, nima, ana, mana, bu* kabi predmetga ishora qiluvchi leksemalar;

- *qanday, bunday, shunday* kabi belgiga;

- *buncha, shuncha, qancha* kabi miqdorga;


- *shunday bo'lmoq, shunday qilmoq* kabi harakat-holatga ishora etuvchi leksemalar ham kiradi. Ishora so'zlarning ma'nosi matn ichida oydinlashadi.

Leksemalar **morfologik tasnifga** ko'ra ikki tipga ajratiladi:

1. O'zgaruvchi leksemalar.

2. O'zgarmas leksemalar.

O'zgaruvchi so'zlar morfologik kategoriyalar (son, egalik, kelishik, nisbat, qiyoslash, subyektiv munosabatlar, kesimlik, o'zgalovchi)ning qo'shimchalarini qabul qila oladi. O'zgarmas so'zlar bunday qo'shimchalarni qabul qila olmaydi. Leksemalarning morfologik imkoniyatiga ko'ra tasnifini quyidagicha beramiz:



Ushbu tasnifdan ishora so'zlar va taqlidlar o'rin olmagan. Chunki olmoshlarga o'zlari ishora qilib kela oladigan barcha leksema guruhlarining morfologik kategoriyalari ham, sintaktik vazifalari ham xosdir. Bu isbot talab qilmas holatdir: ot-olmoshlar son kategoriyasiga (*kim-kimlar*); fe'l-olmoshlar nisbat kategoriyasiga (*shunday qilishdi*); son-olmoshlar tartib kategoriyasiga (*necha - nechanchi*); sifat-olmoshlar daraja kategoriyasiga (*shunday-shundayroq*) ega. Taqlidlarning esa o'ziga xos tasniflovchi morfologik kategoriyasi yo'q. Biroq ular o'zgarmas so'zlar ham emas. Taqlidlarning morfologik kategoriyalarga ega bo'lishi ularning gapda qanday bo'lak bo'lib kelishi bilan bog'liq. Professor H. Ne'matov o'zining "Функциональная морфология тюркоязычных памятников XI – XII веков" nomli kitobida taqlidlarda leksemalarning ajralmagan "embriyon - diffus holati" o'z aksini topganligini qayd etadi [3, 192;].

Leksemalarning sintaktik tasnifida, asosan, ularning nutqda boshqa leksemalar bilan bog'lana olish yoki bog'lana olmasligi, gap bo'lagi bo'lib kela olishi yoki kela olmasligi kabi xususiyatlar o'z aksini topadi. **Sintaktik tasnifga** ko'ra leksemalarni uch tipga ajratamiz:

1. Gap bo'lib keladiganlar – undov, modal, tasdiq va inkor, taklif so'z – gaplar.

2. Gap bo'lagi bo'lib keladiganlar – hamma mustaqil so'zlar-fe'l, ot, sifat, son, ravish, taqlidlar, ishora so'z – olmoshlar.

3. Sintaktik aloqa vositasi bo'lib keladiganlar – ko'makchi, bog'lovchi, yuklama.

Soʻz-gaplar nutqda boshqa soʻzlar bilan sintaktik aloqaga kirishmaydi, oʻzi mustaqil gap boʻlib kela olish qobiliyatiga ega, yaʼni ajralish xususiyatiga ega. Mustaqil va yordamchi soʻzlar esa bogʻlanish xususiyatiga ega boʻlib, bulardan yordamchilar gapda alohida boʻlak boʻlib kela olmaydi, ammo sintaktik jihatdan bogʻlash vazifasini bajaradi. Mustaqil soʻzlar esa mustaqil ravishda "muchalanadi", yaʼni gap boʻlagi boʻlib keladi.

Bizningcha, quyidagi jadvalda leksemalarning serqirralik xususiyatini, yaʼni ularning maʼnoviy, sintaktik, morfologik belgilarini umumlashtirish mumkin:

No	Leksema turlari	Maʼnoviy	Sintaktik	Morfologik	Izoh (ajralish-ning asosiy belgisi)
1	Feʼl	Harakat-holatni nomlash asosida atash mustaqil leksemalari	Cheklanmagan muchalanuvchi-lik (gap boʻlagi boʻlib kelishi)	Nisbatlanuv-chi oʻzgaruvchi (yozmoq-yozildi)	Morfologik va maʼnoviy
2	Ot	Predmet va predmetlikni nomlash orqali atash mustaqil leksemalari	Cheklanmagan muchalanuvchi-lik	Sonlanuvchi oʻzgaruvchi (kitob-kitoblar)	Morfologik va maʼnoviy
3	Sifat	Belgini nomlash asosida atash mustaqil leksemalari	Cheklanmagan muchalanuvchi-lik	Darajalanuv-chi oʻzgaruvchi (yaxshi- yaxshi - roq)	Morfologik va maʼnoviy
4	Son	Miqdorni nomlash asosida atash mustaqil leksemalari	Cheklanmagan muchalanuvchi-lik	Tartiblanuv-chi oʻzgaruvchi (bir-birinch)	Morfologik va maʼnoviy
5	Ravish	Oʻrin, payt, tarz-tusni nomlash asosida atash mustaqil leksemalari	Cheklangan muchalanuvchi-lik	Oʻzgarmas-lik	Morfologik va sintaktik
6	Taqlid	Tovush yoki koʻrinishga taqlid leksemalari	Cheklanmagan muchalanuvchi-lik	-	Maʼnoviy
7	Ishoralar (olmosh-lar)	Ishora mustaqil leksemalari	-	-	Maʼnoviy
8	Koʻmak-chi		Soʻzni soʻzga tobelantiruvchi muchalanmas leksemalar	Oʻzgarmas-lik	Sintaktik
9	Bogʻlov-chi		Soʻzni va gapni bogʻlovchi muchalanmas leksemalar	Oʻzgarmas-lik	Sintaktik
10	Yuklama	Taʼkid	Muchalanmaslik	Oʻzgarmas-lik	Maʼnoviy
11	Modal	Munosabatni nomlash asosida atash leksemalari	Ajraluvchilik (gap boʻlaklari bilan munosabatga kirishmaydi)	Oʻzgarmas-lik	Maʼnoviy va sintaktik
12	Undov	His-hayajonni tasvirlash leksemalari	Ajraluvchilik	Oʻzgarmas-lik	Maʼnoviy va sintaktik
13	Tasdiq va inkor soʻzlar	Tasdiq-inkor maʼnosi	Ajraluvchilik	Oʻzgarmas-lik	Maʼnoviy va sintaktik
4	Taklif soʻzlar	Tasdiq maʼnosi	Ajraluvchilik	Oʻzgarmas-lik	Maʼnoviy va sintaktik

DTSga asoslangan ona tili oʻquv dasturi va darsliklarida ham oʻzbek tili qurilishi talqinida qator yangiliklar koʻzga tashlanadi:

1. Olmoshning nafaqat ot, sifat, son, balki feʼl, ravish, taqlidiy soʻz, undov gap va, hatto, matnni almashtira olish, ularga ishora etish xususiyati hisobga olingan holda ularni oʻrganish feʼl, ravish, taqlidiy soʻzlardan keyinga koʻchirilgan va ular ishora soʻzlar sifatida izohlanilgan.

2. Dasturda bir soʻz turkumidan ikkinchi bir soʻz turkumiga oʻtish talqini rus tili grammatikasidan koʻchirilgan hodisa sifatida baholanadi ("Yaxshi bola yaxshi oʻqiydi"; "Mardona yigit mardona gapiradi" kabi gaplarda yaxshi va mardona soʻzlari birinchi birikmada sifat deb, ikkinchi birikmada esa ravish deb bahslanadi). Darslikda ravish soʻz turkumining xususiyatlari oʻrganilar ekan, uning morfologik kategoriyalarni, soʻz oʻzgartiruvchi qoʻshimchalarni qabul qila olmasligi asosiy belgisi qilib koʻrsatilgan. Ravishlarning morfologik jihatdan oʻzgarmas ekanligi qator misollarda (tasodifan, birga, qasddan, oʻzbekona, haqiqatan) aniqlab berilgan. Ravishlarning sintaktik vazifasi ularning aniqlovchi boʻlib kela olishi bilan kengaytirilgan.

3. Egalik, kelishik qo'shimchalari faqat otlar va otlarni almashtirishga xizmat qiladigan olmoshlar bilan birikadi, degan g'ayriilmiy talqin dasturdan o'rin olmagan. Grammatikadagi otlashuv hodisasi "ma'no torayishi" mavzusi doirasida izohlangan.

4. So'z turkumlarini o'rganishda ularning asosiy ma'noviy, morfologik, sintaktik xususiyatlari hisobga olingan holda, amaldagi dastur va darsliklarimizdan farqli o'laroq quyidagicha joylashtirilgan:

- | | |
|----------------|--|
| 1. Fe'l. | 7. Olmosh |
| 2. Ot. | 8. Ko'makchi |
| 3. Sifat. | 9. Bog'lovchi |
| 4. Son. | 10. Yuklama |
| 5. Ravish. | 11. So'z- gaplar (undov, modal, tasdiq |
| 6. Taqlid so'z | va inkor, taklif so'z- gaplar) |

7-sinf darsligida so'z-gaplar, ularning ko'rinishlari haqida batafsil ma'lumot berilgan. Tasdiq-inkor ma'nosini ifodalaydigan so'zlar (*asosan, ha, yo'q, xo'p, xo'sh*) tilshunosligimizda, ko'pincha, modallar tarkibida o'rganilib kelingan. Hozirgi tilshunoslikda esa ularning ma'noviy xususiyatlari hisobga olingan holda alohida guruhga ajratilgan. Taklif so'z-gaplar guruhiga qo'llanilishi tana a'zolarining maxsus harakatlari bilan uzviy bog'liq bo'lgan *Ma, Mang, Qani, Xo'sh?, Marhamat* kabi so'zlar kiritilgan. So'z-gaplarning asosiy xususiyati, ya'ni ularning kesimlik shakli qo'shimchalarini mutlaqo qabul qila olmasligi izohlab berilgan.

So'z turkumlarning miqdori, ularning belgilari tarixiy o'zgaruvchan bo'lib, turli sistemalardagi tillardagina emas, qarindosh tillarda ham turlichadir. Shunga qaramay bir tildagi so'z turkumlarning miqdori bo'yicha ham olimlar orasida turli qarashlar, tasniflar mavjud. Masalan, hozirgi rus tilidagi so'z turkumlarining miqdori haqida shunday tasnif mavjud: ko'pchilik olimlar so'z turkumini o'nta deb hisoblaydilar. Bular: ot (имя существительное), fe'l (глаголы), sifat (имя прилагательное), ravish (наречие), son (имя числительное), bog'lovchi (союзы), predloglar, undov (междометные слова), yuklama (частицы).

Hozirgi ingliz tilidagi so'z turkumlarining soni ham turli olimlar tomonidan turlicha talqin qilinadi: ba'zilari o'nta deb ko'rsatsa (ot(noun), sifat (adjectives), son (numeratives), olmosh (pronouns), fe'l (verbs), ravish (adverbs), predlog, artiki va yuklama (conjunctions), ba'zilari o'n to'rtta deyilar: yuqoridagilarga qo'shimcha ravishda modal so'zlar, holat kategoriyasi, undovlar, javob so'zlar kiritiladi.

Hind-yevropa tillariga kiruvchi tojik tilida ham so'z turkumlari quyidagicha tasniflanadi: ot: *дафтар, духтар, хона*; sifat: *нав, калон, калонтар, сурх, сурхтар*; son: *як, даҳ, бист*; olmoshlar: *ман мо, ту, шумо, ӯ, онҳ, ин*; fe'l: *кардан, рафтан, истодан*; ravishlar: *муваққатан, ҳло, тозон-тозон*; predloglar: *ба, дар, аз, барои*; bog'lovchilar: *ва, ҳа, чунки, зеро, бо ин ки*; yuklamalar: *- ми, - а, - ку, не*; undov so'zlar: *оҳ офарин! воӣ! э воӣ!*

Xulosa qilib aytish mumkinki, keyingi yillardagi ona tili tizimidagi qator yangiliklar, tajribalar, ilmiy xulosalar umumiy o'rta ta'lim dastur va darsliklarida ham o'z ifodasini topgan.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va tohshiriqlar:

1. Tasnif nima? Uning mohiyatini nima tashkil qiladi?
2. Leksemalarning qaysi qirralari orqali tasniflar hosil qilish mumkin?
3. Ma'noviy belgisiga ko'ra so'zlar qanday turkumlanadi?
4. Leksemalar morfologik tasnifga ko'ra necha tipga ajratiladi? Ular qaysilar? Har birini izohlang.
5. Leksemalar sintaktik tasnifida ko'proq ularning qaysi jihatlari inobatga olinadi?
6. O'zbek tilshunosligida fe'l so'z turkumining tutgan o'rni haqida qanday tushunchangiz bor?
7. Nima uchun olmosh taqlidlardan so'ng o'rganiladi?
8. So'z-gaplarning qanday ko'rinishlari bor?
9. Taqlidlar nima uchun mustaqil so'z turkumlari qatoridan o'rin olgan?

Asosiy adabiyot:

1. Азизов О. Тилшуносликка кириш. Т., "Ўқитувчи", 1996.
2. Баскаков Н., Содиқов А., Абдуазизов А. Умумий тилшунослик. Т. "Ўқитувчи", 1979.
3. Содиқов А., Абдуазизов А., Ирискулов М. Тилшуносликка кириш. Т., "Ўқитувчи", 1981.

Yordamchi adabiyot:

1. Бобокалонов Р. Ўзбек тилида семантик-функционал шаклланган сўз-гаплар. НДА. Тошкент, 2000 йил.
2. Мадрахимов И. Ўзбек тилида сўзнинг серкирралиги ва уни таснифлаш асослари. НД. Тошкент, 1994 йил.
3. Нигматов Х. Функциональная морфология тюркоязычных памятников XI-XII веков. Ташкент, 1989 год, 181 стр.
4. Умумий ўрта таълимнинг Давлат Таълим Стандарти ва ўқув дастури. Тошкент, 1999 йил, 1-махсус сон.

Mavzu: Sintaksis

Reja:

1. Sintaksis gap to'g'risidagi ta'limotni o'rganuvchi sath sifatida.
2. Sintaktik munosabat va nutqda uni ifodalash yo'llari.
3. Nutqda voqelanish imkoniyatiga ega bo'lgan so'z birikmalari va gaplarning qurilish qoliplari haqida. LSQ tushunchasi.
4. Sintaktik aloqa va valentlik.
5. Semantik (ma'noviy) valentlik, sintaktik valentlik va grammatik shakl valentligi haqida.

Mavzu bo'yicha tayanch tushunchalar:

So'zshakl sintaksisi, so'z birikmasi sintaksisi, gap sintaksisi, sintaktik aloqa, sintaktik munosabat, predikativ bog'lanish, qaratqich – qaralmish o'rtasidagi sintaktik bog'lanish, sintaktik munosabatni ifodalovchi grammatik vositalar, lisoniy sintaksis va nutqiy sintaksis, lisoniy sintaktik qoliplar, LSQ va dialektik kategoriyalar, valentlik: so'z valentligi, sintaktik valentlik, grammatik shakl valentligi, sintaktik aloqa va valentlikning dialektik aloqadorligi.

Til sintaktik qurilma hisoblanmish gap vositasida o'z ijtmoy vazifasini amalga oshiradi. Tilning barcha birliklari va shu birliklarning nutqiy voqelanishlari, ya'ni fonetik, leksik, morfologik hodisalar ana shu sintaktik qurilmaning yuzaga kelishi uchun xizmat qiladi. Ma'lumki, tilning asosiy vazifasi nutq vositasida kishilarning o'zaro fikr almashishlarini ta'minlashdan iboratdir. Jamiyatdagi ijtimoiy shaxslar gap orqali fikr almashadilar.

Gap nutqqa xos asosiy kommunikativ birlik bo'lib, u sintaksisning bevosita o'rganish obyekti hisoblanadi.

Sintaksis (yunoncha *sintaxys* – «tuzish», «qurish» demakdir) atamasini ikki ma'noda tushunish mumkin:

- 1) tilning sintaktik qurilishi ma'nosida;
- 2) tilning sintaktik qurilishini o'rganadigan grammatikaning bir qismi ma'nosida.

Biz bu atamani ana shu ikkinchi ma'nosida qo'llab, birinchi ma'no ifodasi uchun «sintaktik qurilish» atamasidan foydalanamiz. Sintaksis gap haqidagi ta'limotdir. Bu sathda gap turlari, gap bo'laklari, ularning o'zaro sintaktik munosabatga kirishish usullari va vositalari, so'z birikmasi, uning tuzilishi, tiplari, gapdan katta birliklar va shu birliklar qismlarining logik – grammatik munosabatlari o'rganiladi. Demak, so'z birikmalarini o'rganish ham gap ta'limotining tarkibiy qismi bo'lib, so'z birikmalarini gapdan ajratilgan holda tekshirish mumkin emas. So'zshakllar ham bevosita (ba'zan bilvosita) gapning tashkil etuvchisidir. Shunga ko'ra sintaksis quyidagi uch qismga bo'lib o'rganiladi:

- 1) so'zshakl sintaksisi;
- 2) so'z birikmasi sintaksisi;
- 3) gap sintaksisi.

Gap tarkibidagi grammatik shakllangan so'zlarni so'zshakl sintaksisi o'rganadi. So'z birikmasi sintaksisi esa so'zlarning o'zaro tobe-hokimlik munosabatida sintaktik bog'lanib, mustaqil so'zlarga nisbatan ancha aniqroq fikr (tushuncha) ifodalovchi birlik hosil qila olish qonuniyatlarini tadqiq etadi. So'zlarning o'zaro bog'lanib, fikr ifodalashga xizmat qiladigan nutqiy birlik (gap) hosil qilish qonuniyatlarini gap sintaksisi o'rganadi.

Ba'zi lingvistik adabiyotlarda sintaksis so'z birikmasi va gap haqidagi ta'limot deb talqin etiladi (Qar: Baskakov N. va b. Umumiy tilshunoslik. T., «O'qituvchi», 1979). Vaholanki, so'z birikmalari gap bo'laklari kabi gap qurilishining elementlaridir. Sintaksisning predmetini belgilashda so'z birikmasi hisobga olinsa, gap bo'laklarini ham bundan mustasno etib bo'lmaydi. Va yana eslatib o'tmoqchimizki, jamiyatda axborot uzatish gap orqali amalga oshadi. Gap fikr ifoda etadi. So'z birikmasi esa fikr emas, balki so'z kabi tushuncha ifodalaydi. Ma'lumki, so'z birikmasi ifodalagan ma'no so'z ifodalagan ma'nodan ko'ra xususiyroq (aniqroq) bo'ladi. Demak, sintaksisning eng asosiy birligi – gap.

Sintaksis sathi til fanining barcha bo'limlari bilan chambarchas bog'liqligini isbotlashga hojat bo'lmasa kerak. Vaholanki, til tizim ekanligini eslashning o'zi kifoyadir.

Gapda so'zlar ma'lum qoidalar asosida bir-biri bilan bog'lanadi, ya'ni semantik-sintaktik aloqaga kirishadi. Har qanday sintaktik aloqa sintaktik munosabatlar majmuidir. «Munosabat» arabcha so'z bo'lib, bir qancha ma'nolarni ifodalaydi: 1) kishilar o'rtasidagi aloqa, muomala; 2) narsa, hodisalar o'rtasidagi o'zaro bog'lanish, aloqa; 3) kishining voqelikdagi narsalarga, hodisalarga qarashi, yondashishi kabi. «Munosabat» atama sifatida filosofiyada muayyan sistemadagi elementlarning joylanish xarakteri va ularning o'zaro bog'liqligini ifodalovchi falsafiy kategoriya bo'lsa, mantiq fanining atamasi sifatida hodisalarga xos serqirralikka turlicha yondashish nuqtayi nazarini tushuniladi.

Tilshunoslikda «sintaktik munosabat» atamasi gap tarkibida so'zlar o'rtasidagi o'zaro bog'lanish, aloqa demakdir. Turli tillarda mavjud bo'lgan sintaktik munosabatlar dastlab ikki turga bo'linadi: predikativ va nopedikativ bog'lanish.

O'zbek tilida predikativ bog'lanish deganda gap tuzilishining asosi (gapning markazi) kesim bilan bog'liq bo'lgan sintaktik munosabat nazarda tutiladi. Shuni ta'kidlash lozimki, o'zbek tilidagi sodda gaplarni qiyoslasak, har bir gapda – qaysi so'z turkumi va uning qanday shaklda bo'lishidan qat'i nazar – shakllangan kesimning takrorlanganligini kuzatamiz. Gaplarda ega ishtirok etmasligi ham mumkin. Biroq, kesim gapning asosini tashkil etadi. Kesim gapning markazi bo'lib, u tasdiq / inkor, mayl / modallik, zamon, shaxs / son ma'nolarini ifodalab keladi, hukmni ifodalaydi va gapning boshqa bo'laklarini o'z atrofida birlashtiradi. Chunonchi, *Mardni maydonda sinaymiz* gapida kesim (*sinaymiz*) tasdiq ma'nosida, xabar maylida, kelasi zamon, I shaxs ko'plik shaklida ifodalangan bo'lib, gapning ikkinchi darajali bo'laklari – vositasiz to'ldiruvchi (*mardni*) hamda o'rin holi (*maydonda*) bilan o'zaro sintaktik munosabatga kirishgan. Nopedikativ bog'lanish bunday xususiyatga ega emas. Bunda so'zlar o'zaro turli usulda va turli vositalar bilan sintaktik munosabatga kirishadi. Teng bog'lanish va ergash bog'lanish (tenglashish va ergashish) nopedikativ bog'lanishning turlari hisoblanadi.

Grammatik jihatdan bir-biriga teng bo'lgan so'zlarning o'zaro grammatik munosabatga kirishishidan teng bog'lanish yuzaga keladi. Tenglashish munosabati, odatda, teng bog'lovchilar va sanash ohangi orqali ifodalanadi. Chunonchi:

o'quvchilar va o'qituvchilar; kitoblar, daftarlar;
отец и дети; хорошо, но дорого (ruscha);
The Lesson finished and the teacher went off (inglizcha);
Die Mutter und die Tochter (nemischa).

Ergash bog'lanishda grammatik jihatdan teng bo'lmagan so'zlar o'zaro grammatik munosabatga kirishadi va tobe-hokim munosabatiga ega bo'lgan so'z birikmalarini yuzaga keltiradi. Chunonchi:

umidli dunyo, qo'shiq aytmog, shoshib gapirish;
длинная дорога, крепкий чай, имеет право (rus tilida);
clear profit; Long island is a long island (ingliz tilida).

Tobelanish munosabati, asosan, aloqa-munosabat affiksleri, ko'makchilar, fleksiya, so'z tartibi, ohang kabi vositalar bilan ifodalanadi.

Turkiy tillarda sintaktik munosabatning tenglashish va ergashish tiplaridan tashqari alohida ko'rinishdagi sintaktik munosabat ham mavjuddir. Bu qaratqich va qaralmish munosabatidir. Agar tenglashishda grammatik tomondan teng bo'lgan so'zlar sintaktik munosabatga kirishib, gap bo'laklarini uyushtirib kelsa, ergashishda esa biri hokim, biri tobe vaziyatdagi bo'laklar sintaktik munosabatga kirishib, so'z birikmasini hosil qiladi. Qaratqich va qaralmish munosabatidagi so'zlar ayni bir paytda bir-biriga tobe, bir-biriga hokim vaziyatda bo'ladi, ya'ni qaratqich kelishigini olgan so'z o'ziga semantik jihatdan mos III shaxs egalik affiksini olgan so'zni talab etadi. Ayni paytda III shaxs egalik affiksini olgan so'z o'zi aloqador bo'lgan so'zning qaratqich kelishigi shaklida bo'lishini talab etadi. Nutqiy bosqichda nutq sharoitiga ko'ra ba'zan qaratqich, ba'zan qaralmish belgisiz holatda qo'llanishi ham mumkin. Chunonchi:

Farruxning kitobi, maktab hovlisi, qizlar bazmi, bizning ko'cha kabi.

Biz yuqorida sanab o'tgan sintaktik munosabat tiplari turli ko'rinishdagi grammatik vositalar orqali ifodalanadi. Bular quyidagilar:

1. **Aloqa - munosabat affiksleri.** Bunday qo'shimchalar sintaktik shakllar deb ham yuritiladi. Ular so'zlarning lug'aviy ma'nosiga ta'sir ko'rsatmasdan, ularni sintaktik aloqaga kiritish uchun xizmat qiladi. Turkiy tillarda sintaktik munosabatlarni ifodalashda turlovchi va tuslovchi qo'shimchalar keng qo'llaniladi. Masalan: *kinoni ko'rmoq, xonaga kirish, uning qalbi, sizning tuyg'ularingiz* (o'zbek tilida); *Ormina jat (o'ringga yot), Bez sag'at 10 da uyeqtaurg'a jatteq* (Biz soat 10da uxlashga yotdik) (qozoq tilida).

2. **Fleksiya.** Bu hodisa flektiv tillarga hind-yevropa (rus, nemis, latin, hindu), som (arab, ivrit) tillariga xosdir. Bu tillarda har bir mustaqil so'zning dastlabki ko'rinishi ham negiz va qo'shimchalarga bo'linadi, ammo o'zak-negizni mustaqil qo'llab bo'lmaydi. Chunonchi: *старшүү брат, синие брюки, моего отца, хороших друзей* kabi. (Rus tilidan olingan ushbu so'z birikmalaridagi sintaktik munosabat ifodalovchi vositalar qo'shilgan so'zlarning o'zak-negizi *старш, син, мо, хорош* bo'lib, ular mustaqil holda qo'llanilmaydi.)

3. **Yordamchilar** (bog'lovchilar, ko'makchilar, bog'lama) so'zlarni sintaktik munosabatga kiritishda alohida ahamiyatga egadir.

O'zbek tilida: *Rasmni mo'yqalam bilan* chizdi. *Men o'qituvchi bo'laman;*

Rus tilida: *ехать к друзьям, писать на бумаге.*

Ingliz, fransuz, arab tillarida sintaktik vosita sifatida **artikl** ham qo'llaniladi. Roman-german tillarida artikl faqat ot so'z turkumiga xos so'zlardan oldin ishlatiladi. Arab tilida esa artikl ot, sifat, son bilan birga qo'llanilaveradi. Chunonchi: **a table (stol); an apple (olma); Al kita: bu; ru – N** (arabcha) kabi.

4. **So'z tartibi.** So'zlarning sintaktik funksiyasi maxsus morfologik ko'rsatkichlar bilan ifodalanmaganda so'z tartibi sintaktik munosabatlarni ko'rsatuvchi muhim vosita bo'lib qoladi. Bu vaqtda so'zlarning gapdagi vazifasi so'z tartibiga bog'liq bo'ladi. So'z tartibi o'zgarishi bilan sintaktik holat ham, gap semantikasi ham o'zgaradi. Masalan: *shirin qovun* (aniqllovchi-aniqlanmish), *Qovun shirin* (ega-kesim), *Gullagan daraxt hammamizni hayratga soladi. Daraxt gullagan, hammamizni hayratga soladi.*

Ba'zan so'z tartibining o'zgarishi sintaktik holatga daxl etmasligi ham mumkin, ya'ni gap bo'laklarining o'rni o'zgarsa-da, ularning sintaktik vazifasi ilgarigicha qolaveradi. Masalan: *Yana keldi qalbmning rozi, Yana keldi men kutgan bahor.*

Qalbmning rozi yana keldi. Men kutgan bahor yana keldi.

Flektiv tillarda so'z tartibi sintaktik vosita sifatida kam qo'llaniladi.

5. **Intonatsiya** ham sintaktik munosabat ifodalaydigan vositalardan biri hisoblanadi. Oldingi mavzularimizdan sizga ma'lumki, mantiq urg'usi, pauza, ritm, melodika kabilar intonatsiyaning tarkibiy qismlaridir. Intonatsiya – barcha tillarga xos bo'lgan sintaktik munosabat ifodalovchi vosita.

U yoki bu tilda sintaktik vositalardan qaysi turining ishlatilishi har bir tilning grammatik qurilishiga bog'liqdir.

Biz yuqorida sintaksisning nutqiy bosqichga xos bo'lgan ba'zi jihatlari xususida mulohaza yuritdik. Ma'lumki, har bir millat, xilq tili o'zining tuzilishi bilan, ayrim unsurlarning o'zaro munosabati bilan butun sistema (tizim)ni tashkil etadi. Tilning har bir sathi «lison ~ nutq» aspektida o'rganilishini yodga olaylik. Til (lison) birliklarini fonema, morfema, leksema hamda lisoniy sintaktik qoliqlar tashkil etsa, bevosita kuzatishda berilgan nutqiy birliklarni tovush (harf), affiks, so'z, so'z birikmasi, gap, matn kabilar ifodalaydi.

Nutqiy sintaksis birliklari bo'lmish so'z birikmasi, gap, matn moddiylikka ega bo'lib, ularni o'qish, yozish, aytish, eshitish mumkin. Lisoniy sintaksis birliklari esa so'z birikmasi va gap hosil qilish qoliqlaridir, ya'ni lisoniy sintaktik qoliqlar (LSQ) dir. Demak, nutqda voqelanish imkoniyatiga ega bo'lgan so'z birikmalari va gaplarning qurilish qoliqlari lisoniy sintaksisning tadqiq manbaidir. Xo'sh, lisoniy sintaktik qolip nima?

Kishilar ongida, chunonchi, lisoniy sathda so'zlash, ya'ni xilma-xil maqsadlarga xizmat qiluvchi nutqni shakllantirish uchun leksemalarni so'z birikmalari sifatida bog'lash, leksema yoki so'z birikmalariga gap shaklini beruvchi qoliqlar mavjud. Bular LSQ lar, modellar, konstruksiyalar, qurilmalar tarzida nomlansa-da, aslida bir tushunchani ifodalaydi. LSQ larni biz jamiyatda tayyor holda qabul qilib olamiz va uni o'z ixtiyorimizcha o'zgartira olmaymiz. LSQ lar va ularning nutqiy voqelanish (so'z birikmalari, gap)lari o'rtasida umumiylik ~ xususiylik, mohiyat ~ hodisa, imkoniyat ~ voqelik, sabab ~ oqibat dialektikasi mavjud bo'lib, lisoniy sintaktik qoliqlar bizning

ongimizdagi yuksak darajali umumiyliklardir. Ular ongimizda ichki imkoniyat, zarurat, mohiyat sifatida mavjuddir. Shu o'rinda LSQ va uning hosilalari bo'lgan so'z birikmasi yoki gapga xos xususiyatlarni taqqoslab ko'raylik.

LSQ larga xos belgilar	LSQ larning nutqiy hosilalariga xos belgilar
bevosita kuzatishda berilmagan	Bevosita kuzatishda berilgan
ijtimoiy	individual (alohida)
takrorlanuvchan	Takrorlanmas
chegaralangan	Chegaralanmagan
majburiy	Ixtiyoriy

LSQ larning faqat kishilar ongidagini mavjudligi, ularning moddiylikdan xoliligini ifodalaydi. Qolipdan chiqqan nutqiy hosilalariga moddiy qobiqqa ega bo'ladi.

LSQ lar ma'lum shaxslar tomonidan yasalgan emas, balki muayyan tilda so'zlashuvchi jamiyat a'zolari tomonidan uzoq asrlar davomida kishilar ongida shakllangan. LSQ lar barcha jamiyat a'zolari uchun teng baravar xizmat qiladi. Bu uning ijtimoiy tabiatidir. Nutqiy hosilalar individual (alohida)lik tabiatiga egadir. Buni qanday tushunish mumkin? Bu olamda moddiylikka ega bo'lgan biror narsa, voqea – hodisa bir-birini takrorlamaydi. Hattoki, bitta qolipdan chiqqan g'ishtlar ham. Son-sanoqsiz daraxt barglari, tuproq zararlari, odamlarning ham biri ikkinchisiga hech qachon aynan o'zshamaydi. Bu holat nutqiy hosilalarga-da tegishli. Aytaylik, Keling ixcham gapini ikki marta takrorlasak, ikkinchi gap birinchi hosilaning ayni takrori bo'la olmaydi. Zero, bu nutqiy hosilalar o'zni, zamoni, aytilish maqsadi, sharoiti kabilarning hech bo'lmasa bittasi bilan farqlanadi. Bu nutqiy hosilaning alohidalik xususiyatidir.

Bitta lisoniy sintaktik qolip yuzlab, minglab so'z birikmalarida yoki gaplarda takrorlanaveradi. Masalan, [ot tushum kelishigi + fe'l] so'z birikmasi qolipidan *polni bo'yamoq, farzandni sevmok, onani ardoqlamoq, kitobni o'qimoq* kabi son-sanoqsiz nutqiy sintaktik birliklarni hosil qilish mumkin. Demak, LSQ lar takrorlanuvchidir. Yuqorida eslatib o'tganimizdek, bevosita kuzatishda berilgan birorta hodisada takroriylik yo'q. Hayotdan ko'z yumgan birorta odamni qayta yaratib bo'lmaganidek, qolipdan chiqqan so'z birikmasi yoki gapni ham qayta aytish, yozish mumkin emas. Bu nutqiy hosilalarga xos betakrorlikdir.

LSQ lar chegaralangan. Masalan, o'zbek tilshunosligida so'z birikmalarining o'n sakkizta ustivor qolipi aniqlangan. O'zbek tilidagi minglab, yuz minglab (balki undan ham ko'proq) so'z birikmalari turli nutq sharoitlariga mos ravishda turfa ko'rinishlarda aks etsa-da, LSQ ning mohiyat chegarasidan chiqib keta olmaydi. Demak, LSQ lardan chiqadigan nutqiy hosilalar miqdori chegaralanmagan.

Jamiyat a'zolari, ya'ni muayyan bir tilda so'zlashuvchilar, nutq jarayonida LSQ lardan foydalanishga majburlar. Ularni o'zgartirish yoki yangisini tuzishga urinish tilda sun'iylikni keltirib chiqaradi. Vaholanki, LSQ lar majburiylik, nutqiy hosilalarni tuzish yoki tuzmaslik shaxslar uchun ixtiyoriylikdir.

Qolip nutqiy hosilasiz o'lik va jonsiz, nutqiy hosila esa qolipsiz bo'lishi mumkin emas. Zero, LSQlar nutqdagi xilma-xil so'z birikmalari va gaplarni yuzaga chiqaruvchi, bir o'ringa birlashtiruvchi asosdir.

So'z birikmalariga xos bo'lgan umumiy qolip [TB+HB], ya'ni [tobe bo'lak+hokim bo'lak] dir.

Rus tilshunosligida sodda gaplarning eng kichik qurilish qolipi [S - P], ya'ni [ega - kesim] ko'rinishiga egadir. Masalan: *Трава зеленеет. Птицы улетают* kabi. O'zbek tilida sodda gapning eng kichik qurilish qolipi [WPM] ko'rinishiga egadir. (Bu qoliplarning mohiyatini «Gap» mavzusida batafsil ochib berishga harakat qilamiz.)

Yuqorida sintaktik munosabat yoki sintaktik aloqa nutqiy bosqichga xos hodisa ekanligini e'tirof etgan edik. Xo'sh, lisoniy bosqichda u qanday asosga borib birlashadi?

Har qanday so'z birikmasi va gap, kontekst va matn kabi sintaktik butunliklarning birlamchi moddiy asosi so'zdir. Fikr almashish jarayoni aslida so'zlardan, ularning semantik-sintaktik bog'lanishidan yuz beradi. So'zga substansial yondashuv natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, so'z ham til birligi, ham nutq birligidir. Tilshunos olim Ravshanxo'ja Rasulov ta'kidlaganidek, ham til, ham nutq birligi bo'la olish imkoniyati faqat so'zga xosdir. So'zga substansial yondashuv leksikologik – semasiologik, morfologik va sintaktik tomonlar tekshiruv natijalarini umumlashtiradi, «til ~ nutq» aspektida ularning o'zaro bog'liqligini o'rganadi.

So'zni nutq birligi deganda, so'zning mohiyatini gapda o'rganish va aniqlash ko'zda tutiladi, so'z til birligi sifatida gapdan tashqarida o'rganiladi. Demak, so'z o'zining asosiy nominativ vazifasini nutq faoliyatida bajaradi. Shu faoliyatda u ma'no (semantik) jihatdan aniq o'niga ko'ra mustaqil bo'ladi, muayyan sintaktik vazifada keladi. Bundan mantiqiy ravishda so'zning nutqdagi ahamiyatini, semantik munosabatning ma'no imkoniyatlarini o'rganish masalasi kelib chiqadi.

Gap tarkibidagi so'zlarning muayyan qurshovda, muayyan ishtirokchilari bilan birika olish imkoniyatlari tasodifiy va butunlay erkin emas. Ular muayyan qonuniyatlarga bo'ysunadi. Fanning eng so'nggi yutuqlariga tayanib ayta olamizki, hozirda ma'lum til birligining boshqasi bilan birikuvining asosiy qonuniyatlari **valentlik** tushunchasida birlashadi. Ma'lum bir so'zning boshqa so'zlar bilan birika olish imkoniyati, ma'noviy sintagmani tuzuvi, o'z ma'nosini to'la ochish uchun muayyan so'z va so'z shakllarni talab etishi valentlik nazariyasining asosini tashkil etadi.

Valentlik atamasi, eng avvalo, kimyo faniga tegishli bo'lib, biror kimyoviy element atomining boshqa element atomlaridan muayyan sonligini birlashtirib olish xossasidir. Valentlik so'zi «kuch» degan ma'noni bildiradi. Fizika fanidan ma'lumki, kuch-o'zaro ta'sir va bog'lanish demakdir.

Jahon tilshunosligida «valentlik» atamasi o'tgan asrning 20-30-yillarida paydo bo'ldi va juda tez ommalashdi. XX asrning 40-yillarida sovet tilshunosligiga valentlik tushunchasi S.D.Kotsnelson olib kirdi (Qarang: С.Д.Коцнельсон. О грамматической категории. Вестник. ЛГУ. 1948. №2. стр.132). Uzoq yillar davomida olimlar o'rtasida valentlik ma'noviy tabiatga egami yoki sintaktik xarakterga egami degan bahs davom etdi. Bu jiddiy munozaraning yechimini o'zbek tilshunos olimi R.Rasulov bera oldi (Qarang: Rasulov R. O'zbek tilidagi holat fe'llari va ularning obligator valentliklari. T., «Fan», 1989.) va valentlik hodisasini imkoniyatli voqelik sifatida baholadi. Shu bilan birga, o'zbek tilshunosligida valentlik ikki tomonlama: ham semantik, ham sintaktik hodisa ekanligini isbotladi.


Tilshunoslikda valentlik tushunchasi ostida uch jihatni farqlash lozim:

- 1) so'z valentligi;

- 2) sintaktik valentlik;
- 3) grammatik shakl valentligi.

So'z valentligi masalasida zukko olim H.G'.Ne'matov ta'kidlaganidek, ikki muammoni farqlay olish o'ta muhimdir. Bular: lisoniy valentlik hamda nutqiy valentlik.

Lisoniy valentlik so'zning semantik strukturasida mujassamlangan yashirin imkoniyat bo'lib, u ma'lum bir so'zning muayyan bir ma'noviy turkum so'zlari bilan me'yoriy ravishda bog'lana olishi, birika olish qobiliyatiga ega ekanligini ifodalaydi. So'zlarning lisoniy valentligidagi bu imkoniyat **so'z valentligi** yoki **semantik (ma'noviy) valentlik** deb yuritiladi. Misol tariqasida [yozmoq] so'zining ma'noviy valentligini ko'rib o'tamiz.



(*Ertalab Karima akasiga xatni shahar tashqarisiga zudlik bilan chiqib ketayotganligini bildirish uchun shoshilganicha qalamda qisqagina yozdi.*)

Demak, [yozmoq] so'zi o'z ma'nosini to'la ochib berishi uchun yuqoridagi so'roqlarga javob bo'la oladigan so'zlar bilan kengaytirilishi (nutqda birikib kelishi) talab etiladi. Nutqiy valentlik yashirin imkoniyat, mohiyat, umumiylik, zaruriyat bo'lgan lisoniy valentlikning moddiylikka ega bo'lishi, ya'ni ro'yobga chiqishidir.

So'z valentligi substansial hodisa sifatida so'zning doimiy ichki xususiyati bo'lib, bu xususiyat nutq faoliyatida so'zlarning o'zaro bog'lanishida paydo bo'lmaydi. U nutqqacha, ya'ni tilda – til «birligi» sifatida so'z ma'no tarkibida mavjud bo'ladi, «yashaydi», yuzaga chiqishga tayyor turgan imkoniyat tarzida saqlanadi.

Biriktiruvchi so'z ma'lum bir ma'noviy turkum (guruh) so'zlar bilan birikishi uchun bu turkum so'zlarning ma'lum bir sintaktik shaklda bo'linishini talab etadi. So'z lisoniy valentligidagi bu tomon **sintaktik valentlik** deyiladi. Ma'noviy valentlik va sintaktik valentlik so'z lisoniy valentligining ajralmas ikki tomonidir. Sintaktik valentlik bilan ma'noviy valentlik ba'zi holatlarda o'zaro nisbiy mutanosib bog'liqlikda bo'ladi, ya'ni biri o'zgarsa, ikkinchi ham o'zgaradi.

Masalan:

foil manba harakat

1. *Salim kitobga yozdi.*

sababchi manba harakat

2. *Salim kitob yozdirdi.*

sababchi manba harakat

3. *Salim uchun kitob yozildi.*

Ba'zan valentlikning bir ko'rinishi o'zgarsa-da, ikkinchisi o'zgarmasligi ham mumkin. (Bu xususda tilshunoslikning «Sintaksis» sathida to'laroq ma'lumot beriladi.)

Affiksial morfemalarning birikuvchanlik qobiliyati **grammatik shakl valentligi** deb yuritiladi. Grammatik shakl valentligi mohiyatan ma'noviy valentlikka o'xshashdir, biroq umumiylik darajasiga ko'ra semantik valentlikdan ancha yuqori bo'lib, kategorial umumlashmalar darajasidir. Masalan, qaratqich kelishigining morfemasi o'zidan keyin kelgan so'z tarkibidagi egalik qo'shimchasi bilan birika olish valentligiga ega, bu so'z birikmasi tarkibida muvofiqlashadi. Ular bir-birini tanlagan, birikish uchun bir-birini tanlash esa **valentlik**dir.

Xulosa qilib aytganda, valentlik nutqda so'zlar orasidagi sintaktik aloqani, so'zlarning, grammatik shakllarning o'zaro birikuvini ta'minlovchi potensiyadir. Sintaktik aloqadan valentlik kelib chiqmaydi, balki valentlikdan sintaktik aloqa kelib chiqadi. So'z valentligi va sintaktik aloqa dialektik bog'liq, o'zaro bir butun, ajralmas, ayni vaqtda, har biri nisbiy mustaqil bo'lgan hodisalardir.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Sintaksisning o'rganish obyekti nimadan iborat?
2. «Lison ~ nutq» aspektida sintaksisning o'rganish obyekti farqlanadimi? Misollar asosida izohlang.
3. Sintaktik munosabat deganda nimani tushunasiz?
4. Sintaktik munosabatni ifodalash yo'llari turli tillarda farqlanadimi yoki ...? Fikringizni misolar asosida dalillang.
5. Lisoniy sintaktik qolip (LSQ) nima?
6. LSQ va so'z birikmasi, gapning o'ziga xos tomonlarini dialektik kategoriyalar asosida tushuntirishga harakat qiling.
7. Valentlik va uning ko'rinishlari haqida ma'lumot bering.
8. Valentlik va sintaktik munosabat orasida dialektik aloqadorlik nimalardan iborat?
9. «Valentlik nutqda so'zlar orasidagi sintaktik aloqani ta'minlovchi potensiyadir». Ushbu tezisni o'z so'zingiz bilan tushuntiring.

Asosiy adabiyot:

1. Азизов О. Тилшуносликка кириш. Т., “Ўқитувчи”, 1996.

2. Баскаков Н., Содиқов А., Абдуазизов А. Умумий тилшунослик. Т. “Ўқитувчи”, 1979.
3. Содиқов А., Абдуазизов А., Ирискулов М. Тилшуносликка кириш. Т., “Ўқитувчи”, 1981.

Yordamchi adabiyotlar:

1. Ҳозирги ўзбек адабий тили. II қисм (академ нашр). Т., 1966.
2. Менглиев Б. Ўзбек тилининг структур синтаксиси. Қарши. «Насаф», 2003.
3. Неъматов Ҳ. ва б. Ўзбек тили структурал синтаксиси асослари. Тошкент, «Университет». 1999.
4. Неъматов Ҳ., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. Т., «Ўқитувчи», 1995.
5. Расулов Р. Сўз валентлиги ва синтактик алоқа. ЎТА. 1992. 5-6-сон.
6. Ўз СЭ. 7-том. Т., 1976. 427-б.
7. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. II қисм. Москва, «Рус тили». 1981. 480-б.
8. Курбонова М. Ҳозирги замон ўзбек тили. Т., «Университет», 2002.
9. Фуломов А., Асқарова М. Ҳозирги замон ўзбек тили. Синтаксис. Т., 1961.

Mavzu: Soʻz birikmasi

Reja:

1. Soʻz birikmasi hokim boʻlakning ehtiyoji va tobe boʻlakning imkoniyati uygʻunligining voqelanish usulidir.
2. Nutqiy bosqichda: soʻz birikmasi va uning turlari.
3. Tobe hamda hokim boʻlakni biriktiruvchi maʼnoviy, shakliy, joylashuv omillari.
4. Boshqaruv, moslashuv va bitishuv haqida.
5. Soʻz birikmalarining lisoniy sintaktik qoliplari haqida.

Mavzu boʻyicha tayanch tushunchalar:

Serqirralik, soʻz va soʻz birikmasi, erkin sintaktik aloqa, hokim boʻlakning ehtiyoji, tobe boʻlakning imkoniyati, otli birikma, feʼli birikma, maʼnoviy omil, shakliy va joylashuv omillari, boshqaruv, bitishuv, moslashuv, soʻz birikmasiga xos lisoniy sintaktik qoliplar.

Tilga xos boʻlgan har bir hodisa serqirralik xususiyatiga ega boʻlib, nutqiy (yoki lisoniy) bosqichda uning istalgan qirrasini oʻrganilishi va baholanishi mumkin. Shu jihatdan olib qaranganda, tilshunoslikka oid ilmiy-nazariy adabiyotlarda soʻz birikmasi yuzasidan berilgan va siz bir qadar tanish boʻlgan maʼlumotlarda ularga (yaʼni soʻz birikmalariga) turlicha yondashuv seziladi. (Qarang: Gʻulomov A., Asqarova M. Hozirgi zamon oʻzbek tili. Sintaksis. T., «Oʻrta va oliy maktab». 1961; Akadem. grammatika. II qism. «Fan». 1966; Neʼmatov H. va b. Oʻzbek tili struktural sintaksisi asoslari. T., «Universitet». 1999...) Mohiyatan hodisaning serqirraligi nuqtayi nazar bu yondashuvlarni masalaning turli qirralarini alohida-alohida tadqiq etish sifatida baholaydi.

Maʼlumki, narsa-buyum, belgi, ish-harakatni umumiy ifodalash, nomlash vazifasini soʻz bajaradi. Soʻz birikmasi ham mohiyatan atash, nomlash (nominatsiya) sath birligidir. Boshqacha qilib aytganda, soʻz birikmasi lisoniy qiymat jihatidan soʻzga (leksemaga) barobardir. Masalan, *direktor* soʻzi oʻrinda *korxonaning boshligʻi (tashkilotning rahbari)* kabi soʻz birikmalaridan birini bemalol ishlatish mumkin. Oʻzbek tilida soʻz birikmalarining soʻzlarga atash vazifasi jihatidan teng qiymatligiga yuzlab misollarni keltira olamiz. Chunonchi, *tartibli – intizomda birinchi, shabada – yoqimli shamol, amaki – otaning akasi (yoki ukasi), togʻa – onaning akasi (yoki ukasi), yanga – akamning xotini* va h.

Leksema bilan soʻz birikmasi orasidagi asosiy farq atash (nomlash) vazifasida emas, balki shu vazifani qaysi yoʻl, qaysi usul va qaysi shakl bilan ifoda etishidir. Leksik sathda bu vazifani soʻz (leksema) toʻgʻridan toʻgʻri bajaradi, soʻz birikmasi esa atash vazifasini soʻzlarni oʻzaro erkin sintaktik aloqaga kiritish yoʻli bilan amalga oshiradi. Erkin sintaktik aloqaga kiritish deganda soʻzlarning vaqtinchalik, faqatgina nutq talabi va ehtiyojiga koʻra tobe-hokim munosabatlariga kiritish tushuniladi. Soʻz birikmasining tarkibi tobe boʻlak va hokim boʻlakdan iborat boʻlib, **soʻz birikmasi hokim boʻlakning ehtiyoji va tobe boʻlakning imkoniyati orasidagi uygʻunlikning voqelanish usulidir.**

Avvalo, eʼtiborimizni soʻz birikmasining nutq birligi sifatidagi xususiyatlariga qarataylik. Yuqorida taʼkidlab oʻtganimizdek, nutqda tushunchalarni aniqroq va muayyanroq ifodalash zaruratidan soʻz birikmasi kelib chiqadi. Soʻz birikmasi semantik hamda grammatik jihatdan shakllangan, biror soʻz turkumiga mansub birdan ortiq mustaqil soʻzlardan tuziladi. Biroq mustaqil soʻzlarning har qanday oʻzaro bogʻlanishi soʻz birikmalarini hosil qilavermaydi. Jumladan, eganing gapning markazi boʻlgan kesimga tobelanib kelishi kabi.

Soʻz birikmasi bitta mustaqil soʻz atrofida birlashadi, yaʼni soʻzlardan biri hokim, qolganlari unga tobe boʻladi. Soʻz birikmalari hokim boʻlakning qaysi soʻz turkumiga mansubligiga qarab, otli birikma va feʼli birikmaga boʻlinadi.

Hokim boʻlak ot, sifat, son, olmosh, taqlid, undov yoki harakat nomi bilan ifodalansa, **otli birikma** hisoblanadi. Otli birikmalarda tobe boʻlak ot, sifat, sifatdosh, son, olmosh, ravish, taqlid, undovlar bilan ifodalanishi hamda hokim boʻlak bilan birikib turli maʼnoviy munosabatlarni bildirishi mumkin. Chunonchi,

1)[ot + ot] birikuvidan tuzilgan soʻz birikmalari muayyan predmetning qanday materialdan yasalganligi (*oltin soat, taxta koʻprik*); bir predmetning boshqasiga qarashliliigi (*bolalar bogʻchasi, Salimanning kitobi*); butun-boʻlak munosabati (*stolning oyogʻi, mashinaning motori*); sabab-natija munosabati (*eʼtiborsizlik natijasi, sabrsizlikning oqibati*); tur-jins munosabati (*tuyaning erkagi, tuyaqushning modasi*); shaxs yoki narsa-buyumning sifati, xususiyati (*Karimanning pokligi, uyning tozaligi*) kabi oʻndan ortiq maʼnolarni ifodalashga xizmat qiladi. Bunday birikuvli soʻz birikmalari rus tilida [именительный падеж + родительный падеж] qolipida tuzilgan birikmalarga toʻgʻri keladi: *книга брата, карандаш Махмуда* kabi. Demak, rus tilida otga ot ergashganda tobe ot ikkinchi oʻrinda родительный падеж shaklida keladi.

2)[sifat + ot] birikuvli soʻz birikmalari quyidagi maʼnolarni ifodalaydi: *qizil baxmal*, *qora chopon* (muayyan predmetning rang-tusi); *shirin qovun*, *achchiq danak* (predmetning maza-taʼmi); *puldor odam*, *gulli mato* (xoslik, egalik belgisi); *injiq bola*, *mard oʻgʻlon* (xarakter-xususiyat); *yaxna ovqat*, *nimjon chaqaloq* (predmetning holati) va h.

[sifat + ot] – oʻqigan qiz, kelgusi avlod;

[son + ot] – birinchi yil, uchinchi farzand;

[olmosh + ot] – anovi hovuz, hammaning fikri;

[ravish + ot] – mardona harakat, yashirincha uchrashuv;

[taqlid + ot] – shivir-shivir gap, gʻuvur-gʻuvurning taʼsiri;

[undov + ot] – oh-vohning oqibati, salomning javobi kabi birikuvlarning har biri ham alohida-alohida maʼnoviy maʼnolarni bildiradi.

Boshqa tillardan ham shunga oʻxshash misollarni keltirish mumkin.

Bosh soʻz feʼl va uning ravishdosh sifat-dosh shakllari bilan ifodalansa, **feʼlli birikma** hosil boʻladi. Feʼlli birikmalarda tobe boʻlak turli soʻz turkumlari bilan ifodalanishi va semantik jihatdan oʻziga xos maʼnoviy munosabatlarni yuzaga chiqarishi mumkin. Chunonchi,

[ot + ravishdosh] birikuvdagi soʻz birikmalari tobe boʻlak semantikasi bilan bogʻliq ravishda harakat yoki holatning oʻrnini yoki paytini ifodalaydi: *maktabdan kelib*, *uydan uzoqlashib*, *yozga yetib*, *qishga qoldirib* kabi.

[ravishdosh + sifat-dosh] – *shoshib gapirgan*, *tinmay ishlayotgan*, *oʻqigani kelgan* kabi nutqiy hosilalarda harakatning holati, maqsadi kabi maʼnolar seziladi. Rus tilida feʼlli birikmalarda hokim soʻz oldin, tobe soʻz keyin qoʻllanadi: *читать лёжа*, *услышав о преезде*, *идти работать* kabi.

Soʻz birikmalarini lison ~ nutq aspektida tekshirish natijalari ularning yana bir qirrasiga eʼtibor qaratishni taqozo qiladi. Soʻz birikmalarining har bir koʻrinishda birikma tarkibidagi tobe boʻlak hamda hokim boʻlakning **maʼnoviy, shakliy va joylashuv** kabi birikuvchanlik turlarining moslashuvini kuzatish mumkin. Bu har uchala qobiliyat sintaktik aloqani taʼminlovchi omillardir. Ularning har birini alohida koʻrib oʻtqamiz.

Maʼnoviy omil deganda quyidagilar tushuniladi:

1)soʻzlarning lugʻaviy maʼnolari;

2)soʻzlarning kategorial, yaʼni soʻz turkumlariga xos maʼnolari.

Soʻz birikmalarining lisoniy sintaktik qoliplarini aniqlashda maʼnoviy omilning ikkinchi jihati, yaʼni soʻz turkumlariga xos maʼnolari muhimdir. Bu mustaqil soʻz turkumlari doirasida predmetlik, belgi, miqdor, harakat, holat, tasviriylik, taʼsirchanlik, ishoraviylik kabi turkumiy maʼnolarni qamrab oladi. Chunonchi, *divanda yotmoq*, *soʻrida oʻtirmoq* soʻz birikmalarida *divan*, *soʻri* soʻzlari joy nomini atab keladi, ayni paytda bu soʻzlarda predmetlik maʼnosi ham bor; *yotmoq*, *oʻtirmoq* soʻzlarida esa feʼlning oʻtimsizlik (holat) maʼnosi mavjud. Bu holat soʻz birikmalarida maʼnoviy omil sifatida baholanadi.

Shakliy omil deganda soʻzlarni sintaktik aloqaga kiritish uchun xizmat qiladigan, sintaktik kategoriyalar sifatida tanilgan qatorlar (kelishik, egalik, nisbat, sifat-dosh, ravishdosh)ning grammatik shakllari tushuniladi. Soʻz birikmalarida sintaktik aloqa ikki yoqlama ekanligi tilshunos olim S.Nazarovanning ilmiy tadqiqotida isbotlab berilgan¹. Shunga koʻra, yaʼni [SB]=[TB] ↔ [HB] ekanligiga koʻra shakliy omillar «tobega xoslar» va «hokimga xoslar»ga ajratiladi. Gap doirasida kelishik, sifat-dosh, ravishdoshlar «tobe»ga xos, egalik, nisbat, shaxs-son koʻrsatkichlari «hokim»ga xosdir. Chunonchi, *ukamning kitobi*, *oʻqigan bola*, *zavqlanib gapirish...*

Shakliy omil soʻz birikmalari tarkibidagi soʻzlarning oʻzaro birikmalarini sintaktik munosabat hosil qiluvchi qoʻshimchalar, yordamchi soʻzlar soʻzning muayyan turkumga mansubligi asosida taʼminlaydi. Demak, shakliy omil maʼnoviy omil bilan mushtaraklik hosil qiladi.

Joylashuv omili deganda soʻz birikmalari tarkibidagi soʻzlarning erkin joylashuvi hamda jipslashuv holatidagi joylashuvini nazarda tutamiz. Turkiy tillarda tobe boʻlak va hokim boʻlakning meʼyoriy tartibi qatʼiy boʻlib, tobe boʻlak oldinda hokim boʻlak keyinda keladi. Erkin joylashuvda tobe va hokim boʻlaklarni bir-biridan «uzish», ajratish, ular orasiga boshqa boʻlaklarni kiritish imkoniyati mavjud boʻladi. Masalan, *shahrimizning koʻchalari* – *shahrimizning obod va koʻrkam koʻchalari*; *kitobni oʻqimoq* – *kitobni berilib oʻqimoq*. Erkin joylashuvda soʻz birikmasining tarkibi nafaqat bir-biridan «uzilishi», balki teskari joylashtirilishi ham mumkin. Chunonchi, *mening yurtim* – *yurtim mening*;

Ey muqaddas gul diyorim, gulshanim, jonim mening.

Men sening bagʻringda oʻsdim, yoʻqdir armonim mening. (Uygʻun)

Jipslashuv deganda tobe boʻlak hamda hokim boʻlakni bir-biridan «uzish» mumkin emasligi nazarda tutiladi. *Oltin baldoq*, «*Diyonat*», *romani katta tanaffuz*, *beshta ishchi* kabi soʻz birikmalarida joylashuv omilining jipslashuv koʻrinishi mavjud. Demak, har qanday soʻz birikmasi soʻzda mavjud imkoniyatlarning voqelanish shakli, yaʼni maʼnoviy + shakliy + joylashuv omillarining oʻzaro muvofiqlashuvi natijasi hamdir.

Yuqorida sanab oʻtilgan birikish omillari oʻzaro teng huquqqa ega, biroq ular bir vaqtning oʻzida baravar yuzaga chiqa olmaydi. Negaki, soʻzlarning birikishini belgilovchi yetakchi omil boshqalarining toʻla voqelanishiga yoʻl qoʻymaydi. Ammo hech vaqt birorta omil nolgʻa ham teng boʻlmaydi.

Nutqiy bosqichda soʻz birikmasi tarkibidagi soʻzlarning oʻzaro birikish usullari sifatida boshqaruv, moslashuv, bitishuv ham ajratiladi. Bular, asosan, nutqimizda ishlatiladigan son-sanoqsiz soʻz birikmalarining zohiriy jihatlarini kuzatish asosida yuzaga kelgan desak, xato qilmaymiz. Boshqaruv, moslashuv, bitishuv usullari bilan tanishamiz.

Boshqaruv. Bunda sintaktik aloqaga kirishayotgan muayyan soʻz boshqa shunday bir soʻzning maʼlum shaklga kirishini talab etadi. Boshqaruvda hokim boʻlakning talabiga koʻra tobe boʻlak tushum, joʻnalish, oʻrin-payt, chiqish kelishigi shakllarini qabul qiladi yoki soʻz koʻmakchilar bilan birga keladi. Baʼzan tobe boʻlakning tarkibida ham grammatik shakl (kelishik qoʻshimchasi), ham koʻmakchi qoʻllaniladi. Shu xususiyatiga qarab, boshqaruv hodisasini uch turga ajratish mumkin:

1)kelishikli boshqaruv: *onani ardoqlash*, *shahardan ketish*;

2)koʻmakchili boshqaruv: *kun boʻyi ishlash*, *adolat uchun kurash*;

¹ Назарова С. «Тобе» танлайдимми ёхуд «хоким»? ЎТА. 1997, 3-сон. 63-64-б.

3)kelishikli-ko`makchili boshqaruv: *uyga tomon yurish, otdan ko`ra balandroq.*

Tobe bo`lakning qanday shaklda bo`lishi hokim bo`lakning leksik-sintaktik xususiyatiga bog`liq. Ayni paytda hokim bo`lakning tanlanishi ham tobe bo`lakning shakliga, semantikasiga bog`liqdir.

Moslashuv. Bunday bog`lanishda ikki yoki undan ortiq so`z yoki tobe hamda hokim bo`laklar bir-biri bilan grammatik-semantik jihatdan muvofiqlashadi, bir-biriga moslashadi. Bunda biror belgi, harakat, xususiyat, narsa-buyum qaysi predmetga oidligi, aloqadorligi ko`rsatiladi. Chunonchi, *gulning hidi, motor qizishi, o`z bolasi; наши современники, короче говоря, воля судьба* kabi.

Bitishuv. Bu usuldagi bog`lanishda tobe bo`lak hamda hokim bo`lak hech qanday formal belgilarisiz munosabatga kirishadi. Bitishuvda hokim bo`lakning shakli o`zgarib, tobe bo`lak o`z formasini o`zgartirmaydi. Bunday so`z birikmalarida tobe hamda hokim bo`laklar odatdagi tartib (jipslashuv) va intonasiya bilan xarakterlanadi: *moviy osmon, chiroyli sahna, orombaxsh havo, dono chol.* Bitishuvli birikmalarda hokim bo`lak, odatda, ot so`z turkumiga yoki fe'lga mansub bo`ladi. Hokim bo`lak ot bilan ifodalansa, atributiv birikma hosil bo`ladi: *chiroyli qomat, uzun soch, yorug`xona* kabi.

Hokim bo`lak fe'l bo`lganda, relyativ (holli) birikma yuzaga keladi: *yugurib chiqmoq, sekin gapirmoq, tez charchamoq ...*

So`z birikmalari tarkibidagi tobe bo`lak hamda hokim bo`lakning birikish usullari turli tillarda turlicha ko`rinishlarga ega bo`ladi, ya`ni ular bir-biriga ko`pincha mos kelavermaydi. Chunonchi, turkiy tillarda [sifat + ot], [olmosh + ot], [son + ot], [sifatdosh + ot] birikuvlari bitishuv munosabatini bildirsa, xuddi shu birikuvlar rus tilida moslashuvni ifodalaydi. Qiyoslang: *katta bino, beshta daftar, bu odam, o`qiyotgan bola; большой дом, вторая книга, пятый курс, читающий человек.*

Yuqoridagi fikrlardan shunday xulosa chiqarish mumkin: so`z birikmalari sintaksisga aloqador bo`lib, nutq jarayonida so`zlarni o`zaro tobe-hokimlik aloqalariga kiritib, atov birliklari hosil qilish yo`llaridir. Lisoniy sintaktik qoliplarda xuddi mana shu narsa o`z aksini topadi. Shunga ko`ra, o`zbek tili uchun so`z birikmalari cheksiz turlarining umumiy qolipi [T-H], ya`ni [tobe + hokim] sifatida beriladi. Demak, [T-H] qolipi o`zbek nutqida qo`llanila oladigan milliard-milliard mayyan so`z birikmalarining oliy, eng yuqori darajadagi umumiy qolipidir. Avval eslatib o`tganimizdek, o`zbek tilida so`z birikmalarining 18 ta ustivor qolipi olima S.Nazarova tomonidan aniqlangan. Ularning ba`zilari bilan tanishamiz.

1.[I q.k ~ I e.q] = SB, ya`ni «qaratuvchi - qaralmish» qolipi. U [Ism qaratqich kelishigi ~ Ism egalik qo`shimchasi = So`z birikmasi] tarzida o`qiladi. Ushbu qolipning [I q.k] tarkibiy qismini olib ko`raylik. Bu tarkibiy qism ism so`zlar turkumiga mansub bo`lishi zarur (ya`ni boshqa kelishiklarga yoki tuslanish shakllariga mansub emas), shuningdek, umumiy qolipning [I e.q] bilan ifodalangan qismiga tobelanib kelishi, uning bilan birgalikda lisoniy «qaratuvchi-qaralmish» munosabatlariga ega bo`lishi zarur. [I q.k ~ I e.q] qolipi yuz minglab so`z birikmalarida takrorlanib turadigan, moddiylikdan ajratib olingan umumiylikdir. *Kitobning varag`i, gulning ifori, qizning ovozi, mening fikrim, she`riyat sehri, sizning tuhfangiz, mashinaning g`ildiragi, insoniyatning istagi* kabi son-sanoqsiz so`z birikmalari yuqoridagi qolipning hosilalaridir.

2.*Pomir tog`i, go`sht do`koni, Buxoro shahri, Toshkent viloyati* kabi birikuvlar [O b.k ~ O e.q] = SB, ya`ni [ot bosh kelishik ~ ot egalik q.] qolipining hosilalari hisoblanadi. Eslatib o`tish zarurki, yuqoridagilar umumiy qoliplar bo`lib, ularning har biri o`z ichki xususiy qoliplariga ham egadir.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

- 1.Serqirralik tushunchasini izohlang.
- 2.So`z va so`z birikmasining umumiy va farqli jihatlarini misollar asosida qiyoslang.
- 3.«Otlilik birikma» va «fe`lli birkma» tushunchalarini qanday izohlaysiz? Tilshunoslikka oid adabiyotlarda uchrovchi «ravishli birikma» atamasiga munosabatingizni bildiring.
- 4.Tobe bo`lak hamda hokim bo`lakni biriktiruvchi omillar haqida ma`lumot bering.
- 5.Nutqiy bosqichda so`zlarning o`zaro birikish usullari - boshqaruv, moslashuv va bitishuvni misollar asosida tushuntiring.
- 6.So`z birikmasining umumiy lisoniy sintaktik qolipi haqida ma`lumot bering.
- 7.[I o`xshatish ~ F] = SB, [I kelishik qo`shimchasi ~ F]=SB qoliplaridan chiqadigan hosilalarni yozing.

Asosiy adabiyot:

1. Азизов О. Тилшуносликка кириш. Т., “Ўқитувчи”, 1996.
2. Баскаков Н., Содиқов А., Абдуазизов А. Умумий тилшунослик. Т. “Ўқитувчи”, 1979.
3. Содиқов А., Абдуазизов А., Ирискулов М. Тилшуносликка кириш. Т., “Ўқитувчи”, 1981.

Yordamchi adabiyotlar:

- 1.Академ грамматика. II қисм. Т., «Фан», 1966.
- 2.Менглиев Б. Ўзбек тилининг структур синтаксиси. Қарши, «Насаф», 2003.
- 3.Назарова С. Бирикмаларда сўзларнинг эркин боғланиш омиллари. АКД, Т., 1997.
- 4.Неъматов Ҳ. ва б. Ўзбек тили структурал синтаксиси асослари. Т., «Университет», 1999.
- 5.Гуломов А., Асқарова М. Ҳозирги замон ўзбек тили. Синтаксис. Т., «Ўрта ва олий мактаб», 1961.

Mavzu: Gap

Reja:

- 1.Gap – fikr ifodalash vositasi.
- 2.Gap muomalaning eng muhim birligi sifatida.
- 3.Gapning lisoniy sintaktik qoliplari [GLSQ].
- 4.Gapning asosiy belgilari.

5. Gap kengaytiruvchilari va soʻz kengaytiruvchilari haqida.

6. Sodda gap va qoʻshma gap, uning turlari.

Mavzu boʻyicha tayanch tushunchalar:

Gap va hukm, nutqiy bosqichdagi gap taʼriflari, lisoniy bosqichda gap, zohiriy va lisoniy qoliqlar, shakllangan kesim, atov birligi, kesimlik qoʻshimchalari, gap lisoniy sintaktik qolipining shakli va mazmun tomoni, gap va ohang, gap kengaytiruvchilari (ega, hol), soʻz kengaytiruvchilari (toʻldiruvchi, aniqlovchi), grammatik asos, qoʻshma gap va uning turlari (qoliqlari), qoʻshma gap va uyushiq kesimli sodda gaplar, qoʻshma gap va uyushgan gaplar.

Nutq faoliyati uchun eng asosiy birlik gapdir. Chunki ijtimoiy hayotda soʻzlovchining fikr ifodalashi, axborot uzatishi, tinglovchining axborot qabul qilishi, yaʼni kishilarning oʻzaro fikr almashuvi soʻz yoki soʻz birikmasi orqali emas, balki gap orqali amalga oshadi. «Til ~ nutq ~ nutq qobiliyati»dan asosiy maqsad gap tuza olish va uni bayon etishdan iborat. Inson tilida nimaiki boʻlsa, barcha-barchasi gapni turfa shakl va mazmunda qurish uchun xizmat qiladi. Zeroki, gap maʼlum fikrni, hukmni ifodalaydi. Fikrning manbai esa real borliq yoki tuygʻu-hissiyotlardir. Masalan, *Daraxt gulladi* gapini olaylik. Ushbu gap bizning ongimizda ikki tasavvur – predmet (*daraxt* haqidagi tasavvur) va uning holati (*gullamoq* haqidagi tasavvur)ni jonlantiradi va oʻzaro yaqin ikki tasavvurning qoʻshilishidan hukm (fikir) yuzaga keladi. Hukm esa gap orqali ifodalanadi. Tildan maqsad – gap qura olish, gapdan maqsad esa fikr ifodalashdir. Shu oʻrinda til bilan tafakkurning chambarchas bogʻliqligini eslashning oʻzi kifoya.

Gap har bir til sistemasida kommunikativ mohiyatga molik boʻlgan eng asosiy birlik boʻlib, oʻziga xos tuzilishga ega. Til oʻzining kommunikativ funksiyasi (jamiyatda aloqa vositasi vazifasi)ni faqat gap orqaligina bajaradi. Tilning asosiy vazifalaridan yana biri psixik (ruhiy) funksiyasi boʻlib, fikrni shakllantirishga xizmat qiladi va bu vazifa ham gap orqali yuzaga chiqadi. Demak, gapda ham ijtimoiy, ham ruhiy maqsad boʻladi. Shuning uchun tilning barcha sathlari – fonologiya, fonetika, leksika, semantika, morfologiya, sintaksis, stilistika – bitta maqsadga gapni shakllantirishga va aloqani amalga oshirishga xizmat qiladi.

Gapning tabiati, mohiyati, uning konstruktiv-grammatik belgilari, gapning soʻz, soʻz birikmasi va turgʻun birikmalardan farqi kabi masalalar har bir tilning grammatikasida oʻrganilishi bilan birga jahon umumiy tilshunosligi uchun ham gʻoyat muhim masalalardir. Tilshunoslik tarixida bu masalalar turlicha talqin etilgan boʻlib, hozirgacha gapga uch yuzdan ortiqroq taʼrif berilgan. Chunonchi:

«Nutqning shu tilning grammatik qonun-qoidalariga mos ravishda toʻla shakllantirilgan birligi gapdir» (rus tilshunos olimi V.V.Vinogradov). «Gap – nutqning tugallangan fikr ifodalaydigan boʻlagi» (oʻzbek tilshunos olimi A.Gʻulomov). Har ikkala taʼrif ham bevosita kuzatishda berilgan nutqiy hosila xossalari tayanadi. Nutq birliklari xususiyliklar sifatida shu qadar xilma-xilki, ularni oddiy yoʻl bilan bir-biriga qoʻshib umimlashtirish yoki ularga umumiy taʼrif berish mohiyatga bir tomonlama yondashishni keltirib chiqaradi. Tilni tizim sifatida oʻrganuvchi tilshunoslik gapga nutq birligi sifatida berilgan taʼriflarni rad etadi, shuningdek, gapga lisoniy bosqichda taʼrif berish mumkinligini eʼtirof etadi.

Sizga maʼlumki, «lison ~ nutq» aspektida gap nutq birligi, uning qolipi (modeli) til birligi sifatida tan olinadi. Xoʻsh, gap qolipi nima oʻzi? Siz lisoniy sintaktik qoliqlarning bevosita kuzatishda berilmagan, umumiylik, mohiyat, zarurat, sabab, imkoniyat ekanligini bilasiz. Lisoniy sintaktik qoliqlar oʻz ichida moddiylikka ishorani mujassamlashtirgan boʻladi. Gapning lisoniy sintaktik qolipi ham gapning asosiy grammatik va struktur xususiyatlarini oʻz ichiga olgan mavhum chizmadir. Gaplarga xos boʻlgan zohiriy (nutqiy) va umumiy (lisoniy) qoliqlar mavjud. Nutqiy qoliqlar turlicha boʻlishi mumkin. Masalan, *Qizim maktabga boryapti* gapining zohiriy qolipini chizib koʻraylik.

1-qolip: Ot^{e.q.} + ot^{j.k.} + f^{h.zamon}

2-qolip: ega + hol + kesim.

Nutqda voqelangan gaplarning tuzilishi behad xilma-xil boʻlgani kabi yuqoridagi nutqiy qoliqlar ham nihoyatda turli-tumandir. Biroq gaplar asosida qoliqlar tuzish – loyning shakliga qarab gʻisht qolipini yasashdek gap. Bu mantiqan notoʻgʻridir. Shuni eslatib oʻtish lozimki, hosilalardan qolip kelib chiqmaydi, aksincha, gaplar gapning lisoniy sintaktik qolipidan chiqqan turli-tuman koʻrinishdagi, ammo umumiy mohiyatga borib birlashuvchi hosilalardir.

Gapning lisoniy sintaktik qolipi shakl va mazmun tomonlaridan iborat. Uning mazmun tomoni fikr yoki hukm ifodalashidir. Xoʻsh, gap lisoniy sintaktik qolipining shakl tomoni nimadan iborat?

Oʻzbekcha gaplarning ichki tabiatidan kelib chiqsak, har bir gapda – qaysi soʻz turkumi va uning qanday shaklda boʻlishidan qatʼiy nazar – shakllangan kesimning takrorlanganligini kuzatamiz. Oʻzbekcha gaplarda kesim hamisha shaxs/son qoʻshimchalari bilan keladi. Shaxs/son qoʻshimchalari esa egasining shaxsi va soni haqida maʼlumot berib turadi va uni yana alohida gap boʻlagi bilan qaytadan takrorlab oʻtirishga hech zarurat qolmaydi. Chunonchi, *Oʻqidim; Yugurdim; Kechikdik* kabi ixcham gaplarda (*Men; Sen; Biz* kabi) egalarni ishlatishga zarurat yoʻq. Gapni «lison ~ nutq» aspektida ilmiy tekshirish natijalariga tayangan holda ayta olamizki, oʻzbek tilida umumiy gap qolipi egasizdir. Oʻzbek tilida gapning umumiy qolipi [WPm], yaʼni «atov birligi [W]ga kesimlik qoʻshimchalari [Pm] qoʻshilgan qurilma» sifatida belgilangan. Demak, gap lisoniy sintaktik qolipining shakli tomoni [WPm] yoki [AK q = hukm] (Atov birligi+Kesim qoʻshimchasi = hukm)ga tengdir.

Oʻzbekcha gaplar uchun gapning asosi kesim boʻlib, u tasdiqlinkor, zamon, mayl/modallik, shaxs/son maʼnolarini ifodalab keladi, hukmni ifodalaydi va gapning boshqa boʻlaklarini oʻz atrofida birlashtiradi. Kesim vazifasida kelgan atov birligining nutq talabi va ehtiyojiga koʻra kengayish qobiliyati, yaʼni gapning zaruriy boʻlaklarini oʻz atrofida birlashtira olishi kesim vazifasida kelgan soʻzning semantik-sintaktik valentligiga bogʻliqdir.

[WPm] qolipiga eʼtibor bersak, qolipning lugʻaviy maʼno ifodalaydigan qismi [W] bilan, kesimlik kategoriyasining koʻrsatkichlari qismi (tasdiqlinkor, ...) [Pm] bilan ifodalanishini koʻramiz. Qolipning birinchi qismi sodda tub, sodda yasama, qoʻshma, juft soʻzlar, ajralmas birikma, ibora bilan ham ifodalanishi mumkin va u yana kengayish imkoniyatiga ham ega. Biroq buning qolipga daxli yoʻq. Chunonchi:

Onamni quvontirdim (quvon – [W] -tirdim [Pm]).

Karim kitob sotib oldi (sotib ol – [W] -di [Pm]).

U mayda gaplarga quloq solmaydi (quloq sol – [W] -maydi [Pm]).

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, gapga lisoniy bosqichda shunday ta'rif bera olamiz: **«Atov birliklarining kesimlik kategoriyasi ko'rsatkichlari bilan shakllangan ko'rinishi gap deyiladi».**

Yevropa tishunosligida XVI asrdan buyon gapning lisoniy sintaktik qolipi ikki a'zoli [E-K] (ya'ni «ega+kesim») qurilma sifatida ajratiladi. Aslida bu qurilma tilshunoslikka mantiqdan ko'chirilgan bo'lib, mantiq fanida hukm hamisha ikki a'zoli, ya'ni «subyekt - predikat»dan iboratdir. Bu qurilma [S-P] to'ppa-to'g'ri gap tizimiga ko'chirildi, gapning egasi «subyekt», kesimi esa «predikat», ya'ni gap «subyekt bilan predikat orasidagi aloqa» deb nomlanadi. Bu fikr ruscha gaplarga ham tegishli bo'lib, ruscha gaplarning tabiati [E+K] qolipiga uyg'undir. Chunonchi, *Я пришёл. Идёт снег. Я умею рисовать. Я встаю в семь часов* kabi.

Nutqiy bosqichda gap o'ziga xos belgilarga ega bo'lib, gapning lisoniy sintaktik qolipida shu belgilarga ishora bo'ladi. Gap, avvalo, sintaktik tugallangan qurilma ekanligi bilan xarakterlanadi, ya'ni gap nisbiy tugallangan fikrni ifodalaydi, tugallangan ohang bilan aytiladi. Demak, gapning eng muhim belgilari quyidagilar:

- 1) gap tarkibida kesimlik ko'rsatkichlari bilan shakllangan kesimning bo'lishi shartligi;
- 2) gapning grammatik-intonatsion va fikriy jihatdan bir butunlikka, tugallikka ega bo'lishi.

Gapning grammatik – intonatsion shakllangan, tugallangan bo'lishi shartligi ohangning nutqiy gapdagi doimiy xarakterli belgilardan biri ekanligini ko'rsatadi. Gapning nisbiy tugallangan fikr ifodalashi ohangning tugallanganligiga mos keladi. Og'zaki nutqda gapning grammatik-fikriy bir butunligini ohang bildirib turadi va uni gap bo'lmagan nutqiy hodisalar (so'z, so'z birikmasi)dan farqlashga yoram beradi. Masalan,

- a) *baqirayotgan bola; bu student* (so'z birikmalari);
- b) *Baqirayotgan – bola; Bu – student* (gaplar).

Ohang nafaqat gapning tugallanganligini bildiradi, balki gapning turli tiplarini belgilashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunonchi, *Gullar ... Gullar. Gullar? Gullar!*

Mehmon keldi. Mehmon keldi?... Mehmon keldi! Mehmon keldi!!!

Biz yuqorida o'zbekcha gapning maksimal qolipidan chiqqan son-sanoqsiz hosilalarda shakllangan kesimning takrorlanishini aytib o'tgan edik. O'zbek nutqidagi gaplarning tarkibiy qismlarini shakllangan kesimni tashkil etuvchi atov birligi va kesimlik kategoriyasi shakllarining valentligi belgilaydi. Shunday ekan, [WPm] qolipining [W] qismini mazmunan to'ldirib keluvchi so'zlarni (so'z kengaytiruvchilarini) va [Pm] qismi shakllariga bog'lanuvchi so'zlar (gap kengaytiruvchilari)ni farqlash lozim.

Gap kengaytiruvchilari gap tarkibida ma'lum bir bo'lak vazifasida kelayotgan so'zlarning lug'aviy ma'nosi bilan emas, balki gapning kesimini shakllantiruvchi morfologik vositalarga bog'lanadi. Ega va hol gap kengaytiruvchilari.

Ega gap kesimini shakllantiruvchi [Pm] – kesimlik kategoriyasida mujassamlangan shaxs-son ma'nosini muayyanlashtiradi. Masalan: *Biz xatni o'qidik* nutqiy hosilasidagi kesimning lug'aviy qismi bo'lgan *o'qi* – fe'lini istagan boshqa so'z bilan almashtirsak (masalan: *ol-, yoz-, yubor-, yirt-, yashir-, g'ijmla-, ko'r- va h.*), biroq *[-dik]* qismini saqlasak, *Biz* ega vazifasida kelaveradi. *[-dik]* tarkibidagi shaxs-son qo'shimchasini, ya'ni *[-k]* olib tashlasak yoki almashtirsak (masalan, *[-ngiz]* shakli bilan), *Biz* ham o'zgarishiga to'g'ri keladi.

Tabiiyki, payt holi [Pm] tarkibidagi zamon ma'nosini oydinlashtiradi. Chunonchi, *Salima kecha kelgan edi. Salima bugun kelyapti. Salima ertaga keladi.*

Holning ma'no jihatdan boshqa turlari ot-kesimli gaplar tarkibida kelganda gap kengaytiruvchilari, fe'l-kesimli gaplar tarkibida esa so'z kengaytiruvchilari bo'lib keladi.

Ta'kidlaganimizdek, kesim tarkibidagi so'zning lug'aviy ma'nosini so'z kengaytiruvchilari muayyanlashtiradi. Bu siraga to'ldiruvchi va aniqlovchini kiritish mumkin. So'z kengaytiruvchilari gap konstruktiv tuzilmasidan o'rin egallay olmaydi. Gap kengaytiruvchilari esa gapning minimal qoliplaridan o'rin egallaydi.

Yevropa tilshunosligida, jumladan, rus tilshunosligida gap tarkibi bosh bo'laklar (ega va kesim) va ikkinchi darajali bo'laklar (to'ldiruvchi, aniqlovchi, hol)ga ajratiladi. Xuddi shunday talqinni o'zbek tiliga oid (1930-1990-yillar oralig'ida chop etilgan) har bir darslik yoki qo'llanmada ham uchratish mumkin. Chunki o'tgan asrning 30-yillarida yangi davr o'zbek tilshunosligi shakllanish jarayonida yevropa tilshunosligidan, xususan, rus tilshunosligidan gapning umumiy [S-P] qurilishi o'zbek tili tizimiga ko'chirildi va o'sha davr mafkurasiga ko'ra, asta-sekin darslik, qo'llanmalarga ommalashdi. O'zbek tili uchun kesim gapning markazi ekanligini yuqoridagi gap tarkibi bo'linishini rad etadi.

O'zbek nutqi uchun gapning «jon», «yuragi» kesimdir. U gapning grammatik asosini tashkil etadi. O'zbek tilshunosligida keyingi yillarda N.Mahmudov, A.Nurmatov, L.Raupova, M.Abuzalova, M.Saidova kabi olimu olimalar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda kesim gapning yadrosi, gapning bevosita tashkil etuvchisi va uning uyushtiruvchisi ekanligi, hattoki, atov gaplarning tarkibi egadan emas, balki kesim tarkibidagina iboratligi isbotlab berildi. Kesimning mustaqil va nomustaqil kesimlik shakllari farqlandi. (Bular haqida til fanining «Sintaksis» bo'limida to'laroq ma'lumotga ega bo'lasiz.)

Gaplar turli tillarda, asosan, quyidagi belgilar asosida tasnif etiladi:

1. Ifoda maqsadiga ko'ra: darak, so'roq, buyruq gaplar.
2. Hissiy-ta'siriy jihatiga ko'ra: his-hayajonli gaplar va his-hayajonsiz gaplar.
3. Ifoda mazmuniga bo'lgan munosabatga ko'ra: tasdiq mazmunli gaplar va inkor mazmunli gaplar.
4. Grammatik asosning miqdoriga ko'ra: sodda va qo'shma gaplar.
5. Gaplar grammatik jihatdan shakllanishiga ko'ra: to'liq gaplar va to'liqsiz gaplar.

Shuningdek, ushbu tasniflar o'zbek nutqi uchun xarakterlidir:

1. Gaplar kesimlik kategoriyasi mazmunini ifodalash usuliga mos ravishda: grammatik shakllangan gaplar va semantik-funksional shakllangan gaplar.

2. Gapning lisoniy qurilishida eganing ifodalangan yoki ifodalanmaganligiga ko'ra: egali gaplar va egasiz gaplar.

E'tiborimizni gapning grammatik asoslar miqdoriga ko'ra ajratilgan turlarga qarataylik. Yuqoridagi fikr-mulohazalarimizda, asosan, sodda gapga xos bo'lgan xususiyatlar tahlil etildi. Sodda gaplarning eng kichik qurilish qolipi [WPm] ekanligi aniqlandi. Endi diqqatni qo'shma gaplarga jalb etamiz.

Qo'shma gaplar sodda gaplar bilan mustahkam bog'langan, biroq ulardan tuzilishi, uzatilayotgan axborot nuqtayi nazaridan farqlanuvchi sintaktik qurilmadir. Sodda gapda shakllangan kesim bitta bo'lsa, qo'shma gapda u birdan ortiq bo'ladi, ya'ni qo'shma gap birdan ortiq sodda gaplarning mazmun hamda grammatik birikuvidan tashkil topadi. Kesimlarning birdan ortiqlikidan tashqari, har bir qo'shma gapda ifodalanayotgan fikr, uzatilayotgan axborot ham birdan ortiq bo'ladi va ular o'zaro zich munosabatni, sodda gaplararo grammatik butunlikni hamda intonatsion yaxlitlikni taqozo etadi.

Kommunikativ nuqtayi nazardan sodda gap bir fikrni, hukmni ifodalasa, qo'shma gaplarda bu birdan ortiq bo'ladi. Chunonchi,

Oy yoritadi, ammo isitmaydi.

Men o'qiyman, yozaman va ishlayman.

Брат сказал, что мы завтра поедем на рыбалку. Наступила минута, когда я понял всю эту цену слов. When I came home, I saw that the table was set.

Shunday qilib, qo'shma gap grammatik jihatdan shakllangan, birdan ortiq axborotni tashish uchun mo'ljallangan, sodda gaplarning grammatik, semantik, intonatsion va kommunikativ jihatlaridan yaxlitlangan butunligidir.

Qo'shma gaplarning umumiy lisoniy sintaktik qolipi [WPm] U [WPm] ko'rinishiga egadir. O'zbek tilida qo'shma gaplarning, asosan, uch turi ajratiladi:

1. Teng tarkibli qo'shma gaplar (qolipi – [WPm], [WPm]).
2. Tobe tarkibli qo'shma gaplar (qolipi – [WPm] → [WPm]).
3. Mutanosib tarkibli qo'shma gaplar (qolipi – [WPm] ↔ [WPm]).

Teng tarkibli qo'shma gaplarning mohiyati shundaki, uning tarkibiy qismlari sanalmish sodda gap kesimlarining har biri mustaqil shakllangan bo'lib, ularni osongina alohida sodda gaplarga aylantirib yuborish mumkin. Chunonchi, *Bormang, bormoqchimisiz? Kechasi qalin qor yog'di, biroq havo unchalik sovimadi. Men seni deyman-u, sen kimni deysan?!*

Tobe tarkibli qo'shma gaplarda ikki yoki undan ortiq sodda gaplar shakllangan [Pm] mavjud bo'lsa-da, birinchi sodda gapning markazi mustaqil sodda gap kesimi bo'la olmaydi. U doimo tobe gap markazini shakllantirib, o'z mohiyatini ochishi uchun o'zidan keyin mustaqil kesimli gap bo'linishini talab etadi. Masalan, *Men qo'shiq aytsam, u tinglaydi. Ergash ko'ringan ham edi, bolalar yugurishdi.* Demak, [WPm] → [WPm] qolipidan chiqqan hosilalarda birinchi gap shaklan va mazmunan ikkinchi bir gapga ehtiyoj sezadi, lekin aksincha emas.

Mutanosib tarkibli qo'shma gaplarni tashkil etuvchi sodda gaplar kesimlarining biri ikkinchisini, ikkinchisi esa birinchisini taqozo etadi. Ikkalasining ham kesimi nomustaqil kesim hisoblanadi. Chunonchi, *Tezroq tong otsa-yu, bog'larni, maysalarni ko'rsam. Agar Salima biznikiga kelsa edi, biz birga borgan bo'lar edik.* [WPm] ↔ [WPm] qolipli qo'shma gaplar tarkibidagi sodda gaplarni mustaqil holda qo'llash mumkin. Biroq ular mustaqil qo'llanganda butunlay boshqa ma'no yuzaga chiqadi.

Qo'shma gaplarning siz o'rta maktabda tanishgan quyidagi tasnifi ham mavjud:

1. Ohang yordamida bog'langan qo'shma gaplar;
2. Bog'lovchilar yordamida bog'langan qo'shma gaplar;
3. Yuklamalar vositasida bog'langan qo'shma gaplar;
4. Nisbiy so'zlar bilan bog'langan qo'shma gaplar;
5. Kesimlik so'zlari bilan bog'langan qo'shma gaplar.

Qo'shma gaplarni uyushiq kesimli sodda gaplardan (*Salima o'tirar, turar va yig'lab chopar edi; Sotuvchi do'konidagi kitoblardan uch-to'rttasini artib, o'qib chiqdi* kabi) hamda sodda va qo'shma gaplar orasidagi «oralik uchinchi» uyushgan gaplardan (*Bahor kelar, dala ishlari qizib ketar edi* kabi) farqlash lozim.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Gap va hukmning o'zaro bog'liq va farqli jihatlari nimada?
2. Gapning asosiy vazifalari haqida gapiring.
3. Gapga nutqiy va lisoniy bosqichda berilgan ta'riflarni qiyoslang.
4. [WPm] qolipining mohiyatini tushuntiring. Qolipning ikki tomoni deganda nimani tushunasiz?
5. Kesimlik kategoriyasi haqida nimalar bilasiz?
6. Gapga xos asosiy belgilarni misollar asosida tushuntiring.
7. Gap kengaytiruvchilari nima? So'z kengaytiruvchilari-chi?
8. Gapga xos tasniflarni tillararo chog'ishtiring.
9. Sodda gapning xarakterli xususiyatlari nimada?
10. Qo'shma gap va uning turlarini misollar asosida tushuntiring.
11. «Oraliq uchinchi» deganda nimani tushunasiz?

Asosiy adabiyot:

1. Азизов О. Тилшуносликка кириш. Т., “Ўқитувчи”, 1996.
2. Баскаков Н., Содиқов А., Абдуазизов А. Умумий тилшунослик. Т. “Ўқитувчи”, 1979.
3. Содиқов А., Абдуазизов А., Ирискулов М. Тилшуносликка кириш. Т., “Ўқитувчи”, 1981.

Yordamchi adabiyot:

- 1.Абузалова М. Ўзбек тилида содда гапнинг энг кичик қурилиш қолипи ва унинг нутқда воқеланиши. НД. Т., 1994.
- 2.Азизов О. Тилшуносликка кириш. Т., «Ўқитувчи», 1996.
- 3.Академ. грамматика. II қисм. Т., «Фан», 1966.
- 4.Менглиев Б. Ўзбек тилининг структур синтаксиси. Қарши, «Насаф», 2003.
- 5.Неъматов Ҳ. ва б. Ўзбек тили структурал синтаксиси асослари. Т., «Университет», 1999.
- 6.Қурбонова М. Ҳозирги замон ўзбек тили. Т., «Университет», 2002.
- 7.Ғуломов А., Асқарова М. Ҳозирги замон ўзбек тили. Синтаксис. Т., «Ўрта ва олий мактаб», 1961.

Mavzu: Gapning aktual bo`linishi

Reja:

1. Gapning axborot yetkazish vazifasi.
2. Aktual bo`laklar haqida.
3. Tema-rematik bo`linish va gapdagi so`zshakllar tartibi.

Mavzu bo`yicha tayanch tushunchalar

So`zshakllarning erkinligi va umumiy lisoniy qonuniyatlar, aktuallik masalasi, aktual tuzilma va uning tarkibi, tema va rema, tema-rematik bo`linish va gapning formal bo`linishi, mantiqiy-grammatik sath, aktualashtiruvchi vositalar.

Nutq xusuiylik tabiatiga egaligi sababli gapda ishtirok etayotgan so`zshakllar tartibi bir qadar erkindir. Biroq bu «erkinlik» hech qachon umumiy lisoniy qonuniyatlar doirasidan chetga chiqolmaydi. Nutq qaysi uslubdaligiga ko`ra, so`zlovchining maqsadi asosida gap tarkibidagi so`zshakllar umumiy tartibga ega bo`ladi. Bundan tashqari, nutqiy bosqichdagi istalgan gap mazmunan ma`lum voqelikni ifodalash bilan birga, so`zlovchi axborotni nima maqsadda uzatayotganligini ham bildiradi. Chunonchi, *Salima universitetdan qaytdi* gapida muayyan shaxsning (ya`ni *Salimaning*) universitetdan qaytishi voqeligi xabar qilingan, bu birinchidan. Ikkinchi jihatdan e`tibor qaratsak, gapda so`zlovchining tinglovchiga Salimaning qaerdan qaytganligi haqidagi ma`lumotni yetkazish maqsadi ham aks etganligi seziladi. Shunga ko`ra, ushbu gap *Salima qaerdan qaytdi?* so`rog`iga javob bo`la oladi. Agarda shu gapni *Universitetdan Salima qaytdi* shaklida o`zgartirsak, gapda ifodalangan voqelik mazmuni o`zgarishsiz qoladi, ya`ni *Salima universitetdan qaytdi* – *Universitetdan Salima qaytdi* gaplari bir xil. Biroq, ikkinchi gapda so`zlovchining axborot maqsadi *Universitetdan kim qaytdi?* savoli orqali muayyanlashadi. Birinchi gapda harakatning yo`nalishi, ikkinchi gapda harakatning bajaruvchisi axborot maqsadini xarakterlaydi. Gapning axborot yetkazish vazifasi nuqtayi nazaridan tuzilishi **aktual bo`linish** deyiladi. Aktual tuzilmaning tarkibiy qismlari aktual bo`laklar hisoblanadi. Aktual bo`laklar **gap ifoda asosi** va **ifoda yadrolaridan** iborat bo`ladi. Gapda ifodalangan fikrning ma`lum qismi, ya`ni ifoda asosi tema (ma`lum demakdir) va noma`lum qismi, ya`ni ifoda yadrosi rema (yangilik demakdir) deb ham yuritiladi. Gapning rema qismi kommunikativ (axborot yetkazish) nuqtayi nazaridan ahamiyatli bo`ladi. Savol har doim remani aniqlash uchun beriladi. Gapning tema qismi ma`lum bo`lganligi sababli u so`roq gap tarkibida aynan takrorlanadi. Quyida ba`zi sodda gaplarning tema-rematik, ya`ni aktual bo`linishiga diqqat qiling:

tema	rema
Salima	(qayerdan?) universitetdan qaytdi
Universitetdan	(kim?) Salima qaytdi
Bahorda	(nimalar?) gullar ochiladi
Gullar	(qachon?) bahorda ochiladi
Karim	(nimani?) kursini tuzatmadi
Kursini	(kim?) Karim tuzatmadi

Gapning aktual bo`linishi gapning shakliy bo`linishiga qarama-qarshi turadi. Agar shakliy (formal) bo`linishda gap tarkibidagi grammatik element (kesim, hol, to`ldiruvchi, aniqlovchi kabi)larga e`tibor qaratilsa, aktual tuzilmada gapning ma`no jihatdan bo`linishi nazarda tutiladi. Aktual bo`linishda fikr ma`lumdan noma`lumga qarab boradi. Aktual bo`linish gapning formal bo`linishi bilan mos kelishi ham, kelmasligi ham mumkin. Chunonchi, *Ikki dugona olimpiadada g`olib bo`lishdi*; *Chekish mumkin emas* gaplarida *ikki dugona* va *chekish* tema bo`lib kelgan. Har ikkala gapda ham tema gapning egasi bilan muvofiq keladi. *Olimpiadada ikki dugona g`olib bo`lishdi*; *Dunyoni go`zallik qutqaradi* gaplaridagi *olimpiadada* hamda *dunyoni* so`zshakllari tema bo`lib, sintaktik bo`linishga muvofiq kelmaydi.

Demak, aktual bo`linish talabi bilan gapda so`zshakllarning tartibi har xil bo`ladi. Va u mantiqiy birlik bo`lgan hukmning bo`laklanishi (subyekt ~ predikat)ga ham o`xshaydi. Yuqoridagi xususiyatlar hisobga olingan holda, aktual bo`linish sathi mantiqiy-grammatik sath deb nomlanadi.

Aktual bo`linish lisoniy konstruktiv-sintaktik mohiyat bilan bog`liq sof nutqiy hodisadir. Gapda so`zshakllar tartibi aktual bo`linish bilan chambarchas bog`liq bo`lsa-da, buning lisoniy sintaktik qurilishga dahli yo`q.

Aktualashtiruvchilar qatorida tartibdan tashqari fonetik, leksik va grammatik vositalar ham mavjud. Fonetik aktualashtiruvchilar sirasiga logik hamda emfatik urg`uni kiritish mumkin. Logik (mantiq) urg`usi nutq tempi va pauza bilan bog`liqdir. Ma`lumki, gapda nechta so`zshakl bo`lsa, shuncha miqdorda so`z urg`usi bo`ladi. Gap tarkibidagi qaysi so`zshakl mantiqiy urg`u olsa, o`sha so`zshakl rema,

gapning qolgan qismi esa tema hisoblanadi. Emfatik urg`uda hissiy-ta'siriylik kuchli bo`lib, unli yoki undoshlar cho`ziladi, ba'zan so`zlar takrorlanadi (*Senga ka-a-atta tort keltirdim; Ko`zlaring chchchi-royli; Men, men aytaman* kabi). Emfatik urg`u olgan so`zshakllar remadir.

Ba'zi gaplar tarkibida yordamchi so`zlar (masalan, so`z-yuklamalar) va grammatik shakllar (masalan, affiks-yuklamalar) ham so`zshakllarning aktuallashishiga yordam beradi. Masalan, *Sarvar ham keldi; Yigitning o`zigina tushunadi* kabi.

O`zbek tilidagi atov gaplar, to`liqsiz gaplarning ba'zi ko`rinishlari tema-rematik bo`linishga ega bo`lmaydi va ular kommunikativ bo`linmas gaplar hisoblanadi. *Bahor! Oppoq qor... Rahmat. Ha, mayli* kabilar shular jumlasidandir.

Gapning aktual bo`linishini rus, ingliz, nemis, fransuz kabi tillarda ham kuzatish mumkin. Odatda, bu tillarda tema-rematik bo`linish gapning formal bo`linishi bilan mos kelmaydi. Masalan,

rus tilida	
tema	rema
Смех	побеждает грусть.
Грусть	побеждает смех.
Моё любимое дерево –	берёза.
Берёза –	моё любимое дерево.
Поезд	подходит к вокзалу.
К вокзалу	подходит поезд.

Keltirilgan misollarda, jumladan, birinchi gapda tema bo`lib kelgan *смех* so`zi именительный падеж ko`rinishida, rema – *грусть* so`zi esa винительный падеж shaklini olgan. Axborot maqsadi deyarli o`zgarmagan *Грусть побеждает смех* gapida esa, tema (*грусть*) именительный падеж, rema (*смех*) винительный падеж shakliga ega bo`lgan va h.

Ingliz tilidagi ushbu misolga diqqat qilaylik:

1. *The ball hit the boy* (*Koptok bolani yiqitdi*) - *The ball* (tema) – *hit the boy* (rema).

2. *The boy hit the ball* (*Bola koptokni yiqitdi* (*qo`ldan tushurdi* degan ma`noda) – *The boy* (tema) – *hit the ball* (rema).

Birinchi gapda *the ball* ega vazifasida kelgan bo`lsa, ikkinchi gapda to`ldiruvchi vazifasini o`tayapti, demak yuqoridagi gaplarda tema-rematik bo`linish shakli bo`linishga mos kelmagan.

Nemis tilida: *Die Frau sah das Madchen* (*Ayol kishi qizni ko`rdi*) – *Das Madchen sah die Frau* (*Qiz ayolni ko`rdi*).

tema	rema
Die Frau	sah das Madchen
Das Madchen	sah die Frau

Anglatilayotgan fikr xarakteriga qarab bir gap turlicha aktual bo`linishi mumkin: *Karim / musobaqada g`olib chiqdi* – *Karim musobaqada / g`olib chiqdi* kabi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

2. So`zshakllarning «erkinligi» deganda nimani tushunasiz?
3. Gapning aktual bo`linishi nimani ifodalaydi?
4. Aktual tuzilmaning tarkibi: tema-rematik haqida ma'lumot bering.
5. Tema-rematik bo`liish hodisasi barcha tillarga xos hodisami?
6. Xalq maqollaridan 10 tasini tanlab oling va ularning tarkibini tema hamda remalarga ajrating.

Asosiy adabiyot:

1. Азизов О. Тилшуносликка кириш. Т., “ Ўқитувчи”, 1996.
2. Баскаков Н., Содиқов А., Абдуазизов А. Умумий тилшунослик. Т. “Ўқитувчи”, 1979.
3. Содиқов А., Абдуазизов А., Ирискулов М. Тилшуносликка кириш. Т., “Ўқитувчи”, 1981.

Yordamchi adabiyot:

1. Головин Б. Введение в языкознание. М., 1973.
2. Содиқов А. ва б. Тилшуносликка кириш. Т., «Ўқитувчи», 1981.

Mavzu: Orfoepiya va orfografiya

Reja:

1. Orfoepiya – adabiy talaffuz me'yorlarini o`rganuvchi sath.
2. Orfografiya. Orfografik tamoyillar haqida.
3. Orfografik va orfoepik qoidalarning o`zaro bog`liqligi.

Mavzu bo'yicha tayanch tushuncha:

Adabiy talaffuz, talaffuz me'yori, nutq madaniyati va orfoepiya, ommaviy axborot vositalari va orfoepiya, orfografiya va imlo, fonetik prinsip, morfologik prinsip, tarixiy an'anaviy va shakliy prinsip, orfografiya va orfoepiya aloqadorligi.

Adabiy tilga xos bo'lgan muhim xususiyatlarning eng birinchisi uning muayyan me'yorlarga bo'ysunishidir. Fonetika, leksikologiya, morfologiya yoki sintaksis sohalarida bo'lgani kabi nutqning ikki ko'rinishi: og'zaki va yozma shakllarda ham barcha uchun umumiy bo'lgan o'ziga xos me'yorlar mavjud. Muayyan me'yorlardan chetga chiqish yoki chekinish kishilarning o'zaro fikr almashish jarayoni (og'zaki va yozma)da turli qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Og'zaki nutqning qonun-qoidalarini **orfoepiya** sathi, yozma nutqqa xos normalarni **orfografiya** bo'limi o'rganadi. Nutq tovushlari vositasida ifodalangan og'zaki nutqimiz eshitish orqali o'zlashtirilsa, harflar vositasi bilan ifodalangan yozma nutq esa ko'rish, o'qish, uqish orqali o'zlashtiriladi.

Orfoepiya (grekcha orthos – to'g'ri, epos – nutq) tildagi so'z va uning qismlarini adabiy talaffuz etish qoidalari to'plamidan iborat. Axborot uzatish va axborot qabul qilish jarayonida to'g'ri talaffuz muhim ahamiyatga ega. Orfoepiya normalari tilning fonemalar sistemasi bilan, fonemalarning ma'lum pozitsiyalardagi o'zgarishlari bilan va, asosan, nutq madaniyati bilan chambarchas bog'liq. Nutq madaniyatining ajralmas bo'lagi bo'lgan orfoepiya adabiy talaffuz madaniyatini oshirishga, uni bir tizimga solishga yordam beradi.

Orfoepik talaffuz me'yorlari adabiy til bilan birgalikda shakllanadi. Odatda, ba'zi tayanch shevalar talaffuzi adabiy til talaffuzi normasiga yaqin turadi. Masalan o'zbek adabiy tilining talaffuziga Toshkent va Farg'ona vodiysi shevalarining talaffuzi asos qilib olingan. Rus adabiy tilining talaffuziga esa Moskva va Leningrad shevalari asos sifatida qabul qilingan. Orfoepik me'yorlar makon va zamonda farqlanadi, o'zgaradi. Ya'ni har bir til o'zining ma'lum davrdagi adabiy talaffuz normalariga ega bo'lib, ular vaqt o'tishi bilan tildago fonetik, leksik va boshqa yangilanishlar natijasida o'zgarishi mumkin. Orfoepiya nutqning talaffuz me'yorlari amaliy jihatdan qanday bo'lishini fonetika va fonologiyadagi nazariy tamoyillarga asoslangan holda belgilab beradi. O'zbek tilida avvalgi adabiy talaffuz me'yorlari eski o'zbek adabiy tili negizida yuzaga kelgan bo'lsa, hozirda foydalanilayotgan adabiy talaffuz normalari fan texnikaning yuksalishi, xalq madaniy saviyasining tobora o'sib borishi, umumiy savodxonlik, o'rta va oliy maktablarning rivojlanishi kabi qator omillarni hisobga olgan holda belgilangan. Quyida orfoepiyaning ba'zi me'yorlari bilan tanishib o'tamiz:

1. Yonma-yon kelgan **ia, io, ai, oi, ea** – unilari orasiga qisqa **y** tovushini qo'shib talaffuz etish orfoepik me'yordir: *tabiat* – *tabiyat*, *shariat* – *shariyat*, *radio* – *radiyo*, *stadion* – *stadiyon*, *said* – *sayid*, *ukrain* – *ukrayin*, *doim* – *doyim*, *oila* – *oiyla*, *teatr* – *teyatr*, *laureat* – *laureyat* kabi.

2. *Samarqand*, *Toshkent*, *xursand*, *qand*, *baland*, *go'sht*, *past* kabi so'zlar oxiridagi **d, t** undoshlarini tushirib talaffuz etish, orfoepik me'yordir.

3. *Matbaa*, *metall*, *kilogramm*, *kilovatt*, *kongres* singari o'zlashma so'zlarning talaffuzida qo'sh unli (undosh)larning faqat bittasi talaffuz etiladi.

4. Shartli qisqartmalarni kengaytirilgan holatda o'qimaslik adabiy talaffuz normasiga ziddir: *AQSH* – *Amerika Qo'shma Shtatlari*, *BMT* – *Birlashgan Millatlar Tashkiloti*, *A. Navoiy* – *Alisher Navoiy*, *A. Qod.* – *Abdulla Qodiriy* kabi.

5. *Oftob*, *kitob*, *adab*, *maktab*, *Tolib*, *hisob* singari so'zlar oxiridagi **b** undoshi jarangsiz jufti bilan almashtirilib, **n** tarzida yalaffuz tilishi deyarli barcha sheva vakillari nutqiga xosdir va bu hol orfoepiya uchun me'yoriy hodisa hisoblanadi.

Orfoepiya notiqlik san'ati, nutq madaniyatidagi barcha talaffuz xususiyatlarining yig'indisini, radio, televideniye adabiy normaga solib turuvchi mezon hisoblanadi. Angliya, Buyuk Britaniya, Amerika kabi o'nlab rivojlangan mamlakatlarda matbuot sohasida, ayniqsa, televideniye adabiy orfoepik me'yorlarga qat'iy amal qilish talab etiladi. Talaffuz normalaridan chetga chiqish hollari ro'y bergan ko'rsatuvlar (u har qanday dolzarb masalalar bilan bog'liq bo'lishidan qat'iy nazar) efirga berilmaydi, mabodo bunday ko'rsatuvlar tasodifan efirga uzatilsa, ko'rsatuvni tayyorlagan jurnalistga televideniye muharririga katta miqdorda jarima solinadi, ba'zi holatlarda ular ishdan chetlatilishi ham mumkin.

O'zbekiston televideniyesi, radio va boshqa ommaviy axborot vositalari haqida hamma vaqt ham bunday gapni aytib bo'lmaydi. Ba'zi radio eshittirishlarida, televideniye ko'rsatuvlarida shevaga berilib, bu holatni "xalqona soddalik", "dehqontabiatlilik" sifatida izohlab, adabiy talaffuz me'yorlarini qo'pol ravishda buzish madaniyatsizlikning bir ko'rinishi ekanligini unutmashimiz lozim.

Orfografiya grekcha so'z bo'lib, orthos – to'g'ri va grafo – yozaman, "to'g'ri yozuv" degan ma'noni ifodalaydi. Orfografiya tovush va harflar, so'z va uning ma'noli qismlari, qo'shma, juft, takroriy, qisqartma (jumladan, shartli qisqartmalarining ham) so'zlarning qo'shib, ajratib va chiziqcha orqali yozilishi, bo'g'in ko'chirish, bosh hamda kichik harflardan foydalanish o'rinlari haqidagi yagona qoidalar tizimidan iboratdir. Orfografiya og'zaki nutqni yozuv orqali to'g'ri ifodalash uchun har bir tilning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda yozuv qoidalarining umumiyligini ta'minlaydi. Bu esa og'zaki nutqni imlodan bir xil yozish imkoniyatini tug'diradi. Odatda, adabiy til ma'lum me'yorlarga ega ekanligi bilan shevalardan farqlanib turadi. Og'zaki nutqda ham, yozma nutqda ham muayyan me'yorlarga rioya qilish nutq (og'zaki va yozma)ning aniq, ravon va tushunarli bo'lishiga yordam beradi. Adabiy tilni to'liq egallash uchun esa til va nutq me'yorlarini bilish hamda unga rioya qilish shart. Orfografiya to'g'ri yozish qoidalarini belgilashda ma'lum tamoyillarga asoslanadi. Tilshunoslikda orfografiyaning quyidagi prinsipi (tamoyili) lari qayd qilinadi: fonetik, morfologik, tarixiy - an'anaviy va shakliy (simvolik yoki ideografik) prinsiplari. Biroq bularning mavqei hamma tillarda ham bir xil emas: har bir tilning orfografiyasi uchun u yoki bu prinsip asos qilib olinadi. Asosiy orfografik tamoyillar va ularning o'ziga xos xususiyatlari xususida alohida to'xtalib o'tamiz.

Fonetik tamoyil. Bu orfografiyaga xos asosiy mavqe egallovchi prinsiplardan bo'lib, unga ko'ra so'zlar talaffuz qilinishiga mos ravishda yoziladi. So'zshakllarning talaffuz etilishida yuz bergan fonetik o'zgarishlar hisobga olinadi. Chunonchi, *jurak-juragi*, *jurakka*, *son-sana*, *sanoq*, *sanog'i*, *qishkoq-qishlogim*, *qishloqqa* kabi. Demak, fonetik prinsipda so'zning aytilishi bilan yozilishi bir-biriga mos keladi. Jo'nalish kelishigi qo'shimchasi [-ga], sifat-dosh shaklini hosil qiluvchi qo'shimcha [-gan], chegara ma'nosini ifodalovchi murakkab affiks [-gacha], payt va maqsad ravishdoshi shaklini yasovchi [-gach], [-guncha], [-gani], ozaytirma sifatni hosil qiluvchi [-gina] kabi affikslar o'zak-negizi **k, q** undoshlari bilan tugagan so'zlarga qo'shilganda, muayyan so'zshakllari fonetik tamoyil asosida yoziladi.

Masalan, *terakka, buloqqa, ekkani, boqqan, eshikkacha, quloqqacha, ayriliqqacha, zerikkach, chiqqan, tikkuncha, taqquncha, yoqqani, chekkani, kichikkina, iliqqina* va h.k.

Fonetik prinsipga asoslangan imlo qoidalari boshqa tillarda ham uchraydi. Jumladan, turkiy tillar oilasiga kiruvchi uygʻur tili imlo qoidalari uchun bu tamoyil etakchi oʻrinda turadi: *maktevi (maktabi), epkaldi (olib keldi)* kabi.

Rus tilidagi [без-], [воз-], [из-], [раз-] prefikslari jarangsiz undoshlar bilan boshlanuvchi oʻzak-negizlarga qoʻshilganda, koʻpincha, fonetik oʻzgarishga uchraydi va bu imlodan ham oʻz aksini topadi: *без+срочный = бессрочный, без+печный = беспечный, без+толковый = бестолковый, без+платно = бесплатно; воз+принять = воспринять, из+нустать = испустать, раз+цветсти = расцветсти*. Shuni eslatib oʻtish lozimki, na oʻzbek tili uchun, na rus tili uchun fonetik prinsip asosiy orfografik tamoyil vazifasini oʻtamaydi. Uygʻur tili, belarus tili orfografiyalarida bu tamoyilga koʻproq amal qilinadi.

Morfologik tamoyil. Bu prinsip boʻyicha soʻzshakllar qanday talaffuz etilishidan qatʼiy nazar, bir xil yozilishi talab etiladi. Demak, morfologik prinsip asosida yozilgan soʻzlar jonli soʻzlashuvdagi talaffuzga muvofiq kelmaydi. Oʻzbek tilining orfografiyasi (imlo qoidalari), asosan, shu tamoyilga asoslangan. Chunonchi, *yoziydi, ishda, maqtamoq, toʻqson, qochdi, rost, poʻstdumba, Samarqand, muomala, gazeta* singari soʻzlar (jonli nutqda *yozipti, ishta, maxtamoq, toʻxsan, qoshti, ros, poʻsdumma, Samarqan, muomila, gazet* tarzida aytilsa-da) asliga muvofiq yoziladi.

Qoʻshma va juft soʻzlar, *koʻm-koʻk, qip-qizil* kabi sifatlar, *har vaqt, bir mahal* kabi ravishda ham morfologik prinsip asosida yoziladi.

Rus tili orfografik qoidalarida ham morfologik prinsip etakchi rol oʻynaydi.

Masalan, rus tilidagi *часовой, города, подписка, вокзал, дорога, товар, команда, окно, вода, совпадать* singari soʻzlar jonli soʻzlashuvda *часовой, гарада, патписка, вакзал, дарога, тавар, каманда, акно, вада, сафпадат* tarzida aytiladi. Yuqoridagi kabi asliga koʻra yoziladi. A.N.Gvozdevning «Основы русской орфографии». (M., 1963, стр. 54) kitobida qayd etilgan maʼlumotga koʻra, rus tili imlo qoidalarining 71,4 foizi morfologik tamoyilga asoslangan.

Tarixiy – anʼanaviy tamoyil. Bu prinsip boʻyicha soʻzlar hozirda qanday talaffuz qilinishiga qarab emas, qadimdan anʼanaga aylanib qolgan qoidalar asosida yoziladi. Demak, soʻzlarning aytilishi uning yozilishidan farq qiladi. Biroq bunda morfologik prinsipdagi kabi morfemalarning yagona shakllanishiga, grammatik qoidaga rioya qilinmaydi. Aksincha, soʻzlarning yozma ifodasi ularning tarixan oʻzlashib singib ketgan shakliga teng keladi. Oʻzbek tilida bu tamoyildan, odatda, badiiy uslubda koʻproq foydalaniladi: Masalan:

1) maqsad ravishdoshi qoʻshimchasi [-gani] oʻrnida uning tarixiy koʻrinishlari [-gali], [-gʻali], [-qali], [-kali] qoʻllaniladi: *Koʻrgali keldingmi, yor, kuydirgali keldingmi, yor* (Qoʻshiqdan);

2) sifatdoshning [-r/-ar] shakli [-ur] tarzida ishlatiladi: *Shirin boʻlsang, yalab ado qilurlar, Acchchiq boʻlsang talab ado qilurlar* (E.Vohidov);

3) [-mi] soʻroq yuklamasi [-mu] shaklida qoʻllaniladi: *Sevgini tortib boʻlarmu, toshu tarozu bilan* (E.Vohidov); *Sen bahorni sogʻinmadingmu* (A.Oripov);

4) [-gin] buyruq - istak mayli shakli [-gil], [-gʻil] tarzida ishlatiladi: *Bas, yetar, koʻksimga urmagil xanjar* (A.Oripov);

5) chiqish kelishigi shakli [-dan] koʻpincha, [-din] tarzida beriladi: *Gavhar balchiqqa tushgani bilan qimmatini ushalmas va oʻz bahosidan qolmas* (I.Sulton) va h.k.

Kabutar, muomala, musicha, taqozo, erur kabi soʻzlar ham tarixiy – anʼanaviy tamoyil asosida yozilgan.

Gʻarbiy yevropa tillarida, jumladan, ingliz, fransuz, nemis tillarida ham shu prinsipga amal qilinadi. Chunonchi, ingliz tilidagi *to live [live] (yashamoq), to work [we:k] (ishlamoq), to condemn [ken:dem] (yomon koʻrmoq), debt [det] (qarz), light [alti] (yorugʻ)* kabi soʻzlar; fransuz tilidagi *Paris (Parij), homologue*

(*insonshunoslik*) soʻzlari; nemis tilidagi *tisch (stol), deutsch (nemis tili)* soʻzlari tarixiy – anʼanaviy tamoyil asosida yozilgan. Rus tilidagi *красивого, большого, здания, королева, собака* soʻzlari ham shular jumlasidandir.

Shakliy (simvolik) tamoyil. Bu prinsipga koʻra, odatda, boshqa tillardan olingan soʻzlar oʻsha tillarda qanday yozilsa shunday yozamiz: *Nyu-York, kilogramm, kross, taassurot, koeffitsiyent, trolleybus* kabi.

Maʼlumki, oʻzbek xalqi qarib 70 yil davomida kirill yozuvidan foydalanib keldi. Kirill yozuvining imlo qoidalari 1956-yil 4-aprelda hukumat tomonidan tasdiqlangan edi. Unga koʻra, oʻzbek orfografiyasining asosiy qoidalari 72 moddadan iborat boʻlib ularning baʼzilari oʻzbek tilining tabiatiga hamma vaqt ham mos kelavermasdi. Chunonchi, **е, ё, ю, я** grafemalari, **ц** harfi, ayirish, yumshatish belgilari (**ъ, ь**) bilan bogʻliq oʻrinlar shular jumlasidandir.

Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 13-sessiyasi (1993-yil 2-sentabr) da “Lotin yozuviga asoslangan oʻzbek alifbosini joriy qilish toʻgʻrisida” Oʻzbekiston Respublikasining Qonuni qabul qilindi. Bu qonunni joriy qilish toʻgʻrisida prezident farmoni ham eʼlon qilindi. 1995-yil 24-avgustda Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Lotin yozuviga asoslangan oʻzbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash haqida”gi 339-son qarori qabul qilindi. Yangi imlo qoidalari 82 – moddadan iborat boʻlib, unda harflar imlosi, asos va qoʻshimchalar imlosi, qoʻshib yozish, chiziqcha bilan yozish, ajratib yozish, bosh harflar imlosi, koʻcherish qoidalari alohida boʻlimlarda koʻrsatilgan.

Maʼlumki, orfografiya adabiy tilning talaffuzini oʻrganuvchi orfoepiya bilan, alifbo bilan uzviy bogʻliqdir. Orfografiya bilan orfoepiya adabiy tilni takomillashtirishda, uni muntazam bir shaklga solishda muhim rol oʻynaydi. Lotin alifbosiga asoslangan imlo qoidalarida juda koʻp oʻrinlarda orfografiyaning adabiy talaffuz meʼyorlari bilan muvofiqlashtirilganligini koʻrish mumkin. Masalan,

1) *moʻtabar, moʻjiza, moʻtadil* kabi arab tilidan oʻzlashgan soʻzlar tarkibidagi **oʻ** unlisi choʻziq aytiladi va yozuvda ulardan keyin tutuq belgisi ishlatilmaydi;

2) *parvo, mavqe, mavzu, avzo* soʻzlariga **l**, **ll** shaxs egalik qoʻshimchalari qoʻshilganda bir **y** tovushi qoʻshib aytiladi va shunday yoziladi: *parvoyim, parvoying, ... mavqeyim...*;

3) ruscha *цилиндр, кварц, акция, конституция, лицей, милиция* kabi oʻzlashgan soʻzlar tilimizda oʻzbekona talaffuzga muvofiq yoziladi: *silindr, kvars, aksiya, konstitutsiya, litsey, militsiya* va hokazo.

Demak, orfografiya va orfoepiya ogʻzaki hamda yozma nutqni bir – biriga yaqinlashtirishda, milliy – adabiy tilning birligini yaratishda muhim ahamiyat kasb etuvchi mustarak sohalaridir.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriq:

1. Orfoepiya nimani o'rganadi?
2. Orfografiya sathining o'rganish obyekti nimalardan iborat?
3. Orfoepiyaning nutq madaniyati bilan chambarchas aloqadorligini misollar asosida tushuntiring.
4. O'zbek tiliga xos orfoepik me'yorlar haqida gapiring.
5. Yevropa mamlakatlarida orfoepik me'yorlariga rioya qilish tartibi qau ahvoldaligini tushuntiring. Bizda-chi? Fikrlaringizni misollar asosida dallillang.
6. Orfografik tamoyillar haqida ma'lumot bering.
7. G'arbiy yevropa tillarida orfoepiyaning qaysi me'yor ko'proq foydalaniladi?
8. Lotin yozuviga asoslangan imlo qoidalarining afzalligi nimada? Misollar asosida tushuntiring.

Asosiy adabiyot:

1. Азизов О. Тилшуносликка кириш. Т., “ Ўқитувчи”, 1996.
2. Баскаков Н., Содиқов А., Абдуазизов А. Умумий тилшунослик. Т. “Ўқитувчи”, 1979.
3. Содиқов А., Абдуазизов А., Ирискулов М. Тилшуносликка кириш. Т., “Ўқитувчи”, 1981.

Yordamchi adabiyot:

- 1.Рахматуллаев Ш., Ҳожиёв А. Ўзбек тилининг имло луғати. Т., «Ўқитувчи», 1995. 7-27-б.
- 2.Решетов В. Узбекский язык. ч. I. Введение. Фонетика. Т., 1959.
- 3.Шоабдурахмонов Ш. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Т., “Ўқитувчи”. 1980.

MUNDARIJA

№	Mavzu	Sahifa
1	"Tilshunoslikka kirish" kursining maqsad va vazifalari	
2	Tilning paydo bo'lishi	
3	Tilning tarixiy taraqqiyoti	
4	Jamiyat va til taraqqiyoti	
5	Til taraqqiyoti. Til taraqqiyotining ichki qonuniyatlar	
6	Dunyo tillari	
7	Hind – yevropa tillari oilasi	
8	Turkiy tillar oilasi	
9	Yozuv. Yozuvning taraqqiyoti	
10	Til va tafakkur masalalari	
11	Til va nutq munosabati	
12	Til birliklarining o'zaro munosabati. Sintagmatik, paradigmatic va ierarxik munosabatlar	
13	Tilning uslubiy ko'rinishlari	
14	Tilshunoslik sohalari. Fonetika	
15	Nutq apparati va uning tuzilishi	
16	Nutq tovushlarining umumiy tavsifi. Unli va undosh tovushlar	
17	Nutq jarayonidagi fonetik hodisalar	
18	Fonologiya fonemani o'rganuvchi soha sifatida	
19	Tovush ifodasi. Transkripsiya	
20	Urg'u	
21	Leksikologiya. Lug'aviy sath. Leksema va so'z munosabati	
22	Leksik-semantik munosabatlar	
23	Leksikografiya	
24	Frazeologiya	
25	Morfologiya va sintaksis munosabati	
26	Morfemika	
27	Grammatik ma'no	
28	Grammatik ma'no ifodalash usullari. Grammatik shakl turlari	
29	So'z turkumlari tasnifi. So'zning serqirraligi va tasniflarning xilma-xilligi	
30	Sintaksis	
31	So'z birikmasi	
32	Gap	
33	Gapning aktual bo'linishi	
34	Orfoepiya va orfografiya	

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
O'ZBEK TILSHUNOSLIGI KAFEDRASI

«TASDIQLAYMAN»
Tarix va o'zbek filologiyasi fakulteti dekani
_____ **dots.B.Saidov**

«5220100– O'zbek filologiyasi» ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim oluvchi baralavrlar
uchun

TILSHUNOSLIKKA KIRISH

fanidan

amaliy va seminar mashg'ulotlari
ISHLANMASI

Qarshi-2007

Fanning ishchi dasturi OO'MTV ning 15.06.2002 yil 27- bayonnamasi bilan tasdiqlangan namunaviy o'quv dasturiga muvofiq tuzilgan.

Ishchi dastur O'zbek tilshunosligi kafedrasi yig'ilishi (1-bayonnoma, 2007 yil), Tarix va o'zbek filologiyasi fakulteti ilmiy kengashida (1- bayonnoma, 2007 yil) muhokama qilinib, foydalanishga tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri:

prof. B.Mengliyev

Fakultet o'quv-uslubiy kengashi raisi:

dots. E.Jabborov

1.1.Fanning asosiy maqsad va vazifalari

«Tilshunoslikka kirish» filologik mutaxassisliklar uchun asosiy poydevor fanlardan biridir.

«Tilshunoslikka kirish» tillar, tillarning umumiy rivojlanish va qurilish qonuniyatlari, ularni o'rganish metodologiyasi va metodlari, tilshunoslikning boshqa fanlar sirasida tutgan o'rni kabi masalalar haqidagi fandır. Fanning asosiy maqsadi tillarning qurilish qonuniyatlari, ularni o'rganish metodologiyasi va metodlari, tilshunoslikning boshqa fanlar sirasida tutgan o'rni kabi masalalar haqida bilim berishdir.

«Tilshunoslikka kirish» bosh maqsadga bo'ysundirilgan quyidagilar haqida ma'lumot berishni vazifa qilib qo'yadi:

- til va uning tabiati;
- tillarning rivojlanish qonuniyatlari;
- tillarni o'rganish metodologiyasi;
- til sathlari;
- til bo'limlari;
- til birliklari.

1.2.Fanning asosiy bo'limlari va ularda o'rganiladigan muammolar

Fanning asosiy bo'limlari: kirish; tilshunoslik tarixi; tillar; sathlar; birliklar; munosabatlar; ziddiyatlar; metodlar; O'rganiladigan muammolar:

- kirish qismida tilshunoslik fani va uning asosiy turlari, fanning maqsad va vazifalari, predmetga ajratilgan soatlar, reyting tizimi, baho me'yorlari;
- tilshunoslik tarixi haqidagi bo'limda fanning tarixi va undagi oqimlar va maktablar;
- tillar haqidagi bo'limda til, uning ijtimoiy tabiati, paydo bo'lishi, xususiyatlari, rivojlanishi, tasnifi;
- sathlar haqidagi bo'limda sathlarni ajratish omillari, sathlarning o'ziga xos xususiyatlari;
- birliklar haqidagi bo'limda tilning lison va nutqqa bo'linishi, ularga xos birliklar, turli tillardagi birliklarning o'ziga xos xususiyatlari;
- munosabatlar haqidagi bo'limda lisoniy va nutqiy sathlardagi paradigmatic, sintagmatic va ierarxik munosabatlar;
- ziddiyatlar haqidagi bo'limda paradigmatic munosabatlar asosidagi lisoniy oppozitsiyalar.

1.3.Fanning boshqa fanlar va ishlab chiqarish bilan bog'liqligi

«Tilshunoslikka kirish» fani tilshunoslik fanlari, shuningdek, fizika, ximiya, matematika, falsafa, psixologiya, sotsiologiya va tabiiyot fanlari bilan aloqadorlikka ega va unda o'rganilgan masalalar bu fanlardagi muammolar bilan bog'lanadi. «Tilshunoslikka kirish» tilshunoslik fanlari uchun kalit vazifasini bajaradi.

1.4.O'quv materiallarining tarkibi

MASHG'ULOTLAR				
O'quv semestri	Ma'ruza	Amaliy mashg'ulot	Seminar	Mustaqil ish
I	30	22	22	60

1.5.Fanni o'qitishdagi yangi pedagogik texnologiyalar

Ma'ruza disput, savol-javob asosida tashkil etiladi.

«Tilshunoslikka kirish» fani bo'yicha amaliy mashg'ulotlar o'qitishning ilg'or texnologiyasi - verbal kognitiv ta'lim usuli asosida olib boriladi.

Test usulidan foydalaniladi. Test komp'yuterda ham o'tkaziladi. Seminar mashg'ulotlarida interaktiv usul qo'llanadi.

2.1. Fanning asosiy bo'limlari

Kirish

Tilshunoslik fanining predmeti va vazifalari. «Tilshunoslikka kirish» kursining mundarijasi va vazifalari. Fanning reyting tizimi va baho me'yori.

Til haqida

Dunyo tillarining rang-barangligi va o'ziga xos xususiyatlari haqida umumiy ma'lumot. Umumiy va xususiy tilshunoslik. Nazariy va amaliy tilshunoslik. Ularning asosiy masalalari. Tilshunoslikning boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi.

Tilning ijtimoiy hodisa ekanligi. Tilning asosiy funksiyalari. Til va tafakkur. Tilning tafakkur faoliyatini amalga oshirishdagi o'rni va roli. Tafakkurning til strukturasi shakllantirishdagi roli. Til va mantiq birliklarining o'zaro munosabati. Tushuncha va leksik ma'no. Tushuncha va grammatik ma'no. Hukm va gap. Mantiq birliklarining umuminsoniy tabiati, til birliklarining milliy xarakteri.

Tillarning taraqqiyoti. Sinxroniya va diaxroniya. Til birliklarining tarixiy o'zgarishi. O'zgarish tilning rivojlanishini ko'rsatuvchi kategoriya ekanligi.

Tilning tashqi taraqqiyot qonunlari. Jamiyat taraqqiyotining tilga ta'siri. Adabiy til va til uslublarini o'zgarishga olib keladigan shart-sharoitlar. Interferensiya hodisasi. Tillarning kontakti. O'zga til ta'sirida yuz beradigan leksik, fonetik, grammatik o'zgarishlar. Substrat, superstrat, adstrat hodisalari. So'z o'zlashtirish. Ikki tillilik. Millatlaro tillar. Xalqaro tillar. Xalqaro sun'iy tillar.

Lisonning tizim ekanligi. Sistema tushunchasi. Sistema turlari va ularning o'rganilishi. Tilshunoslik va semiotika. Lisonning ramzlar sistema ekanligi. Ramz tiplari. Lison murakkab semiotik sistema. Lisonning boshqa semiotik sistemalardan farqi.

Tillar

Dunyo tillari. Tillarning tasnifi asoslari. Tillar tasnifining turlari. Tillarning tipologik tasnifi. Tillarning geneologik tasnifi.

Tillarning tipologik tasnifi. Til tipi haqidagi tushuncha. Til tipining asosiy belgilari. Tillar bo'yicha morfologik formalarning xilma-xilligi. Tillarning sintaktik tipologiyasi. Tillarning morfologik tipologiyasi.

Tillarning morfologik tasnifi. Izolyativ (ajratuvchi), inkorporativ va agglutinativ tillar.

Tillarning qarindoshligi tushunchasi. Tillar qarindoshligini ko'rsatuvchi belgilar. Tillar oilasining shoxobchalari va ularning guruhlanishi. Hind-Evropa tillari oilasi. Turkiy tillar oilasi.

Sathlar

Sath tushunchasi. Sath va bo'lim. Sathlarni ajratish asoslari. Fonologik sath. Leksik sath. Morfologik sath. Sintaktik sath. Uslubning sathlarga munosabati.

Birliklar

Til birliklari. Ularning asosiy xususiyatlari. Fonema va tovush. Leksema va so'z. Morfema va qo'shimcha. Leksema va morfema. Qolip va hosila. Ular xarakterining til tiplariga bog'liq ekanligi. Flektiv tillarda leksema va so'z, morfema va qo'shimcha, qolip va hosila. Amorf tillarda leksema va so'z, morfema va qo'shimcha, qolip va hosila. Inkorporativ tillarda leksema va so'z, morfema va qo'shimcha, qolip va hosila.

Munosabatlar va ziddiyatlar

Lisoniy birliklar orasidagi munosabatlar. Paradigmatik, sintagmatik va ierarxik munosabatlar.

Paradigmatik munosabatlar va ularning turlari. Lisoniy ziddiyatlar. Sinonimiya, antonimiya, omonimiya, giponimiya, graduonimiya va partonimiya.

Sintagmatik munosabatlar va ularning ko'rinishlari.

Lisoniy birliklar orasidagi ierarxik munosabatlar.

Qarama-qarshiliklar birligi va kurashi qonunining tilda aks etishi - ziddiyatlar. Ziddiyat haqida ma'lumot. Teng qiymatli ziddiyat. Mutanosib ziddiyat. Noto'liq ziddiyat. Darajali ziddiyat. Ziddiyatlarning so'nishi.

2.2. Informasion-uslubiy ta'minot

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Axmanova O.S. Slovar lingvisticheskix terminov. -M.: Sov. ensiklopediya, 1969. - 608 str.
2. Apresyan Y.D. Idei i metodi sovremennoy strukturnoy lingvistiki. - Prosveshenie, 1966. -302 str.
3. Bazarov O. O'zbek tilida darajalanish. Filol.fan.dokt.. diss. avtoref. -T., 1997.
4. Gumboldt V. Izbrannie trudi po yazikoznaniYA. Perevod s nemetskogo yazika prof. G.V. Ramishvili. -M.: Progress, 1984. -300 str.
5. Zveginsev V.A. Teoreticheskaya i prikladnaya lingvistika. -M.: Prosveshenie, 1967. -338 str.
6. Zvegnitsev V.A. Istoriya yazikoznaniya XIX-XX vv. v ocherkax i izvlecheniyax. CH.I. -M.: Prosveshenie, 1960. -407 str.
7. Zveginsev V.A. Istoriya yazikoznaniya XIX-XX vv. v ocherkax i izvlecheniyax. CH.II. -M.: Prosveshenie. 1965. -496 str.

8. Issledovaniya po obshey teorii grammatiki. -M.:Nauka, 1968. -296 str.
9. Irisqulov M.T. Tilshunoslikka kirish. -T.: 1992. -256 b.
10. Lingvisticheskiy ensiklopedicheskiy slovar. -M.:Sov.ensiklopediya.1990. -685 s.
11. Stepanov YA.S. Osnovi obshego yazikoznaniYA. Izd. vtoroe, -M.:Prosveshenie, 1975. -271 str.
12. Reformatskiy A.A. Vvedenie v yazikovedenie 4-e izd.-M.:Prosveshenie,1967.-542 str.
13. Sodiqov A., Abduazizov A., Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish. Toshkent, O'qituvchi, 1981. - 226 b.
14. Hojiyev A. Lingvistik terminlarning izohli lug'ati. Toshkent, 1985.
15. Obshee yazikoznanie. Vnutrennaya struktura yazika. Izd. Nauka, 567 str.
16. Reformatskiy A.A. Vvedenie v yazikovedenie. Izd «Prosveshenie» 1967.-M. 544 str.
17. Solnsev V.M. YAzik kak sistemno-strukturnoe obrazovanie. Izd. M.. Nauka, 1971. 294 str.
18. Stepanov Y.S. Osnovi obshego yazikoznaniya. Izd. 2-s. -M., «Prosveshenie», 1975. 271s.
19. Shaykevich A.YA. i dr. Vvedenie v yazikoznanie. T., «O'qituvchi», 1989. 312 s.
20. Hojiyev A. Lingvistik terminlarning izohli lug'ati.T., 1985.
21. Ne'matov. H, Bozorov, O. Til va nutq. -T.,1989.
22. Budagov R.A. Vvedenie v nauku o yazike. -M. 1965.
23. O'zbek tilining izohli Lug'ati. 2 tomli. 1-tom. (Z.Ma'rufov tahriri ostida) - M.. Rus tili, 1981. 675-676-b.
24. O'zbek tilining izohli Lug'ati. 2 tomli. 2-tom (Z.Ma'rufov tahriri ostida) -M.. Rus tili. 1981.128-b.

2.3.Ma'ruza uchun mavzuviy reja

№	Mavzular	Soat
1	«Tilshunoslikka kirish» kursining maqsad va vazifalari	2
2	Tilning paydo bo'lishi	2
3	Tilning tarixiy taraqqiyoti	2
4	Dunyo tillari	2
5	Til birliklarining o'zaro munosabati.Sintagmatik, paradigmatic va ierarxik munosabatlar	2
6	Til va nutq munosabati	2
7	Tilshunoslik sohalari.Fonetika.	2
8	Leksikologiya.Lug'aviy sath.Leksima va so'z munosabati.	2
9	Leksikografiya	2
10	Morfologiya va sintaksis munosabati	2
11	Morfemika	2
12	Gramatik ma'no ifodalash usullari.	2
13	So'z turkumlari tasnifi.So'zlarning serqirraligi va tasniflarning xilma-xilligi..	2
14	Sintaksis.	2
15	Orfoepiya va orfografiya.	2
Jami		30

2.4. Amaliy mashg'ulot uchun mavzuviy reja

1-mashg'ulot. Til birliklarining o'zaro munosabati.

Reja:

1. Berilgan mashqda keltirilgan gaplardagi paradigmatic munosabatlarni aniqlang.
2. Berilgan gaplardagi sintagmatik munosabatlarni aniqlang
3. Mashqda keltirilgan gaplardagi ierarxik munosabatlarni aniqlang
4. Mashqda keltirilgan gaplardagi lisoniy ziddiyatlarni aniqlang.

2-mashg'ulot. Lisonning asosiy sathlari

Reja:

- 1.Berilgan mashqdagi til unsurlarini guruhlash.

2. Guruhlarning asosiy xususiyatlarini bayon qilish.
3. Guruhlardagi bog'lovchi unsurlarni ajratish.
4. Guruhlarni ma'noli va ma'nosiz tiplarga bo'lish.
5. Ma'noli guruhlarni denotativ ma'noli va denotativ ma'nosiz ko'rinishlarga ajratish.
6. Sathga ta'rif berish va uni «Lingvistik atamalar lug'ati»dagi ta'rif bilan qiyoslash va tuzatish.

3-mashg'ulot. Til birliklari

Reja:

1. Berilgan mashqdagi birliklarni sathlar bo'yicha ajratish.
2. Barcha guruh birliklari uchun umumiy bo'lgan belgilarni aniqlash.
3. O'xshash birliklarning farqli tomonlarini bayon etish.

4-mashg'ulot. Fonologik birliklar

Reja:

1. Berilgan mashqdagi tovushlarni ajratish.
2. Bu tovushlarni o'xshash belgilariga ko'ra ikki guruhga ajratish.
3. Har bir guruhdan bittadan unsur olib, ularga o'xshash birliklar ishtirok etgan misollar keltirish
(Masalan, *ana* so'zidagi *a* ga o'xshash birliklar *mana* so'zida ham bor.
4. O'xshash birliklardagi farqlarni e'tibordan soqit qilish.
5. Tiklangan umumiylikka ta'rif berish.
6. Ta'rifni lug'atdagi izoh bilan qiyoslash va tuzatish.

5-mashg'ulot. Morfemik birliklar

Reja:

1. Berilgan mashqdagi qo'shimchalarni ajratish.
2. Bu qo'shimchalarni o'xshash belgilariga ko'ra ikki guruhga ajratish.
3. Har bir guruhdan bittadan unsur olib, ularga o'xshash birliklar ishtirok etgan misollar keltirish.
4. O'xshash birliklardagi farqlarni e'tibordan soqit qilish.
5. Tiklangan umumiylikka ta'rif berish.
6. Ta'rifni lug'atdagi izoh bilan qiyoslash va tuzatish.

6-mashg'ulot. Leksik birliklar

Reja:

1. Berilgan mashqdagi so'zlarni ajratish.
2. Bu so'zlarni o'xshash belgilariga ko'ra ikki guruhga ajratish.
3. Denotativ ma'noli va grammatik ma'noli so'zlarni guruhlash.
4. Har bir guruhdan bittadan unsur olib, ularga o'xshash birliklar ishtirok etgan misollar keltirish.
5. O'xshash birliklardagi farqlarni e'tibordan soqit qilish.
6. Tiklangan umumiylikka ta'rif berish.
7. Ta'rifni lug'atdagi izoh bilan qiyoslash va tuzatish.

7-mashg'ulot. So'z birikmasi

Reja:

1. Berilgan gapni so'z birikmalariga ajratish.
2. O'xshash so'z birikmalari tuzish va guruhlash.
4. Har bir guruhdagi misollarning farqli tomonlarini aniqlash.
3. Har bir guruhning umumiy belgisini topish. [ot.t.k+fe'l]
4. Tiklangan umumiylikning shakliy va ma'noviy tomonlarini aniqlash.
5. Guruhlardagi farqlarni aniqlash.

6. Guruhlarning umumiy belgisini aniqlash.

7. Tiklangan umumiylikning shakliy va mazmuniy tomonini aniqlash [W+W=co‘z birikmasi].

8-mashg‘ulot. Gap

Reja:

1. Berilgan mashkni gaplarga ajratish.

2. O‘xshash gaplar tuzish va guruhlash.

4. Har bir guruhdagi misollarning farqli tomonlarini aniqlash.

3. Har bir guruhning umumiy belgisini topish. Masalan, [ega+to‘ldiruvchi+kesim], [aniqlovchi+ega+kesim]

4. Tiklangan umumiylikning shakliy va ma’noviy tomonlarini aniqlash.

4. Guruhlardagi farqlarni aniqlash.

5. Guruhlarning umumiy belgisini aniqlash.

6. Tiklangan umumiylikning shakliy va mazmuniy tomonini aniqlash .

[WPm=kesimlik qo‘shimchalari bilan shakllangan atov birligi (sodda gap)], [WPm+WPm=birdan ortiq//kesimlik qo‘shimchalari bilan shakllangan atov birligi (qo‘shma gap)]

9-mashg‘ulot. Tilda shakl va mazmun

Reja:

1. Falsafiy shakl va mazmun haqida savol-javob.

2. Nutqiy birliklarning shakliy va mazmuniy jihatlarini aniqlash.

3. Misollar asosida lisoniy birliklarning shakl va mazmunini aniqlash.

4. Nutqiy birliklardagi shakliy va mazmuniy nomuvofiqliklarning sabablarini tushuntirish.

5. Lisoniy birliklarning shakliy va mazmuniy nomuvofiqliklarini aniqlash.

10-mashg‘ulot. Fonetikada lisoniy ziddiyatlar

Reja:

1. Lisoniy ziddiyatlar haqida savol-javob.

2. Fonemalardagi darajali ziddiyatlarni aniqlash.

3. Fonemalardagi teng qiymatli ziddiyatlarni aniqlash.

4. Fonemalardagi mutanosib ziddiyatlarni aniqlash.

5. Fonemalardagi noto‘liq ziddiyatlarni aniqlash.

11-mashg‘ulot. Leksikada lisoniy munosabatlar

Reja:

1. Lisoniy munosabatlar haqida savol-javob.

2. Leksikada darajalanish munosabatlari.

3. Leksikada giponimik munosabatlar.

4. Leksikada partonimik munosabatlar.

8. Leksika ierxionimik munosabatlar.

2.5.Seminar mashg‘ulotlari uchun mavzuviy reja

1-mashg‘ulot. Tilshunoslik fanining maqsad va vazifalari

Reja:

1. Tilshunoslik fanining predmeti va vazifalari. Dunyo tillarining rang-barangligi va o‘ziga xos xususiyatlari.

2. Dunyo tillarining rang-barangligi va o‘ziga xos xususiyatlari.

3. Umumiy va xususiy tilshunoslik, amaliy va nazariy tilshunoslik. Tilshunoslikning boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi.

4. Tilshunoslikda metodologiya masalasi. Metodologiya, metodika va metod tushunchalari.

Adabiyotlar

9,5-7; 10, 604; 16, 9-10.

2-mashg'ulot. Til va jamiyat

Reja:

1. Tilning ijtimoiy hodisa ekanligi.
2. Tilda etnik xususiyatlarning aks etishi.
3. Til taraqqiyotining jamiyat taraqqiyotiga bog'liq ekanligi.
4. Etnolingvistika.

Adabiyotlar

9, 8-10; 12, 7-14; 10, 607; 16, 5-6; 14, 161-210.

3-mashg'ulot. Til, lison va nutq faoliyati

Reja:

1. Bilish bosqichlari haqida.
2. Lison va nutqni farqlashning falsafiy asoslari.
3. Lison va nutq.
4. Me'yor.
5. Lisoniy va nutqiy birliklar.

Adabiyotlar

13; 18; 7, 38-90, 14-21, 91-120, 121-166; 15, 124-150; 10, 604, 414; 1, 385-387.

4-mashg'ulot. Til va tafakkur

Reja:

1. Tilning tafakkur faoliyatini amalga oshirishdagi o'rni va roli. Tafakkurning til strukturasi shakllantirishdagi roli.
2. Til va mantiq birliklarining o'zaro munosabati. Tushuncha va leksik ma'no. Tushuncha va grammatik ma'no. Hukm va gap.
3. Mantiq birliklarining umuminsoniy tabiati, til til birliklarining milliy xarakteri.

Adabiyotlar

4, 37-300; 9, 16-20; 10, 606; 9, 237-239; 5, 70-93; 12, 7-8, 16-17, 19, 467.

5-mashg'ulot. Bilingvizm. Xalqaro tillar

Reja:

1. Ikki tillilik.
2. Millatlarni tillar.
3. Xalqaro tillar.
4. Xalqaro sun'iy tillar.

Adabiyotlar

21, 28-29; 10, 75; 1, 125; 9, 160-166; 16, 203-205; 10, 291, 609.

6-mashg'ulot. Til va taraqqiyot

Reja:

1. Tillarning taraqqiyoti.
2. Sinxroniya va diaxroniya.
3. Til birliklarining tarixiy o'zgarishi. O'zgarish tilning rivojlanishini ko'rsatuvchi kategoriya ekanligi.
4. Tilning tashqi taraqqiyot qonunlari.

Adabiyotlar

14, 166, 190; 6, 65-88, 98-103, 165-182; 9, 16-20.

7-mashg'ulot. Til va jamiyat

Reja:

1. Jamiyat taraqqiyotining tilga ta'siri. Adabiy til va til uslublarini o'zgarishga olib keladigan shart-sharoitlar.
2. Interferensiya hodisasi.

3. Tillarning kontakti. Oʻzga til taʼsirida yuz beradigan leksik, fonetik, grammatik oʻzgarishlar. Substrat, superstrat, adstrat hodisalari. Soʻz oʻzlashtirish.

4. Til taraqqiyotida siljish masalasi. Tillarning morfologik tiplari til taraqqiyoti masalasi. Adabiyotlar

14, 166, 190; 6, 65-88, 98-103, 165-182; 9, 16-20; 21, 50-63; 14, 171-178;

8-mashgʻulot. Tillarning ichki taraqqiyoti

Reja:

1. Til va madaniyat.
2. Tillarning ichki taraqqiyot qonunlari.
3. Til strukturasi sathlarining notekis rivojlanishi. Fonetik, leksik, morfologik, leksik va sintaktik sistemalarning taraqqiyoti.

Adabiyotlar

14, 161-162; 4, 37-300; 6, 258-263; 9, 16-20.

10-mashgʻulot. Til-ramzlar sistemasi

Reja:

1. Ramzning material ifodasi va mazmuni.
2. Til strukturasi va sistemasi.
3. Nutqning boʻlinishi va asosiy til birliklari.

Adabiyotlar

18; 15, 175-201; 2, 7-77; 6, 25-86, 14, 197-263, 230-253; 10, 298, 449, 505, 299.

11-mashgʻulot. Adabiy til va dialekt

Reja:

1. Tilning territorial tabaqalanishi.
2. Dialektlar.
3. Xalq soʻzlashuv tili.

Adabiyotlar

7, 91-227; 15, 175-206; 10.

2.6. Mustaqil taʼlim

Quyidagi manbalarni ishlab chiqish (40 soat):

1. Zveginitsev V.A. Istoriya yazikoznaniya XIX-XX vv. v ocherkax i izvlecheniyax. CH.I. -M.: Prosveshenie, 1960. (6 soat)
2. Zveginsev V.A. Istoriya yazikoznaniya XIX-XX vv. v ocherkax i izvlcheniyax. CH.II. -M.:Prosveshenie. 1965. (6 soat)
3. Gumboldt V. Izbrannie trudi po yazikoznaniYA. Perevod s nemetskogo yazika prof. G.V. Ramishvili. -M.: Progress, 1984. (6 soat)
4. Solnsev V.M. Yazik kak sistemno-strukturnoe obrazovanie. Izd. -M.. Nauka, 1971. (6 soat)
5. Hojiyev A. Lingvistik terminlarning izohli lugʻati.T., 1985. (6 soat)
6. Neʼmatov. H, Bozorov, O. Til va nutq. -T:1989. (4 soat)
7. Budagov R.A. Vvedenie v nauku o yazike. -M.,1965. (6 soat)

Referat tayyorlash (20 soat)

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
O'ZBEK TILSHUNOSLIGI KAFEDRASI

«TASDIQLAYMAN»
Tarix va o'zbek filologiyasi fakulteti dekani
_____ **dots.B.Saidov**

«5220100– O'zbek filologiyasi» ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim oluvchi baralavrlar
uchun

TILSHUNOSLIKKA KIRISH

fanidan

amaliy va seminar mashg'ulotlari
ISHLANMASI

Qarshi-2007

Fanning ishchi dasturi OO'MTV ning 15.06.2002 yil 27- bayonnamasi bilan tasdiqlangan namunaviy o'quv dasturiga muvofiq tuzilgan.

Ishchi dastur O'zbek tilshunosligi kafedrasi yig'ilishi (1-bayonnoma, 2007 yil), Tarix va o'zbek filologiyasi fakulteti ilmiy kengashida (1- bayonnoma, 2007 yil) muhokama qilinib, foydalanishga tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri:

prof. B.Mengliyev

Fakultet o'quv-uslubiy kengashi raisi:

dots. E.Jabborov

1.1.Fanning asosiy maqsad va vazifalari

«Tilshunoslikka kirish» filologik mutaxassisliklar uchun asosiy poydevor fanlardan biridir.

«Tilshunoslikka kirish» tillar, tillarning umumiy rivojlanish va qurilish qonuniyatlari, ularni oʻrganish metodologiyasi va metodlari, tilshunoslikning boshqa fanlar sirasida tutgan oʻrni kabi masalalar haqidagi fandir.

Fanning asosiy maqsadi tillarning qurilish qonuniyatlari, ularni oʻrganish metodologiyasi va metodlari, tilshunoslikning boshqa fanlar sirasida tutgan oʻrni kabi masalalar haqida bilim berishdir.

«Tilshunoslikka kirish» bosh maqsadga boʻysundirilgan quyidagilar haqida maʼlumot berishni vazifa qilib qoʻyadi:

- til va uning tabiati;
- tillarning rivojlanish qonuniyatlari;
- tillarni oʻrganish metodologiyasi;
- til sathlari;
- til boʻlimlari;
- til birliklari.

1.2.Fanning asosiy boʻlimlari va ularda oʻrganiladigan muammolar

Fanning asosiy boʻlimlari: kirish; tilshunoslik tarixi; tillar; sathlar; birliklar; munosabatlar; ziddiyatlar; metodlar;

Oʻrganiladigan muammolar:

- kirish qismida tilshunoslik fani va uning asosiy turlari, fanning maqsad va vazifalari, predmetga ajratilgan soatlar, reyting tizimi, baho meʼyorlari;
- tilshunoslik tarixi haqidagi boʻlimda fanning tarixi va undagi oqimlar va maktablar;
- tillar haqidagi boʻlimda til, uning ijtimoiy tabiati, paydo boʻlishi, xususiyatlari, rivojlanishi, tasnifi;
- sathlar haqidagi boʻlimda sathlarni ajratish omillari, sathlarning oʻziga xos xususiyatlari;
- birliklar haqidagi boʻlimda tilning lison va nutqqa boʻlinishi, ularga xos birliklar, turli tillardagi birliklarning oʻziga xos xususiyatlari;
- munosabatlar haqidagi boʻlimda lisoniy va nutqiy sathlardagi paradigmatic, sintagmatic va ierarxik munosabatlar;
- ziddiyatlar haqidagi boʻlimda paradigmatic munosabatlar asosidagi lisoniy oppozitsiyalar.

1.3.Fanning boshqa fanlar va ishlab chiqarish bilan bogʻliqligi

«Tilshunoslikka kirish» fani tilshunoslik fanlari, shuningdek, fizika, ximiya, matematika, falsafa, psixologiya, sotsiologiya va tabiiyot fanlari bilan aloqadorlikka ega va unda oʻrganilgan masalalar bu fanlardagi muammolar bilan bogʻlanadi. «Tilshunoslikka kirish» tilshunoslik fanlari uchun kalit vazifasini bajaradi.

1.4.O'quv materiallarining tarkibi

SHG'ULOTLAR				
1-uv semestri	2-ruza	3-aliy mashg'ulot	4-kinar	5-istaqil ish

1.5.Fanni o'qitishdagi yangi pedagogik texnologiyalar

Ma'ruza disput, savol-javob asosida tashkil etiladi.

«Tilshunoslikka kirish» fani bo'yicha amaliy mashg'ulotlar o'qitishning ilg'or texnologiyasi - verbal kognitiv ta'lim usuli asosida olib boriladi.

Test usulidan foydalaniladi. Test komp'yuterda ham o'tkaziladi. Seminar mashg'ulotlarida interaktiv usul qo'llanadi.

2.1. Fanning asosiy bo'limlari

Kirish

Tilshunoslik fanining predmeti va vazifalari. «Tilshunoslikka kirish» kursining mundarijasi va vazifalari. Fanning reyting tizimi va baho me'yori.

Til haqida

Dunyo tillarining rang-barangligi va o'ziga xos xususiyatlari haqida umumiy ma'lumot. Umumiy va xususiy tilshunoslik. Nazariy va amaliy tilshunoslik. Ularning asosiy masalalari. Tilshunoslikning boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi.

Tilning ijtimoiy hodisa ekanligi. Tilning asosiy funksiyalari. Til va tafakkur. Tilning tafakkur faoliyatini amalga oshirishdagi o'rni va roli. Tafakkurning til strukturasini shakllantirishdagi roli. Til va mantiq birliklarining o'zaro munosabati. Tushuncha va leksik ma'no. Tushuncha va grammatik ma'no. Hukm va gap. Mantiq birliklarining umuminsoniy tabiati, til birliklarining milliy xarakteri.

Tillarning taraqqiyoti. Sinxroniya va diaxroniya. Til birliklarining tarixiy o'zgarishi. O'zgarish tilning rivojlanishini ko'rsatuvchi kategoriya ekanligi.

Tilning tashqi taraqqiyot qonunlari. Jamiyat taraqqiyotining tilga ta'siri. Adabiy til va til uslublarini o'zgarishga olib keladigan shart-sharoitlar. Interferensiya hodisasi. Tillarning kontakti. O'zga til ta'sirida yuz beradigan leksik, fonetik, grammatik o'zgarishlar. Substrat, superstrat, adstrat hodisalari. So'z o'zlashtirish. Ikki tillilik. Millatlaro tillar. Xalqaro tillar. Xalqaro sun'iy tillar.

Lisonning tizim ekanligi. Sistema tushunchasi. Sistema turlari va ularning o'rganilishi. Tilshunoslik va semiotika. Lisonning ramzlar sistema ekanligi. Ramz tiplari. Lison murakkab semiotik sistema. Lisonning boshqa semiotik sistemalardan farqi.

Tillar

Dunyo tillari. Tillarning tasnifi asoslari. Tillar tasnifining turlari. Tillarning tipologik tasnifi. Tillarning geneologik tasnifi.

Tillarning tipologik tasnifi. Til tipi haqidagi tushuncha. Til tipining asosiy belgilari. Tillar bo'yicha morfologik formalarning xilma-xilligi. Tillarning sintaktik tipologiyasi. Tillarning morfologik tipologiyasi.

Tillarning morfologik tasnifi. Izolyativ (ajratuvchi), inkorporativ va agglyutinatativ tillar.

Tillarning qarindoshligi tushunchasi. Tillar qarindoshligini ko'rsatuvchi belgilar. Tillar oilasining shoxobchalari va ularning guruhlanishi. Hind-Evropa tillari oilasi. Turkiy tillar oilasi.

Sathlar

Sath tushunchasi. Sath va bo'lim. Sathlarni ajratish asoslari. Fonologik sath. Leksik sath. Morfologik sath. Sintaktik sath. Uslubning sathlarga munosabati.

Birliklar

Til birliklari. Ularning asosiy xususiyatlari. Fonema va tovush. Leksema va so'z. Morfema va qo'shimcha. Leksema va morfema. Qolip va hosila. Ular xarakterining til tiplariga bog'liq ekanligi. Flektiv tillarda leksema va so'z, morfema va qo'shimcha, qolip va hosila. Amorf tillarda leksema va so'z, morfema va qo'shimcha, qolip va hosila. Inkorporativ tillarda leksema va so'z, morfema va qo'shimcha, qolip va hosila.

Munosabatlar va ziddiyatlar

Lisoniy birliklar orasidagi munosabatlar. Paradigmatik, sintagmatik va ierarxik munosabatlar.

Paradigmatik munosabatlar va ularning turlari. Lisoniy ziddiyatlar. Sinonimiya, antonimiya, omonimiya, giponimiya, graduonimiya va partonimiya.

Sintagmatik munosabatlar va ularning ko'rinishlari.

Lisoniy birliklar orasidagi ierarxik munosabatlar.

Qarama-qarshiliklar birligi va kurashi qonunining tilda aks etishi - ziddiyatlar. Ziddiyat haqida ma'lumot. Teng qiymatli ziddiyat. Mutanosib ziddiyat. Noto'liq ziddiyat. Darajali ziddiyat. Ziddiyatlarning so'nishi.

2.2. Informasion-uslubiy ta'minot

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

25. Axmanova O.S. Slovar lingvisticheskix terminov. -M.: Sov. ensiklopediya, 1969. - 608 str.

26. Apresyan Y.D. Idei i metodi sovremennoy strukturnoy lingvistiki.- Prosveshение, 1966. -302 str.

27. Bazarov O. O'zbek tilida darajalanish. Filol.fan.dokt.. diss. avtoref. -T., 1997.

28. Gumboldt V. Izbrannie trudi po yazikoznaniYA. Perevod s nemetskogo yazika prof. G.V. Ramishvili. -M.: Progress, 1984. -300 str.

29. Zveginsev V.A. Teoreticheskaya i prikladnaya lingvistika. -M.: Prosveshение, 1967. -338 str.

30. Zvegnitsev V.A. Istoriya yazikoznaniya XIX-XX vv. v ocherkax i izvlecheniyax. CH.I. -M.: Prosveshение, 1960. -407 str.

31. Zveginsev V.A. Istoriya yazikoznaniya XIX-XX vv. v ocherkax i izvlecheniyax. CH.II. -M.: Prosveshение. 1965. -496 str.

32. Issledovaniya po obshey teorii grammatiki. -M.: Nauka, 1968. -296 str.

33. Irisqulov M.T. Tilshunoslikka kirish. -T.: 1992. -256 b.

34. Lingvisticheskiy ensiklopedicheskiy slovar. -M.: Sov. ensiklopediya. 1990. -685 s.

35. Stepanov YA.S. Osnovi obshego yazikoznaniYA. Izd. vtoroe, - M.:Prosveshenie, 1975. -271 str.
36. Reformatskiy A.A. Vvedenie v yazikovedenie 4-e izd.- M.:Prosveshenie,1967.-542 str.
37. Sodiqov A., Abduazizov A., Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish. Toshkent, O'qituvchi, 1981. -226 b.
38. Hojiyev A. Lingvistik terminlarning izohli lug'ati. Toshkent, 1985.
39. Obshee yazikoznanie. Vnutrennaya struktura yazika. Izd. Nauka, 567 str.
40. Reformatskiy A.A. Vvedenie v yazikovedenie. Izd «Prosveshenie» 1967.- M. 544 str.
41. Solnsev V.M. YAzik kak sistemno-strukturnoe obrazovanie. Izd. M. Nauka, 1971. 294 str.
42. Stepanov Y.S. Osnovi obshego yazikoznaniya. Izd. 2-s. -M., «Prosveshenie», 1975. 271s.
43. Shaykevich A.YA. i dr. Vvedenie v yazikoznanie. T., «O'qituvchi», 1989. 312 s.
44. Hojiyev A. Lingvistik terminlarning izohli lug'ati.T., 1985.
45. Ne'matov. H, Bozorov, O. Til va nutq. -T.,1989.
46. Budagov R.A. Vvedenie v nauku o yazike. -M. 1965.
47. O'zbek tilining izohli Lug'ati. 2 tomli. 1-tom. (Z.Ma'rufov tahriri ostida) - M.. Rus tili, 1981. 675-676-b.
48. O'zbek tilining izohli Lug'ati. 2 tomli. 2-tom (Z.Ma'rufov tahriri ostida) -M.. Rus tili. 1981.128-b.

AMALIY MASHG'ULOT ISHLANMALARI

1-mashg'ulot. Til birliklarining o'zaro munosabati.

Reja:

1. Berilgan mashqda keltirilgan gaplardagi paradigmatic munosabatlarni aniqlang.

2. Berilgan gaplardagi sintagmatic munosabatlarni aniqlang

3. Mashqda keltirilgan gaplardagi ierarxik munosabatlarni aniqlang

4. Mashqda keltirilgan gaplardagi lisoniy ziddiyatlarni aniqlang.

1. Nazm va nasrda birdek ijod qilish har qaysi ijodkorga ham nasib etavermaydigan va shu bilan birga yuksak iste'dod talab etadigan hodisadir. 2. O'zbek adabiyotining darg'alari sanalmish G'afur G'ulom, Oybek, Uyg'un, Shayxzoda kabilar nazm ham nasrda birdek ijod qilganlar. 3. Shoir har bir so'zni o'z o'rnida mahorat bilan qo'llay olish bilan birga, har bir so'zga katta mas'uliyat yuklaydi. 4. Tilni boyitish tarafdori bo'lgan adib boy xalq tilidan foydalanishga undaydi. 5. O'ktam mevalarni saralaydi, hidlaydi, biroq yegisi kelmaydi. 6. Bog'dagi gullar qiyg'os ochildi. 7. Til millatning boyligi va bebaho mulkidir. 8. Til yolg'oni gunohlarning zo'ridir. 9. Barcha yaxshiliklarning boshi Ollohdan qo'rqmoqdir. 10. Aslida haqiqiy do'st faqat Ollohdur.

Bajarilishi:

1. Berilgan mashqda keltirilgan gaplardagi paradigmatic munosabatlarni aniqlang.

Unlilar paradigmasi: a, o, u, o', i, e.

Undoshlar paradigmasi: q,r,t,y,p,s,d,f,g,h,j,k,l,z,x,c,v,b,n,m,sh, ch.

Kelishiklar paradigmasi: -ning, -ni, -ga, -da, -dan.

Egalik qo'shimchalari paradigmasi: [- im]-[- imiz] [- ing]- [- ingiz] [- i]-[- lari].

2. Berilgan gaplardagi sintagmatik munosabatlarni aniqlang .

1- gapdagi *nasrda* so'zida *nasr so'zi* va *-da kel.* qo'shimchasi sintagmatik munosabatda turibdi. Xuddi shunday *bir +dek, qil+ish, ijod+kor+ga, et+a+ver+ma+y+di+gan, et+a+di+gan, hodisa+dir, adabiyot+i+ning, darg'a+lar+I* kabi so'zlar ham sintagmatik munosabatda turibdi.

Quyidaga so'zlar esa o'zaro sintagmatik munosabatda turibdi: *Nazmda ijod qilish, nasrda ijod qilish, ijodkorga, nasib etmoq, yuksak iste'dod, O'zbek adabiyotining, adabiyotining darg'alari.*

3. Mashqda keltirilgan gaplardagi ierarxik munosabatlarni aniqlang .

Morfologik sathda qaratqich kelishigi bir otni ikkinchi ot yoki harakat nomiga bog'lashga xizmat qiladi, shu bilan u *kelishiklar* guruhiga kiradi [*adabiyotining darg'alari*], kelishiklar so'zlarni bir-biriga bog'lovchi vositalar sifatida ko'makchilar bilan birgalikda *tobe so'zni hokim so'zga bog'lovchi vositalar* guruhiga kiradi. Tobe so'zni hokim so'zga bog'lovchi kelishiklar va ko'makchilar bog'lovchi va egalik kategoriyasi bilan birgalikda *so'zlarni bir-biriga bog'lovchi vositalar* sirasiga mansub bo'ladi.

4. Mashqda keltirilgan gaplardagi lisoniy ziddiyatlarni aniqlang.

Noto'liq ziddiyatga kirishgan til unsurlari: [a], [o] fonemalari lablanganlik belgisiga ko'ra; [b], [v] undosh fonemalari esa labning ishtirokiga ko'ra; [ijodkor], [shoir] leksemalari.

Darajali ziddiyatga kirishgan til unsurlari: [i], [e], [a] tilning ko'tarilish darajasiga ko'ra. [d], [y], [g] [q] undoshlari esa tilning qayerida hosil bo'lishiga ko'ra.

Teng qiymatli ziddiyatga kirishgan til unsurlari: [a], [o] unlilari til olda til orqa belgisiga ko'ra. [d], [t] jarangli-jarangsiz belgisiga ko'ra. Leksemalardan quyidagilar: [Nazm], [nasr], [sarala], [hidla] va boshqalar.

2-mashg'ulot. Lisonning asosiy sathlari

Reja:

1. Berilgan mashqdagi til unsurlarini guruhlash.

2. Guruhlarning asosiy xususiyatlarini bayon qilish.

3. Guruhlarni ma'noli va ma'nosiz tiplarga bo'lish.

4. Sathga ta'rif berish va uni «Lingvistik atamalar lug'ati»dagi ta'rif bilan qiyoslash va tuzatish.

1. Gadoy arazlasa, to'rvasiga ziyon. Odatda, gadoy o'z nomi bilan gadoy. U arazlamaydi. Berganingizga shukr deb, duo qilib, yo'lida davom etadi. Biroq hamonki, shunday maqol bor ekan, gadoylar ham arazlab, noz, xarxasha qilishar ekan. Bu o'rinda

u o'ziga, bola-chaqasiga zarar qiladi. To'rvasiga ziyon keltiradi. To'rvasi to'lmay, oyog'idan qarib, sargardon kezaveradi. (*M.Sat.*)

2. Fazab va tezlikni odat qilma, halim (yumshoqlik, muloyimlik) dan xoli bo'lma, lekin juda ham muloyim bo'lmagilki, seni yo'q qilib yubormasinlar. Juda ham qo'pol bo'lmagilki, odamlar sendan qochmasinlar. («Qobusnoma»)

Bajarilishi:

1. Berilgan mashqdagi til unsurlarini guruhlash.

Fonemalar: [a], [o], [i], [u], [o'], [e], [q], [r], [t], [y], [p], [s], [d], [f], [g], [h], [j], [k], [l], [z].

Leksemalar: [Gadoy], [arazla], [to'rva], [ziyon], [Odatda], [o'z], [nomi], [bilan], [U], [Ber], [shukr], [deb], [duo], [qil], [yo'l].

Morfemalar: [-sa], [-si], [-ga], [-ma], [-y], [-di], [-gan], [-ingiz], [-ib], [-ish], [-ar], [-la], [-b], [-tir], [-don], [-lik], [--sin].

Soz birikmalari: *to'rvasiga ziyon; berganingizga shukr; yo'lida davom etmoq; shunday maqol, bola-chaqasiga zarar qilmoq; o'ziga zarar qilmoq; To'rvasiga ziyon keltirmoq; sargardon kezavermoq.*

Gaplar: *Gadoy arazlasa, to'rvasiga ziyon; Odatda, gadoy o'z nomi bilan gadoy; U arazlamaydi; Berganingizga shukr deb, duo qilib, yo'lida davom etadi; Biroq hamonki, shunday maqol bor ekan, gadoylar ham arazlab, noz, xarxasha qilishar ekan; Bu o'rinda u o'ziga, bola-chaqasiga zarar qiladi; To'rvasiga ziyon keltiradi; To'rvasi to'lmay, oyog'idan qarib, sargardon kezaveradi; Fazab va tezlikni odat qilma, halim (yumshoqlik, muloyimlik) dan xoli bo'lma, lekin juda ham muloyim bo'lmagilki, seni yo'q qilib yubormasinlar; Juda ham qo'pol bo'lmagilki, odamlar sendan qochmasinlar.*

2. Guruhlarning asosiy xususiyatlarini bayon qilish.

Eng kichik lisoniy birlik fonemalardir. Fonema muayyan til egalarining ma'lum tovushlar tipi haqidagi umumiy tasavvurlaridir. Har bir fonema so'zlovchilar ongida o'z tipini farqlovchi belgilari majmui asosida vujudga kelgan maxsus "akustik – artikulyatsion portret" yoki "tovushlar obrazi" sifatida saqlanadi.

Lisoning borliq hodisalarini nomlash, ifodalash, ko'rsatish uchun xizmat qiluvchi birligi leksemdir. Lisoniy birlik sifatidagi leksema biri ikkinchisiz mavjud bo'la olmaydigan ikkita psixofizik-akustik struktura (tovush qobig'i), ya'ni nomema hamda ma'lum bir tusuncha asosida vujudga kelgan mazmuniy struktura, ya'ni sememaning birligidan iborat.

Morfema leksemadan ajralgan holda o'z mohiyatini namoyon qila olmaydigan, shakl va denotativ bo'lmagan mazmunning birligidan iborat bo'lgan kichik lisoniy birlikdir. Qo'shimcha esa ana shu psixo-fizik mohiyatning nutqda namoyon bo'lishidir.

So'z birikmasi hokim bo'lakning ehtiyoji va tobe bo'lakning imkoniyati orasidagi uyg'unlikning voqelanish usulidir. so'z birikmalari sintaksisga aloqador bo'lib, nutq jarayonida so'zlarni o'zaro tobe-hokimlik aloqalariga kiritib, atov birliklari hosil qilish yo'llaridir.

3. Guruhlarni ma'noli va ma'nosiz tiplarga bo'lish.

Ma'noli tiplar: Leksemalar: [Gadoy], [arazla], [to'rva], [ziyon], [Odatda], [o'z], [nomi], [bilan], [U], [Ber], [shukr], [deb], [duo], [qil], [yo'l]. Soz birikmalari: *to'rvasiga ziyon; berganingizga shukr; yo'lida davom etmoq; shunday maqol, bola-*

chaqasiga zarar qilmoq; o'ziga zarar qilmoq; To'rvasiga ziyon keltirmoq; sargardon kezavermoq. Gaplar: Gadoy arazlasa, to'rvasiga ziyon; Odatda, gadoy o'z nomi bilan gadoy; U arazlamaydi; Berganingizga shukr deb, duo qilib, yo'lida davom etadi; Biroq hamonki, shunday maqol bor ekan, gadoylar ham arazlab, noz, xarxasha qilishar ekan; Bu o'rinda u o'ziga, bola-chaqasiga zarar qiladi; To'rvasiga ziyon keltiradi; To'rvasi to'lmay, oyog'idan qarib, sargardon kezaveradi; Fazab va tezlikni odat qilma, halim (yumshoqlik, muloyimlik) dan xoli bo'lma, lekin juda ham muloyim bo'lmagilki, seni yo'q qilib yubormasinlar; Juda ham qo'pol bo'lmagilki, odamlar sendan qochmasinlar.

Ma'nosiz tiplar: Fonemalar: [a], [o], [i], [u], [o'], [e], [q], [r], [t], [y], [p], [s], [d], [f], [g], [h], [j], [k], [l], [z]. Morfemalar: [-sa], [-si], [-ga], [-ma], [-y], [-di], [-gan], [-ingiz], [-ib], [-ish], [-ar], [-la], [-b], [-tir], [-don], [-lik], [--sin].

3-mashg'ulot. Til birliklari

Reja:

1. Berilgan mashqdagi birliklarni sathlar bo'yicha ajratish.
2. Barcha guruh birliklari uchun umumiy bo'lgan belgilarni aniqlash.
3. O'xshash birliklarning farqli tomonlarini bayon etish.

O'rmonjon akam urushmaydilar, mana ko'rasiz, urushmaydilar. (A.Qah.) 2. O'zingiz bilasiz; to'rt yildan beri bu yerda ishlayman tinim yo'q, ishdan boshim chiqmaydi. (Oyb.) 3. Tabibning aytishicha, tuzalmaydigan dardning o'zi yo'q. 4. Zafar, menimcha, ertaga sayohatga bormaydi. 5. Men uydagi ko'rpachalarni (bizda oz bo'lgani uchun, qo'shnilaridan ham olib chiqqan ekanlar) tashqariga tashiy berdim. 6. Kampir paranjini boshga ilib, Nurini mashhur «Qo'ng'iroq» folbinga (ba'zilar «rost folbin» ham deyishadi) sudradi. (Oyb.) 7. Demak, qo'shiq kerak butun olamga. 8. Tilning hatto tovush me'yorlari ham bizni o'qishga da'vat etadi. Jumladan, so'zning oxirgi tovushi ikkinchi so'zning boshida (va'da va vafo) takror qo'llansa, nutq sur'atiga salbiy ta'sir etadi. 9. Toshkent tinchlangandan keyin (agar salomat bo'lsam) o'zim xabar yuboraman. (A.Qod.) 10. Qabulxona — bu yer ilgari katta boyning mehmonxonasi bo'lsa kerak — qorong'i edi.

Bajarilishi:

1. Berilgan mashqdagi birliklarni sathlar bo'yicha ajratish.

Fonemalar: [q], [w], [e], [r], [t], [y], [u], [i], [o], [p], [a], [s], [d], [f], [g], [h], [j], [k], [l], [z], [x], [c], [v], [b], [n], [m], [sh], [ch].

Leksemalar: [O'rmonjon], [aka], [urush], [mana], [ko'r], [O'z], [bil], [to'rt], [yil], [beri], [bu], [yer], [ishla], [tinim], [yo'q], [ish], [bosh].

Morfema: (qo'shimcha) [-jon], [-m], [-ma], [-y], [-di], [-siz], [-ingiz], [-dan], [-da], [-man], [-im].

So'z birikmasi: *to'rt yildan beri ishlamoq; bu yerda ishlamoq; tuzalmaydigan dard; sayohatga bormoq.*

Gaplar: O'rmonjon akam urushmaydilar, mana ko'rasiz, urushmaydilar. (A.Qah.) 2. O'zingiz bilasiz; to'rt yildan beri bu yerda ishlayman tinim yo'q, ishdan boshim chiqmaydi. (Oyb.) 3. Tabibning aytishicha, tuzalmaydigan dardning o'zi yo'q. 4. Zafar, menimcha, ertaga sayohatga bormaydi. 5. Men uydagi ko'rpachalarni (bizda oz bo'lgani uchun, qo'shnilaridan ham olib chiqqan ekanlar) tashqariga tashiy berdim. 6. Kampir paranjini boshga ilib, Nurini mashhur «Qo'ng'iroq» folbinga (ba'zilar «rost folbin» ham deyishadi) sudradi. (Oyb.) 7. Demak, qo'shiq kerak butun olamga. 8. Tilning hatto tovush me'yorlari ham bizni o'qishga da'vat etadi. Jumladan, so'zning oxirgi tovushi ikkinchi so'zning boshida (va'da va vafo) takror qo'llansa, nutq sur'atiga salbiy ta'sir etadi. 9. Toshkent tinchlangandan keyin (agar salomat bo'lsam) o'zim xabar yuboraman. (A.Qod.) 10. Qabulxona — bu yer ilgari katta boyning mehmonxonasi bo'lsa kerak — qorong'i edi.

2.Barcha guruh birliklari uchun umumiy bo'lgan belgilarni aniqlash.

Fonema muayyan til egalarining ma'lum tovushlar tipi haqidagi umumiy tasavvurlaridir. Har bir fonema so'zlovchilar ongida o'z tipini farqlovchi belgilari majmui asosida vujudga kelgan maxsus “akustik – artikulyatsion portret” yoki “tovushlar obrazi” sifatida saqlanadi.

Lisoning borliq hodisalarini nomlash, ifodalash, ko'rsatish uchun xizmat qiluvchi birligi leksemdir. Lisoniy birlik sifatidagi leksema biri ikkinchisiz mavjud bo'la olmaydigan ikkita psixofizik-akustik struktura (tovush qobig'i), ya'ni nomema hamda ma'lum bir tusuncha asosida vujudga kelgan mazmuniy struktura, ya'ni sememaning birligidan iborat.

Morfema leksemadan ajralgan holda o'z mohiyatini namoyon qila olmaydigan, shakl va denotativ bo'lmagan mazmunning birligidan iborat bo'lgan kichik lisoniy birlikdir. Qo'shimcha esa ana shu psixo-fizik mohiyatning nutqda namoyon bo'lishidir

So'z birikmasi hokim bo'lakning ehtiyoji va tobe bo'lakning imkoniyati orasidagi uyg'unlikning voqelanish usulidir. so'z birikmalari sintaksisga aloqador bo'lib, nutq jarayonida so'zlarni o'zaro tobe-hokimlik aloqalariga kiritib, atov birliklari hosil qilish yo'llaridir.

3.O'xshash birliklarning farqli tomonlarini bayon etish.

Fonemalar qanday hosil bo'lishiga ko'ra ikki guruhga bo'linadi: unlilar va undoshlar. Unli fonemalar nutqda ayrim hollarda cho'ziq, ayrim holda qisqa, qattiq va yumshoq talaffuz qilinadi. Undosh tovushlarning hosil bo'lishida bo'g'iz bo'shlig'i, og'iz bo'shlig'i va til muhim ahamiyatga ega. O'pkadan chiqadigan havo xuddi mana shu joylarda turli xil to'siqlarga duch keladi.

Leksemalar mustaqil va yordamchi leksemalarga bo'linadi. Leksemaning har bir qirradi bir tasnifni yuzaga keltiradi. Chunonchi:

- 1.Bo'g'in soniga ko'ra: bir bo'g'inli, ko'p bo'g'inli.
- 2.Fonemalar miqdoriga ko'ra: bir fonemali, ikki fonemali, uch fonemali...
- 3.Fonemalarni ifodalovchi harflarning tartibiga ko'ra.
- 4.Tub-yasamaligiga ko'ra:tub va yasama.
- 5.Yasalish tipiga ko'ra: diaxronik va sinxronik.
- 6.Tuzilishiga ko'ra: sodda, qo'shma, juft, takroriy.
- 7.Shakl va ma'no munosabatiga ko'ra: ma'nodosh, shakldosh, qarama-

qarshi ma'noli so'zlar va paronimlar.

8.Qo'llanishiga ko'ra: aktiv va passiv.

9.Onomasiologik - nominatsion xususiyatlariga ko'ra; antroponim, toponim, zoonim...

10.Vazifaviy - uslubiy xususiyatlariga ko'ra: kitobiy, rasmiy, so'zlashuv.

11.Lug'at tarkibidagi qatlamiga ko'ra: o'z va o'zlashgan qatlam, chegaralangan va chegaralanmagan qatlam.

12.Emotsional - ekspressiv jihatiga ko'ra: emotsional - ekspressiv bo'yoqdor va bo'yoqsiz so'zlar.

13.So'zning ifodalaydigan kategorial umumiy ma'nosiga ko'ra: narsa, buyum.

4-mashg'ulot. Fonologik birliklar

Reja:

1. Berilgan mashqdagi tovushlarni ajratish.

2. Bu tovushlarni o'xshash belgilariga ko'ra ikki guruhga ajratish.

3. Har bir guruhdan bittadan unsur olib, ularga o'xshash birliklar ishtirok etgan misollar keltirish (Masalan, *ana* so'zidagi *a* ga o'xshash birliklar *mana* so'zida ham bor.

4. Tiklangan umumiylikka ta'rif berish.

5. Ta'rifni lug'atdagi izoh bilan qiyoslash va tuzatish.

Bolam, jon bolam, o'zingni ehtiyot qil. Xo'pmi, jon bolam! Tushunding-a! (*O'.Hosh.*) 2. Eh, ukam. Sen ularni bilmaysan-da. 3. Ey, dono qizim, keling, keling, bormisiz? 4. Quyosh, nuring to'ka ber mo'l-mo'l! Bahor, ketma bizning bog'lardan! (*Oyb.*) 5. Chimxo'rsan-da, qizim, shu ham osh yeyishmi? (*A.Qod.*) 6. Endi, bo'tam, gapimning bu yog'iga ham diqqat bilan quloq sol. (*X.To'x.*) 7. Bobo, to'qayda arslon bo'ladimi? (*Yo.Shuk.*) 8. Ey, Sodiqlar, sen hali nimani ko'rding-ku, nimaga ishonding? (*A.Qod.*) 8. Kelgusi avlod, mening yosh do'stlarim, sizlarga, ko'p ish qilishga to'g'ri keladi. (*I.V.Mich.*) 9. O'zingni teja, qizim, o'rningni qalin qilib burkanib yot, terla. (*A.Qod.*) 10. Keling, do'stlar, qadrdonlar, aziz o'rtoqlar.

Bajarilishi:

1.Berilgan mashqdagi tovushlarni ajratish.

Tovushlar: [a], [o], [i], [u], [o'], [e], [q], [r], [t], [y], [p], [s], [d], [f], [g], [h], [j], [k], [l], [z], [x], [v], [b], [n], [m], [sh], [ch].

2.Bu tovushlarni o'xshash belgilariga ko'ra ikki guruhga ajratish

Unlilar guruhi: [a], [o], [i], [u], [o'], [e].

Undoshlar guruhi : [q], [r], [t], [y], [p], [s], [d], [f], [g], [h], [j], [k], [l], [z], [x], [v], [b], [n], [m], [sh], [ch].

3. Har bir guruhdan bittadan unsur olib, ularga o'xshash birliklar ishtirok etgan misollar keltirish (Masalan, *ana* so'zidagi *a* ga o'xshash birliklar *mana* so'zida ham bor).

Bolam so'zidagi [o] ga o'xshash birliklar jon, dono, bormisiz, quyosh, bahor, bog'lardan, osh, yog'iga so'zida ham bor

O'zingni so'zidagi [z] ga o'xshash birliklar qizim, bormisiz, bizning, sizlarga, aziz so'zida ham bor.

5-mashg'ulot. Morfemik birliklar

Reja:

1. Berilgan mashqdagi qo'shimchalarni ajratish.
2. Bu qo'shimchalarni o'xshash belgilariga ko'ra ikki guruhga ajratish.
3. Har bir guruhdan bittadan unsur olib, ularga o'xshash birliklar ishtirok etgan misollar keltirish.
4. Tiklangan umumiylikka ta'rif berish.
5. Ta'rifni lug'atdagi izoh bilan qiyoslash va tuzatish.

Amerikalik naturopat olim Pol Breggni mashhur qilgan kitobi «Ochlikning mo'jizaviy tuhfasi» nomli asaridir. 2. Tilga ixtiyorsiz — elga e'tiborsiz. (Nav) 3. Sunbulaning suvi tiniq bo'ladi. 4. Ko'chamizning kechki paytdagi ko'rinishi ajoyib tus oladi. 5. Qishlog'imizda ikki qavatli maktab qurildi. 6. Yerdan oltin yaproqlar kabi yotar oy nuri. (Oyb) 7. «Akrobat» so'zi yunon tilidan olingan bo'lib, u «Oyoq uchida yuraman», «Yuqoriga chiqaman» ma'nolarini anglatadi. 8. «Akvarel» so'zi lotincha «akva» — «suv» so'zidan kelib chiqqan. 9. Annotatsiya — nashr qilinadigan biror ilmiy, badiiy, falsafiy va boshqa asarlarning asosiy mazmuni va foydalanish sohasini ifodalovchi ma'lumotnoma. 10. Dunyoda uchta mo'tabar so'z bor: ona, Vatan, o'qituvchi.

Bajarilishi:

1. Berilgan mashqdagi qo'shimchalarni ajratish.
-lik, -ni, -gan, -i, -ning, -viy, -si, -li, -dir, -ga, -siz, -iq, -a, -di, -miz, -dagi, -in, -da, -li, -lar, -ar, -ib, -man, -t, -iy, -ish, -vchi, -ta.
2. Bu qo'shimchalarni o'xshash belgilariga ko'ra ikki guruhga ajratish
1-guruh. So'z yasovchi qo'shimchalar: -lik, -viy, -li, -siz, -iq, -iy, -vchi.
2-guruh. Shakl yasovchi qo'shimchalar: -ni, -gan, -i, -ning, -si, -dir, -ga, -a, -di, -miz, -dagi, -in, -da, -lar, -ar, -ib, -man, -t, -ish, -ta.
3. Har bir guruhdan bittadan unsur olib, ularga o'xshash birliklar ishtirok etgan misollar keltirish.
1-guruhdagi -li qo'shimchasi aqlli, bilimli, baxtli, shartli kabi so'zlarda ham qatnashgan.
1-guruhdagi -ni qo'shimchasi kitobni, daftarni, ruchkani, Salimani kabi so'zlarda ham qatnashgan

6-mashg'ulot. Leksik birliklar

Reja:

1. Berilgan mashqdagi so'zlarni ajratish.
 2. Bu so'zlarni o'xshash belgilariga ko'ra ikki guruhga ajratish.
 3. Denotativ ma'noli va grammatik ma'noli so'zlarni guruhlash.
 4. Tiklangan umumiylikka ta'rif berish.
 5. Ta'rifni lug'atdagi izoh bilan qiyoslash va tuzatish.
1. Hamma olg'a intilardi. 2. Bu ishni qilish o'ta xavfli. 3. Quyosh ko'kdan mo'ralab qarar. 4. Oraga jimlik cho'kdi, hammaning qulog'i ding bo'ldi. 5. Hech qayerdan hech qanday sado eshitilmas, faqat Chorsu maydoni tomonida sadaqa so'rab

yurgan bir gadoning o'tkir ovozi elas-elas quloqqa chalinardi. 6. Har yerni sen qilmagin orzu, har yerda bor toshu tarozi. 7. Olamdan o'tganni tuproq ostiga — Tuproqning ustiga So'zni qo'ydilar. Quyoshdan uyalib, oydan uyalib, yalong'och yuraklar So'zni kiydilar. (E. Shukurov.) 8. Hikmat shunday liboski, kiygan bilan eskirmaydi. 9. Harom yo'l bilan topilgan molu dunyo senga oxiri halokat keltiradi. (R. Tagor.) 10. Kechasi bilan yomg'ir daraxtlar shoxini savalab chiqdi.

1. Berilgan mashqdagi so'zlarni ajratish.

Hamma, olg'a, intilardi, bu, ishni, qilish, o'ta, xavfli, quyosh, ko'kdan, mo'ralab, qarar, oraga, jimlik, cho'kdi, hammaning, qulog'I, ding bo'ldi, hech qayerdan, hech qanday, sado, eshitilmas, faqat, Chorsu, maydoni, tomonda, sadaqa, so'rab yurgan, bir, gadoning, o'tkir, ovozi, elas-elas, quloqqa, chalinardi, har yerni, sen, qilmagin, orzu, har yerda, bor, tosh, tarozi, olamdan, o'tganni, tuproq, ostiga, tuproqning, ustiga, so'zni, qo'ydilar, Quyoshdan, uyalib, oydan, uyalib, yalong'och, yuraklar, so'zni, kiydilar, hikmat, shunday, liboski, kiygan, bilan, eskirmaydi, harom, yo'l, bilan, topilgan, mol, dunyo, senga, oxiri, halokat, keltiradi, kechasi, bilan, yomg'ir, daraxtlar, shoxini, savalab, chiqdi.

2. Bu so'zlarni o'xshash belgilariga ko'ra ikki guruhga ajratish.

1-guruh. *faqat, tomon, o'ta, bor, bilan.*

2-guruh. *Hamma, olg'a, intilardi, bu, ishni, qilish, xavfli, quyosh, ko'kdan, mo'ralab, qarar, oraga, jimlik, cho'kdi, hammaning, qulog'I, ding bo'ldi, hech qayerdan, hech qanday, sado, eshitilmas, Chorsu, maydoni, sadaqa, so'rab yurgan, bir, gadoning, o'tkir, ovozi, elas-elas, quloqqa, chalinardi, har yerni, sen, qilmagin, orzu, har yerda, tosh, tarozi, olamdan, o'tganni, tuproq, ostiga, tuproqning, ustiga, so'zni, qo'ydilar, Quyoshdan, uyalib, oydan, uyalib, yalong'och, yuraklar, so'zni, kiydilar, hikmat, shunday, liboski, kiygan, eskirmaydi, harom, yo'l, topilgan, mol, dunyo, senga, oxiri, halokat, keltiradi, kechasi, yomg'ir, daraxtlar, shoxini, savalab, chiqdi.*

3. Denotativ ma'noli va grammatik ma'noli so'zlarni guruhlash

Denotativ ma'noli so'zlar: *Hamma, olg'a, intilardi, bu, ishni, qilish, xavfli, quyosh, ko'kdan, mo'ralab, qarar, oraga, jimlik, cho'kdi, hammaning, qulog'I, ding bo'ldi, hech qayerdan, hech qanday, sado, eshitilmas, Chorsu, maydoni, sadaqa, so'rab yurgan, bir, gadoning, o'tkir, ovozi, elas-elas, quloqqa, chalinardi, har yerni, sen, qilmagin, orzu, har yerda, tosh, tarozi, olamdan, o'tganni, tuproq, ostiga, tuproqning, ustiga, so'zni, qo'ydilar, Quyoshdan, uyalib, oydan, uyalib, yalong'och, yuraklar, so'zni, kiydilar, hikmat, shunday, liboski, kiygan, eskirmaydi, harom, yo'l, topilgan, mol, dunyo, senga, oxiri, halokat, keltiradi, kechasi, yomg'ir, daraxtlar, shoxini, savalab, chiqdi.*

Grammatik ma'noli so'zlar: 1-guruh. *faqat, tomon, o'ta, bor, bilan.*

7-mashg'ulot. So'z birikmasi

Reja:

- 1. Berilgan gapni so'z birikmalariga ajratish.**
- 2. O'xshash so'z birikmalari tuzish va guruhlash.**
- 3. Har bir guruhdagi misollarning farqli tomonlarini aniqlash.**
- 4. Har bir guruhning umumiy belgisini topish. [ot.t.k+fe'l]**

5. Tiklangan umumiylikning shakliy va mazmuniy tomonini aniqlash [W+W=co'z birikmasi].

Kasandra-embriionning kelajak hayotdan noroziligi insoniyat hayotining butun tarixi davomida nishon berib kelgan, albatta. Lekin ba'zi bir homilador ayollarning peshonasidagi rangli dog'ga hech kim etibor bergan emas va hozir ham e'tibor berishmaydi men bu dog'ning ahamiyatini aniqlash barobarinda uning sezilarliroq namoyon bo'lish usulini topdim. Buning uchun nurlanish seanslari o'tkazaman. Yerga osmondan turib zondaj nurlar jo'nataman. Orbetal moduldan yunaltirilgan bu nurlar ona qornidagi kasandra embirionning impulsuslarini kuchaytirib beradi. Natijada ilgarilari odamlar husunbuzar deb o'ylashgan kichkinagina rangli dog' fazodan yunaltirilgan nurlar ta'sirida milt - milt etib uchib yonib hammaga ko'rina boshladi.

Bajarilishi:

1. Berilgan gapni so'z birikmalariga ajratish.

Kasandra-embriionning noroziligi; kelajak hayot; hayotdan noroziligi; insoniyat hayoti; insoniyat hayotining tarixi; homilador ayollar; homilador ayollarning peshonasi; rangli dog'; hozir e'tibor bermoq; bu dog'; dog'ning ahamiyati; ahamiyatini aniqlash; uning namoyon bo'lishi; namoyon bo'lish usulini topmoq; nurlanish seanslari; seanslarni o'tkazmoq; zondaj nurlar; nurlar jo'natmoq; Yerga jo'natmoq; osmondan jo'natmoq; Orbetal modul; moduldan yunaltirilgan; Orbetal moduldan yunaltirilgan bu nurlar; kasandra embirionning impulsuslari; impulsuslarini kuchaytirib bermoq; kichkinagina rangli dog'; fazodan yunaltirilgan nurlar; hammaga ko'rina boshlamoq.

2. O'xshash so'z birikmalari tuzish va guruhlash.

1-ustun. *Kasandra-embriionning noroziligi; insoniyat hayoti; insoniyat hayotining tarixi; homilador ayollarning peshonasi; dog'ning ahamiyati; uning namoyon bo'lishi; kasandra embirionning impulsuslari.*

2-ustun. *hayotdan noroziligi; ahamiyatini aniqlash; namoyon bo'lish usulini topmoq; seanslarni o'tkazmoq; nurlar jo'natmoq; Yerga jo'natmoq; osmondan jo'natmoq; moduldan yunaltirilgan; impulsuslarini kuchaytirib bermoq; hammaga ko'rina boshlamoq.*

3-ustun. *Homilador ayollar; rangli dog'; hozir e'tibor bermoq; bu dog'; nurlanish seanslari; zondaj nurlar; Orbetal modul; Orbetal moduldan yunaltirilgan bu nurlar; kichkinagina rangli dog'; fazodan yunaltirilgan nurlar.*

3. Har bir guruhdagi misollarning farqli tomonlarini aniqlash.

Birinchi guruhda so'zlar qaratqich kelishigi qo'shimchasi va egallik qo'shimchasi bilan birikkan (*Kasandra-embriionning noroziligi; insoniyat hayoti; insoniyat hayotining tarixi*), ikkinchi guruhda esa ism va fe'llar kelishik (*chiqish, tushum, jo'nalish*) qo'shimchalari yordamida belgili va belgisiz bog'langan (*hayotdan noroziligi; ahamiyatini aniqlash; hammaga ko'rina boshlamoq*), uchunchi guruhda esa so'zlar faqat ohang jihatdan bog'langan (*rangli dog'; hozir e'tibor bermoq; bu dog'; nurlanish seanslari*). Ko'rinib turibdiki, guruhdagi misollar o'zaro qanday bog'lanishiga ko'ra farqlangan.

4. Har bir guruhning umumiy belgisini topish. [ot.t.k+fe'l]

Birinchi guruh uchun umumiy belgi: [ISM Q.K+ ISM E.Q];

Ikkinchi guruh uchun umumiy belgi:[Ism K.K +Ism; Ism K.K+Fe'l];

Uchinchi guruh uchun umumiy belgi:[Ism+Ism; Ism+Fe'l].

5.Tiklangan umumiylikning shakliy va mazmuniy tomonini aniqlash [w+w=so'z birikmasi].

Birinchi guruhning shakliy tomoni: [ISM Q.K+ ISM E.Q]; ma'noviy tomoni: *Kasandra-embriionning noroziligi; insoniyat hayoti; insoniyat hayotining tarixi; homilador ayollarning peshonasi; dog'ning ahamiyati; uning namoyon bo'lishi; kasandra embirionning impulsarlari.*

Ikkinchi guruhning shakliy tomoni: [Ism K.K +Ism; Ism K.K+Fe'l]; ma'noviy tomoni: *hayotdan noroziligi; ahamiyatini aniqlash; namoyon bo'lish usulini topmoq; seanslarni o'tkazmoq; nurlar jo'natmoq; Yerga jo'natmoq; osmondan jo'natmoq; moduldan yunaltirilgan; impulslarini kuchaytirib bermoq; hammaga ko'rina boshlamoq.*

Uchinchi guruhning shakliy tomoni: [Ism+Ism; Ism+Fe'l]; ma'noviy tomoni: *Homilador ayollar; rangli dog'; hozir e'tibor bermoq; bu dog'; nurlanish seanslari; zondaj nurlar; Orbetal modul; Orbetal moduldan yunaltirilgan bu nurlar; kichkinagina rangli dog'; fazodan yunaltirilgan nurlar.*

Adabiyotlar:

10. Ҳозирги ўзбек адабий тили. II қисм (академ нашр). Т., 1966.

11. Менглиев Б. Ўзбек тилининг структур синтаксиси. Қарши. «Насаф», 2003.

12. Неъматов Ҳ. ва б. Ўзбек тили структурал синтаксиси асослари. Тошкент, «Университет». 1999.

13. Расулов Р. Сўз валентлиги ва синтактик алоқа. ЎТА. 1992. 5-6-сон.

8-mashg'ulot. Gap

Reja:

1. Berilgan mashqni gaplarga ajratish.

2. O'xshash gaplar tuzish va guruhlash.

3. Har bir guruhning umumiy belgisini topish. Masalan, [ega+to'ldiruvchi+kesim], [aniqlovchi+ega+kesim]

4. Tiklangan umumiylikning shakliy va ma'noviy tomonlarini aniqlash.

Yetti xazina nima?

O'tmishda xalqimiz dunyoda odamni boqadigan va boy qiladigan yetti xazina bor deb bilgan. Ular quyidagilar:

Sigir — ro'zg'orning qassobi va baqqoli.

Asalari — oilaning tabibi.

Ipak qurti — qizlarning sepi.

Objuvoz — qozonning yog'i.

Tegirmon — qorinning belbog'i.

O'rmon — imorat «suyagi», qozon olovi.

Tovuq — ham obi yovg'on, ham dori darmon.

Xo'sh, bularning nimasi xazina? Qadim zamonlardan beri kishilar shunga e'tibor berishganki, kundalik turmushda ayrim mahsulotlardan qanchalik ko'p foydalanmasin, ularning o'rni muntazam to'lib turaveradi. Masalan, sigir har kuni sut beraveradi, tovuq har kuni tuxum qilaveradi. Objuvoz bilan tegirmon ham (don solib turilsa) to'xtamay moy va un chiqaraveradi. Asalarining boliyu o'rmondagi dov-daraxt ham nisbatan olinganda tuganmasdir. Inqilobdan avvallari ipak mato bozorda kambag'allarning qurbi yetmaydigan darajada qimmat turgan, ayniqsa, qizlar bor uylarda ipak qurti boqilgan. Keyin pillani ipakchilardan matoga ayirbosh qilishgan.

Bajarilishi:

1. Berilgan mashqni gaplarga ajratish.

1.O'tmishda xalqimiz dunyoda odamni boqadigan va boy qiladigan yetti xazina bor deb bilgan. 2.Ular quyidagilar: 3.Sigir — ro'zg'orning qassobi va baqqoli.4.Asalari — oilaning tabibi. 5.Ipak qurti — qizlarning sepi. 6.Objuvoz — qozonning yog'i. 7.Tegirmon — qorinning belbog'i. 8.O'rmon — imorat «suyagi», qozon olovi. 9.Tovuq — ham obi yovg'on, ham dori darmon. 10.Xo'sh, bularning nimasi xazina? 11.Qadim zamonlardan beri kishilar shunga e'tibor berishganki, kundalik turmushda ayrim mahsulotlardan qanchalik ko'p foydalanmasin, ularning o'rni muntazam to'lib turaveradi. 12.Masalan, sigir har kuni sut beraveradi, tovuq har kuni tuxum qilaveradi. 13. Objuvoz bilan tegirmon ham (don solib turilsa) to'xtamay moy va un chiqaraveradi. 14. Asalarining boliyu o'rmondagi dov-daraxt ham nisbatan olinganda tuganmasdir. 15. Inqilobdan avvallari ipak mato bozorda kambag'allarning qurbi yetmaydigan darajada qimmat turgan, ayniqsa, qizlar bor uylarda ipak qurti boqilgan. 16. Keyin pillani ipakchilardan matoga ayirbosh qilishgan.

2.O'xshash gaplar tuzish va guruhlash.

Birinchi guruh: 1.O'tmishda xalqimiz dunyoda odamni boqadigan va boy qiladigan yetti xazina bor deb bilgan. 2.Ular quyidagilar: 3.Sigir — ro'zg'orning qassobi va baqqoli.4.Asalari — oilaning tabibi. 5.Ipak qurti — qizlarning sepi. 6.Objuvoz — qozonning yog'i. 7.Tegirmon — qorinning belbog'i. 8.O'rmon — imorat «suyagi», qozon olovi. 9.Tovuq — ham obi yovg'on, ham dori darmon. 10.Xo'sh, bularning nimasi xazina? 11. Objuvoz bilan tegirmon ham (don solib turilsa) to'xtamay moy va un chiqaraveradi. 12. Asalarining boliyu o'rmondagi dov-daraxt ham nisbatan olinganda tuganmasdir. 13. Keyin pillani ipakchilardan matoga ayirbosh qilish

Ikkinchi guruh: 1.Qadim zamonlardan beri kishilar shunga e'tibor berishganki, kundalik turmushda ayrim mahsulotlardan qanchalik ko'p foydalanmasin, ularning o'rni muntazam to'lib turaveradi. 2.Masalan, sigir har kuni sut beraveradi, tovuq har kuni tuxum qilaveradi. 13. Inqilobdan avvallari ipak mato bozorda kambag'allarning qurbi yetmaydigan darajada qimmat turgan, ayniqsa, qizlar bor uylarda ipak qurti boqilgan.

3.Har bir guruhning umumiy belgisini topish. Masalan, [ega+to'ldiruvchi+kesim], [aniqllovchi+ega+kesim]

Birinchi guruh uchun umumiy belgi: [WPm]

Ikkinchi guruh uchun umumiy belgi:[WPm], [WPm]

Tiklangan umumiylikning shakliy va ma'noviy tomonlarini aniqlash.

4. Tiklangan umumiylikning shakliy va ma'noviy tomonlarini aniqlash.

Birinchi guruhning shakliy tomoni: [WPm]; ma'noviy tomoni: 1. *O'tmishda xalqimiz dunyoda odamni boqadigan va boy qiladigan yetti xazina bor deb bilgan.* 2. *Ular quyidagilar:* 3. *Sigir — ro'zg'orning qassobi va baqqoli.* 4. *Asalari — oilaning tabibi.* 5. *Ipak qurti — qizlarning sepi.* 6. *Objuvoz — qozonning yog'i.* 7. *Tegirmon — qorinning belbog'i.* 8. *O'rmon — imorat «suyagi», qozon olovi.* 9. *Tovuq — ham obi yovg'on, ham dori darmon.* 10. *Xo'sh, bularning nimasi xazina?* 11. *Objuvoz bilan tegirmon ham (don solib turilsa) to'xtamay moy va un chiqaraveradi.* 12. *Asalarining boliyu o'rmondagi dov-daraxt ham nisbatan olinganda tuganmasdir.* 13. *Keyin pillani ipakchilardan matoga ayirbosh qilish.*

Ikkinchi guruhning shakliy tomoni: [WPm], [WPm]; ma'noviy tomoni: 1. *Qadim zamonlardan beri kishilar shunga e'tibor berishganki, kundalik turmushda ayrim mahsulotlardan qanchalik ko'p foydalanmasin, ularning o'rni muntazam to'lib turaveradi.* 2. *Masalan, sigir har kuni sut beraveradi, tovuq har kuni tuxum qilaveradi.* 13. *Inqilobdan avvallari ipak mato bozorda kambag'allarning qurbi yetmaydigan darajada qimmat turgan, ayniqsa, qizlar bor uylarda ipak qurti boqilgan.*

9-mashg'ulot. Fonetikada lisoniy ziddiyatlar

Reja:

- 1. Lisoniy ziddiyatlar haqida savol-javob.**
- 2. Fonemalardagi darajali ziddiyatlarni aniqlash.**
- 3. Fonemalardagi teng qiymatli ziddiyatlarni aniqlash.**
- 4. Fonemalardagi noto'liq ziddiyatlarni aniqlash.**

Aspirant so'zi haqida

Ilgari zamonlarda olimlar o'z oldlariga grekcha «aspiro», ya'ni «intilaman» degan shior qo'yganlar. Ular olam sirlarini chuqurroq bilib olish maqsadida o'z ustozlaridan mumkin qadar ko'proq bilim olishga intilganlar.

«Aspirant» atamasi ana shu «aspiro» so'zidan olingan bo'lib, hozirda «bilim egallashga intilish» ma'nosini bildiradi.

Qadim rimliklarda toga kiyish rasm bo'lgan. Toga degani jun matodan tikilgan rangdor yoping'ichdir. Senatorlar va chavandozlar qizil hoshiyali toga kiyganlar.

Biron mansabga o'tish harakati bo'lgan shaxslar esa bu libosni toga-kandida deb ataladigan basavlat sidirg'a oq xilini kiyib yurishgan. «Falon fanlar nomzodi» degan unvon, ya'ni fan kandidati bo'ladigan kishining unvoni shundan kelib chiqqan.

Bajarilishi:

2. Fonemalardagi darajali ziddiyatlarni aniqlash.

[i], [e], [a] fonemalari tilning ko'tarilish darajasiga ko'ra ziddiyatda turibdi.

[d], [y], [k], [q] undosh fonemalar tilning qayerida hosil bo'lishiga ko'ra ziddiyatda turibdi.

3. Fonemalardagi teng qiymatli ziddiyatlarni aniqlash.

[a], [u] fonemalari lablangan-lablanmaganligiga ko'ra; [i], [u] tilning gorizantal holatiga ko'ra; [d], [t] jarangli-jarangsizligiga ko'ra teng qiymatli ziddiyatli ziddiyatda turibdi.

4.Fonemalardagi noto'liq ziddiyatlarni aniqlash

Lablanmaganlik belgisi

lab-tish

A+

O+/-

F+

V+/-

10-mashg'ulot. Leksikada lisoniy munosabatlar

Reja:

1. Lisoniy munosabatlar haqida savol-javob.

2. Leksikada darajalanish munosabatlari.

3. Leksikada giponimik munosabatlar.

4. Leksikada partonimik munosabatlar.

8. Leksika ierxionimik munosabatlar.

1. Sichqonboy, rahmsiz, to'ng, Do'q urubon bosadi. (*Q. Muh.*) 2. Sakrab tushib shunda tuyadan, karvonboshi — berahm, nodon. (*I.Rah.*) 3. Ko'rdilaringmi, qattiq — tishlaringni ushatadi. 4. Kechqurun osh suzsak, bir nasiba kam, Qumsayman, birovni — allakimni. (*G'.G'ul.*) 5. Unsin uchun, bechora qiz uchun bu qanday mudhish, motam! (*Oyb.*) 6. Bu yerlarga kelgan u — xalq o'g'li, shoir, vatan tog'lari sari ochib quchog'in. (*Oyb.*) 7. Fursating bormi, qaynatadan, Zunnunxo'jadan, so'rab kelganmisan? (*A.Qah.*) 8. Biz mana shu qishloq hayotidan nafis film, ya'ni kartina yaratmoqchimiz. (*A.Qah.*) 9. Mashhur terimchi Xosiyatoyini, yosh ayolni, hurmat bilan to'rga o'tkazishdi. 10. Qo'shnisini, bir kampirni, chaqirdi.

Bajarilishi:

1.Leksikada darajalanish munosabatlari

Ertalab-tush- kechqurun; bola – qiz-ayol-kampir; qishloq-tuman-viloyat-respublika.

2.Leksikada giponimik munosabatlar

[hayvon] va [sichqon]; [hayvon] va [tuya]; [bola] va [qiz]; [bola] va [o'g'il]; [ijodkor] va [shoir].

10-mashg'ulot. Undoshlar tasnifi

Reja:

1. Berilgan gapning undosh tovushlarini ajratish.

2. Hosil bo'lish o'rniga ko'ra tasniflang.

3. Hosil bo'lish usuliga ko'ra tasniflang.

4. Ovoz va shovqin ishtirokiga ko'ra tasniflang.

5. Korrelyativ belgilarini aniqlang.

Yalpiz xushbo'y o'simlikdir. Bu ajoyib o'simlikning O'zbekistonda bir qancha xillari bor. Yalpiz ziravor va dorivor o'simlik sifatida qadimdan ma'lum. Erta bahorda endigina ko'karib chiqqan yalpizni terib somsa yopishadi, chuchvara tayyorlashadi. Barra barglari taomlarga solinadi. Yalpiz organik moddalar, mineral tuzlar va efir moyiga boy o'simlikdir. Undan parfyumeriya sanoatida, tish pastasi va kukunlar ishlab chiqarishda foydalaniladi. Yalpiz oziq-ovqat sanoatida ham ishlatiladi.

Bajarilishi:

1. Berilgan gapning undosh tovushlarini ajratish

[q], [r], [t], [y], [p], [s], [d], [f], [g], [h], [j], [k], [l], [z], [x], [v], [b], [n], [m], [sh], [ch], [g']

2. Hosil bo'lish o'rniga ko'ra tasniflang.

1. Lab undoshlari:

a) lab-lab undoshlari: *b, p, m, v*;

b) lab-tish undoshi: *f*.

2. Til undoshlari:

a) til oldi: *d, t, z, s, sh, j (dj), ch, n, l, r*;

b) til o'rta: *y*;

d) sayoz til orqa: *k, g, ng*;

e) chuqur til orqa: *q, x, g'*.

3. Bo'g'iz undoshi – *h* tovushlariga bo'linadi.

3. Hosil bo'lish usuliga ko'ra tasniflang.

1. Portlovchilar ; *b, p, d, t, k, g, q*;

2. Sirg'aluvchilar ; *v, f, z, s, y, l, sh, g', x, h, j*;

3. Titroq: *r* ;

4. Qorishiq: *dj, ch*;

5. Yon: *l*

6. Burun: *n, m, ng*.

4. Ovoz va shovqin ishtirokiga ko'ra tasniflang

1. Jaranglilar : *b, v, g, d, z, j, dj, y, g', m, n, ng, l, r* ;

2. Jarangsizlar : *p, f, k, t, s, ch, sh, q, x, h*.

5. Korrelyativ belgilarini aniqlang

[*b*]-[*p*], [*d*]-[*t*] , [*k*] –[*g*], [*s*] –[*z*], [*j*]-[*ch*], [*dj*]-[*sh*], [*g'*]-[*q*], [*v*]-[*f*].

“lab-lab – til oldi”: [*p*]-[*t*]; [*m*]-[*n*]; [*v*]-[*z*]; [*v*]-[*r*]

“lab-lab – til o'rta”: [*b*]-[*y*]; [*v*]-[*y*];

“lab-lab – til orqa”: [*p*]-[*k*]; [*b*]-[*k*]; [*m*]-[*x*]; [*v*]-[*g*];

“lab-lab – bo'g'iz”: [*p*]-[*h*]; [*v*]-[*h*];

“til oldi- til orqa”: [*t*]-[*k*]; [*t*]-[*q*]; [*d*]-[*g*]; [*s*]-[*x*]; [*z*]-[*g*]; [*n*]-[*g*].

“portlovchi – sirg'aluvchi”:

[*p*]-[*f*]; [*b*]-[*v*]; [*t*]-[*s*]; [*d*]-[*z*]; [*t*]-[*sh*]; [*k*]-[*x*] ...

“portlovchi – affrikat (qorishiq)”:

[*t*]-[*ch*]; [*d*]-[*dj*];

“sirg'aluvchi - affrikat”: [*sh*]-[*ch*]; [*j*]-[*dj*];

SEMINAR MASHG'ULOTI ISHLANMALARI

1-mashg'ulot. "Tilshunoslik kirish" fanining maqsad va vazifalari

Reja:

5. "Tilshunoslik kirish" fanining predmeti va vazifalari.
6. Umumiy va xususiy tilshunoslik, amaliy va nazariy tilshunoslik.
7. Tilshunoslikning boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi.
8. Tilshunoslikda metodologiya masalasi. Metodologiya, metodika va metod tushunchalari.

Adabiyotlar

9,5-7; 10, 604; 16, 9-10.

Bajarilishi:

1. **"Tilshunoslik kirish" fanining predmeti va vazifalari.** Tilshunoslik til haqidagi qadimiy tarixga ega bo'lgan mustaqil fandır. Jahon tilshunosligining rivojlanishiga qadimgi hind tilshunosligi, yunon tilshunosligi va o'rta asrlarda shakllangan arab lingvistikasi turtki bo'lganligi. Tilshunoslik tilning paydo bo'lishi, rivojlanishi, til va tafakkur, til va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar, tilning jamiyatdagi o'rni, ichki tuzilishi – tilning tasnifi, uni tahlil qilish usullari va shu kabi masalalarni o'rganadigan fan sifatida.

Adabiyotlar:

1. Tilshunoslikka kirish" ma'ruzalar matni, 5-6-bet
2. Содиқов А., Абдуазизов А., Ирискулов М. Тилшуносликка кириш. Т., "Ўқитувчи", 1981; 5-6-betlar
3. Ирискулов М. Тилшуносликка кириш. Т., "Ўқитувчи", 1992; 5-6-betlar

2. Umumiy va xususiy tilshunoslik, amaliy va nazariy tilshunoslik tilshunoslikning boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi. Tilshunoslik fani xususiy va umumiy tilshunoslik sohalaridan iboratligi. Xususiy tilshunoslik ma'lum bir tilning grammatikasini, ya'ni tilning turli sathlarini, jumladan, fonetikasini, fonologiyasini, lug'at tarkibini, grammatik qurilishini va hokazolarni sinchiklab o'rganadigan tilshunoslik sohasi sifatida. Umumiy tilshunoslik esa umuman tillarning kelib chiqishi, ijtimoiy mohiyati, jamiyatdagi o'rni va vazifalari, taraqqiyot yo'llari, til va tafakkurning o'zaro bog'liqligi, tillararo munosabatlarni umumlashtiruvchi, ilmiy xulosalar chiqaruvchi hamda shu asosda til qonuniyatlarini aniqlab beruvchi fandır.

Amaliy tilshunoslik lingvistik bilimlarni amaliy faoliyatda qo'llashdir. Nazariy tilshunoslik esa tlni ilmiy o'rganuvchi soha ekanligi.

Adabiyotlar:

1. Tilshunoslikka kirish" ma'ruzalar matni, 10-12-bet
2. Содиқов А., Абдуазизов А., Ирискулов М. Тилшуносликка кириш. Т., "Ўқитувчи", 1981; 14-15-betlar
3. Ирискулов М. Тилшуносликка кириш. Т., "Ўқитувчи", 1992; 5-6-betlar

3. Tilshunoslikning boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi.

Tilshunoslik falsafa bilan chambarchas bog'liqligi. Psixologiya vatilshunoslikning bog'liqligi. Tilshunoslik va tarix fanining aloqasi. Arxeologiya hamda tilshunoslik fani orasidagi aloqadorlik.til etnik belgi ekanligi. Shunga o'ra

etnografiya bilan aloqadorligi. Tilshunoslik adabiyotshunoslik bilan zich bog'langanligi. Fiziologiya, fizika, kibernetika, matematikafanlari bilan bog'liqligi.

Adabiyotlar:

1. Tilshunoslikka kirish" ma'ruzalar matni, 7-9-bet
2. Содиқов А., Абдуазизов А., Ирискулов М. Тилшуносликка кириш. Т., "Ўқитувчи", 1981; 10-13-betlar
3. Ирискулов М. Тилшуносликка кириш. Т., "Ўқитувчи", 1992; 5-6-betlar

4. Tilshunoslikda metodologiya masalasi. metodologiya, metodika va metod tushunchalari. Tilshunoslikning falsafa bilan bog'liqligi. Falsafa tilshunoslikning metodologiyasini belgilab beradi. Tilning kelib chiqishi va rivojlanishi; til va nutq falsafiy masala sifatida.. Til va tafakkur, mantiq va tilshunoslik munosabatlari.. Til - ramziy tizim sifatida.. Tillarning rivojlanishi va o'zaro ta'siri masalalari.. Grammatik talqinlarning falsafiy masalalari. Методика бирор ишни бажариш, амалга ошириш, адо этиш методларининг, усулларининг йиғиндиси. Metod табиат ва жамият ҳодисаларини билиш, тадқиқ қилиш усули еkanлиги. Metodologiya tushunchasi.

Adabiyotlar:

1. Tilshunoslikka kirish" ma'ruzalar matni, 11-14-bet
2. Содиқов А., Абдуазизов А., Ирискулов М. Тилшуносликка кириш. Т., "Ўқитувчи", 1981; 12-13-betlar
3. Ирискулов М. Тилшуносликка кириш. Т., "Ўқитувчи", 1992; 7-8-betlar
4. Tulenov Falsafa, Т., Ўқитувчи", 1992; 38-40

2-mashg'ulot. Til va jamiyat

Reja:

5. Tilning ijtimoiy hodisa ekanligi.
2. ilda etnik xususiyatlarning aks etishi.
3. Til taraqqiyotining jamiyat taraqqiyotiga bog'liq ekanligi.
4. Etnolingvistika.

Bajarilishi:

1. Tilning ijtimoiy hodisa ekanligi. Til kishilik jamiyatidagi muhim aloqa quroli ekanligi. Til taraqqiyotidagi tashqi omillar. itlning tabiati, ijtimoiy mohiyati kabi muhim masalalarni o'rganishda turli nazariya va oqimlarning fikrlari. naturalistik oqimi haqida. Materialistic tilshunoslarning g'oyalari. Til jamiyatda, odamlar orasida mavjud bo'ladigan ijtimoiy qurol ekanligi. Til hamisha jamiyat bilan aloqadorlikda ekan, so'zlovchilarning ekstralingvistik omillar ta'sirida bo'lishlari ham shu munosabatdan kelib chiqadi. Til – jamiyat a'zolarini birlashtiruvchi qadriyat.

Adabiyotlar:

1. Tilshunoslikka kirish" ma'ruzalar matni, 131-134-bet
2. Содиқов А., Абдуазизов А., Ирискулов М. Тилшуносликка кириш. Т., "Ўқитувчи", 1981; 19-23-betlar

2. Tilda etnik xususiyatlarning aks etishi. Til jamiyat a'zolarining ongida mavjud bo'lib, ularning barchasi uchun tayyor, umumiy, majburiy bo'lgan, fikrni

shakllantirish va uni ifodalashga xizmat qiladigan birliklar va ularning o'zaro munosabatlari haqidagi tasavvurlar yig'indisidir. Tildagi etnik xususiyatlar. Ekstralingvistika haqida. har bir tilning o'ziga xos etnik xususiyatlari. O'zbek hamda rus tillarining o'ziga xos etnik belgilari.

Adabiyotlar:

1. Tilshunoslikka kirish" ma'ruzalar matni, 132-134-bet
2. Содиқов А., Абдуазизов А., Ирискулов М. Тилшуносликка кириш. Т., "Ўқитувчи", 1981; 20-22-betlar
3. Ирискулов М. Тилшуносликка кириш. Т., "Ўқитувчи", 1992; 17-18-betlar/

3. Til taraqqiyotining jamiyat taraqqiyotiga bog'liq ekanligi. U kishilik jamiyatining tarixiy taraqqiyoti jarayonida yaratilgan, sayqal topib borayotgan aniq-tarixiy me'yor sifatida jamiyat a'zolarining hammasiga teng xizmat qiladigan asosiy fikr ifodalash vositasidir. Tilning kommunikativ, ekspressiv va akkumulyativ vazifalari haqida. Til nasldan naslga, avloddan avlodga o'tadigan irsiy hodisa emas, balki jamiyat taraqqiyotining mahsuli ekanligi. Bolaning qaysi tilda so'zlay boshlashi uni o'rab turgan til muhitiga bog'liqligi.

Adabiyotlar:

1. Tilshunoslikka kirish" ma'ruzalar matni, 133-135-bet
2. Содиқов А., Абдуазизов А., Ирискулов М. Тилшуносликка кириш. Т., "Ўқитувчи", 1981; 21-23-betlar
3. Ирискулов М. Тилшуносликка кириш. Т., "Ўқитувчи", 1992; 19-20-betlar

4. Tillarning bir-biriga ta'siri. Til hamisha rivojlanishdagi hodisa sifatida boshqa tillarga o'zaro ta'sir qilishi yoki tashqi ta'sirga uchrashi. Ilm-fan va texnika taraqqiyoti, savdo-sotiq, madaniy va maishiy aloqalar, hattoki, urush va bosqinlar ham tilga o'z ta'sirini o'tkazishi. Lisoniy ta'sir xususiyatlarning tillardagi ko'rinishi. Tillarning bir-biriga o'zaro ta'siri tillarning chatishuvi va belingvizm hodisalariga sabab bo'lishi. Bilingvizm tushunchasi. Tillarning o'zaro ta'siri tufayli tilning fonetik, leksik va grammatik tizimida ma'lum o'zgarishlar sodir bo'lishi. Til taraqqiyoti uning tashqi va ichki omillariga bog'liqligi. Bu omillar til taraqqiyoti sistemasini, zanjirini hosil qilishi.

Adabiyotlar:

1. Tilshunoslikka kirish" ma'ruzalar matni, 134-136-bet
2. Содиқов А., Абдуазизов А., Ирискулов М. Тилшуносликка кириш. Т., "Ўқитувчи", 1981; 22-25-betlar
3. Ирискулов М. Тилшуносликка кириш. Т., "Ўқитувчи", 1992; 20-22-betlar

3-mashg'ulot. Til, lison va nutq faoliyati

Reja:

6. Bilish bosqichlari haqida.
7. Lison va nutqni farqlashning falsafiy asoslari.
8. Lison va nutq.
9. Lisoniy va nutqiy birliklar.

Bajarilishi:

1.Bilish bosqichlari haqida. Ilmiy bilish haqida. Fahmiy bilish. Fahmiy bilish haqida Navoiyning fikrlari. Nazariy bilish. Bilishning zaruriy bosqichi nuqtai nazaridan tilshunoslik taraqqiyotini baholash. (Xususan, o'zbek tilshunosligi).empirik tilshunoslik hamda nazariy tilshunoslik haqida.

Adabiyotlar:

1. Tilshunoslikka kirish" ma'ruzalar matni, 13-14-bet
2. Содиқов А., Абдуазизов А., Ирискулов М. Тилшуносликка кириш. Т., "Ўқитувчи", 1981; 211-212-betlar
3. Ирискулов М. Тилшуносликка кириш. Т., "Ўқитувчи", 1992; 20-22-betlar
4. Усмонов С. Умумий тилшунослик. Тошкент, 1972; 125-126
1. Неъматов Х., Бозоров О. Тил ва нутқ. Тошкент, 1993. 3-4
2. Неъматов Х., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. Тошкент, 1995; 5-7 - betlar

2.Lison va nutqni farqlashning falsafiy asoslari. Til va nutq hodisalariga o'zaro farqlab yondashishni dastlab VIII-IX asrlarda arab tilshunosligida, keyinchalik V.Humbold, A.Shteyntal, Boduen de Kurtene ta'limotlarida uchratamiz. Til bilan nutq hodisalarini va ularga xos birliklarni ilmiy va amaliy farqlash, shu tushunchalarni batamom yangi mazmunda qo'llanishida F.de Sossyur va uning izdoshlari yaratgan ta'limotning o'rnini. Lison va nutq munosabatiga dialektik, dialektika kategoriyalari nuqtayi nazaridan yondashish. Lison va nutq munosabatiga dialektikaning umumiylik va yakkalik, mohiyat va hodisa, imkoniyat va voqelik, sabab va oqibat munosabati asosida yondashish ya'ni til (lison) umumiylik, mohiyat, imkoniyat, sabab (UMIS) belgilariga, nutq esa yakkalik hodisa, voqelik, oqibat (YAHVO) belgilariga egaligi.

Adabiyotlar:

1. Tilshunoslikka kirish" ma'ruzalar matni, 14-15-bet
2. Содиқов А., Абдуазизов А., Ирискулов М. Тилшуносликка кириш. Т., "Ўқитувчи", 1981; 213-214-betlar
3. Ирискулов М. Тилшуносликка кириш. Т., "Ўқитувчи", 1992; 23-24-betlar
4. Усмонов С. Умумий тилшунослик. Тошкент, 1972; 127-128
1. Неъматов Х., Бозоров О. Тил ва нутқ. Тошкент, 1993. 3-6
2. Неъматов Х., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. Тошкент, 1995; 8-9 - betlar

